

TRAILBLAZER

**Avtomobildan
foydalanish qo'llanmasi**

ALBATTA FAQAT OKTAN SONI 91 BO'LGAN ETILLASHTIRILMAGAN YONILG'IDAN FOYDALANING!



Mazkur avtomobilning dvigateli avtomobil ixtiroolari sohasida eng oxirgi yutuqlarga muvofiq loyihalashtirilgan va qurilgan.

Bu model iqtisodiy, texnik takomillashtirilgan va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga muvofiq.

Dvigatelni o'rnatilgan tartibda ishlashi uchun faqat 91 dan past bo'lmagan oktan sonli noetillangan yuqori

sifatli yoqilg'ini qo'llang.

"AVTOMOBILNI HAYDASH VA BOSHQARISH - Yonilg'i" bo'limiga qarang (8-35-betlar).

Boshqa turdagi yoqilg'ilarni qo'llash avtomobilning ishlatish xususiyatlarini yomonlashtirilishiga olib kelishi va kafolatni bekor qilinishi sababi bo'lib qolishi mumkin!

SO'Z BOSHI

Mazkur Qo'llanma "UzAuto MOTORS" AJ tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobil tuzilishi, ishlashi va texnik xizmat ko'rsatilishi bilan avtomobil egasini tanishtirish uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma avtomobilni xavfsiz va uzoq muddatda ishlatilishi haqidagi muhim ma'lumotlarni saqlaydi. Biz mazkur Qo'llanmani diqqat bilan o'rganib chiqish va unda saqlanadigan barcha tavsiyalarga rioya etishni Sizga qat'iy maslahat beramiz. Bu avtomobilni, uning agregatlarini va tizimlarini xizmat qilishining butun muddati davomida to'laligicha xavfsiz, ishonchli ishini ta'minlaydi.

Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni o'tkazish uchun kerakli darajada texnik xizmat ko'rsatishning barcha operatsiyalarini o'tkazilishi ta'minlashi mumkin bo'lgan malakali xodimlar va texnologik asbob-uskunalarga ega bo'lgan "UzAuto MOTORS" AJning vakolatli servis stansiyalariga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz. "UzAuto MOTORS" AJning vakolatli servis stansiyalarida Siz O'zingizga va O'z avtomobilingizga eng e'tiborli va manfaatli munosabatni uchratasiz.

Fursatdan foydalanib, Siz qilgan tanlov uchun Sizdan minnatdormiz. "UzAuto MOTORS" AJ kelajakda ham Sizning tanlovingizni oqlash uchun qo'lidan keladigan barcha imkoniyatlarni qilish istagida.

Mazkur Qo'llanmani, agar unga zarurat tug'ilib qolganda, u doimo qo'l ostida bo'ladigan tarzda avtomobilda saqlashni tavsiya qilamiz. Avtomobilni qayta sotishda Qo'llanmani yangi egasiga berishni unutmang!



AVTOMOBILINGIZ MA'LUMOTLARI

Yonilg'i

Tamg'alanishi

Dvigatelning moyi

Rusumi

Quyishqoqligi

Shinalarda havo bosimi

Shinalarning o'lchami

Oldingi

Orqa

Vazni

Avtomobilning to'liq massasi

- Jihozlangan massasi, bazaviy modeli

= Yuklash

AVTOMOBIL EGASINING DIQQATIGA

Avtomobilning texnik ma'lumotlari

O'z avtomobilingizning ma'lumotlari oson erishimli bo'lishi uchun ularni oldingi sahifada kiriting. Ushbu ma'lumotni "Texnik xizmat ko'rsatish" va "Texnik ma'lumotlar" bo'limlarida, hamda avtomobilning pasport jadvalchasida topish mumkin.

Kirish

Sizning avtomobilingiz o'zida ilg'or texnologiyalarni, xavfsizlikni, ekologiyani va tejamkorlikni maqbul tarzda birlashtiradi.


Mazkur qo'llanma avtomobilni xavfsiz va samarali ishlatilishi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni saqlaydi.

Yo'lovchilar ham avtomobilni ishlatish qoidalariga rioya etmaslik holatida YTX xavfi va jarohat olish haqida xabardor qilingan bo'lishlari kerak.

O'zingiz bo'lgan mamlakatda amaldagi qonunchiligi va me'yorlari talablariga albatta rioya qiling. Ushbu talablar mazkur qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlardan farqlanishi mumkin.

Chevroletning barcha dilerlari zavod yo'riqnomalarini qo'llash bilan ishlaydigan malakali avtochilangarlarning kuchlari bilan a'lo darajali xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Ishlatish bo'yicha qo'llanmani undan har qanday payt oson foydalanish mumkin bo'lishi uchun buyumlar bo'linmasida saqlash kerak.



Mazkur qo'llanmadan qanday foydalanish kerak


• Mazkur qo'llanmada ushbu modelning barcha opsiyalari va asbob-uskunalari ta'riflangan. **Menyuning alohida elementlari va funksiyalari ta'rifi turli mintaqalar uchun modifikatsiyalar va bajarishlarning farqlanishi, hamda qo'shimcha asbob-uskunalar va aksessuarlarning mavjud bo'lmashligi yoki mavjudligi sababli sizning avtomobilingizga nisbatan qo'llanilmasligi mumkin.**

- Dastlabki qisqacha ma'lumotlarni "Qisqacha" bobida topish mumkin.
- Ma'lumotlarning joylashishi Qo'llanmaning boshidagi Mundarijada va har bir bobning boshida keltirilgan.
- Raqobatli ma'lumotlarni alifbo ko'rsatkichi yordamida topish mumkin.
- Mazkur qo'llanmada chap tomonlama rul boshqaruvida bo'lgan avtomobillar ta'riflangan.
- Mazkur ishlatish bo'yicha Qo'llanmada zavod belgilanishlari qo'llaniladi, ularni "Texnik ma'lumotlar" bobida topish mumkin.
- Yo'nalish ko'rsatkichlari, masalan chapga-o'nga yoki oldinga-orqaga, har doim harakat yo'nalishiga nisbatan keltiriladi.
- Ushbu avtomobilning ekran displeylari Sizning ona tilingizni qo'llamasligi mumkin.
- Displeyda aks ettiriladigan xabarlar, va avtomobil salonidagi yozuvlar qo'llanmaning matnida qora shrift bilan ajratib ko'rsatilgan.


AVTOMOBIL EGASI DIQQATIGA

XAVFLI, OGOHLANTIRISH VA E'TIBOR

XAVFLI

 XAVF belgilangan matn o'lim oqibatlarini xavfi bilan bog'liq ma'lumotlarni saqlaydi. Ushbu ma'lumotlarni nazarga olmaslik hayot uchun xavfli bo'lib qolishi mumkin.

OGOHLANTIRISH

 OGOHLANTIRISH bilan belgilangan matn baxtsiz hodisa yoki jarohatning xavfi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotni saqlaydi. Ushbu ma'lumotlarni nazarga olmaslik jarohat olishning sababi bo'lib qolishi mumkin.

DIQQAT!

DIQQAT matni bilan belgilangan matn avtomobil shikastlanishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi. Ushbu ma'lumotlarni nazarga olmaslik avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Belgilar

Ma'lum betga havolalar ↪ bilan belgilanadi.
↪ "betga qarang" degan ma'noni bildiradi.

«AVTOMOBILNI HAYDASH VA BOSHQARISH - Yonilg'i» bobiga, **8-35 betidagi** bo'limidagi ishlatiladigan yonilg'ining turiga alohida e'tibor bering.

Yonilg'i



Avtomobilni 91 va undan yuqori oktan sonli noetillangan benzin bilan tadqiqotchilik usuli bo'yicha to'ldiring. Avtomobilni nosoz holga keltirish va yonilg'ini ortiqcha sarflanishidan saqlanish maqsadida oktan soni ko'rsatilgandan past bo'lgan benzindan foydalanmang. Qarang Yonilg'i ↪ 8-35

MUNDARIJA

1. Kalitlar, eshiklar va oynalar	1-1
2. O'rindiqlar, himoya tizimlari	2-1
3. Saqlash uchun joylar	3-1
4. Boshqaruv uskunalari va organlari	4-1
5. Yoritish	5-1
6. Axborot-ko'ngilochar tizimi	6-1
7. Iqlim-nazoratini boshqarish organlari	7-1
8. Avtomobilni haydash va boshqarish	8-1
9. Avtomobilni parvarishlash	9-1
10. Servis va texnik xizmat ko'rsatish	10-1
11. Texnik ma'lumot	11-1

1

KALITLAR, ESHIKLAR VA OYNALAR

- KALITLAR VA QULFLAR 1-2
- ESHIKLAR1-8
- AVTOMOBILNI HIMOYALASH 1-9
- TASHQI KO'ZGULAR 1-11
- ICHKI KO'ZGULAR 1-12
- OYNALAR 1-13

KALITLAR VA QULFLAR

Kalitlar

Kalitlarni almashtirish

Agar sizga ehtiyot kaliti va uni faollashtirish uchun kod zarur bo'lsa, ularni Chevrolet dileri orqali so'rab olish mumkin.

"Qulflar" bo'limini Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash bo'limida ☎ 9-48 ko'ring

Taxlanuvchan kalit



Kalitni itarib chiqarish uchun, tugmaga bosing. Kalitni taxlash uchun, avval tugmani bosing, shundan so'ng uni taxlang.

⚠ XAVFLI

Agar avtomobil salonida qarovsiz bolalar qoldirilgan bo'lsa, kalitni o't oldirish qulfiga yoki oddiygina avtomobil saloni qoldirmang. Bunday mas'uliyatsiz xulq bolalarning va atrofdagilarning hayoti uchun xavf keltiradigan holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kalit avtomobilning ko'pgina funksiyalarini boshqarish, jumladan uni harakatga keltirish imkoniyatlarini beradi.

Avtomobilni masofadan turib ishga tushirish



Agar ushbu funksiya jihozlanishda ko'zda tutilgan bo'lsa, u avtomobildan uzoqlashgan masofada ishga tushirishga imkon beradi.

🔑 (Avtomobilni masofadan turib ishga tushirish): Ushbu tugma, agar avtomobilda masofadan turib ishga tushirish funksiyasi mavjud bo'lsa, masofadan boshqarish brelogida jihozlangan.

Dvigatelni masofadan turib ishga tushirishda iqlim-nazorati tizimi o't oldirish oxirgi o'chirilgan paytda ishlagan tartibda yoqiladi. Agar atrofdagi havoning harorati past bo'lsa, dvigatelni masofadan turib ishga tushirishda orqa oynaning isitgichi yoqilishi mumkin.

Bunda orqa oynaning isitgichi indikator (hamma jamlanmada erishimli emas) yoqilmaydi.



Ba'zi sohalardagi qonunchilik masofadan turib ishga tushirish brelogidan foydalanishni cheklaydi. Masalan, ba'zi qonunlarga binoan, masofadan turib ishga tushirishni amalga oshirayotgan odam avtomobilni ko'rib turishi kerak. Mahalliy qonunchilikda ko'rilayotgan mavzuga taalluqli bo'lgan biron bir talablar yo'qligini tekshiring.

Agar bakdagi yoqilg'ining darajasi past bo'lsa, dvigatelni masofadan turib ishga tushirish funksiyasidan foydalanish lozim bo'lmaydi. Avtomobilda yonilg'i tugab qolishi mumkin.

Brelokning ishga boshqa omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Masofadan boshqarish radiobrelogi bo'limini ko'ring ⇨ 1-4.

Dvigatelni ishga tushirish

Radiobrelok yordamida dvigatelni masofadan turib ishga tushirish uchun:

1. Radiobrelokni avtomobilga yo'naltiring.
2.  tugmani bosing va qo'yib yuboring.
- 3.2-bandda ta'riflangan harakatlarni bajarilishini yakunlab, darhol tugmaga bosing  va uni kamida to'rt soniya yoki burilish ko'rsatkichlari millitlashni boshlagunga qadar ushlab turing. Burilish ko'rsatkichlarining millitlashi dvigatelning masofadan ishga tushirilishiga komanda olinganligini tasdiqlaydi. Dvigatel yoqilgandan so'ng, turish chiroqlari yonishni boshlaydi. Ular toki dvigatel ishlab turishida har doim yonib turadi. Eshiklarning qulflari bloklanada, va iqlim-nazorati tizimi yoqilishi mumkin.

Dvigatel 15 minut davomida ishlab turadi. Dvigatelni yana 15 minutga yoqish uchun ta'riflangan harakatlarni takrorlang. Masofadan turib ishga tushirishdan so'ng dvigatelni ishlash vaqtini faqat bir marta uzaytirish mumkin.

Agar avtomobilga o'tirishda dvigatel ishlayotgan bo'lsa, o't oldirish qulfini yoqilgan holatga burang. Agar avtomobilga o'tirishda dvigatel ishlamayotgan bo'lsa, dvigatelni odatdagidek ishga tushiring.

Dvigatel ishlash vaqtini uzaytirish

Dvigatelni yana 15 minutga yoqilgan holatda qoldirish uchun, toki dvigatel ishlashni davom ettirayotganda, 1.3-bandostida ta'riflangan harakatlarni takrorlang. Radiobrelok yordamida dvigatelning ishlash vaqtini bir marta uzaytirish mumkin.


Masofadan turib ishga tushirilgan dvigatelning ish vaqtini uzaytirishda qo'shimcha 15 minut jamlanadi, shuning uchun dvigatelning umumiy ishlash vaqti 30 minutni tashkil qiladi. Dvigatelning ishlash vaqtini ishga tushirilgandan kamida 30 soniya o'tgandan keyin uzaytirish mumkin.

O't oldirish sikllari orasida maksimum ikki masofadan turib ishga tushirishni yoki ish vaqtini bir marta uzaytirish bilan masofadan turib ishga tushirishning bir imkoniyatini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Radiobrelok yordamida dvigatelni ishga tushirish imkoniyatidan faqat o't oldirish yoqilishi, so'ngra esa qayta o'chirilishidan keyingina qayta foydalanish mumkin.

Dvigatelni masofadan turib ishga tushirish muolajasini to'xtatish

Dvigatelni masofadan turib ishga tushirish muolajasini to'xtatish uchun quyidagi harakatlardan istalganini bajaring:

- Masofadan turib boshqarish radiobrelogini avtomobil tomonga yo'naltiring va  tugmani bosing va ushlab turing, toki turish chiroqlari o'chmagunicha.
- Avariya chiroqli signalizatsiyani yoqing.
- O't oldirishni yoqing yoki o'chiring.

Masofadan turib ishga tushirish ishlamaydigan sharoitlar

Dvigatelni masofadan turib ishga tushirish funksiyasi ishlamaydi, agar:

- Kalit o't oldirish qulfiga joylashtirilgan bo'lsa.
- Kapot yopilgan bo'lsa.
- Avariya chiroqli signalizatsiya yoqilgan bo'lsa.
- Nosozliklarni ko'rsatkichlarining nazorat lampalari yonib turgan bo'lsa.
- Dvigatelni sovituvchi suyuqligining harorati juda yuqori bo'lsa.
- Moy past bosimda bo'lsa.
- Dvigatelni masofadan turib ishga tushirish ikki marta yoki bir marta ish vaqtini uzaytirish bajarilib bo'lingan bo'lsa.
- Avtomobilda uzatmalar qutisi P (To'xtab turish) tartibi yoqilmagan bo'lsa.

Masofadan boshqarish radiobrelogi



Kalitni qo'llamasdan quyidagi funksiyalarni boshqarishga imkon beradi:

- Markaziy qulf, qarang Markaziy qulf ⇨ 1-5
- Olib qochishga qarshi signalizatsiya. Olib qochishga qarshi signalizatsiya ⇨ 1-9

Masofadan boshqarish pultining ish kengligi taxminan 20 metrni tashkil qiladi. Qulflarning bloklanishi bir marta avariya nurli signalizatsiyaning yoqilishi, blokdan chiqarilishi esa - ikki marta yoqilishi bilan tasdiqlanadi.

Pult bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, namlik va yuqori haroratdan himoyalash, zarurat bo'lmaganida qo'llamaslik kerak.

To'xtalish

Agar pult yordamida markaziy qulf bilan boshqarish imkoni bo'lmasa, nosozlik sababi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Pultning ta'sir uzoqligi oshirib yuborilgan.
- Pultning batareyasini quvvati ruxsat etilgandan pastga tushib ketgan.
- Brelokni uning ta'sir kengligidan tashqarida tez-tez yoqilgan.
- Tez-tez yoqish va o'chirishda markaziy qulf ortiqcha yuklanadi, bunda uning elektr quvvati qisqa muddatga uzilishi mumkin.
- Tashqi manbalardan kuchli elektr magnit to'siqlar.
- Kalit o't oldirish qulfiga joylashtirilgan.

Markaziy qulf bo'lmiga qarang ⇨ 1-5.

Masofadan boshqarish radiobrelogining batareyasini almashtirish

Radiobrelokning ta'sir kengligi pasayishni boshlashi bilanoq uning batareykasini almashtiring. Akkumulyatorni quvvatlash zaruratiga avtomobilning Avtomobilning axborot xabarlarlari ⇨ 4-18 xabarlarlari ko'rsatadi.



1. Pultning qopqog'ini oching.
 2. Ishlatilgan batareykani chiqarib oling. Bosma platasini boshqa komponentlar bilan aloqa qilishiga yo'l qo'ymang.
 3. Yangi batareykani o'rninging. O'rnatish vaqtida batareykani manfiy kontakti (-) plataga pastga qaratilgan bo'lishi kerak.
 4. Pultning qopqog'ini yoping.
 5. Masofadan boshqarish pultining ishini avtomobilida tekshiring. Batareykalarni mahsus to'plash shahobchalariga utilizatsiyaga topshirish kerak.
- Almashtirish uchun CR2032 (yoki shunga o'xshash) batareykani ishlatning.

Radiobrelokni almashtirish

Agar sizga ehtiyot radiobrelogi va uni faollashtirish uchun kod zarur bo'lsa, Chevrolet dileriga murojaat qiling.

Mexanik eshik qulflari**Ichkaridan qulflash**


Muvofiq eshikning qulfini qo'shimcha bloklash tugmasiga bosing. Muvofiq eshikning qulfi bloklanadi.

Haydovchi eshigining qulfini faqat eshik yopilganidan keyingina bloklash mumkin. Shu bilan avtomobilda kalitning unutilib qoldirilish xavfi istisno qilinadi. Biroq, agar ochiq eshiklarda qulflarni qo'shimcha bloklash tugmasini cho'ktirib qo'yilsa, markaziy qulf

qulflarni blokdan chiqaradi, shuning uchun bloklash bajarilmaydi.

Izoh

Agar bloklashni doimo yoqilsa yoki o'chirilsa, uning ishi buzilishi mumkin.

Tashqaridan qulflash

Kalitni soat strelkasi bo'yicha aylantiring. Haydovchi eshigining qulfi bloklanadi.

Blokdan chiqarish

Kalitni soat strelkasiga teskari aylantiring. Haydovchi eshigining qulfi blokdan chiqariladi. Qolgan eshiklarning qulflarini blokdan chiqarish uchun ichki tomondagi bloklash tugmasini torting.



Izoh

Ob-havoning sovuq vaqtida avtomobilni yopish yoki qulflash qulfnig muzlab qolishi sababli imkoniyatsiz bo'lishi mumkin. Bunday holatda qulfga asta-sekin taqillating yoki kalitni isiting.

Markaziy qulf

Yon tomon eshiklarini va yukxona bo'linmasining orqa eshigini bloklash va blokdan chiqarish uchun qo'llaniladi. Agar qulfnig qo'shimcha bloklash tugmasi bosilgan vaqt eshikning ichki tutqich tortilsa, eshikning qulfi blokdan chiqarilmaydi.

Blokdan chiqarish**Masofadan boshqarish radiobrelogi**


Barcha yon tomon eshiklarini va yuxkxona bo'linmasining orqa eshigini qulflarini blokdan chiqarish uchun bir marta  ga bosing. Barcha oynalarni avtomatik ochish uchun  tugmani bosing va ushlab turing.

Qulflash

Masofadan boshqarish radiobrelogi

Barcha yon tomon eshiklarini va yuxkxona bo'linmasining orqa eshigini yoping.



Barcha yon tomon eshiklarini va yuxkxona bo'linmasining orqa eshigini qulflarini blokdan chiqarish uchun  ni bosing. Avariya signallashtirish chiroqlari bir marta millitlaydi, ochilgan barcha oynalar avtomatik yopiladi.

Blokdan va blokdan chiqarish funksiyalarini (muvofig jamlanmada) axborot-ko'ngilochar tizimining menyusida sozlash mumkin.

Markaziy qulf tugmalari


Barcha yon tomon eshiklarining va yuxkxona bo'linmasining orqa eshigini qulflarini bloklaydi va blokdan chiqaradi.




Yopish uchun  ni bosing.
Ochish uchun  ni bosing.


Masofadan boshqarish radiobrelogining yoki elektron kalitning to'xtashi

Blokdan chiqarish



Kalitni soat strelkasi bo'yicha aylantirib, qo'lda haydovchi eshigini blokdan chiqaring. Olib qochishga qarshi signalizatsiyani o'chirish uchun o't oldirishni yoqing va barcha yon tomon eshiklarining va yuxkxona bo'linmasining orqa eshigini qulflarini blokdan chiqarish uchun,  markaziy qulfnig o'chirgich tugmasiga bosing.

Qulflash

Barcha eshiklarni yoping, barcha yon tomon eshiklarining va yuxkxona bo'linmasining orqa eshigini blokdan chiqarish uchun markaziy bloklash  tugmasiga bosing. So'ngra qo'lda

haydovchi eshigini qulfini blokdan chiqaring va uni kalit yordamida tashqaridan bloklang.

Markaziy qulf nosozligi

Blokdan chiqarish

Kalitni soat strelkasi bo'yicha aylantirib, haydovchining eshigini qo'lda blokdan chiqaring. Qulfni qo'shimcha bloklash tugmasini oldindan tortib chiqarib, ichki tutqichlar yordamida boshqa eshiklarni ochish mumkin. Kalitni soat strelkasiga teskari aylantirib, qo'lda yo'lovchi eshigini qulfini blokdan chiqaring. Qulfni qo'shimcha bloklash tugmasini oldindan tortib chiqarib, ichki tutqichlar yordamida boshqa eshiklarni ochish mumkin.

Yukxona bo'linmasini eshigini ochish uchun, "Yukxona bo'linmasining orqa eshigini nosozliklari" bo'limidagi yo'riqnomani ko'ring. Yukxona bo'linmasi ⇨ 3-7 bo'limini ko'ring.

Qulflash

Barcha eshiklarni, haydovchining eshigidan tashqari, qulflarni qo'shimcha bloklash tugmasini bosib qo'ying. So'ngra haydovchining eshigini yoping va uni tashqaridan kalit yordamida qulflang. Agar oldingi eshiklar ochiqligida qulflarni qo'shimcha bloklash tugmasi bosib qo'yilsa, markaziy qulf qulflarni bloklaydi, shuning uchun bloklash bajarilmaydi. Shu bilan avtomobilda kalitni unutib qoldirish xavfi istisno qilinadi.

Eshiklarning qulflarini avtomatik qulflash

Ostona tezligini oshirishda qulflarni avtomatik bloklash (MYUO'Q)

Ushbu funksiya avtomobil tomonidan tezlik 15 km/soatga erishganida barcha eshiklarning qulflarini avtomatik bloklab, qo'shimcha xavfsizlikni ta'minlaydi.

Avtomobil to'xtaganidan va kalit o't oldirish qulfidan chiqarib olingandan keyin, qulflar avtomatik blokdan chiqariladi.

Eshiklarni avtomatik takroran qulflash

Barcha eshiklarning qulflari 3 minut o'tgandan keyin, agar ushbu vaqt davomida eshiklardan biron biri ochilmasa yoki kalit **ACC** yoki **RUN** holatiga o'rnatilmasa, ular takroran bloklanadi.

Bloklashni himoyalash



Orqa eshiklarning qulflari ichkaridan tutqich orqali ochishdan qo'shimcha bloklanishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!


Agar orqa o'rindiqa bolalar bo'lsa, bolalardan qulfini bloklashdan foydalaning.

Eshik qulfining ichki tutqichini bloklash uchun, kalitni tirqishga joylashtiring va strelka bilan ko'rsatilgan yo'nalishda aylantiring. Eshiklar ichkaridan ochilmaydi.

Eshik qulfining ichki tutqichini blokdan chiqarish uchun, kalitni tirqishga joylashtiring va qarama-qarshi yo'nalishda aylantiring. Eshiklarni yana ichkaridan ochish mumkin bo'ladi.

ESHIKLAR

Zinapoyalar (barcha jamlanmalarda ham emas)



Zinapoyalar bilan faqat ba'zi modifikatsiyalar jamlanadi.
Ular oldingi yoki orqa eshiklar orqali o'tirish vaqtida qo'shimcha tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Yukxona bo'limasi

Orqa ko'tarma eshik

Ochish



Raqam belgisi ostidagi tugmaga bosib va yukxona bo'linmasini eshigini oching.
Agar o't oldirishni yoqish paytida yukxona bo'linmasining orqa eshigi ochiq bo'lsa, haydovchining axborot markazi displeyida ogohlantiruvchi xabar paydo bo'ladi va zummer signali yoqiladi.
Yopilgan eshik to'g'risida Xabar bandini ko'ring.
↻ 4-19 va Markaziy qulf ↻ 1-5 bandlarni ko'ring.

⚠ **DIQQAT!**

Yukxona bo'linmasining ko'tarma eshigini ochayotganda eshikka hech narsa xalaqit bermasligi uchun va ochish uchun yetarlicha joy bo'lishini kuzating.


⚠ **XAVFLI**

Avtomobilni yukxona bo'linmasining eshigi ozingina ochiq yoki yopilmagan holatda haydamang, masalan, katta buyumlarni tashishda, chunki avtomobilga ko'rinmaydigan va hattoki hidga ega bo'lmagan toksik ishlangan gazlar kirishi mumkin. Ishlangan gazlar hushdan ketishni va hattoki o'limni chaqirishi mumkin.

Izoh


Yukxona bo'linmasining ko'tarma eshigiga og'ir aksessuarlarni joylashtirishda u ochiq holatda mahkamlanmasligi mumkin.

Yopish



Eshikni yopishda raqam belgisi ostidagi tugmani bosmang, chunki bu yana qulfni blokdan chiqarilishiga olib keladi. Markaziy qulf bo'limga qarang ↻1-5.

Nosozlik



Oziqlanish mavjud bo'lmaganligida yukxona bo'linmasining orqa eshigini qulfni blokdan chiqarish uchun, qulf qarshisidagi ichki qoplamni yechib oling. Mos keluvchi instrumentni iloji boricha chuqurroq kiring va qulfni blokdan chiqarish uchun uni soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga aylantiring.

AVTOMOBILNI HIMOYALASH


Olib qochishga qarshi signalizatsiya

Olib qochishga qarshi signalizatsiya quyidagilarni nazorat qiladi:


- Eshiklar
- O't oldirish
- Kapot
- Orqa ko'tarma eshik

Yoqish



- Signalizatsiya avtomobilning qulflarini bloklagandan so'ng (tizim initsializatsiyasi) yoki
- Qulflarni bloklagandan keyin radiobrelokdagi  tugmani takroran bosish bilan 30 soniya o'tib avtomatik yoqiladi.

Holat indikator nurdiodi



Holat indikatsiyasi nurdiodi asbob-uskunalar panelining tepa qismida joylashgan datchikka o'rnatilgan.

Olib qochishga qarshi signalizatsiya yoqilgandan keyin birinchi 30 soniya davomida Holat indikatsiyasi:

Nurdiodi yoqilgan: tekshirish, yoqilishning tutilishi.

Nurdiodi tez-tez miltillamoqda: yon tomon eshiklar, yukxona bo'linmasining orqa eshigi yoki dvigatel kapoti yopilgan yoki tizim ishida uzilish.

Tizim yoqilganidan so'ng holat indikatsiyasi:

Nurdiodi sekin miltillamoqda: tizim yoqilgan. Uzilishlar vujudga kelish holatida yordam uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

O'chirish



Avtomobil qulflarini  tugmani bosish orqali blokdan chiqaring .

Signalizatsiya


Signalizatsiya ishlagan vaqtda 30 soniyaga ovozli signal va tashqi yoritish uskunalari yoqiladi (chaqnash tartibida).

Agar yoqilgan signalizatsiyada qulfga kalitni o'rnatib, uni blokdan chiqarilganda, signalizatsiyani o'chirish uchun 10 soniya davomida o't oldirishni yoqish zarur. Keskin ovozli signal yoqiladi.

Agar avtomobil egasi yo'q bo'lgan davrda olib qochishga qarshi signalizatsiya ishlaganida, uni o'chirishda ovozli uskuna 3 marta qisqa signal jaranglaydi va 3 marta yoritgich

miltillaydi. avariya signalizatsiyasi amalga oshirilgan buzishga ko'rsatadi.

Eshikni ochishda signalizatsiyaning takroran ishlashi yoki boshqa signalni kelishi signalizatsiyani o'chirgandan keyin faqat 30 soniya o'tibgina imkoniyatli.

Olib qochishga qarshi signalizatsiya tizimini faqat  tugmani bosib yoki o't oldirishni yoqish bilan o'chirish mumkin.

Signalizatsiyaning avtomatik takroran yoqilishi

Agar signalizatsiya radiobrelok orqali o'chirilgandan keyin 3 minut davomida biron bir eshik ochilmaganida va o't oldirish kaliti ACC yoki RUN holatiga aylantirilmaganida, olib qochishga qarshi signalizatsiya avtomatik qayta yoqiladi.

Immobilyazer

O't oldirish qulfiga o'rnatilgan tizim qo'llanilayotgan kalit yordamida dvigatelni ishga tushirish ruxsat etilganligini tekshiradi. Agar kalit transponderi aniqlangan bo'lsa, dvigatelni ishga tushirish ruxsat etiladi.

Ushbu avtomobil passiv olib qochishga qarshi tizim bilan jihozlangan. Bu tizimni qo'lda o'rnatish yoki signalizatsiyadan yechish kerak emas.

Immobilyazer dvigatel o'chirilganda avtomatik yoqiladi. O't oldirish yoqilganida olib qochishga qarshi tizim avtomatik o'chadi. Olib qochishga qarshi tizimni yoqish yoki o'chirish bilan

muammolar mavjudligida asbob-uskunalar majmuasida olib qochishga qarshi tizimning nosozligi signallagichi yorishadi.

Avtomobilni ishga tushirishga urinishda xavfsizlik tizimi lampochkasi o't oldirish yoqilish vaqtida qisqa vaqtga yorishadi. Agar dvigatel ishga tushmayotgan bo'lsa, lampochka esa yorishib turishda davom etayotgan bo'lsa, tizimda nosozlik mavjud. O't oldirishni o'chiring va qayta urinib ko'ring. Agar dvigatel baribir ishga tushmayotgan bo'lsa, kalit esa tashqi ko'rinishidan shikastlanmagan bo'lsa, boshqa o't oldirish kalitidan foydalanib ko'rishga urinib ko'ring. Saqlagichni tekshirib ko'rish talab etilishi mumkin. Agar dvigatel boshqa kalitdan baribir ishga tushirilmayotgan bo'lsa, avtomobil xizmat ko'rsatishga ehtiyojmand bo'ladi. Agar dvigatel ishga tushirilgan bo'lsa, birinchi kalit nosoz bo'lishi mumkin. O'z dileringizga murojaat qiling.

Avtomobilning olib qochishga qarshi tizimi bilan ishlash uchun yangi yoki ehtiyot kalitlarni dasturlashtirish mumkin. Hammasi bo'lib sakkiztagacha kalitlarni dasturlashtirish mumkin. Olib qochishga qarshi tizimni o'chiradigan yoki faolsizlashtiradigan kalitlarni yoki qurilmalarni avtomobilda qoldirmang. O'z avtomobilingizni o't oldirish kalitini nusxasini yasattirish uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Izoh

Immobilayzer eshiklarning qulflarini bloklamaydi. Shuning uchun avtomobildan chiqqandan so'ng avtomobilni har doim qulflash va olib qochishga qarshi signalizatsiyani yoqish zarur. Mexanik eshik qulflari bandiga ⇨ 1-5 va Olib qochishga qarshi signalizatsiya bo'limiga ⇨ 1-9 qarang.

Immobilayzer signallagichi bo'limini ⇨ 4-16 ko'ring.

TASHQI KO'ZGULAR

Manzarali toshoynalar



DIQQAT!

Obyektlar, masalan, boshqa avtomobillar, manzarali toshoynalarda ular haqiqatda bor bo'lgan joyga qaraganda uzoqroq ko'rinadi.

Manzarali ichki toshoyna o'lik zonalarni kichraytiradi. Bunda toshoynadagi obyektarning tasviri kichrayadi, bu ulargacha bo'lgan masofani aniqlash imkoniyatini qiyinlashtiradi.

Elektr uzatmali toshoynalar



Haydovchi yoki yo'lovchining toshoynasini tanlash uchun, toshoynalarni tanlash o'zgartirgichini **L** (chap) yoki **R** (o'ng) holatga o'zgartiring. O'chirgichning chetlariga bosib, toshoynalarning holatini sozlang.

Taxlanuvchi toshoynalar

Elektr uzatma yordamida (muvofiq jamlanmada)



Toshoyalarni (chap yoki o'ng) tanlash o'zgartirgichini neytral holatga o'rnatib ●, so'ngra esa holatni sozlash o'chirgichining pastki chetiga bosib. Bunda tashqi toshoyalarning ikkisi ham taxlanadi. O'chirgichning pastki chetiga takroran bosishda ikkala toshoyna dastlabki holatga qaytadi. Agar toshoyalarning biri qo'lda yoyilgan yoki taxlangan bo'lsa, ikkinchi toshoynani elektr uzatma yordamida yoyish yoki taxlash mumkin.

Buning uchun holatni sozlagich o'chirgichini pastki chetini bosish zarur bo'ladi.

Izoh

Agar toshoyalarning ikkisi taxlangan bo'lsa, toshoyalarni yoyish uchun harakatlanishni boshlashdan avval o'chirgichga bosib.


⚠ OGOHLANTIRISH!

Toshoyalarning o'rnatilgan tarzda sozlanishini albatta kuzatib boring va atrofdagi obyektlarni va avtomobillarni ko'rish uchun haydashda ulardan foydalaning. Orqani ko'rish tashqi toshoynalar taxlangan holatda avtomobilni ishlatish taqiqlanadi.

ICHKI KO'ZGULAR

Orqani ko'rish mexanik toshoynasi

Qo'lda sozlanadigan qorong'ulashtirilgan toshoynalar



⚠ DIQQAT!

Orqani ko'rish ichki toshoynasi to'rtta yo'nalishda burilishi mumkin, shuning uchun ehtiyot bo'ling va quyoshdan himoyalovchi soyabonlarga teginib ketmaslikka harakat qiling. Barcha toshoyalarni avtomobilni boshqarish uchun eng qulay holatlarda joylashtiring.

Shu'lalarni kamaytirish uchun toshoynaning korpusini pastki qismidagi dastakni torting.

OYNALAR

Orqani ko'rish toshoynalarida shu'lalarni avtomatik yutib yuborish tartibi (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)



Tungi sharoitlarda orqada kelayotgan avtomobillarning faralar yorug'ligidan shu'lalarni avtomatik pasaytiradi.

Elektr oyna ko'targichlari



Elektr oyna ko'targichlarini qo'llashda e'tiborli bo'ling. Ularning ishlashida jarohatlanish, ayniqsa bolalarning jarohatlanishi ehtimoli bor.

Agar orqa o'rindiqlarda bolalar joylashgan bo'lsa, elektr oyna ko'targichlari uchun bolalar xavfsizligi tizimini yoqing.

Oynalarni yopayotganda ehtiyot bo'ling. Siqilib qolishi mumkin bo'lgan buyumlarning mavjud emasligiga ishonch hosil qiling.

Elektr oyna ko'targichlari quyidagilarda ishlaydi:

- O't oldirishni yoqqanda.
- O't oldirish kalitini 1-holatga (o'chirishga) o'tkazishdan keyin 10 minut davomida.

O't oldirish o'chirilgandan so'ng har qaysi eshikni ochishda oyna ko'targichlar ishlashdan to'xtaydi.



Oynani ko'tarish yoki tushirish uchun, oyna ko'targich o'chirgichi tugmasini torting yoki bosing. Haydovchi eshigining oyna ko'targichi o'chirgichi mexanizm ishlashining tayyorligiga ko'rsatadigan ulagichning o'rnatilgan yoritgichiga ega.

Bosimni pasaytirish

Oldingi eshiklarni yopilishi uchun kuchni pasaytirish uchun, eshikni yopish jarayonida oyna ozgina tushadi.

Oyna ko'targichini bir teginishda boshqarish

Oynani avtomatik to'liq tushirish uchun, o'chirgichni oxirigacha tushirish kerak. Oynani avtomatik to'liq yopish uchun, o'chirgichni oxirigacha ko'tarish kerak. Avtomatik tartibda, hattoki agar o'chirgichni qo'yib yuborilsa ham, oyna to'liq ochiladi yoki yopiladi.

Avtomatik tushayotgan yoki ko'tarilayotgan oynani zarur bo'lgan holatda to'xtatish uchun, muvofiq tarzda tepaga tugmasini torting yoki unga bosing va so'ngra qo'yib yuboring.

Elektr oyna ko'targichlarni initsializatsiyasi

12-voltli akkumulyator batareyasini klemmasini yoki razryadini tushirib yuborilgandan so'ng eshiklarning elektr oyna ko'targichlarini qaytadan initsializatsiyasi talab etilishi mumkin. Elektr oyna ko'targichini dasturlashtirish uchun: Avtomobilning akkumulyator batareyasini birinchi ulashda va har bir uzilishidan keyin elektr oyna ko'targichlarining intellektual tizimini initsializatsiyasini bajarish zarur. Haydovchining eshigidagi o'chirgichni qo'llab, quyida keltirilgan tartibga rioya qiling:

1. O't oldirishni yoqing (dvigatelni ishga tushirmasdan)

2. Oyna ko'targichining o'chirgichi tugmasini tepaga tiralgunga qadar torting va 2 soniya ushlab turing

3. Oyna ko'targichining o'chirgichini pastga tiralgunga qadar bosing va 2 soniya ushlab turing. Tugmani qo'yib yuborishda oyna avtomatik minimal balandlikgacha tushadi.

4. Qolgan oyna ko'targichlar bilan ham xuddi shu harakatlarni takrorlang

Diqqat! Akkumulyator batareyasi yoki oyna ko'targichini almashtirgandan so'ng, hamda boshqaruv blokini qayta o'rnatishdan keyin tizimni kalibrlanishini o'tkazish talab etiladi. Buning uchun o't oldirishni o'chirish va yuqorida ta'riflangan harakatlarni bajarish zarur

Siqilib qolishdan himoya funksiyasi

Haydovchining eshigi oynasining avtomatik tartibda ko'tarilish yo'lida to'siq aniqlangan holatda xavfsiz maqsadida oyna avtomatik ochiladi.



XAVFLI

Bir necha marta ishlashdan keyin tiqilib qolishni oldini olish o'chib qolishi mumkin. Oyna o'zgartirgichlaridan aniq maqsadsiz foydalanish lozim bo'lmaydi.

Siqilib qolishdan himoya funksiyasini o'chirish

Avariya holatida siqilib qolishdan himoya funksiyasi nazorat tartibida o'chirilgan bo'lishi mumkin. Oyna ishini boshqarish o'zgartirgichini ikkinchi holatga to'liq tortib chiqarib, uni ushlab turing. Toki siz o'zgartirgichni ushlab turguningizcha, oyna ko'tarilishda davom etadi. O'chirgichning tugmasini qo'yib yuborishdan so'ng bir teginish bilan boshqarish tartibi qayta yoqiladi. Bu tartibda oyna ko'targichi hattoki to'siq bilan uchrashganda ham ishlashni davom ettiradi. Oynaning tez ishlash tartibini o'chirishda ehtiyot bo'ling.




XAVFLI

Oynadan bosh, qo'llar va tananing boshqa qismlarini chiqarishda jarohat olish mumkin. Avtomobildan chiqib turmang. Bola elektr oyna ko'targichini bexosdan yoqib yuborishi va oyna bilan siqib qo'yilishi mumkin. Avtomobilda nazoratsiz kalitlarni yoki bolalarni qoldirish taqiqlanadi.

Elektr oyna ko'targichlarini noto'g'ri qo'llashda jiddiy yoki o'lim xavfi bo'lgan jarohatlarni olish ehtimoli bor.

Orqa oyna ko'targichlarini bloklash tizimi



Orqa eshiklarning elektr oyna ko'targichlarini bloklash uchun  ni bosib. Qolgan eshiklarning oyna ko'targichlarini boshqarilishini haydovchining eshigidagi o'chirgichlar bloki yordamida amalga oshirish mumkin.

Qayta yuklash

Oynalarni juda tez-tez ko'tarish va tushirishda, oyna ko'targichlarining elektr oziqlanishi bir qancha vaqtga o'chadi.

Elektr oyna ko'targichlarini initsializatsiyasi

Agar eshikning oynasini avtomatik tartibda yopish imkoniyati bo'lmasa (masalan, akkumulyator batareyasini o'chirishdan keyin), quyidagi harakatlarni bajarish orqali oyna ko'targichini boshqarish blokini faollashtirish lozim:

1. O't oldirishni yoqing (dvigatelni ishga tushirmasdan)
2. Oyna ko'targichining o'chirgichini pastga tiralgunga qadar bosib va 2 soniya ushlab turing
3. Oyna ko'targichining o'chirgichi tugmasini tepaga tiralgunga qadar tortib va 2 soniya ushlab turing
4. Qolgan oyna ko'targichlar bilan ham xuddi shu harakatlarni takrorlang.

Orqa oynani isitish



Elektron boshqarish



Qo'lda boshqarish

🔊 tugmani bosish orqali ishlaydi. Isitish faqat ishlayotgan dvigatelda yoqiladi va bir qancha vaqt o'tib yoki o'chirgichning tugmasini majburiy takroran bosish orqali avtomatik o'chiriladi. L E D indikatorini yoqilishi isitish yoqilgani haqida dalolat beradi.

⚠️ *DIQQAT!*

Orqa oynani tozalash uchun o'tkir instrumentlarni yoki oynalar uchun abraziv tozalash vositalarini qo'llamang. Oynani tozalash yoki orqa oyna yonida ishlarni o'tkazishda isitgichning o'tkazgichini tirnamaslik va shikastlamaslik uchun ehtiyotkorlikka rioya qiling.

Quyoshdan himoyalash soyabonlari



Quyoshdan himoyalash soyabonlari yorqin nur bilan ko'zni qamashtirishdan saqlanish uchun yon tomonga taxlanishi yoki o'g'irilishi mumkin. Quyoshdan himoyalash soyabonlarida katta bo'lmagan toshoynalar mavjud. Quyoshdan himoyalash soyabonidagi toshoynaning qopqog'i ochilishida yoritgich yoqiladi. Harakatlanish chog'ida toshoynalarning qopqoqlari yopilgan bo'lishi kerak.

⚠️ *OGOHLANTIRISH!*

Quyoshdan himoyalash soyabonlarini shunday tarzda o'rnatish kerak, ular yo'lni, transport vositalarini va boshqa obyektlarni ko'rish kengligini yopib qo'ymasligi kerak.

2

O'RINDIQLAR, HIMOYA TIZIMLARI

- BOSH TAGLIKLARI 2-2
- OLDINGI O'RINDIQLAR 2-3
- ORQA O'RINDIQLAR 2-7
- XAVFSIZLIK KAMARLARI 2-13
- ISHIRILADIGAN XAVFSIZLIK YOSTIQCHALARI TIZIMI2-16
- BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIK TIZIMLARI 2-24


BOSH TAGLIKLARI

Holati

OGOHLANTIRISH!

Faqat to'g'ri sozlangan bosh tagliklari bilan safar qiling. Bosh tagliklarini yechib olinishi yoki noto'g'ri sozlanishi to'qnashuv holatida bosh va bo'yinning og'ir jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

Haydashdan avval bosh tagliklari sozlanganligiga ishonch hosil qiling.



XAVFLI

Bosh tagliklari - bu sustkash xavfsizlik tizimining qismi. Safarni boshlashdan avval bosh tagliklarining holatini albatta sozlang.


XAVFLI

Bosh tagligining tepa hoshiyasi bo'yin darajasida emas, balki bosh cho'qqisi darajasida joylashgan bo'lishi kerak.

Agar bu imkonsiz bo'lsa, juda baland odamlar uchun bosh tagligini maksimal yuqoriga chiqarib qo'yish, bo'yi past odamlar uchun esa - uni eng past holatga tushirib qo'yish kerak.

Old o'rindiq bosh tagliklari

Balandlikni sozlash




Bosh tagligini tepaga ko'taring. Bosh tagligini tushirish uchun mahkamlagich tugmasini bosing va bosh tagligiga bosing.


Bosh tagligining balandligini sozlash uchun, uni tepaga torting.

Orqa o'rindiq bosh tagliklari

Ikkinchi qator o'rindiqlarida balandlikni sozlash




Bosh tagligini tepaga torting. Bosh tagligini tushirish uchun, mahkamlagichning tugmasiga bosish va bosh tagligiga pastga bosish zarur.



Bosh tagligini tepaga torting.
Bosh tagligini tushirish uchun,
mahkamlagichning tugmasiga bosish va bosh
tagligiga pastga bosish zarur.

Uchinchi qator o'rindiqlarida balandlikni sozlash



Bosh tagligini tepaga torting.
Bosh tagligini tushirish uchun,
mahkamlagichning tugmasiga bosish va bosh
tagligiga pastga bosish zarur.

OLDINGI O'RINDIQLAR

O'rindiq holati

 **OGOHLANTIRISH!**

Faqat to'g'ri sozlangan o'rindiqda safar qiling.



- Suyanchiqqa iloji boricha yaqin o'tiring. O'rindiq va tepkining orasidagi masofani shunday tarzda sozlanki, bunda tepkiga bosishda oyoqlar ozgina bukilgan bo'lishi kerak.
- Yo'lovchi o'rindig'ini imkon qadar orqaga suring.
- Yelkalar o'rindiqning suyanchig'iga imkon qadar yaqin bo'lishi kerak. O'rindiq suyanchig'ining qiyalik burchagini shunday tarzda sozlash kerakki, bunda qo'llar rul chamberagiga oson etishi va ozgina bukilgan

bo'lishi kerak. Rul chamberagini aylantirishda yelkalar o'rindiq suyanchig'iga suyanib turishi kerak. O'rindiq suyanchig'ini juda ham orqaga tashlab yuborishga yo'l qo'yilmaydi. Biz suyanchiqning qiyalik burchagi taxminan 25° dan oshmasligini tavsiya qilamiz.

- Rul chamberagini sozlang, Rul chamberagini holatini sozlash ⇨ 4-4 ni ko'ring.
- O'rindiqlarning shunday balandligini o'rnatish, bunda aylanma manzara va asbob-uskunalar yaxshi ko'rib turilishi ta'minlansin. Bosh va tomning qoplamasi orasidagi tirqish kaftdan kichik bo'lishi kerak. Yonbosh o'rindiqlari bostirmasdan, unga engil teginib turishi kerak.



OGOHLANTIRISH!

Haydash vaqtida nishabli o'rnatish xavfli bo'lishi mumkin. Hattoki agar siz kamar bilan qadalgan bo'lsangiz ham, xavfsizlik kamarlari siz orqaga tashlab o'tirganingizda yetarlicha himoyani ta'minlamasligi mumkin.

Yelka kamari o'z funksiyasini to'liq darajada bajarolmaydi, chunki u tanaga yopishib turgani yo'q. Buning o'rniga u Sizning oldingizga joylashgan. To'qnashuv holatida siz uning ustiga tushishingiz va bo'yin jarohatini yoki boshqa shikastlanishlarni olishingiz mumkin.

Kamar tepaga qarin ustiga siljib ketishi va ichki a'zolari jarohatlashi mumkin.

Harakatlanish vaqtida xavfsizlik maqsadida o'rindiq suyanchig'i vertikal holatga o'rnatilgan bo'lishi kerak. So'ngra o'rindiqda qulay joylashish va o'rnatilgan tarzda xavfsizlik kamarini taqib olish kerak.

O'rindiqlarni sozlash

XAVFLI

Xavfsizlik yostiqtchasini xavfsiz yoyilishi uchun rul chamberagidan 25 sm dan yaqin masofada o'tirmang.

XAVFLI

Old o'rindiqlar ostiga har qanday o'lcham va shakldagi begona buyumlarni solish kerak bo'lmaydi, chunki ular o'rindiqlarni sozlash mexanizmi ishiga xalaqit berishi, o'rindiqlarning karkasiga tiralishi yoki elektr komponentlarga (agar ular jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) teginishi va shu bilan ushbu komponentlarning va sustkash xavfsizlik tizimi ishini buzishi mumkin.

XAVFLI

Sozlash jarayonida o'rindiq ostiga kaftlarni, barmoqlarni, oyoqlarni yoki tananing boshqa qismlarini joylashtirish taqiqlanadi, chunki o'rindiqlarning siljishi metal qismlar bilan ularning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

OGOHLANTIRISH!


Hech qachon avtomobil harakatlanib ketayotganda o'rindiqlarni sozlamang, chunki u ixtiyoriy tarzda joyidan siljishi mumkin.

O'rindiqni talab etilayotgan holatga o'rnatish




Dastakni torting, o'rindiqni suring va dastakni qo'yib yuboring.

O'rindiqlarning suyanchilari



Nam yo'lda qat'iy ehtiyotkor bo'ling. O'rindiq yangi holatda mahkamlanishi kerak. Sozlash vaqtida o'rindiq suyanchig'iga suyanib o'tirmang.

O'rindiq balandligi



O'rindiqning balandligini o'zgartirish uchun dastak bilan tebranma harakatlarni bajaring:
Tepaga: o'rindiqni ko'tarish
Pastga: o'rindiqni tushirish

O'rindiqlarni sozlashning elektr uzatmasi


 **OGOHLANTIRISH!**

O'rindiqlarni sozlashning elektr uzatmasini jalb qilishda ehtiyotkorlikka rioya qilish kerak. Ushbu funktsiyaning bajarilishi, ayniqsa bolalar tomonidan, jarohatlanishga olib kelishi mumkin. Qo'llarni yoki biron bir boshqa buyumlarni qisib qo'yish mumkin. Sozlash vaqtida o'rindiqning siljishini diqqat bilan kuzating. Yo'lovchilarni ham bu haqda xabardor qilish lozim.



O'rindiqning holatini sozlash uchun, o'chirgich tugmasini oldinga yoki orqaga o'tkazing.

O'rindiq balandligi




O'rindiq balandligini sozlash uchun, o'chirgich tugmasini tepaga yoki pastga o'tkazing.

O'rindiqlarning suyanchilari



Suyanchiqning holatini sozlash uchun, o'chirgich tugmasini oldinga yoki orqaga o'tkazing.

O'rindiq suyanchig'ini orqaga juda uzoqqa (taxminan 25°dan ortiq bo'lmagan masofaga) engashtirish yaramaydi.

ORQA O'RINDIQLAR**Orqa o'rindiqlarning tirsakqo'ygichi****Tirsakqo'ygichi****Ikkinchi qator o'rindiqlarining tirsakqo'ygichi**


Orqa o'rindiqlarning suyanchig'ining markaziy qismida tirsakqo'ygich (agar bu jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) joylashtirilgan. Tirsakqo'ygichning tepa chetidan tortib, uni tushiring.

Ilgak ilmog'i

Kiyimlar uchun ilmoq tepa band ostida joylashgan.

Ikkinchi qator o'rindiqlari**Transformatsiya qilinmaydigan o'rindiqlar****O'rindiqlarning suyanchilari**

O'rindiqlarning suyanchilari egikligi sozlanishi mumkin.



Dastakni torting, suyanchiqning egikligini sozlang va suyanchiqni yangi holatda mahkamlash uchun dastakni qo'yib yuboring.

⚠ XAVFLI

O'rindiq suyanchig'ining vertikal holatini yo'lovchilarni o'tirishi uchun emas, balki faqat katta hajmdagi yuklarni yuklab tashish uchun qo'llash mumkin.

"Orqa o'rindiqlar"ni Yukxona bo'linmasi ⇨ 3-7da ko'ring.

Chiqishni yengillashtirish funksiyasi

 XAVFLI

Harakatlanish vaqtida orqa o'rindiqlarni taxlamang va yoymang.

 XAVFLI


Agar xavfsizlik kamari taqilgan bo'lsa, o'rindiqlarni taxlash taqiqlangan.




 XAVFLI

Ikkinchi qator o'rindiqlarini sozlash, taxlash, yoyish va orqaga tashlashda kaftlarni, qo'llarni, oyoqlarni va tovonlarni mexanizmdan uzoqroq masofada tuting. O'rindiqlar mahkamlanmagan bo'lsa, harakatlanishni boshlamang.

Uchinchi qator o'rindiqlariga chiqishni yengillashtirish uchun ikkinchi qator o'rindiqlarini taxlash mumkin. Tirsakqo'ygichlarni tushirish zarur.



Mahkamlagich dastagini torting va o'rindiqlarning suyanchig'ini tushiring



O'rindiqni oldinga siljiting.



XAVFLI

O'rindiqlar qatorini siljitishda yoki suyanchiqlarni sozlashda qo'llarni sharnirlarga yaqinlashtirmang.



O'rindiqlarni yoyish bo'yicha yo'riqnoma uning yostiqtchasini orqa tomonida yopishtirma yorliqda joylashtirilgan.



1. Taxlangan o'rindiqa oyoqlar bilan tiralish lozim emas.
2. Agar o'rindiqlarning uchinchi qatorida odamlar joylashgan yoki avtomobil harakatlanayotgan bo'lsa, o'rindiqlarning ikkinchi qatorini taxlangan holatda qoldirish yaramaydi.
3. Agar uchinchi qator o'rindiqlarida odamlar joylashgan bo'lsa, ikkinchi qator o'rindiqlarini ehtiyotkorlik bilan taxlang.
4. Safar uchun ikkinchi va uchinchi qatorlar o'rindiqlarining to'g'ri holati.

DIQQAT!

Agar xavfsizlik kamarlari taqilgan yoki chiqarib olingan bo'lsa, hech qachon o'rindiq suyanchig'ini taxlamang.

O'rindiqni dastlabki holatga qaytarish**XAVFLI**


Odamlarni tashilishi faqat agar o'rindiqlarning suyanchiqlari vertikal holatda mahkamlangan holatdagina ruxsat etiladi.

XAVFLI


Avtomobil harakatlanishi vaqtida o'rindiqlarning taxlangan suyanchiqlarida yo'lovchilarning o'tirishiga ruxsat bermang. Bu xavfli va xavfsizlik kamarlarini qo'llashga ijozat bermang. Avariya yoki to'satdan to'xtash holatida bu jiddiy jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin. Orqa o'rindiqlarning taxlangan suyanchig'ida tashilayotgan buyumlar oldingi o'rindiqlarning tepasidan pastroqda joylashishi kerak. Aks holda yukning oldinga siljib ketishi va keskin tormozlanishda jarohat yoki shikastlanishni keltirish ehtimoli bor.

XAVFLI

O'rindiq suyanchig'i mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish uchun, uni tebrating. Agar o'rindiq suyanchig'i mahkamlanmagan bo'lsa, u tormozlanishda yoki avariya keskin surilishi va orqada o'tirgan yo'lovchini jarohatlashi mumkin.



O'rindiq suyanchig'ini vertikal holatga joylashtiring.



Bosh tagligi yonida joylashgan dastakni tepaga torting va o'rindiq suyanchig'ini mahkamlangunicha yoying. O'rindiq yoyilgan holatda mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.

 **XAVFLI**

Ikkinchi qator o'rindiqlarini sozlash, taxlash, yoyish va orqaga tashlashda kaftlarni, qo'llarni, oyoqlarni va tovonlarni mexanizmdan uzoqroq masofada tuting. O'rindiq mahkamlanmagan bo'lsa, harakatlanishni boshlamang.

Uchinchi qator o'rindiqlari

 **OGOHLANTIRISH!**

Harakatlanish vaqtida orqa o'rindiqlarni taxlamang va yoymang.

O'rindiqni taxlashdan avval tirsakqo'ygichlarni taxlash zarur.

Tugmani bosib va ushlab turing, bundan so'ng bosh tagligini tushiring.

 **DIQQAT!**


Agar xavfsizlik kamarlari taqilgan yoki chiqarib olingan bo'lsa, hech qachon o'rindiq suyanchig'ini taxlamang.

Izoh


Xavfsizlik kamarlari taqilgan orqa o'rindiqlarni taxlab turib, o'rindiqni yoki kamarni shikastlash mumkin. Orqa o'rindiqni taxlashdan avval xavfsizlik kamarlarini taqib qo'yish va ularni odatiy yig'ishtirilgan holatga qaytarish zarur.



O'rindiqlarni taxlashda uchinchi qator o'rindiqlarining xavfsizlik kamarlari tiqilib qolmasligi uchun, o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlari kamar ushlagichlari orqali o'tkazilsin. Agar o'rindiq band bo'lmasa, harakatlanish vaqtida kamar qoplamaga teginib, shovqin chiqarmasligi uchun, kamarni skobaga kiydirib qo'yish mumkin.

O'rindiqlarni taxlash

Yukxona bo'linmasi tomondagi tasmadan torting va so'ngra uni qo'yib yuboring.



Taxlash uchun o'rindiq suyanchig'ini oldinga itaring.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Uchinchi qator o'rindiqlarining kamarchalariga buyumlarni osish va ularga yuklarni ilish taqiqlanadi.

O'rindiqlarni yoyish

⚠ OGOHLANTIRISH!

Odamlarni tashilishi faqat agar o'rindiqlarning suyanchilari vertikal holatda mahkamlangan holatdagina ruxsat etiladi.

⚠ OGOHLANTIRISH!


O'rindiqlarni o'rnatish va taxlashda kaftlarni qisilib qolish ehtimoli bo'lgan joylarga yaqinlashtirmang.



Uchinchi qator o'rindiqlarini taxlash jarayonida xavfsizlik kamarlari xalaqit bermasligi uchun, ularni skobalar orqali mahkamlang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Taqilgan kamar kamar kronshteyni orqali o'tmasligi kerak.



Mahkamlagich ishlaguniga qadar suyanchiniqni vertikal holatga ko'tarish uchun, tasmadan orting.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Agar o'rindiq band bo'lsa, muvofiq bosh tagligini yo'lovchi ostiga sozlash zarur.

⚠ DIQQAT!

Tushirilgan o'rindiq'larga hech qanday buyumlarni qo'y mang va tiramang.

⚠ OGOHLANTIRISH!


Mahkamlanmagan yukdan ehtiyot bo'ling. To'qnashish holatida u yo'lovchilar ustiga uchib tushishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Ikkinchi yoki uchinchi qator o'rindiqlarini yechib olish tavsiya etilmaydi. Agar o'rindiqni yechib olish zarurati bo'lsa, uni servis markazida qilish kerak. O'rindiqlarni noto'g'ri yechib olinishi qo'llarning jiddiy jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

O'rindiqlarni o'rnatish qoidalari

Quyida taqdim etilgan tasvirda har xil vaziyatlarda orqa o'rindiqlarni qaysi holatlarda o'rnatish ruxsat etilishi ko'rsatilgan.



1. Yo'lovchilarni tashish uchun o'rindiqlarning to'g'ri joylashishi.
2. O'rindiqlarning bunday joylashuvi safar qilish uchun mo'ljallanmagan. Uni faqat uchinchi qator o'rindiqlariga chiqish uchun qo'llash mumkin.
3. Yuklarni tashish uchun o'rindiqlarning to'g'ri joylashishi.

XAVFSIZLIK KAMARLARI

Haydovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikatorini, Xavfsizlik kamarini taqib olish zarurati haqida eslatma indikatorini \diamond 4.11 ni ko'ring.



Kamarlar keskin tezlashish yoki avtomobilning sekinlashishida haydovchi va yo'lovchilarni xavfsizligini ta'minlaydi.

OGOHLANTIRISH!

Safarni boshlashdan avval xavfsizlik kamarini taqib olish va uni butun yo'l davomida yechmaslik kerak. To'qnashuv holatida xavfsizlik kamarini taqib olmagan odam o'z hayotini va atrofdagilarning hayotini xavf ostiga qo'yishi mumkin.

Har bir xavfsizlik kamari bir odamga mo'ljallangan, bir vaqtda bir nechta odamni kamar bilan taqib qo'yish mumkin emas. Xavfsizlik kamarlari 12 yoshdan yosh bo'lmagan va kamida 150 sm bo'lgan ega bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan. Xavfsizlik kamarlarini barcha detallarini shikastlanishlar mavjud emasligini va ularning ish qobiliyatini vaqti-vaqti bilan tekshirish zarur. Kuchli shikastlanishli komponentlarni almashtirish kerak. YTHdan keyin xavfsizlik kamarlarini almashtirish uchun Chevrolet dileriga murojaat qilish zarur.

Izoh

Kamarlar poyafzallar yoki o'tkir buyumlar bilan shikastlanmaganligiga va qisilib qolmaganligiga ishonch hosil qiling. Kamarning tortuvchi mexanizmiga iflosliklar tushib qolishini istisno qiling.

Kamarlar tarangligini chegaralagichlari


Old o'rindiqlardagi kamarlar tarangligini chegaralagichlari to'qnashuv paytida kamarlarning asta-sekin bo'shashi hisobiga tanaga yuklamani pasaytirishni ta'minlaydi.

Xavfsizlik kamarlarining oldindan taranglashish qurilmasi

Frontal to'qnashuvda yoki ma'lum tezlik bilan orqadan urilishda old o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlari avtomatik taranglashadi.

OGOHLANTIRISH!

Malakasiz munosabatda bo'lish (masalan, kamarlarni yoki kamarlarning qulflarini yechishda yoki ularni o'rnatishda) taranglashtirgichlarning ishlab ketishiga va shu bilan bog'liq jarohatlanish xavfiga olib kelishi mumkin.


Kamarlar taranglashtirgichlarining ishlashiga indikatorning  doimiy yorishib turishi ko'rsatadi Xavfsizlik yostiqchasi va xavfsizlik kamari taranglashtirgichi signalizatori \diamond 4-11 ni ko'ring. Ishlagan kamarlar taranglashtirgichlarini Chevrolet servis markaziga murojaat qilib, almashtirish lozim. Kamarlarning oldindan taranglashtirgichlari - bu bir marta ta'sir qilish qurilmasi.

Izoh


Kamarlarning oldindan taranglashtirgichlarining ishiga xalaqit berishga qodir bo'lgan jihozlarni yoki boshqa buyumlarni qo'llamang va o'rnatmang. Xavfsiz kamari taranglashtirgichi komponentlariga o'zgartirishlar kiritish taqiqlanadi. Ushbu avtomobilning old o'rinlari xavfsizlik kamarlari taranglashtirgichlari bilan jihozlangan. Taranglashtirgichlar yashiringanligiga qaramasdan, ular xavfsizlik kamarlari ulanishining qismi hisoblanadi. Ular avariyaning dastlabki bosqichida xavfsizlik kamarlarini taranglashtiradi - ularni faollashtirish uchun sharoitlar mavjud bo'lganida oldindan yoki oldinga yaqin to'qnashuv, yoki o'rtacha yoki katta kuchda orqadan urilishda.

Uch nuqtali xavfsizlik kamari

Taqib olish



Kamarni buralib qolishiga yo'l qo'ymasdan g'altakdan sug'urib oling, uni tana bo'ylab joylashtiring va kamarning metal tilchasini qulfga chertkigacha o'rnating. Diagonal xavfsizlik kamarini tortib, haydash vaqtida bel xavfsizlik kamarining bir tekis taranglashishini ta'minlang.




Erkin va hajmli kiyim kamarning zich joylashishiga xalaqit beradi. Kamar va tana orasida, masalan, ayollar sumkachalarini yoki mobil telefonlar kabi buyumlarni joylashtirmang.

 XAVFLI

Kamar kiyim cho'ntaklarida bo'lgan qattiq yoki sinuvchi buyumlarning ustidan o'tishi kerak emas.


Balandlikni sozlash



1. Kamarni ozgina tortib chiqaring.
2. Mahkamlagich tugmasini chiqarib oling.
3. Balandlikni sozlang va mahkamlab qo'ying.

 XAVFLI

Balandlik to'g'ri sozlanganda kamar yelka orqali o'tishi kerak. U tomoq yoki qo'lning tepa qismi qarshisida joylashishi kerak emas. Safar vaqtida sozlash bilan shug'ullanmang.

Yechib olish

Kamarni yechib olish uchun, uning qulfidagi qizil tugmani bosing. G'altak kamar tasmasini avtomatik tortib oladi. Agar kamar to'liq tortib olinmagan bo'lsa, tilchadan asta torting va uni qo'yib yuboring.



Agar kamar qo'llanimlayotgan bo'lsa, u harakatlanish vaqtida kuzovning ustunining plastmas qoplamasiga urilmasligi uchun, uning tilchasini tasvirda ko'rsatilgandek joylashtiring.

Homiladorlik vaqtida xavfsizlik kamarining qo'llanilishi

⚠ OGOHLANTIRISH!

Qorinning pastki qismiga bosimdan saqlanish uchun bel kamari tos suyagi sohasi orqali iloji boricha pastroqdan o'tishi kerak.

ISHIRILADIGAN XAVFSIZLIK YOSTIQCHALAR TIZIMI

Xavfsizlik kamarlarini parvarishlash

Xavfsizlik kamarlarini qo'llash va ularni parvarishlar qoidalariga rioya qiling. Xavfsizlik kamarlarining konstruksiyasiga biron bir o'zgartirishlar kiritish taqiqlanadi.

Kamarlarda eskirish izlari paydo bo'lishini, hamda ular o'tkir buyumlar tomonidan siqilib qolmasligi ustidan kuzatib boring.

Kamarlarning qulflari quruq holatda qolishi kerak. Ularda chiqindilar va chang yig'ilib qolmasligi uchun kuzatib boring. Zarurat bo'lganida qulflarning tashqi yuzalari va kamarlarning o'zlarini sovunli eritma bilan artib chiqish mumkin. Qulfning mexanizmiga chiqindilar va chang tushib qolmasligi ustidan nazorat olib boring. Agar qulf chiqindilar yoki changlar bilan tiqlib qolgan bo'lsa, dilerga murojaat qiling. Tizimning me'yorda ishlashini ta'minlash uchun ba'zi ehtiyot qismlarni almashtirish talab etilishi mumkin.

DIQQAT!

- Kamarlarning butun tizimini texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassis muntazam ko'zdan kechirishi va tekshirishi kerak.
- Avariya bo'lib chiqqan xavfsizlik kamarini yangisiga almashtirish zarur.

Xavfsizlik yostiqlari tizimi bir qator alohida tizimlardan iborat.

Ishga tushgan xavfsizlik yostiqlari bir necha millisoniya davomida ishirladi. Ular shu bilan birga shunchalik tez havoni chiqarib yuboriladiki, bu ko'pincha to'qnashuv vaqtida sezilmaydi.

XAVFLI

Sizning avtomobilingiz haydovchiga qanday bo'lsa, barcha yo'lovchilarga ham xuddi shunday to'liq xavfsizlikni ta'minlash uchun shunday konstruksiyalangan.

Shuning uchun avtomobilni yig'ishda ba'zi komponentlarning mahkamlagichi maxsus kimyoviy vosita bilan mahkamlanadi. Bunday mahkamlagichni faqat asl ehtiyot mahkamlash elementi o'sha ehtiyot qism raqami bilan almashtirilishi mumkin.

Bundan tashqari, yaxshi tortib qotirilishni va yangi mahkamlanuvchi element bilan samarador fizik-kimyoviy o'zaro ta'sirni ta'minlash uchun mahkamlash elementi bilan ulanadigan detalni samarali tozalash o'ta muhimdir.

Shu munosabat bilan biz avtomobil xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan tizimlarga (tormozlar, o'rindiqlar, osma, xavfsizlik kamarlari va hokazolar), hamda ushbu tizimlarga bilvosita ta'sir qiluvchi tizimlarga xizmat ko'rsatilishini

XAVFLI

faqat Chevrolet servis markazida yoki vakolatlangan servis markazida bajarilishini qat'iy tavsiya qilamiz. Ancha batafsil ma'lumot uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobillarda zavodda o'rnatilgan kabi xuddi o'sha turdagi faqat asl ehtiyot qismlarga almashtirilishi zarur bo'lgan komponentlar mavjud, masalan, xavfsizlik yostiqlari, xavfsizlik kamarlari, bamber ustunlari, elektron bloklar.

Izoh

Xavfsizlik yostiqlarini boshqaruvchi elektron tizim markaziy konsolda joylashtirilgan. Ularga magnitlangan buyumlarni yaqinlashtirish lozim bo'lmaydi.

Xavfsizlik yostiqlarini yopib turuvchi panellarga begona buyumlarni yopishtirmang va ularni boshqa materiallar bilan yopmang.

Har bir xavfsizlik yostig'i bir marta ishlaydi. Ishlagan xavfsizlik yostiqlarini Chevrolet servis markazida almashtiring.

Xavfsizlik yostiqlari tizimiga o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi, chunki bunday holatda avtomobil ishlatishga ruxsatini yo'qotadi.

Rul chambaragini, asbob-uskunalar panelini, barcha ishlanma detallar, eshiklarning eshik zichlagichlarini, tutqichlarni va o'rindiqlarini yechilishi Chevrolet servis markazida bajarilishi zarur.

 XAVFLI

Nomalakaviy aralashuvda xavfsizlik yostig'i to'satdan ishlab ketishi mumkin.

Haydovchi iloji boricha orqaga itarilib va avtomobil ustidan nazoratni saqlab qolgan holda o'tirishi kerak. Xavfsizlik yostig'iga yaqin o'tirishda ishirish vaqtida jiddiy yoki o'lim jarohatini yetkazilish ehtimoli mavjud.

Har qanday avariya maksimal xavfsizlikni ta'minlash uchun avtomobilda o'tirganlarning barchasi, jumladan haydovchi ham, har doim xavfsizlik kamarlari bilan taqilgan bo'lishi kerak. Shu bilan avariya vaqtida jiddiy yoki o'lim jarohati yetkazilish xavfi pasaytiriladi. Xavfsizlik yostig'iga yaqin o'tirmang va avtomobil harakatlanib ketayotganda unga suyanib o'tirmang.

Xavfsizlik yostiqlari ishlashida yuz yoki tananing jarohatlanishi, singan ko'zoynaklar bilan shikastlanish, piropatronni portlashi natijasida kuyib qolish ehtimoli mavjud.

 XAVFLI

Yo'lovchilarni xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilning old o'rindig'ida bolalarni, go'daklarni, homilador ayollarni, keksa yoki quvvatsizlangan odamlarni tashish taqiqlanadi. Shu bilan birga ushbu o'ringa bolalar avto'o'rindig'ini o'rnatish taqiqlanadi. Avariya holatida ishirilayotgan xavfsizlik yostiqlarining zarbasi yuzga shikast etkazishi yoki o'lim oqibatli bo'lib qolishi mumkin.


 XAVFLI

Avtomobilning cho'nqirlarga yoki qattiq qoplamasiz yo'nlardagi yoki yo'lakhadagi buyumlarga urilish holatida xavfsizlik yostiqlarini ishlab ketish ehtimoli mavjud. Avtomobillar harakatlanishi uchun ko'zda tutilmagan joylarda xavfsizlik yostiqlari to'satdan ishlab ketishidan saqlanish uchun sekin harakatlaning.


Qarang Xavfsizlik yostiqchasi va xavfsizlik kamari taranglashtirigichi signalizatori ⇨ 4-11 ni.

Old xavfsizlik yostiqlari tizimi

Old xavfsizlik yostiqlari tizimi ikki yostiqlardan iborat: biri rul chambaragida va biri yo'lovchi tomonida asbob-uskunalar panelida. Ushbu yostiqlarni **AIRBAG** yozuvi bo'yicha aniqlash mumkin.



Ko'rsatilgan sohaga to'g'ri keluvchi ma'lum kuch zarbasi holatida old xavfsizlik yostiqlarining ishlab ketishi sodir bo'ladi. O't oldirish yoqilgan bo'lishi kerak.



Frontal yostiqlar - sustkash xavfsizlik tizimining qismi. Xavfsizlik kamarlari bilan birgalikda ular haydovchini va old yo'lovchini avtomobilning harakatlanish tezligini keskin pasayishi bilan YTH holatida samarali himoya qiladi.

Ular haydovchining va old yo'lovchini rul ustuniga va asbob-uskunalar paneliga zarbalar xavfidan, hattoki faqat xavfsizlik kamarlari xavfli va o'lim jarohatlaridan himoyani ta'minlash imkoni bo'lmaganida ham, himoyalash uchun mo'ljallangan.

Frontal xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik kamarlari zarur bo'lgan himoyani ta'minlashi mumkin bo'lgan vaqtda kichik tezliklarda ro'paradan to'qnashuvda, hamda yon tomondan va orqadan zarbalarda, avtomobilning ag'darilib ketishida, yo'l chetiga chiqib ketishida yoki old

yo'lovchi keskin oldinga otib yuborilmagan holatlarda ishlamaydi.

Frontal yostiqlar faqat ro'paradan to'qnashuvda ishlab ketishi kerak, qachonki avtomobilning keskin sekinlashishi oqibatida haydovchi yoki old yo'lovchi oldinga shunday kuch bilan otib yuboriladiki, bunda xavfsizlik kamarlari ularni avtomobilning konstruktiv elementlariga urilishini tutib qololmaydi va oldini ololmaydi. Yostiqlarning ishlab ketishiga bog'liq bo'lgan belgilab beruvchi omil bo'lib to'qnashuv paytida harakatlanish tezligi emas, balki haydovchiga yoki yo'lovchiga ta'sir qiluvchi kuch hisoblanishini tushunish muhimdir. Xavfsizlik yostiqlarini ishlab ketishiga signalni akselerometr (sekinlashish datchigi) bilan jihatlangan boshqaruv bloki beradi.

Zarurat bo'lganda u xavfsizlik yostiqlarini gaz bilan to'ldiruvchi gazogeneratorga signalni yuboradi, u haydovchining rul chamberagiga yoki yo'lovchining asbob-uskunalar paneliga urilish zarbini yumshatadi.

Gazogeneratorning piropatroni portlashining tovushi odam eshitish a'zolari uchun zararsiz hisoblanadi.

Muhim tavsiyalar:

- Xavfsizlik yostiqlari va uning oldida o'tirgan odam orasiga biron bir narsalarni joylashtirishga ruxsat berilmaydi. Yostiq ishlab ketishi holatida uning ochilishi

traektoriyasidagi buyumlar odamning yuziga otib yuborilishi mumkin, bu jarohatlanish sababi bo'lib qolishi mumkin.

- Rul chamberagida yoki asbob-uskunalar panelida hech qanday begona aksessuarlarni joylashtirmang. To'qnashuv paytida ular xavfsizlik yostiqlarining ochilishiga xalaqit berishi va shu bilan himoyaning samaradorligini pasaytirishi mumkin.
- Xavfsizlik yostiqlari tizimi komponentlariga o'zgartirishlar kiritish taqiqlanadi. Noto'g'ri foydalanish yostiqning ishlab ketishi oqibatida haydovchi yoki yo'lovchi jarohatlanishi mumkin bo'lgan holatga olib kelishi mumkin.
- Xavfsizlik yostiqlarini boshqaruvchi elektron tizim old konsolda joylashtirilgan. Tizim ishidagi buzilishlardan saqlanish uchun, konsol bilan yonma-yon magnit maydoni manbalarini joylashtirmang.
- Agar avtomobil suv toshqini oqibatida shikastlangan bo'lsa, Chevrolet dileriga yordam uchun murojaat qilish kerak.
- Rul chamberagi va asbob-uskunalar panelini qismlarga bo'linishini faqat Chevrolet servis-markazida bajarish mumkin.
- Xavfsizlik yostig'i bir marta ishlashga mo'ljallangan. Ishlagan yostiqni zudlik bilan Chevrolet servis-markazida almashtirish zarur.

- Harakatlanish vaqtida og'zingizda hech qanday buyumlarni tutib turmang. Ushbu talabga rioya etmaslik xavfsizlik yostig'ini ishlab ketishida jarohat yoki halok bo'lish xavfini sezilarli oshiradi.
- Avtomobilni yangi egasiga berib yuborishda uni avtomobil ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlanganligini haqida xabardor qilish, hamda mazkur qo'llanmadagi yo'riqnomalar bilan tanishib chiqish va ularga qat'iy rioya qilish zarur bo'ladi.
- Ishlamagan xavfsizlik yostiqlari bo'lgan avtomobilni qismlarga ajratish juda ham xavfli bo'lishi mumkin. Avtomobilni utilitatsiya qilish uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilning oldingi o'rindig'iga bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish

Xavfsizlik yostiqlar bilan jihozlangan avtomobillarda yon tomonida asbob-uskunalar panelida «Airbag» so'zi yozilgan yopishtirma yorliq mavjud. Bu yopishtirma yorliq yo'lovchining eshigini ochishda ko'rinib turadi.

⚠ XAVFLI

Agar avtomobil oldingi yo'lovchi xavfsizlik yostig'i bilan jihozlangan bo'lsa, bolalarni tutib turuvchi qurilmani oldingi o'rindiqqa o'rnatish taqiqlanadi.



⚠ XAVFLI

Sizning avtomobilingiz haydovchiga qanday bo'lsa, barcha yo'lovchilarga ham xuddi shunday to'liq xavfsizlikni ta'minlash uchun shunday konstruksiyalangan. Shuning uchun avtomobilni yig'ishda ba'zi komponentlarning mahkamlagichi maxsus ehtiyot qismning xuddi o'sha raqami bilan asl ehtiyot mahkamlash elementlari bilan almashtirish mumkin.

⚠ XAVFLI

Bundan tashqari, yaxshi tortib qotirilishni va yangi mahkamlanuvchi element bilan samarador fizik-kimyoviy o'zaro ta'sirni ta'minlash uchun mahkamlash elementi bilan ulanadigan detalni samarali tozalash o'ta muhimdir.


Shu munosabat bilan biz avtomobil xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan tizimlarga (tormozlar, o'rindiqlar, osma, xavfsizlik kamarlari va hokazolar), hamda ushbu tizimlarga bilvosita ta'sir qiluvchi tizimlarga xizmat ko'rsatilishini faqat Chevrolet servis markazida yoki vakolatlangan servis markazida bajarilishini qat'iy tavsiya qilamiz. Ancha batafsil ma'lumotlarni olish uchun Chevrolet servis-markaziga murojaat qiling.

Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobillarda masalan, xavfsizlik yostiqlari, xavfsizlik kamarlari, bamber ustunlari, elektron bloklar, - ularni faqat zavodda o'rnatilgani kabi xuddi o'sha turdagi asl ehtiyot qismlar bilan almashtirish zarur.


⚠ XAVFLI

Xavfsizlik yostiq-lari bilan jihozlangan avtomobilga old himoyani (saqlagichni) o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi. Uning mavjudligi ishirladigan xavfsizlik yostiq-lari tizimining ishiga ta'sir qilishi mumkin.


Yon tomon xavfsizlik yostiq-lari tizimi (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)



Yon tomon xavfsizlik yostiq-lari tizimi old o'rindiqlarning suyan-chig'iga joylashtirilgan ikki xavfsizlik yostiq-lariga ega. Ushbu yostiq-larni SRS SIDE AIRBAG yozuvi bo'yicha aniqlash mumkin.



Yon tomon xavfsizlik yostiq-lari rasmda ko'rsatilgan sohalarga to'g'ri keluvchi ma'lum kuch zarbasi holatida ishlaydi. O't oldirish yoqilgan bo'lishi kerak.



Bunda yon tomondan zarba berilishida tana va tos sohasining jarohatlanish xavfi sezilarli pasayadi.

⚠ DIQQAT!

- O'rindiqlarga g'ilof kiydirmang.
- Old o'rindiq va eshik orasiga tananing hech qanday qismlarini va buyumlarni (jumladan yostiq-larni) joylashtirmang. Old o'rindiqdagi yo'lovchiga eshikka suyangan holatda o'tirish yoki uxlash taqiqlanadi. O'rindiqning markazi bo'yicha o'tirish zarur.
- Albatta xavfsizlik kamarlarini taqib o'tiring.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Yon tomon xavfsizlik yostig'i yaqinida o'tirgan bola xavfsizlik yostig'i ishlab ketishi holatida, ayniqsa agar bolaning boshi, bo'yni yoki ko'krak qafasi xavfsizlik yostig'i ishlab ketishi holatida unga yonma-yon o'tirgan bo'lsa, jiddiy yoki hattoki o'lim jarohatini olish xavfi ostida bo'ladi.

Hech qanday vaziyatda bolaga eshikka suyanishiga yoki yon tomon xavfsizlik yostig'i moduli yonida o'tirishiga yo'l qo'ymang.

Boshni himoyalash uchun xavfsizlik darpardalari tizimi (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)



Xavfsizlik darpardalari tizimi o'z ichiga har tomondan tomning ramasiga o'rnatilgan xavfsizlik yostiqlarini oladi. Ushbu joylar tomning ustunchalarida AIRBAG (xavfsizlik yostig'i) yozuvi bilan belgilangan.

Boshni himoyalash uchun xavfsizlik darpardalari tizimi yetarlicha kuchli to'qnashuv holatida ishlab ketadi. O't oldirish yoqilgan bo'lishi kerak.

Yon tomondan zarba berilish holatida boshning jarohat olish xavfi sezilarli pasayadi.

⚠ XAVFLI

Xavfsizlik yostig'i yoyilish sohasida hech qanday to'siqlar bo'lmasligi kerak.

Eshiklarning tepasida joylashgan tutqichlarning ilmoqlariga faqat kiyimlarning engil buyumlarini osish mumkin (ilgaksiz). Ushbu kiyimda begona buyumlar bo'lmasligi kerak.

Xavfsizlik yostig'i qanday ishiriladi?

Ushbu avtomobil xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan. Qarang Ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari tizimi ↻ 2-16 ni ko'ring. Agar zarba kuchi xavfsizlik yostiqlari muvofiq tizimi uchun ishlab ketish ostonasidan yuqori bo'lsa, xavfsizlik yostiqlari ishiriladi. Ishlab ketish ostonasi yordamida qat'iy to'qnashuvlar aniqlanadi, bunda haydovchini va yo'lovchini ushlab qolish uchun xavfsizlik yostiqlari ishtiroki

talab etiladi. Avtomobil zarba kuchini aniqlashtirib beruvchi elektron to'qnashuv datchiklari bilan jihozlangan. Ishlab ketish ostonasi avtomobilning konstruksiyasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Oldingi xavfsizlik yostiqlari haydovchining va old yo'lovchining boshiga va ko'krak qafasiga zarba ta'sirini yumshatib, ro'paradan to'qnashuvga yaqin yoki o'rtacha yoki katta kuchdagi ro'paradan to'qnashuvda yoyiladi.

Oldingi yostiqlarning ishlab ketishi nafaqat avtomobil tezligiga bog'liq. Xavfsizlik yostiqlarining yoyilishi yoki yoyilmasligi, ko'proq to'qnashuv obyekti, to'qnashuv yo'nalishi va tormozlanish tezligi bilan aniqlanadi.

Oldingi xavfsizlik yostiqlari avtomobil to'qnashuv obyekti bilan ro'paradan yoki burchak ostida to'qnashayotganligi, to'qnashuv obyekti mahkamlanganmi yoki harakatlanayotganligi, u qattiq yoki deformatsiyaga beriluvchanligi, u tor yoki kengligiga bog'liq holda to'qnashuvning turlari tezliklarida ishlab ketishi mumkin.

Oldingi xavfsizlik yostiqlari avtomobil ag'darilib ketishida, orqadan zarba berilishida va ko'pchilik yon tomondan to'qnashuvlarda ishlamaydi.

O'rindiqlarga o'rnatilgan yon tomondan himoyalash uchun xavfsizlik yostiqlari zarba yetkazilish joyiga bog'liq holda o'rtcha va kuchli yon tomon to'qnashuvlarida ishlab ketadi. O'rindiqlardagi yon tomon xavfsizlik yostiqlari ro'paradan va ro'paradan zarbalarga yaqin bo'lgan to'qnashuvlarda, ag'darilishlarda va orqadan urilishlarda ishlab ketishi kerak emas. Yon tomondan zarbada muvofiq tomondagi o'rindiqdagi yon tomon xavfsizlik yostig'i yoyiladi.

Eshik teshiklari ustida joylashgan xavfsizlik yostiqlari zarba yetkazilish joyiga bog'liq holda yon tomondan o'rtacha va kuchli zarbalarda ishlaydi. Tomning ko'ndalang ustunidagi xavfsizlik yostiqlari orqadan to'qnashuvda ishlab ketmasligi kerak. Har qanday tomondan yon tomondan zarbada, hamda kuchli qiya frontal to'qnashuvlarda, agar, tizimning hisob-kitoblari bo'yicha, avtomobil biqiniga ag'darilib ketishi mumkin bo'lganida, tomoning ikki ustunidagi ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari ishlab ketadi.

Aniq to'qnashuvda avtomobil shikastlanishi ehtimoli va ta'mirlash narxidan oddiygina kelib chiqqan holda ushbu xavfsizlik yostig'i ishlab ketishi kerakligini aniqlash ehtimoli mavjud emas.

Xavfsizlik yostig'ining ishirilish mexanizmi qanday?

To'qnashuv holatida datchiklar tizimi elektr signalini aniqlaydi, u rezervuardan gazni chiqarib yuborish mexanizmini harakatga keltiradi. Gaz rezervuardan chiqara turib, xavfsizlik yostig'ini to'ldiradi, buning oqibatida yostiq qopqoqni otib yuboradi va yoyiladi. Ishirish mexanizmi, yostiq va mahkamlagich xavfsizlik yostig'i modulining qismlari hisoblanadi.

Xavfsizlik yostig'i qay tarzda odamni ushlab turadi?

Ro'paradan to'qnashuvga yaqin yoki o'rtacha yoki katta kuch bilan ro'paradan to'qnashuvda hattoki xavfsizlik kamarini taqib olgan odam rul chamberagiga yoki asbob-uskunalar paneliga urilishi mumkin. Kuchli yoki o'rtacha yon tomon to'qnashuvida hattoki xavfsizlik kamarini taqib olgan odam avtomobil ichidagi komponentlariga urilishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik kamarlari tomonidan ta'minlanuvchi himoyani, zarba kuchini odam tanasi bo'ylab ancha bir tekis taqsimlash bilan to'ldiradi.

Biroq xavfsizlik yostiqlari agar to'qnashuv vaqtida odam yostiqaqqa yo'nalgan holda harakatlanmayotgan bo'lsa, ular himoyani ta'minlay olmaydi. Qarang Xavfsizlik yostig'i qachon ishiriladi? ⇨ 2-21ni ko'ring. Yostiqlar faqatgina xavfsizlik kamarlariga qo'shimcha hisoblanadi.

Xavfsizlik yostiqlari ishlab ketganidan keyin nima sodir bo'ladi?

Yoyilgandan so'ng oldingi va yon tomon yostiqlari havoni juda tez chiqarib yuboradi, shunchalik tezki, hattoki ular to'ldirilgan holatda bo'lganligini sezmay qolish ham mumkin. Tomning ko'ndalang ustunidagi xavfsizlik yostiqlari yoyilgandan so'ng bir qancha vaqt gazni, hech bo'lmaganda qisman, ushlab turishi mumkin. Xavfsizlik yostig'i modulining ba'zi komponentlari bir necha minut davomida issiq holatda qolishi mumkin.

Odamga tegib turgan xavfsizlik yostig'ining qismlari iliq, ammo juda issiq bo'lmisligi mumkin. Xavfsizlik yostig'ini havosini chiqarib yuborishda tirqishlardan tutun va chang chiqishi mumkin. Xavfsizlik yostig'i haydovchiga old oyna orqali manzarani yopmaydi, boshqarish qobiliyatini cheklamaydi va avtomobilni tark etishga xalaqit bermaydi.



OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik yostig'ini ishirishida havoda chang paydo bo'lishi mumkin. Chang astmadan yoki nafas olish yo'llarining boshqa kasalliklaridan a'ziyat chekayotgan odamlar uchun xavfli. Shuning uchun hamma avtomobilni tark etishi kerak, buni xavfsiz qilish imkoniyati paydo bo'lishi bilan. Agar xavfsizlik yostig'ini yoyishdan keyin avtomobilidan chiqib ketish imkoniyati yo'q bo'lsa, nafas olish

⚠ OGOHLANTIRISH!

kasallaklaridan a'ziyat chekuvchi odamga oynalarni ochib, havo kelishini ta'minlash lozim. Agar xavfsizlik yostig'ini yoyilishi natijasida nafas olish bilan muammolar sodir bo'lsa, tibbiy yordam olish uchun murojaat qilish zarur.

Avtomobilida xavfsizlik yostiqlarining yoyilishidan keyin barcha eshiklarni avtomatik blokdan chiqaruvchi, yonilg'i uzatilishi to'suvchi, ichki yoritishni va avariya signalizatsiyasini yoquvchi funksiya ko'zda tutilgan. Bu funksiya agar zarba kuchi ma'lum ostona qiymatidan oshib ketganida, xavfsizlik yostiqlarini yoymasdan ham ishlab ketishi mumkin. Muvofiq boshqaruv elementlari yordamida eshiklarni blokdan chiqarish, yonilg'i uzatilishini ochish, ichki yoritishni va avariya chiroqlarini o'chirish mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik yostiqlari harakatga keltirilishi mumkin bo'lgan kuchli to'qnashuv oqibatida, avtomobilning muhim tizimlari, masalan, yonilg'i, tormoz, boshqaruv tizimlari va hokazolarning ishdan chiqishi mumkin. Hattoki agar nisbatan jiddiy hodisadan keyin avtomobil harakatlanishi ehtimoli bo'lganida, mavjud bo'lgan shikastlanishlar avtomobilni xavfsiz boshqaruvini qiyinlashtirishi mumkin. Avariyaadan so'ng dvigatelni o'ziga xos ehtiyotkorlik bilan ishga tushirish zarur.

Xavfsizlik yostiqlarini harakatga keltirishga qodir bo'lgan yetarlicha kuchli to'qnashuv holatida, old oyna ko'pincha avtomobilning deformatsiyasi oqibatida sinib ketishi mumkin. Yo'lovchi tomonidagi oldingi xavfsizlik yostig'ining ishlab ketishida ham old oyna sinib ketishi mumkin.

- Xavfsizlik yostiqlari faqat bir marta yoyilishga qodir. Xavfsizlik yostig'i harakatga keltirilgan vaqtdan so'ng, tizimning ba'zi komponentlarini almashtirish talab etiladi. Agar yangi komponentlar o'rnatilmagan bo'lsa, xavfsizlik yostiqlari tizimi keyingi safar himoyani ta'minlab bermaydi. Yangi tizim o'z ichiga xavfsizlik yostiqlari modullarini, va, ehtimol, ba'zi boshqa detallarni kiritishi mumkin. Boshqa qismlarni almashtirish

zarurati haqidagi ma'lumot avtomobilga xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'llanmada keltirilgan.

- Xavfsizlik yostiqlarini tizimiga xizmat ko'rsatish faqat malakalangan mexaniklarga ruxsat berilgan. Noto'g'ri xizmat ko'rsatishda xavfsizlik yostiqlari tizimining funksiyalarini buzilishi ehtimoli mavjud. Texnik xizmat ko'rsatish uchun dilerga murojaat qilish lozim.

Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobillarga xizmat ko'rsatish

Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobillar uchun maxsus xizmat ko'rsatish talab etiladi. Avtomobilning turli qismlarida xavfsizlik yostiqlari tizimi komponentlari o'rnatilgan. Texnik xizmat ko'rsatish uchun dilerga murojaat qilish lozim.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Avtomobilning o't oldirishi o'chirilishidan va akkumulyator o'chirilishidan so'ng 10 soniya davomida xavfsizlik yostig'i noto'g'ri harakatlarni amalga oshirishda ham ishlab ketishi mumkin. Xavfsizlik yostiqlari yonida joylashgan odam jarohatlar olishi mumkin.

 **OGOHLANTIRISH!**

Sariq ulagichlar bilan operatsiyalardan saqlanish lozim. Ular katta ehtimol bilan xavfsizlik yostiqlari tizimiga taalluqli bo'lishi mumkin. Texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirayotgan odam, kerakli darajadagi malakaga ega bo'lishi va tavsiya etilgan muolajalarga rioya qilishi kerak.

BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIK TIZIMLARI

Bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni o'rnatish mumkin bo'lgan joylar

Orqa o'rindiqlar - bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni o'rnatish uchun ancha qulay joy. Bolalarni mazkur qo'llanmada ko'rsatmalarga binoan tutib turuvchi qurilmalarni qo'llash bilan orqa o'rindiqlarda joylashtirish kerak.

Bolaning tos sohasi juda kichik, shuning uchun shtatdagi xavfsizlik kamari uni to'g'ri holatda tutib turmaydi. U qorindan sirpanib tushib ketadi, bu YTH holatida jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmalarning tasniflanishi

Bolalarni tutib turuvchi qurilmalar bolaning vazniga bog'liq holda bir necha toifalarga bo'linadi:

Guruh	Vaznlar sinfi
0 guruhi	10 kggacha (22 funt)
0+ guruhi	13 kggacha (28 funt)
I-guruh	9 kgdan 18 kggacha (20 funtdan)
II-guruh	15 kgdan 25 kggacha (34 funtdan)
III-guruh	22 kgdan 36 kggacha (49 funtdan)


A



B



C



A) 0 va 0+ toifasi (avtobelanchak)



⚠ XAVFLI

Avtobelanchakni old o'rindiqqa o'rnatish taqiqlanadi. YTH holatida xavfsizlik yostig'ining ishlab ketishi bolaning og'ir jarohatlanishiga olib kelishi mumkin, chunki uning boshi yostiqqa juda yaqin joylashgan bo'ladi.

b) I-toifa (bolalar o'rindig'i)
v) I va II-toifa (buster-yostiq)

Izoh

Old o'rindiqda bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni o'rnatilishini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik talablariga rioya qiling.

Izoh

Bolalarni tutub turuvchi qurilmani to'g'ri tanlash uchun, nafaqat bolaning yoshini va vaznini, balki uning tanasini tuzilishini ham hisobga olish kerak.

GM firma bolalarni tutib turuvchi qurilmalarini qo'llashni General Motors tavsiya qiladi.



Izoh

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani xarid qilishdan avval, u ushbu o'rindiqda shtatli kamar bilan qo'llanilishi mumkinligiga ishonch hosil qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Bolalarni tashish vaqtida sizning mamlakatingizda amal qiluvchi qonunchilikning muvofiq talablariga rioya qilish zarur.
- Alohida mamlakatlarda bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni ba'zi joylarda o'rnatish taqiqlangan.
- Bolalarni tutib turuvchi qurilma to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Bolalar o'rindig'ini noto'g'ri mahkamlanishi YTHda

⚠ OGOHLANTIRISH!

bolaning jiddiy jarohatlanish xavfini sezilarli oshiradi.

- Bolalarni tutib turuvchi qurilmalarda begona buyumlarni o'rnatish yoki ularni biron bir qo'shimcha materiallar bilan qoplash taqiqlanadi.
- Avtomobil saloni mahkamlanmagan buyumlarni saqlash lozim bo'lmaydi. To'qnashuv vaqtida ular nazoratsiz siljishi va yo'lovchilarga jiddiy jarohatlarni keltirishi mumkin.
- Bolalarni tutib turuvchi qurilma hattoki unda bola tashilmayotganida ham, u keskin tormozlanish holatida o'z joyidan oldinga sirpanib tushib ketmasligi uchun, u xavfsizlik kamari bilan mahkamlangan holatda qolishi kerak.
- Agar orqa o'rindiqda o'rnatilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma ishlatilmayotgan bo'lsa, uni avtomobil salonidan olib qo'ying.
- YTH dan keyin bolalarni tutib turuvchi qurilmani almashtirish kerak, chunki unda ko'zga ko'rinmaydigan shikastlanishlar bo'lishi mumkin.

Izoh

Bolalarni tutib turuvchi qurilma:

- Ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlangan tasniflanishga bolalarni tutib turuvchi qurilma muvofiq ekanligiga.
- Xavfsizlik bo'yicha mahalliy qonunchilik talablari bilan o'rnatilgan muvofiqlikni tasdiqlovchi yopishtirma yorliqqa ega ekanligiga.
- Sizning avtomobilingizga o'rnatilishi mumkinligiga ishonch hosil qiling.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani to'g'ri o'rnatish va qisqa masofalarga safar qilishda ham xavfsizlik kamarlaridan foydalaning. Xavfsizlik kamari yaxshi tortilgan va to'g'ri joylashtirilgan bo'lishi kerak, bunda u buralib qolmagan bo'lishi kerak.

Bolalar o'rindiqlarini o'rnatish mumkin bo'lgan joylar

Bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilishi mumkin bo'lgan joylar (uch nuqtali xavfsizlik kamari yordamida).

Og'irlik toifasi	Old yo'lovchining o'rindig'i	Ikkinchi qatorning chetki o'rindiqlari	Ikkinchi qatorning markaziy o'rindig'i	Uchinchi qator o'rindiqlari
0: 10 kggacha	X	U, +	U, +	X
0+: 13 kggacha	X	U, +	U, +	X
I — 9 kgdan 18 kggacha	X	U, +	X	X
II — 15 kgdan 25 kggacha	X	U, +	X	X
III — 22 kgdan 36 kggacha	X	U, +	X	X

U: shtatli uch nuqtali xavfsizlik kamari yordamida bolalarni tutib turuvchi qurilmalarini (universal turi) mahkamlash ehtimoli mavjud. Oldingi o'rindiqni oldinga tiralgunicha suring yoki oldingi o'rindiq suyanchig'i orqa o'rindiqlardagi bolalarni tutib turuvchi qurilmaga xalaqit bermasligi uchun, uni vertikal holatga iloji boricha yaqinroq o'rnatib, uning suyanchig'ini sozlang.

X - bu joyga ushbu og'irlik toifasidagi bolalarni tutub turuvchi qurilmani o'rnatish taqiqlangan.

+ — avtomobil o'rindiqlari ISOFIX mahkamlagichlariga ega bo'lishi mumkin. Avtomobildagi ISOFIX mahkamlagichlariga faqat sizning avtomobilingiz uchun ma'qullangan ISOFIX bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish mumkin.

Izoh

- Bosh tagligi bolalarni tutib turuvchi qurilmaga xalaqit bermasligi uchun, uni maksimal darajada tepaga itarib chiqaring. Agar ko'tarilgan bosh tagligi baribir xalaqit berayotgan bo'lsa, uni yechib oling.

 XAVFLI

DIQQAT! QAT'IY XAVFLI!

Agar frontal XAVFSIZLIK YOSTIG'I YOQILGAN bo'lsa, oldingi o'rindiqqa bolalar o'rindig'ini orqaga qaratib o'rnatish TAQIQLANADI. Bu bolaning o'limiga yoki jiddiy jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.



 XAVFLI

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni va kichik yoshdagi bolalarni tizzalarda tashish taqiqlanadi. Garchi yangi tug'ilgan bolaning vazni sezilarli bo'lmasada, to'qnashuv vaqtida u ko'p marta ortadi, shuning uchun siz, hattoki agar siz kamar bilan taqib qo'yilgan bo'lsangiz ham, bolani ushlab qololmaysiz.

 XAVFLI

Bir kamar bilan bir vaqtda katta yoshdagi yo'lovchini va bolani taqib qo'yish taqiqlanadi. To'qnashuv vaqtida kamar bolaga juda kuchli bosim o'tkazadi, bu jiddiy jarohatlarga va hattoki o'limga olib kelishi mumkin. Bir kamar bilan ikki bolani taqib qo'yish taqiqlanadi. To'qnashuv holatida ikki bola ham jiddiy jarohatlar olishi mumkin.

10 yoshdan katta bolalar

10 yoshdan katta bolalarni kamar bilan taqib qo'yish uchun xavfsizlik kamarini to'g'ri qo'llang.



Bola uch nuqtali xavfsizlik kamari bilan to'g'ri taqib qo'yilganligiga ishonch hosil qilish uchun, uning o'tirishini tekshiring: bolaning tizzalari o'rindiq yostig'ining chetida qulay joylashishi kerak, xavfsizlik kamarining yon tomon sohasi bo'yin va yelka orasidan o'tishi, pastkisi esa to's sohasini iloji boricha pastroq qamrab olishi kerak.

XAVFLI

- YTH statistikasi ta'kidlaydiki, orqa o'rindiqlarda bolalarning joylashtirilishi va kamarlarning to'g'ri qo'llanilishi xavfsizlikni oshiradi.
- To'qnashuv vaqtida kamar taqilgan bola o'z joyidan uchib chiqib ketishi mumkin.
- Bola bolalar o'rindig'ida tashilishi, xavfsizlik kamarining bel sohasi uning tos sohasini zich qamrab olishi kerak. To'qnashuv vaqtida kamar bolaning tos-boldir suyagiga ta'sir qiladi.

**XAVFLI**

Keltirilgan rasmda bolani uch nuqtali xavfsizlik kamari bilan noto'g'ri taqib qo'yilishi ko'rsatilgan.


Bunday alpozda taqilgan bola YTH holatida jarohatlar olishi yoki nobud bo'lishi mumkin.

ISOFIX mahkamlagichlar tizimli bolalarni tutib turuvchi qurilma

ISOFIX tizimining mahkamlash skobalari



Avtomobil bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlash uchun ISOFIX skobalar tizimi bilan jihozlangan.

ISOFIX tizimi skobalari orqa o'rindiqlarning suyanchig'i va yostig'i orasida joylashgan. Ularning joylashgan joyi  belgili qoplamalar bilan belgilangan.

ISOFIX skobalari bevosita qoplamalar ostida joylashgan.

Orqa o'rindiqlarga bir vaqtda ISOFIX mahkamlash tizimi bilan ikki bolalar o'rindig'ini o'rnatish mumkin, bunda bolalar o'rindiqlari qo'shni o'rindiqlarda o'rnatilishi kerak emas.

ISOFIX bolalarni tutib turuvchi qurilmasini o'rnatish tartibi

1. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani siz uni o'rnatishni rejalashtirayotgan o'rindiq oldiga joylashtiring.

2. Qurilma ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalariga rioya qilib, bolalarni tutib turuvchi qurilmasining ISOFIX tizimi ilmoqlarini o'rindiqdagi ISOFIX tizimi skobalariga mahkamlang.

3. Bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rindiqqa ishonch mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.

ISOFIX tizimli bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatishga ruxsat berilgan joylar

Og'irlik toifasi	O'Icham sinfi	Mahkamlagich	Old yo'lovchining o'rindig'i	Ikkinchi qatorning chetki o'rindiq-lari	Ikkinchi qatorning markaziy o'rindig'i	Uchinchi qator o'rindiq-lari
0: 10 kggacha	E	ISO/R1	X	IL	IL	X
0+: 13 kggacha	E	ISO/R1	X	IL	IL	X
	D	ISO/R2	X	IL	IL	X
	C	ISO/R3	X	IL	IL	X
I — 9 kgdan 18 kggacha	D	ISO/R2	X	IL	IL	X
	C	ISO/R3	X	IL	IL	X
	B	ISO/F2	X	IL, IUF	IL, IUF	X
	B1	ISO/F2X	X	IL, IUF	IL, IUF	X
	A	ISO/F3	X	IL, IUF	IL, IUF	X
II — 15 kgdan 25 kggacha			X	IL	IL	X
III — 22 kgdan 36			X	IL	IL	X

IL: Ushbu avtomobil uchun maxsus ishlab chiqilgan ISOFIX bolalarni tutib turuvchi qurilmani qo'llashda "cheklangan qo'llaniluvchi" yoki "yarimuniversal" turlariga ruxsat beriladi. ISOFIX xavfsizlik tizimi avtomobilning har bir aniq turi uchun tasdiqlanishi kerak.

IUF — ushbu vazn toifasi uchun ma'qullangan, ISOFIX mahkamlash tizimli universal turdagi avtomobilning harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuztuban o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilmasidan foydalanishda ruxsat etiladi.

X — ushbu vazn toifasi uchun ISOFIX tizimli bolalarni tutib turuvchi qurilmaning qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'Ichamlar sinfi va ISOFIX o'rindiqlari

A - ISO/F3 : 9 kgdan 18 kggacha vazn toifasining yuqori segmentida bolalar uchun avtomobilning harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuztuban o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma.

B - ISO/F2 : 9 kgdan 18 kggacha vazn toifasining pastki segmentida bolalar uchun avtomobilning harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuztuban o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma.


B1 — ISO/F2X : 9 kgdan 18 kggacha vazn toifasining pastki segmentida bolalar uchun avtomobilning harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuztuban o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma.

C - ISO/R3 : 18 kggacha vazn toifasining yuqori segmentida bolalar uchun avtomobilning harakatlanish yo'nalishiga qarshi yuztuban o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma.

D - ISO/R2 : 18 kggacha vazn toifasining pastki segmentida bolalar uchun avtomobilning harakatlanish yo'nalishiga qarshi yuztuban o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma.


E - ISO/R1 : 13 kggacha vazn toifasidagi kichik bolalar uchun avtomobilning harakatlanish yo'nalishiga qarshi yuztuban o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma.

Top-tether bolalarning xavfsizlik tizimi



A. Avtomobilning old qismi

ISOFIX tizimining tepa kamarini mahkamlash joylari (Top-Tether)

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani tepa kamarini (Top-Tether) mahkamlash uchun skobalar har bir o'tirish joyining qarshisidagi ikkinchi qator o'rindiqlarining suyanchiqlarini orqa tomonida joylashgan va  belgi bilan belgilangan

Izoh

Bolalarni tutib turuvchi qurilmaning tepa kamarini (Top-Tether) faqat buning uchun mo'ljallangan skobalarga mahkamlash zarur.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmasini tepa kamar (Top-Tether) yordamida mahkamlash tartibi:

1. Tepa kamar (Top-Tether) mahkamlagichining, unga bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlash kamarini mahkamlash mumkin bo'lishi uchun, skoba yopgichini yechib oling.
2. Bolalarni tutib turuvchi qurilmaning tepa kamarining (Top-Tether) ilmog'ini qurilma ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalariga rioya qilgan holda skobaga mahkamlang.
3. Bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rindiqqa ishonch mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.


3

SAQLASH UCHUN JOYLAR

- BUYUM QUTILARI 3-2
- BUYUMLARNI / YUKLARNI JOYLASHTIRISH 3-7
- BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN
QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR 3-8
- TOMDA O'RNATILGAN YUKXONA 3-11
- AVTOMOBILLARNI YUKLASH
HAQIDA MA'LUMOT 3-11
- IZOHLAR 3-12

BUYUM QUTILARI

Asbob-uskunalar panelidagi quti




Asbob-uskunalar panelida tepa buyum bo'linmasi.

⚠️ DIQQAT!

Avtomobilni to'g'ri quyosh nurlari yoki havoning yuqori harorati ostida to'xtab turishga qoldirib, bo'lmachada ko'zoynak, kompakt-disk, kompakt-disklardan qutilar va engil alanganuvchi buyumlarni, masalan, yondirgichlarni, qoldirmang, chunki bo'lmacha juda qattiq qizib ketishi mumkin.

Qo'lqoplar uchun g'aladon



Ochish uchun, tutqichdan torting.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Harakatlanish vaqtida avariya yoki to'satdan to'xtash oqibatida jarohatlanish xavfini pasaytirish uchun qo'lqoplar uchun g'aladonning eshikchasini har doim yopiq holatda ushlang.

Stakan tutqichlar (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)


Oldingi stakandonlar

⚠️ OGOHLANTIRISH!


Avtomobilning harakatlanish vaqtida stakandonga issiq suyuqlikli ochiq chashkalarni qo'ymang. Agar ichimlik to'kilib ketsa, u sizni kuydirishi va siz avtomobil bilan boshqaruvni yo'qotishingiz mumkin. Keskin tormozlanish yoki to'qnashuv ehtimolini pasaytirish uchun, yopilgan yoki mahkamlangan butilkalar, stakanlar, bankalar va boshqalarni avtomobil harakatlanayotganida stakandonda qoldirmang.




Stakandonlar barcha eshiklarda jihozlangan.



Yana bitta stakandon markaziy konsolda joylashtirilgan. Orqa stakandonlar yoyish uchun, pastga torting.




Stakandonlar ikkinchi qator o'rindiqlarning tirsaklagichida joylashtirilgan. Stakandondan foydalanish uchun, tirsaklagichni tushiring.



Stakandonlar uchinchi qator o'rindiqlaridan ikki tomon bo'ylab joylashtirilgan.


Old buyumlar bo'lmasi

Saqlash uchun bo'lmacha eshik panelida




Barcha eshiklarda buyumlarni saqlash uchun cho'ntaklar mavjud.

Ko'zoynaklar uchun bo'lmacha



Ochish: Qopqoqning orqa chetiga bosing.
Yopish: Qopqoqni ko'taring va mahkamlangunicha bosing.
Og'ir buyumlarni saqlash uchun foydalanmang.

Tirsaklagichdagi buyum bo'lmachasi




Qistirgichni bosing va tirsaklagichning qopqog'ini ko'taring.

**Tirsaklagichdagi buyum bo'lmachasi
(Simlarning qo'shimcha tutamini yotqizish)**




Tirsaklagichda audiokabelni yotqizish ostiga joy ko'zda tutilgan.




Agar audiokabelni tirsaklagich tushirilgan holatda qo'llanilish zarurati bo'lsa, kabelni qisib qo'ymaslik uchun tasvirda ko'rsatilgani kabi kabelni yotqizing.

**Yukxonada buyumlarni saqlash uchun
bo'linma**

Saqlash uchun yechiladigan boks (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
Yechiladigan buyum bo'lmachasi avtomobilning yukxona bo'linmasida joylashgan.




Yechiladigan yukxona bo'lmachasini ochish uchun, uning qopqog'ini ko'taring.




Yon tomon mahkamlagichlarini ochish uchun, ularni soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga aylantiring.

Markaziy konsoldagi buyum g'aladoni



Yuqorida keltirilgan rasmda markaziy konsoldagi buyum bo'linmasi ko'rsatilgan.



Uchinchi qator o'rindiqlarining markaziy konsolida joylashtirilgan.


Uchinchi qator o'rindiqlarining buyum bo'linmalari



Uchinchi qator o'rindiqlaridan ikki tomon bo'ylab joylashtirilgan.

**BUYUMLARNI/YUKLARNI
JOYLASHTIRISH
Yukxona bo'linmasi**

Uchinchi qator o'rindiqlari



Joy-lashgan joyi	Hajmi	Litrlar
A	Uchinchi qator o'rindiqlarining tepa hoshiyasi darajasigacha yuklama	205
B	Uchinchi qator o'rindiqlari taxlangan, suyan-chiqlarning tepa hoshiyasi darajasigacha yuklama	554
C	Uchinchi qator o'rindiqlari taxlangan, tom darajasigacha yuklama	878
D	Ikkinchi va uchinchi qator o'rindiqlari taxlangan	1830
E	Ikkinchi va uchinchi qator o'rindiqlari taxlangan, tom darajasigacha yuklama	1780

Orqa o'rindiqlar

⚠ OGOHLANTIRISH!
Mahkamlanmagan yukdan ehtiyot bo'ling. To'qnashish holatida u yo'lovchilar ustiga uchib tushishi va ularni jarohatlashi mumkin.

Ikkinchi qator o'rindiqlari "Ikkinchi qator o'rindiqlarini taxlash"ni Ikkinchi qator o'rindiqlari ↻ 2-7 da ko'ring.
Uchinchi qator o'rindiqlari "Uchinchi qator o'rindiqlarini taxlash"ni Uchinchi qator o'rindiqlari ↻ 2-10 da ko'ring..

**BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN
QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR**


**Yukxona bo'linmasining qopqog'i
(agar ko'zda tutilgan bo'lsa)**

Qopqoq ustiga begona buyumlarni qo'ymang.




Yukxona bo'linmasini pardachalarini o'rnatishdan avval xavfsizlik kamarlarining xalqalarini o'rnatish zarur.


O'rnatish



Yukxona bo'linmasini pardachalarini o'ng chetini uyachaga o'rnatib, so'ngra pardachaning o'ng chetini mahkamlangunicha o'rnatib.




Pardachani oldinga torting va uni ikkinchi qator o'rindiqlarini suyanchiqlaridagi ilmoqlarga mahkamlang.

Ochish va yopish

Yopish: Yukxona qopqog'ini tutqichdan ushlab orqaga tortib chiqaring va uni yo'naltirgichlarda mahkamlang.


Ochish: Yukxona bo'linmasini qopqog'ini yon tomondagi yo'naltirgichlardan yechib oling. U to'liq yig'ilib qolmagunicha, uni tutib turing.

Qopqoqni yechib olish

Yukxona bo'linmasini pardachasini o'rab oling. Pardacha shtangasini ikki tomondan ushlab avtomobil markaziga torting, uni ko'taring va uyachadan sug'urib oling.

Yukxona bo'linmasida saqlash

Agar pardacha ishlatilmayotgan bo'lsa, uni saqlash uchun yechiladigan boksdagi chuqurchaga joylashtiring.



Pardachani taxlang.


Pardachani tepa tomoni bilan tepa yoyib, uni yo'lovchi tomonidan chuqurchaga o'rming.

Pardachani haydovchi tomonidagi chuqurchaga mahkamlangunicha o'rming.

Izoh

Pardachani boksga joylashtirish va qopqoqni yopish uchun, pardachani tutqichidan orqaga torting. Pardachani olish uchun, avval uning bir uchini, so'ngra esa ikkinchi uchini bo'shatib oling.

Mahkamlovchi zo'g'ota



Kamarlarni mahkamlash zo'g'otalari buyumlarni sirg'alib chiqib ketishdan mahkamlash uchun mo'ljallangan, masalan, buyumni mahkamlab qo'yish uchun, mahkamlovchi kamarlardan yoki yukxonaning polida mahkamlanuvchi to'rni qo'llash mumkin. Yukxona pol to'ri faqat katta bo'lmagan, engil buyumlarni mahkamlash uchun mo'ljallangan, u keskin burilishlar, joydan qo'zg'alish va tormozlanish vaqtida yuklarning joyidan siljib ketishiga to'sqinlik qiladi.

O'rnatish uchun: To'rning to'rtta ilgagini yukxona bo'linmasining polidagi mahkamlovchi zo'g'otalarga o'rnatish.

O'to'chirgich



O'to'chirgich oldingi yo'lovchining o'rindig'i ostida polda saqlanadi.

O'to'chirgichdan foydalanish uchun:

1. Avtomobilni to'xtatish va darhol o't oldirishni o'chirish.
2. O'to'chirgichni oldingi yo'lovchining o'rindig'i ostidan chiqarib oling.
3. O'to'chirgichdan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma uning ustiga joylashtirilgan yopishtirma yorliqqa chop etilgan.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Avtomobil egasi o'to'chirgichning sozligini va yaroqlilik muddatini kuzatib borishga majbur. Tekshirishlarni o'to'chirgichning o'zidagi ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasiga muvofiq muntazam bajarib turilishi kerak. Quyidagilarni muntazam tekshirib turing:

- O'to'chirgichdagi ichki bosim indikatorining strelkasi yashil zonada joylashgan bo'lishi kerak.
- Qo'rg'oshinli plomba shikastlangan bo'lishi kerak emas.
- O'to'chirgichning yaroqlilik muddati o'tib ketgan bo'lishi kerak emas.

Biron bir buzilishlarni aniqlashtirish holatida, hamda mo'ljallanganlik bo'yicha qo'llashdan so'ng, o'to'chirgichni albatta amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tayyorlangan yangisiga almashtirish zarur.

Izoh

Mamlakatda amal qiluvchi qonunchilik talablariga muvofiq etkazib beriladi.

TOMDA O'RNATILGAN YUKXONA

Xavfsizlik maqsadida va tomni shikastlanishidan saqlash uchun tomda maxsus tasdiqlangan yukxonadan foydalanish tavsiya etiladi.

Agar avtomobil tomdagi yukxona bilan jihozlangan bo'lsa, uni yuklarni tashish uchun qo'llash mumkin. Yukxona uchun ko'ndalang to'sinlarni Chevrolet dileriga murojaat qilish orqali xarid qilish mumkin.

Tomda joylashtirilgan yukxonaga yuklanadigan yukning og'irligi 100 kg dan ortiq bo'lmasligi kerak.

⚠️ DIQQAT!

Avtomobilning shikastlanishidan saqlanish uchun, yuklarni avtomobil orqasiga va yon tomonlariga osib qo'ymang. Yuklar ko'ndalang to'sinlar orasida bir tekis joylashishi uchun, ularni shunday tarzda taxlab chiqing, va ishonchli mahkamlab qo'ying.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Shikastlanishdan yoki harakatlanish vaqtida yuklarni yo'qotib qo'yishdan saqlanish uchun, ko'ndalang to'sinlar va yuk ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. Tom yukxonasida yuklarni tashish vaqtida avtomobilning og'irlik markazi tepaga o'tadi. Boshqaruvning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yuqori tezlikda harakatlanishdan, joydan to'satdan qo'zg'alishdan, keskin burilishlardan, keskin tormozlanishdan yoki keskin quvib o'tishdan saqlaning.

⚠️ DIQQAT!

Tomda yuk bilan harakatlanishda avtomobilga yon tomon shamolining ta'sir kuchi ortadi, og'irlik markazining oshishi sababli esa avtomobilning boshqaruvchi yomonlashadi.

Uzoq masofalarga saqarlar vaqtida, hamda notekis yo'llardan harakatlanishda, yuklarning ishonchli mahkamlanishini vaqti-vaqti bilan tekshirish uchun to'xtash kerak.

Avtomobilni yuklashda uning maksimal ruxsat etilgan yuk ko'tarishini oshirib yubormang. Qarang Yukxona bo'linmasi ⇨ 3-7.

AVTOMOBIL YUKLANGANLIGI HAQIDA MA'LUMOT

- Yukxona bo'linmasidagi og'ir buyumlar o'rindiqlarning suyanchig'iga iloji boricha yaqinroq qilib o'rnatilishi kerak. Suyanchiqlar ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. Agar buyumlarni bir-birini ustiga joylashtirish mumkin bo'lsa, pastdan eng og'ir buyumlarni joylashtirish kerak.
- Yukxona bo'linmasidagi yuklar siljib ketmasligi uchun ularni barchasini mahkamlab qo'ying.
- Yukxona bo'linmasida yuklarni tashishda o'rindiqlarning orqa qatori suyanchiqlari oldinga engashtirilgan bo'lmasligi kerak.
- Yuk suyanchiqlarning ustidan bo'rtib chiqishiga yo'l qo'ymang.
- Har bir buyum uchun unga muvofiq keladigan bo'linmani tanlash zarur.
- Yuk tepkilarga, turish tormoziga va yuritmalarni o'zgartirish dastagiga xalaqit bermasligi, hamda haydovchining harakatlanish erkinligini chegaralamasligi kerak. Salonda mahkamlanmagan buyumlarni saqlamang.
- Yukxona bo'linmasi ochiq holatda harakatlanish taqiqlanadi.
- Foydali yuklama avtomobilning ruxsat etilgan maksimal og'irligi (Pasport jadvalchasi ⇨ 11-2 niko'ring) va uning yuklangan og'irligi orasidagi nisbat bilan aniqlanadi.

Yuklangan og'irlik o'z ichiga yuk va barcha suyuqliklarning (yonilg'i bakining 90%ga to'ldirilganligi) og'irligini oladi. Qo'shimcha asbob-uskunalar va jihozlar avtomobilning yuklanish og'irligini oshiradi.

4

BOSHQARUV USKUNALARI VA ORGANLARI

- ASBOB-USKUNALAR PANELINING QISQACHA TAVSIFI 4-2
- BOSHQARUV ORGANLARI 4-4
- SIGNALIZATORLAR, O'LCHOV ASBOBLARI VA INDIKATORLAR..... 4-9
- AXBOROT DISPLEYLARI 4-17
- AVTOMOBILNING AXBOROT XABARLARI 4-18
- BORT KOMPYUTERI 4-24

ASBOB-USKUNALAR PANELINING QISQACHA TAVSIFI




Uskunalar majmuidari

1. Motor moyi bosimi signalizatori 4-15-betda.
2. Nosozlik signalizatori 4-12-betda.
3. Dinamik stabilizatsiya elektron tizimini (ESC) o'chirish signalizatori 4-14-betda.
4. Tormozlarning antibloklash tizimi (ABS) signalizatori 4-13-betda.
5. Kruiz-nazorat signalizatori 4-17-betda.
6. Xavfsizlik kamarini taqib olish zarurati haqidagi eslatma signalizatori 4-11-betda.
7. Buriilish ko'rsatkichi 4-11-betda.
8. Dinamik stabilizatsiya elektron tizimi (ESC) 4-14-betda.
9. Oldinda ketayotgan avtomobil haqida signalizator 4-14-betda.
10. Tormozlash tizimi va ssepleniya signalizatori 4-12-betda.
11. Tortish kuchini nazorat qilish tizimi (TCS) signalizatori 4-14-betda.
12. Xavfsizlik kamarini taqib olish zarurati haqidagi eslatma signalizatori 4-11-betda.
13. Quvvatlashtirish tizimi lampasi 4-12-betda.
14. Yonilg'i darajasi ko'rsatkichi 4-10-betda.
15. Dvigatelni sovutuvchi suyuqligining harorati indikator 4-10-betda.
16. Haydovchining axborot markazi (DIC) 4-17-betda.
17. Yoqilgan yoritish uskunalari haqida eslatma 4-17-betda.
18. To'liq uzatmaning yoritgichli indikator 4-13-betda.
19. Harakatlanish chizig'i chegarasidan tashqariga chiqish haqida ogohlantirish indikator (LDW) 4-13-betda.
20. Nishablik ostiga harakatlanish nazorat indikator 4-13-betda.
21. Buriilish ko'rsatkichi 4-11-betda.
22. Uzoqni yoritish yoqilganligi haqida signalizator 4-16-betda.
23. Shinalarda bosimni nazorat qilish tizimi indikator 4-15-betda.
24. Immobilayzer signalizatori 4-16-betda.
25. Xavfsizlik yostiqchasi va xavfsizlik kamarining taranglagichi signalizatori 4-11-betda.
26. Orqa tumanga qarshi chiroqlarning signalizatori 4-16-betda.
27. Old tumanga qarshi chiroqlarning signalizatori 4-16-betda.

BOSHQARUV ORGANLARI

Rul chamberagini holatini sozlash



Dastakni blokdan chiqarish, rul chamberagini sozlash, so'ngra dastakni bloklash va u to'liq mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish. Rul chamberagining sozlanishini faqat harakatlanmayotgan avtomobilda bajarish mumkin.

Rul chamberagi boshqaruv organlari




Axborot-ko'ngilochar tizimni rul chamberagida joylashtirilgan tugmalar yordamida boshqarish mumkin. Rul chamberagidagi boshqaruv organlari (Agar ko'zda tutilgan bo'lsa) ⇨ 6-4ni ko'ring.




Kruiz-nazorat va frontal to'qnashuv xavfi haqida ogohlantirish tizimlarini rul chamberagidagi tugmalar bogli yordamida boshqarish mumkin. Kruiz-nazorat (Agar ko'zda tutilgan bo'lsa) ⇨ 8-24 ni ko'ring. Frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) ⇨ 8-25 ni ko'ring.

Ovozli signal

Ovozli signalni berish uchun, rul chamberagidagi  tugmaga bosing.

 **DIQQAT!**

Biron bir buyumni, masalan, gulchambarlar yoki tasbehlarni, rul ustuniga osish yoki unga bog'lab qo'yish taqiqlanadi. Bu rul chamberagining elektr simlariga shikast etkazishi va ovozli uskunani yoki xavfsizlik yostiqchasini ishdan chiqarishi mumkin.

Old oyna oyna tozalagichi/yuvgichi**Old oyna yuvgichi**


HI (ВЫС): tez


LO (НИЗ): asta-sekin

INT (ПРЕР): tozalagich ishining uzilishli tartibi. Yomg'irning avtomatik datchigi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa).

OFF: O'chirilgan.

Ishlamayotgan oyna tozalagichni bir marta yoqish uchun dastakni pastga bosing. Avtoyuvishda o'chirib qo'yishni unutmag.

Tozalashning sozlanuvchi oraliq'i

Oyna tozalagichning dastagi  holatda. Oyna tozalagichning ish tartibini o'zgartirish uchun maxovikchani aylantiring.


Uzun oraliq: Sozlash halqasini pastga burang.

Qisqa oraliq: Sozlash halqasini tepaga burang.

Yomg'ir datchigi signali bo'yicha oyna tozalagichni avtomatik boshqarish (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)

INT (UZILISHLI): yomg'ir datchigi signali bo'yicha oyna tozalagichni avtomatik boshqarish Yomg'ir datchigi old oynadagi yomg'irning miqdorini aniqlaydi va oyna tozalagichlarning ishini tez-tezligini avtomatik sozlaydi.

Yomg'ir datchigining sezuvchanligini sozlash
(agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)




Sezuvchanlik darajasini o'zgartirish uchun halchani aylantiring:

Past sezuvchanlik: Halqachani pastga burang
Yuqori sezuvchanlik: Halqachani pastga burang.

⚠️ DIQQAT!


Yuvish joyiga tashrif buyurishda old oyna tozalagichlarini o'chirib qo'ying va agar sizning avtomobilingiz yomg'ir datchigi bilan jihozlangan bo'lsa, ular bilan boshqaruvni avtomatik tartibga o'tkazmang.



Datchikka chang, iflosliklarni va muzning tushib qolishiga yo'l qo'ymang.

Agar oyna tozalagichlarini yomg'ir datchigi signali bo'yicha boshqaruv tartibiga o'tkazilsa yoki o't oldirilgan holatda sozlash halqachasini past sezuvchanlik holatidan yuqori sezuvchanlik holatiga o'tkazilsa, tizimning ish qobiliyatini tekshirish uchun tozalagich cho'tkalari bir marta silkishni amalga oshiradi.

Old oyna yuvgichi



Dastakni torting. Yuvgich suyuqligi old oynaga sepiladi va oyna tozalagichlar bir nechta silkitishlarni qiladi.

⚠️ DIQQAT!


Haydovchini me'yordagi manzarani ko'rish mavjud emasligi to'qnashuvga olib kelishi va o'zi bilan jarohatlanish, avtomobil shikastlanishi yoki boshqa moddiy zararni keltirishi mumkin.

Agar oyna quruq yoki old oynada cho'tkalarining ishi, masalan, ifloslarning, qorning yoki muzning yopishib qolishi bilan qiyinlashtirilgan bo'lsa, oyna tozalagichlarni ishga tushirmang. Old oynada begona buyumlar mavjud bo'lganida oyna

⚠️ DIQQAT!

tozalagichlarning yoqilishi cho'tkalarining, oyna tozalagichning elektr dvigatelini va oynani shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Sovuq havoda oyna tozalagichlarni yoqishdan avval, cho'tkalar oynaga muzlab qolmaganligiga ishonch hosil qiling. Oynaga cho'tkasi muzlab qolgan oyna tozalagichni ishga tushirishda oyna tozalagichning elektr dvigatelini shikastlanish ehtimoli bor. Old oynaning yuvgichini bir necha soniyalardan yuqori uzluksiz ishlashiga, hamda yuvgichning bo'sh bachogida ishlatilishiga yo'l qo'ymang. Bu yuvgichning dvigatelini qizib ketishiga olib kelishi mumkin.

Orqa oyna tozalagichi/yuvgichi



Orqa oyna tozalagichni yoqish uchun, o'chirgich tugmasiga bosing:

Tepa holat: uzluksiz tartib

Pastki holat: uzilishli tartib


O'rtacha holat: o'chirilgan.

Orqa yurish yoqilishida va old oyna tozalagichlari ishlashida orqa oyna tozalagichlari avtomatik o'chadi.

Izoh

Avtomobil to'xtashida va avtomatik YUO'Q selektor dastagi N holatga o'rnatilgan vaqtda, orqa oyna oyna tozalagichi/yuvgichi o'chadi. Agar avtomatik YUO'Q selektor dastagi N holatdan

10 soniyaga o'tkazilganda yoki avtomobil tezligi 5 km/soatdan oshganda, orqa oyna oyna tozalagichi qayta ishlashni boshlaydi.



Dastakka bosing. Yuvgichdan suyuqlik orqa oynaga sepiladi, oyna tozalagich esa oyna bo'ylab bir necha silkinishlarni qiladi.

Agar orqa oyna muz bilan qoplangan bo'lsa, yoqilmasin.

Yuvish joylarida o'chirib qo'yilsin.


Tashqi harorat

Havoning harorati tushib ketishiga ko'rsatkich darhol, oshishiga esa - tutilish bilan ta'sir qiladi. Qarang "Atrof-muhit havosining harorati" ni Bort kompyuteri ↪ 4-24 da ko'ring.


Soat

Vaqt axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida aks ettiriladi. Qisqa ma'lumot ↗ 6-2ni ko'ring.


Shtepsel ulagichlar



12 V kuchlanishli oziqlanish ulagichlari old panelda joylashgan.



12 V kuchlanishli oziqlanish ulagichlari old markaziy konsolning orqasida joylashtirilgan (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa).



Yana bitta 12 Vga ulagich yukxona bo'linmasida chapda joylashgan.

Qo'shimcha anjomlar uchun ulagichni qo'llash uchun qopqoqni yechish kerak bo'ladi. Agar ulagich ishlatilmayotgan bo'lsa, qopqoqni o'rniga joylashtiring.

Izoh

Ulagichlarning soni va joylashishi avtomobil modifikatsiyasiga bog'liq.

⚠ DIQQAT!

Har bir ulagich uchun maksimal iste'mol qilinayotgan quvvat 12 V dan oshmasligi kerak. O't oldirish o'chirilgan va eshiklar to'liq yopilgan vaqtda ulagichlar 10 minutdan so'ng o'chadi. Akkumulyator batareyasining kuchlanishi pasayishida qo'shimcha elektr oziqlanish ulagichlari ham manbadan uziladi. Tok manbai hisoblanadigan qurilmalarni, masalan quvvatlovchi qurilmalar va akkumulyatorlar, ulamang. Mos kelmaydigan shtekerni qo'llash orqali ulagichlarni shikastlamang.

SIGNALIZATORLAR, O'LCHOV ASBOBLARI VA INDIKATORLAR

Signalizatorlar va o'lchov asboblari nosozliklar mavjudligini, ular qimmatbaho ta'mirlashga yoki almashtirishga olib kelish uchun yetarlicha jiddiy bo'lib qolguniga qadar ko'rsatishi mumkin. Jarohatlanishdan saqlanish uchun uskunalar va indikatorlarning ko'rsatkichlarini kuzatib boring. Signalizatorlar avtomobilning funksional imkoniyatlari ehtimolli muammolar holatida yoqiladi.

Ba'zi signalizatorlar dvigatel ishga tushirilishida ularning ish qobiliyatini indikatsiyasi sifatida qisqa vaqtga yonadi. O'lchov asboblari avtomobilning funksional imkoniyatlari ehtimolli muammolar holatida yoqiladi.


Ko'rsatkichlar va signalizatorlar ko'pincha bir vaqtda ishlaydi va avtomobilning nosozligini ko'rsatadi. Agar harakatlanish vaqtida signalizatorlardan biri yopishganda yoki asboblardan biri nosozlik mavjudligiga ko'rsatayotgan bo'lsa, bu nimani anglatishi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni ushbu bo'limda topishingiz mumkin. Qo'llanmada ko'rsatilgan tavsiyalarga rioya qiling. Ta'mirlashni cho'zib yuborish qimmatbaho va hattoki xavfli bo'lib qolishi mumkin.

Spidometr



Avtomobil harakatlanishining tezligini ko'rsatadi.

Odometr



Pastki satr bosib o'tilgan masofani ko'rsatadi.

Joriy bosib o'tilgan masofa hisoblagichi

Ushbu menyuda hisoblagich ko'rsatkichini oxirgi tashlab yuborilishi paytidan avtomobilning bosib o'tgan masofasining joriy bosib o'tgan masofasi aks ettiriladi. Qarang Bort kompyuteri ↪ 4-24.

Taxometr



Bir minutda dvigatelning aylanishlar sonini ko'rsatadi (ayl/min).

Illoji boricha yuritmalarining har birida dvigatel aylanishlarining past oralig'ida yurishga harakat qiling.

⚠️ DIQQAT!

Agar ko'rsatkich ogohlantirishning qizil zonasiga o'tayotgan bo'lsa, bu dvigatel aylanishining maksimal ruxsat etilgan tez-tezligi oshirib yuborilganligini bildiradi. Dvigatel shikastlanishi mumkin.


Yonilg'i sathini ko'rsatkichi

Bakda yonilg'i sathini ko'rsatadi.

Bakda yonilg'i sathining pasayishida haydovchining axborot markazi displeyida "Yonilg'ining past darajasi" ogohlantirishi doimo aks ettirilib turadi va muvofiq indikator (belgi) millitlashni boshlaydi.

Hech qachon bak to'liq bo'shab qolishigacha olib bormang.

Bakda qolayotgan yonilg'i sababli, bakning eng tepa hoshiyasigacha qo'shimcha quyilayotgan yonilg'ining hajmi bakning ko'rsatilgan hajmidan pastroq bo'lib qolishi mumkin.

◀ belgi yonidagi  strelka yonilg'i quyish bo'yinchasining qopqoqchasi chapda joylashganligini ko'rsatadi.

Izoh

Avtomobilga yonilg'ini to'ldirishdan avval, o't oldirish o'chirilganligiga ishonch hosil qiling. Agar yonilg'i quyish vaqtida o't oldirish kaliti buralsa, yonilg'i darajasi ko'rsatkichining ko'rsatmalari noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Nishablik bo'ylab tepaga va pastga harakatlanishda yonilg'i darajasining ko'rsatkichining ko'rsatmalari bakdagi yonilg'ining joyining o'zgarishi sababli noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Indikatorlar

Quyidagi ta'riflangan indikatorlar avtomobillarning ba'zi resuslarida mavjud bo'lmasligi mumkin. Ta'rif uskunalarining ishlantmalarini barcha rususlariga tarqaladi. Qisqa muddatga o't oldirishni yoqishda indikatorlarning ish qobiliyatini tekshirish uchun ularning ko'pchiligi yonadi.

Indikatorlarning rangi quyidagilarni bildiradi:

Qizil: Xavf, muhim eslatma

Sariq: Ogohlantirish, ma'lumot, buzilish

Yashil: Yoqilishning tasdiqlanishi

Moviy: Yoqilishning tasdiqlanishi

Oq: Yoqilishning tasdiqlanishi

Dvigatelning sovituvchi suyuqligining harorat indikatorini

Dvigatelning sovituvchi suyuqligining haroratini aks ettiradi.

Shkalaning chap qismi: Dvigatel odatiy haroratgacha hali qizimagan **Shkalaning markaziy qismi:** Ishchi harorat

Shkalaning o'ng qismi: Juda yuqori harorat Dvigatel haddan ziyod qizib ketgan holatda ko'rsatkich strelkasi o'nga siljib o'tadi, zummer yoqiladi va haydovchining axborot markazi displeyida muvofiq ogohlantirish aks ettiriladi. Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling.

Qarang Haydovchining axborot markazini (DIC) ↻ 4-17ni ko'ring.

 **DIQQAT!**

Dvigatelnig shikastlanishidan saqlanish uchun sovituvchi suyuqlikning darajasini tekshirish va yordam uchun Chevrolet servis-markaziga murojaat qiling.

Burilish ko'rsatkichi

↔ yashil rang bilan miltillamoqda.

Miltillash

Burilish ko'rsatkichi yoqilishida yoki avariya yorug'lik signalizatsiyasi yoqilishida indikator miltillaydi.

Burilish va harakat qatorini almashtirish signallari ↔ 5-4ni ko'ring.

Xavfsizlik kamarini taqib olish zarurati haqida indikatorlar**Taqilgan xavfsizlik kamari indikator lampasi**

Haydovchi o'rindig'i  indikator yonadi yoki qizil shu'la bilan miltillaydi.

O't oldirish yoqilishida ushbu nazorat indikator xavfsizlik kamarini taqib olish zarurati haqida haydovchiga eslatma berib, bir necha soniyaga yoqiladi.

O't oldirish yoki dvigatelni ishga tushirishdan keyin darhol indikator miltillashni boshlaydi, bunda shu bilan birga bir necha soniyaga zummer ham yoqiladi. Bundan so'ng indikator miltillashdan to'xtaydi va toki haydovchi o'rindig'idagi xavfsizlik kamari taqilmagunicha uzluksiz yorishib turadi. Agar harakatlanish vaqtida haydovchi kamar bilan taqilgan holatda qolsa, u holda ma'lum masofa bosib o'tilgandan so'ng yoki ba'zi tezlikka erishilganda qo'shimcha zummer yoqiladi, indikator bir necha soniyaga miltillash tartibiga o'zgaradi.

Agar haydovchining xavfsizlik kamari taqib qo'yilgan bo'lsa, nazorat indikator yoqilmaydi, ovozli signal esa jaranglamaydi. Xavfsizlik kamarlari ↔ 2-13ni ko'ring.

Xavfsizlik kamari haqida eslatma indikator yoqilgan vaqtda, avtoto'xtashga o'rnatish orqa tizimining zummeri ishlamaydi.

Xavfsizlik yostiqchasi va xavfsizlik kamari taranglashtirigichi signalizatori

 qizil chiroq bilan yorishadi.

O't oldirish yoqilganda taxminan 4 soniya davomida yonib turadi. Agar u yonmasa, 4 soniyadan so'ng o'chmasa yoki harakatlanish vaqtida yorishsa, bu ishiriladigan xavfsizlik yostiqlarining tizimi nosozligiga ko'rsatadi. Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling. Ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari va xavfsizlik kamari taranglashtirgichlari avariya holatida ishlamay qolishi mumkin.


 **OGOHLANTIRISH!**


Agar xavfsizlik yostig'i nazorat indikator o't oldirishdan keyin yoki dvigatelni ishga tushirishdan so'ng o'chmasa yoki harakat vaqtida yorishayotgan bo'lsa, bu xavfsizlik yostiqlari tizimi nosozligi haqida xabar berishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlari to'qnashuv vaqtida ishlamay qolishi yoki to'qnashuvsiz ishlab ketishi mumkin. Jarohatlar olishdan saqlanish uchun avtomobilni texnik xizmat ko'rsatilishiga zudlik bilan murojaat qiling. Chevrolet servis-markazida nosozlik sababini zudlik bilan bartaraf qiling.

Xavfsizlik kamarlari ⇨ 2-13 va Ishiriladigan xavfsizlik yostiqlari tizimi ⇨ 2-16 ni ko'ring.

Quvvatlash tizimi lampasi




 qizil chiroq bilan yorishadi. O't oldirishida yoqilishida yorishadi yoki dvigatelni ishga tushirishdan so'ng darhol o'chadi.

Ishlayotgan dvigatelda yorishib turibdi

To'xtang va dvigatelni o'chiring. Akkumulyator batareyasi signalizatori quvvatlash tizimi yoki kuchlanish sozlagichi, borttarmog'ining yuqori yoki past kuchlanishi nosozligi mavjudligi haqida ogohlantiradi. Chevrolet servis-markaziga yordam uchun murojaat qiling. Haydovchining axborot markazini (DIC) ⇨ 4-17 ni ko'ring.

Nosozlik signalizatori



 indikator sariq rang bilan yorishib turadi. O't oldirishida yoqilishida yoqilada yoki dvigatelni ishga tushirishdan so'ng darhol o'chadi.

Ishlayotgan dvigatelda yorishib turibdi

Ishlagan gazlarning toksikligini pasaytirish tizimining nosozligi. Ishlagan gazlarning parametrlarini chegaralari oshirib yuborilgan. Chevrolet dileriga yordam uchun darhol murojaat qiling.

Ishlayotgan dvigatelda mitillash

Yonilg'ini yuborish tizimi yoki gazlarni taqsimlash mexanizmi uzatmasi tizimida yuqori bosim konturining nosozligi aniqlangan. Tekshirish va xizmat ko'rsatishni o'tkazish talab etiladi.

Xizmat ko'rsatishning bajarilmasligi dvigatelning to'liq ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Chevrolet dileriga yordam uchun darhol murojaat qiling.


Jiddiy buzilishlardan saqlanish uchun:

- Harakatlanish tezligini pasaytiring.
- Keskin tezlanishlardan saqlanang.
- Keskin qiyaliklar bo'ylab harakatlanishdan saqlanang.

- Agar avtomobil tirkamani shataklayotgan bo'lsa, birinchi imkoniyat tug'ilganida uni yuklardan bo'shating.

Tormoz tizimi va ssepleniya signalizatori



 Qizil chiroq bilan yorishadi. o'htab turish tormozi yoqilganda, tormoz tizimi yoki ssepleniya uzatmasi konturida suyuqlik darajasining pasayishi holatida, hamda tormoz tizimi nosozligi holatida yorishadi, Tormoz suyuqligi ⇨ 9-12 ni ko'ring.

OGOHLANTIRISH!

Agar tormozlash tizimi signal lampasi yonsa, tormozlash suyuqligini tekshiring va zudlik bilan vakolatlangan servis markaziga murojaat qiling.

Agar barchadagi tormoz suyuqligi darajasi pasaygan bo'lsa, avtomobilda harakatlanish taqiqlanadi.

Ushbu signalizatorning yonib turishi tormoz tizimining nosozligini ko'rsatishi mumkin. Nosoz tormoz tizim bilan haydash shaxsiy jarohatlanishga yoki avtomobilning va boshqa mulkning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Mexanik to'xtab turish tormozi yoqiligidan o't oldirishni yoqishdan so'ng yorishib turibdi, To'xtab turish tormozi ⇨ 8-21ni ko'ring. Agar to'xtab turish tormozi to'liq o'chirilmagan bo'lsa va avtomobil harakat qilishni boshlagan bo'lsa, ma'lum tezlikka erishilgandan so'ng zummer signali yoqiladi va haydovchining axborot markazi displeyida xabar yorishadi, Haydovchining axborot markazini (DIC) ⇨ 4-17 ni ko'ring.

Tormozlarning antibloklash tizimi (ABS) signalizatori



(ABS) indikator sariq rang bilan yorishib turadi. O't oldirish yoqilgandan so'ng bir necha soniyaga yorishadi. Nazorat indikator o'chganida, tizim ishga tayyor bo'ladi. Indikatorning yoqilish nosozligi hosil bo'lish holatida zummerning signali bilan kuzatib boriladi. Agar indikator bir necha soniya o'tib yorishsa yoki harakatlanish vaqtida yonsa, bu ABS tizimining nosozligi mavjudligiga ko'rsatadi. Ishchi tormoz tizimi bunda ish qobiliyatini saqlab qoladi, biroq ABS tizimi o'chadi.

Agar ABS indikator ham, tormoz tizimining avariya holati nazorat lampasi ham yorishib turgan bo'lsa, ABS tizimi ishlamayapti, bunda ishchi tormoz tizimida nosozlik mavjud. Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling. Antibloklovchi tormoz tizimi (ABS) ⇨ 8-20 va Haydovchining axborot markazi (DIC) ⇨ 4-17 ni ko'ring.



To'liq uzatmaning yorug'lik indikator




To'liq uzatmaning yorug'lik indikator oldingi ko'priknı jalb qilgan holda qo'lda yuritmalar qutisi to'liq uzatmaga o'zgarigan vaqtda yoqiladi. To'liq uzatmaga o'zgarishdan so'ng indikator yoqilishining ozgina tutilishi me'yoriy holat hisoblanadi. "To'liq uzatma" bo'limini ko'ring.

Nishablik ostiga harakatlanish nazorati indikator



 yorishadi yoki yashil chiroq bilan yorishadi. Ushbu indikatorning miltillashi avtomobil tezligi ishga tushirilgan nishablik ostiga harakatlanish nazorat tizimiga pasaytirilganligini ko'rsatadi. Bu taxminan 7dan 30 km/soatgacha (mexanik yuritmalar qutisi bo'lgan avtomobillarda) yoki 4dan 30 km/soatgacha (avtomatik yuritmalar qutisi bo'lgan avtomobillarda) tezlikda sodir bo'ladi.  tugmani bosishdan keyin doimo yorishib turadi, avtomobil tezligi 50 km/soatdan oshmaydigan tezlikda tizimning yoqilishiga ko'rsatadi. Nishablik ostiga harakatlanish tizimi (HDC) ⇨ 8-23 ni ko'ring.


Harakatlanish chizig'i chegarasidan o'tib ketish haqida ogohlantirish indikator (LDW)

Asbob-uskunalar panelining markazi bo'yicha joylashtirilgan indikator  (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa), o't oldirishda qisqa muddatga yorishadi. Agar indikator yorishmasa, servis markaziga murojaat qilish zarur.

Agar egallab turilgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi yoqilgan va ishga tayyor bo'lsa, indikator yashil chiroq bilan yorishib turadi.

Agar indikator sariq chiroq bilan yorishib turadi va miltillab turadi, bu avtomobil yo'l chizig'ini kesib o'tganligiga, ammo bunda burilish ko'rsatkichi muvofiq yo'nalishda yoqilmaganligiga ko'rsatadi. Qarang Harakatlanish chizig'idan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi (LDW) ⇨ 8-34 ni ko'ring.

Oldinda ketayotgan avtomobil haqida signalizator


Indikator  (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) oldinda boshqa transport vositasi aniqlangan vaqtida yorishadi.

Oldinda harakatlanayotgan transport vositasi bilan xavfli yaqinlashish holatida indikator sariq rangda yonishni boshlaydi.

Frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) ⇨ 8-25 ni ko'ring.

Dinamik stabilizatsiya elektron tizimi (ESC) signalizatori



 yorishadi yoki sariq rangda miltillab turadi. O't oldirish yoqilganida ushbu indikator bir necha soniyaga yonadi va, agar tizim soz bo'lsa, o'chadi. Agar indikator bir necha soniya

o'tib o'chmasa, demak, tizim nosozlikka yo'l qo'ygan. O'chirilgan dinamik stabilizatsiya elektron tizimi (ESC) bilan harakatni davom ettirish mumkin.

Nosozlik sababini bartaraf qilish uchun Chevrolet dileriga murojaat qiling. Haydovchining axborot markazini (DIC) ⇨ 4-17 ni ko'ring.

Miltillash


ESC, TCS va (yoki) TSC tizimlarini yoqilish vaqtida haydovchining axborot markazidagi (DIC) indikator miltillab turadi.


Tortish kuchi nazorat tizimi (TCS) ⇨ 8-22ni ko'ring. Dinamik stabilizatsiya elektron tizimi (ESC) ⇨ 8-22ni ko'ring. Tirkamani tebranishidan himoya tizimi (TSC) ⇨ 8-42 ni ko'ring.

Dinamik stabilizatsiya elektron tizimi (ESC) signalizatori



OFF

 indikator sariq rang bilan yorishib turadi. Agar o't oldirish yoqilgan vaqtida indikator yoqilsa va darhol o'chsa yoki umuman yoqilmasa, Chevrolet servis markaziga yordam uchun murojaat qiling.

Markaziy konsolda  tugmani bosish bilan dinamik stabilizatsiya elektron tizimini (ESC) qo'lda o'chirishda yorishadi.

Ushbu indikatorning yoqilishi haydovchining axborot markazi displeyida xabar paydo bo'lishi bilan kuzatib boriladi.

Dinamik stabilizatsiya elektron tizimi (ESC) ⇨ 8-22 va Haydovchining axborot markazi (DIC) ⇨ 4-17 ni ko'ring.

Tortish kuchi nazorat tizimi (TCS) signalizatori



 yorishadi yoki sariq rangda miltillab turadi.

Yorishadi

O't oldirish yoqilganida ushbu indikator bir necha soniyaga yonadi va, agar tizim soz bo'lsa, o'chadi.


Agar indikator bir necha soniya o'tib o'chmasa, demak, tizim nosozlikka yo'l qo'ydi. Tortish kuchini nazorat qilish tizimi (TCS) o'chirilgan holda harakatlanishni davom ettirish mumkin. Nosozlik sababini bartaraf qilish uchun Chevrolet dileriga murojaat qiling.

Miltillash


ESC, TCS va (yoki) TSC tizimlarini yoqilish vaqtida haydovchining axborot markazidagi (DIC) indikator miltillab turadi.

Tortish kuchi nazorat tizimi (TCS) ⇨ 8-22, Dinamik stabilizatsiya elektron tizimi (ESC) ⇨ 8-22 va Tirkamani tebranishidan himoya tizimi (TSC) ⇨ 8-42 ni ko'ring.

Tortish kuchini nazorat qilish tizimini (TCS) o'chirish signalizatori.

Indikator  TC sariq rangda yorishib turibdi. Agar tizim o'chiq bo'lsa, yorishib turadi. Tortish kuchi nazorat tizimi (TCS) ⇨ 8-22 ni ko'ring.

Shinalarda bosimni nazorat qilish tizimi indikator

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) bilan jihozlangan avtomobillarda indikator  dvigatelni ishga tushirishda qisqa vaqtga yorishadi. U shinalardagi va TPMS dagi bosim haqidagi ma'lumotni taqdim etadi.

Agar signalizator doimo yonib tursa

Bu bir yoki bir nechta shinalardagi bosim me'yordan sezilarli pastligini bildiradi. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida shinalardagi bosim haqidagi xabar ham paydo bo'lishi mumkin. Shinalar holati haqida xabar ⇨ 4-22 ni ko'ring. Iloji boricha tezroq to'xtang va shinalardagi bosimni shinada va yuklama haqidagi ma'lumotli yorliqda

ko'rsatilgan qiymatgacha etkazing. Shinalardagi havo bosimi ⇨ 9-29 ni ko'ring.

Agar signalizator avval miltillab, keyin esa doimo yorishib turgan bo'lsa

Agar signalizator taxminan bir minut miltillab turgan bo'lsa, so'ngra esa doimo yonib tursa, ehtimol, TPMS da muammo hosil bo'lgan. Agar uni bartaraf qilish imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, signalizator o't oldirishning har bir siklida yoqiladi. Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimining faoliyati ⇨ 9-32 ni ko'ring.

Motor moyi bosimi signalizatori

 qizil rang bilan yorishadi.

O't oldirish yoqilganidan so'ng u bir necha soniyalarga yoqiladi. U shu bilan birga yoqiladi, agar dvigateldagi moyning bosimi ruxsat etligandan past bo'lsa Bunda shu bilan birga haydovchining axborot markaziga qo'shimcha ogohlantiruvchi xabar chiqariladi. Qarang Haydovchining axborot markazini (DIC) ⇨ 4-17 ni ko'ring.

Ishlayotgan dvigatelda yorishib turibdi

Balki dvigatel moylanishi buzilgandir. Bu dvigatelning shikastlanishiga va/yoki yurituvchi g'ildiraklarning bloklanishiga olib kelishi mumkin.

1. Mexanik yuritmalar qutisi: ssepleniya tepkisini bosing va neytral yuritmani o'chiring. Avtomatik yuritmalar qutisi: selektor dastagini N holatga o'tkazib, neytral yuritmani yoqing.
2. Avtomobilni boshqa harakat ishtirokchilariga to'sqinlik yaratmasdan iloji boricha tezroq transport oqimidan chiqarib oling.
3. O't oldirishni o'chiring.


⚠ OGOHLANTIRISH!

O'chirilgan dvigatelda tormozlanish va rul chambaragini burish uchun yuqori kuch talab etiladi.

Toki avtomobil to'liq to'xtamagunicha kalitni chiqarib olmang, aks holda rul chambaragi to'satdan bloklanib qolishi mumkin.

Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling.


Yonilg'ini past sathi signalizatori

 indikator sariq rangda yorishib turadi. Agar bakdagi yonilg'ining sathi past bo'lsa, yoqiladi. Ushbu indikatorning yoqilishi zummer signali va haydovchining axborot markazi displeyida xabarning paydo bo'lishi bilan kuzatib boriladi.

Agar sath yanada pastroqqa tushib ketsa, indikator miltillashni boshlaydi, va haydovchining axborot markazida, toki avtomobil baki to'ldirilmagunicha, bakda yonilg'i sathi pastligi haqida xabar uzluksiz aks ettirib turiladi.


Yonilg'ining tavsiya etilgan turlari ⇨ 8-36 va Haydovchining axborot markazi (DIC)⇨4-17 ni ko'ring.

Immobilayzer signalizatori


 indikator sariq rang bilan yorishib turadi. O't oldirish yoqilganidan so'ng u bir necha soniyaga yoqiladi.

Ushbu indikatorning yorishib turishi immobilayzer dvigatelni ishga tushirishga imkon bermayotganligiga ko'rsatadi. Bu agar dvigatelni ishga tushirish uchun mos kelmaydigan kalit yoki dasturlanmagan kalit qo'llanilganda sodir bo'ladi. Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling.


Yoqilgan uzoqni yoritish signalizatori

 moviy rangda yorishib turadi. Uzoq chiroqlar yoqilganida va chiroqlarning uzoqni yoritish bilan qisqa muddatli signallar berilganida yorishib turadi. Uzoq/yaqin yoritishni o'zgartirgichi ⇨ 5-3 ni ko'ring.

Oldingi tumanga qarshi chiroqlarning signalizatori

 yashil rangda yorishib turadi. Tumanga qarshi chiroqlar yoqilib turganida yorishib turadi, Oldingi tumanga qarshi chiroqlar ⇨ 5-4 ni ko'ring.


Orqa tumanga qarshi chiroqlarning signalizatori

 indikator sariq rangda yorishib turadi. Orqa tumanga qarshi chiroqlar yoqilganida yorishib turadi, Orqa tumanga qarshi chiroqlar (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)⇨5-5 ni ko'ring.

AXBOROT DISPLAYLARI


Yoqilgan yoritish uskunalarini haqida eslatma



 ashil rangda yorishib turadi. Tashqi yoritish uskunalarini yoqilganida yorishib turadi, Tashqi yoritish uskunalarini boshqarish organlari ⇨ 5-2ni ko'ring.

Kruiz-nazorat signalizatori




 oq yoki yashil rangda yorishib turadi. Agar tizim yoqilgan bo'lsa, yonib turadi, Kruiz-nazorat (agar ko'zda tutilgan bo'lsa) ⇨ 8-24ni ko'ring.

Haydovchining axborot markazi (DIC)

Haydovchining axborot markazi displeyi uskunalar majmuasida joylashtirilgan. Haydovchining axborot markazi displeyida avtomobilning turli tizimlarining ishi haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi. Unga shu bilan birga agar tizimda muammolar aniqlangan bo'lsa, ogohlantiruvchi xabarlar ham chiqariladi. Avtomobilning axborot xabarlari ⇨ 4-18 ni ko'ring.

Funksiyalarni tanlash

Menyu va funksiyalarni tanlash uchun burilish ko'rsatkichlari dastagidagi tugmalarni qo'llang.



MENU tugmasini bosib, menyular orasida o'tish mumkin.

Siz quyidagi menyulardan birini tanlashingiz mumkin:

- Avtomobil haqida ma'lumotlar (avtomobil haqida ma'lumotlar menyusi)
- Bort kompyuteri (yo'nalish va yonilg'ini sarflash ma'lumoti menyusi)
- ECO menyusi (dizel yonilg'ili avtomobillarda) Menyular elementlarini ro'yxatini varroqlash yoki qiymatlarning zarur sonini o'rnatish uchun sozlash tutqichini aylantiring. Funksiyani tanlash yoki xabarni tasdiqlash uchun SET/CLR tugmasini bosib. Bort kompyuteri ⇨ 4-24ni ko'ring.

AVTOMOBILNING AXBOROT XABARLARI

Haydovchining axborot markazi displeyida avtomobilning tizimini holati o'zgarishi va nosozliklarni bartaraf etish maqsadida har qanday harakatlarni amalga oshirish zarurati haqida haydovchini ogohlantiruvchi xabarlar aks ettirilishi mumkin. Xabarni aks ettirish bilan bir vaqtda zummer signali yoqilishi mumkin, u toki nosozlik bartaraf etilmagunicha jaranglab turadi yoki ma'lum vaqtdan keyin avtomatik o'chadi. Ba'zi xabarlar biron bir harakatlarni amalga oshirishni talab qilmaydi. Xabarni tasdiqlash va uni ekrandan olib tashlash uchun SET/CLR tugmasini bosing.

Agar haydovchining axborot markazida ogohlantiruvchi xabar paydo bo'lganidan keyin harakatlanishni davom ettirilsa, bu avtomobilning yoki dvigatelnig jiddiy nosozligiga olib kelishi mumkin. Chevrolet dileriga yordam uchun murojaat qiling.

Ogohlantiruvchi ovozli signallar

Dvigatelni ishga tushirishda yoki harakatlanish vaqtida

- Agar xavfsizlik kamari taqilmaganda.
- Agar yoqilgan to'xtab turish tormozida o'rnatilgan tezlikdan oshirib yuborilganda.
- Haydovchining axborot markazi displeyida ogohlantiruvchi xabar aks etayotganda.
- Agar to'xtab turishga joylashtirishda yordam berish tizimi to'sqinlikni aniqlaganda.

- Agar avtomobil tezligi o'rnatilgan cheklovdan oshganda.
- Agar avto to'xtab turishga joylashtirishning orqa tizimi yoqilganda.

Agar avtomobil to'xtab turishga o'rnatilgan va/yoki eshik ochiq bo'lganida

- O't oldirish qulfida kalit bilan dvigatelni ishga tushirishgacha.
- Agar ishlamayotgan dvigatelda tashqi yoritish uskunalari yonib turganda.

Akkumulyator kuchlanishi va quvvatlash haqidagi xabarlar

Akkumulyatorni tejash tartibi

Ushbu xabar akkumulyator batareyasining kuchlanishi tushib ketish holatida aks ettiriladi. Akkumulyatorning quvvatini tejash uchun ba'zi funksiyalar o'chirilishi mumkin, bunda muvofiq ogohlantiruvchi xabar chiqariladi. Akkumulyatorning quvvatini tiklash uchun kerak bo'lmagan yordamchi qurilmalarni o'chirib qo'ying.

Akkumulyator quvvatsizlangan

Bu xabar akkumulyator batareyasining quvvati pasayishi holatida aks ettiriladi.

Servis: akkumulyatorni quvvatlash tizimi
Ushbu xabar akkumulyatorni quvvatlash tizimi ishida buzilish vujudga kelgan holatda aks ettiriladi. Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling.

Tormozlash tizimi xabari

Tormoz suyuqligi: past sath

Bu xabar tormozlash suyuqligining past sathida paydo bo'ladi, Tormoz suyuqligi 9-12ni ko'ring.

To'xtab turish tormozini qo'yib yuboring

Bu xabar to'xtab turish tormozi yoqilganida aks ettiriladi. Harakatni boshlashdan avval, uni o'chirib qo'ying.

Dvigatelni ishga tushirish uchun tormozga bosing

Bu xabar tormoz tepkisiga bosmasdan (avtomatik yuritmalar qutisi bo'lgan avtomobillarda) harakatni boshlash urinishida aks ettiriladi.

Kruiz-nazorat tizimining xabarlari

Kruiz-nazorati (...) km/soatga o'rnatilgan

Bu xabar kruiz-nazorat yoqilishida paydo bo'ladi va o'rnatilgan tezligini ko'rsatadi, Kruiz-nazorat (agar ko'zda tutilgan bo'lsa) 8-24ni ko'ring.

Yopilmagan eshik haqida xabarlar

Eshik ochiq

Avtomatik yoki mexanik yuritgich qutisi bo'lgan avtomobillarda yopilmagan eshik indikator aynan qaysi eshik yopilmaganligi haqida ko'rsatadi. U har doim displeyning pastki qismida aks ettiriladi.

Avtomatik yuritgich qutisi bo'lgan avtomobillarda bu xabar selektor dastagi (P) to'xtab turishga joylashtirish holatidan chiqarilgan vaqtdagi holatlarda aks ettiriladi.

Mexanik yuritgich qutisi bo'lgan avtomobillarda bu xabar agar avtomobil tezligi 8 km/soatga oshirilganda aks ettiriladi.

Kapot ochiq

Bu xabar kapot qopqog'i ochiq bo'lgandagi holatda aks ettiriladi. Kapotni to'liq yoping.

Yukxona ochiq

Bu xabar yukxona bo'linmasining orqa eshigi ochiq bo'lgan vaqtdagi holatda aks ettiriladi.

Yukxona eshigini to'liq yoping.

Dvigatelni sovutish tizimi xabarlari

Dvigatel qizib ketgan Yuksiz yurish

Yo'l harakatiga to'sqinliklar hosil qilmasdan avtomobilni to'xtating, neytral yuritgichni yoqing va dvigatelga bir necha soniya ishlab turishga imkon bering, so'ngra jiddiy nosozliklardan saqlanish uchun uni o'chiring. Bu xabar agar dvigatelni sovutuvchi suyuqlikning harorati avtomobilni keyingi ishlatilishi xavfli hisoblangan qiymatgacha ko'tarilganda zummerning doimiy signali bilan kuzatib borish bilan aks ettiriladi. Dvigatel xavfsiz haroratgacha sovishi bilanoq xabar g'oyib bo'ladi.

Moyning past bosimi. Dvigatelni o'chiring

Bu xabar moyning past bosimida paydo bo'ladi. Iloji boricha tezroq avtomobilni to'xtating va moyning bosimini pasayish sababi bartaraf etilungacha qadar dvigatelni ishga tushirmang. Moyni iloji boricha tezroq tekshiring va Chevrolet dileriga yordam uchun murojaat qiling.

Dvigatel quvvati pasaygan

Bu xabar dvigatel quvvati aniqlangan nosozlik sababli tushib ketayotgan vaqtda ekran displeyiga chiqariladi. Dvigatel quvvatining pasayishi avtomobilning tezlik olish dinamikasining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Agar ushbu xabar yorishib turgan bo'lsa, ammo quvvatning pasayishi amalga oshmayotgan bo'lsa, o'zingiz mo'ljallagan joyga harakatlanishni davom ettiring. Avtomobilni xizmat ko'rsatish o'tkazilishi uchun iloji boricha tezroq Chevrolet servis markaziga topshirilishi kerak.

Motor moyi tizimining xabarlari

Motor moyini almashtirish vaqti yaqinlashmoqda.

Bu xabar motor moyini almashtirish zarur bo'lgan vaqtda paydo bo'ladi. Qo'shimcha ma'lumotlarni Motor moyi ⇨ 9-7 bo'limida va Rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish ⇨ 10-3 bo'limida ko'ring.

Yonilg'i tizimi xabarlari

Yonilg'ining past sathi

Bu xabar bakdagi yonilg'ining sathi zaxira sathidan pastga tushib ketganida aks ettiriladi.

Yonilg'ida suv aniqlangan. Servisga murojaat qiling

Bu xabar dizel yonilg'idagi datchik tomonidan suv aniqlanish holatida aks ettiriladi. Yonilg'ining tavsiya etilgan turlari ⇨ 8-36 yoki Chevrolet servis-markaziga yordam uchun murojaat qiling.

Kalit va qulflar haqida xabarlar

X kalitlar dasturlangan

Bu xabar yangi tugmalarni dasturlashda paydo bo'ladi.

Replace battery in remote key (radiobrelodagi batareykani almashtiring)

Bu xabar qullarni masofadan boshqarish tizimi radiobrelodida batareyani almashtirish zarurati bo'lgan holatda aks ettiriladi.

Yoritish uskunalarning xabarlari

Burilish ko'rsatgichi yoqilgan

Bu xabar agar burilish ko'rsatgichi yoqiq holatda qoldirilganda aks ettiriladi. Burilish ko'rsatgichini o'chirib qo'ying.

Stop-signallarni tekshiring

Bu xabar agar stop-signal lampasini almashtirish talab etilayotgan vaqtda aks ettiriladi.

Chap past chiroqning lampasini tekshiring

Bu xabar chap past chiroqning lampasini almashtirish talab etilganida aks ettiriladi.

O'ng pastki chiroqning lampasini tekshiring

Bu xabar o'ng pastki chiroqning lampasini almashtirish talab etilgan vaqtda aks ettiriladi.

Orqa tumanga qarshi chiroqni tekshiring (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)

Bu xabar orqa tumanga qarshi chiroqlarning lampasini almashtirish talab etilgan vaqtda aks ettiriladi.

Chapga burilish ko'rsatgichini lampasini tekshiring

Bu xabar chapga burilish ko'rsatgichini lampasini almashtirish talab etilgan vaqtda aks ettiriladi.

O'ngga burilish ko'rsatgichini lampasini tekshiring

Bu xabar o'ngga burilish ko'rsatgichini lampasini almashtirish talab etilgan vaqtda aks ettiriladi.

Orqaga yurish chirog'ining lampasini tekshiring

Bu xabar orqaga yurish chirog'ining lampasini almashtirish talab etilganida aks ettiriladi.

Raqam belgisini yoritish lampasini tekshiring

Bu xabar agar raqam belgisini lampasini almashtirish talab etilayotgan vaqtda aks ettiriladi.

To'siqlarni aniqlashtirish tizimi xabarlari

Park Assist Off (To'xtab turishga joylashtirish tizimi yoqilgan)

Bu xabar agar to'xtab turishga joylashtirishda yordamchi tizim o'chirilgan bo'lsa yoki agar paydo bo'lgan holatlarga bog'liq holda u vaqtinchalik ishlamayotgan bo'lsa, aks ettiriladi.

Servis: parktronik


Bu xabar to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi ishida buzilishlar vujudga kelgan holatda aks ettiriladi. Bu tizimni to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish uchun qo'llamang. Xizmat ko'rsatishni o'tkazish uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Yurishning ravonligini sozlash tizimi xabarlari


Servis: ESP

Bu xabar dinamik stabilizatsiya elektron tizimi va (yoki) tortish kuchini nazorat tizimi ishida buzilishlar paydo bo'lgan holatda aks ettiriladi. Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling.

ESP o'chirilgan

Bu xabar, agar dinamik stabilizatsiya elektron tizimi (ESC) markaziy konsolda  tugmani qo'lda bosish bilan o'chirilgan vaqtda aks ettiriladi.


Shataksirashga qarshi tizim yoqilgan

Bu xabar, agar tortish kuchi nazorat tizimi markaziy konsoldagi  tugmani qo'lda bosish orqali yoqilgan bo'lsa, aks ettiriladi.

Top'dan tushishda yordam berish tizimi uchun aylanishlarni pasaytirish

Bu xabar HDC tizimi kutish tartibida bo'lganida, avtomobil tezligi esa 30 km/soatdan ortiq va 50 km/soatdan past bo'lgan vaqtda aks ettiriladi.

Shataksirashga qarshi tizim o'chirilgan

Bu xabar, agar tortish kuchi nazorat tizimi markaziy konsoldagi  tugmani qo'lda bosish orqali o'chirilgan bo'lsa, aks ettiriladi.

Xavfsizlik yostiqlari tizimi xabarlari**Ishiriluvchi xavfsizlik yostiqlariga xizmat ko'rsatish talab etiladi**

Bu xabar xavfsizlik yostiqlari tizimida muammolar mavjud bo'lganida paydo bo'ladi. Nosozliklarning sabablarini Chevrolet servis-markazida bartaraf qiling.


Olib qochishga qarshi signalizatsiya xabarlari**Buzib ochish urinishlari amalga oshirilgan**

Bu xabar avtomobil buzib ochish urinishini aniqlaganda yoki avtomobilga biron bir ta'sirni keltirilishida paydo bo'ladi.


«SERVICE THEFT DETERRENT SYSTEM» («OLIB QOCHISHGA QARSHI SIGNALIZATSIYAGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI BAJARING»)

Bu xabar olib qochishga qarshi tizim ishida buzilishlar paydo bo'lganida aks ettiriladi. Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling.

Rulda boshqarish tizimi xabarlari (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)**Steering Assist Is Reduced Drive With Care (Rulda boshqarish kuchaytirgichi ishi cheklangan. Ehtiyotkorlikka rioya qilib avtomobilni haydang)**

Bu xabar rulda boshqarishning elektr kuchaytirgichi ishida buzilishlar sodir bo'lgan holatda aks ettirilishi mumkin. U paydo bo'lganida rul chambaragidagi kuch ortishi mumkin. Bu avtomobilni boshqarish xavfsizligiga ta'sir qilmaydi. Ishlamayotgan kuchaytirgich bilan avtomobilni boshqarib, ehtiyotkorlikni namoyish qilish zarur. Agar xabar g'oyib bo'lmayotgan bo'lsa yoki davriy paydo bo'layotgan bo'lsa, dilerga yordam uchun murojaat qiling. Rulda boshqarish  8-6 ni ko'ring.

Service Power Steering (rulda boshqarish kuchaytirgichiga texnik xizmat ko'rsatishni bajaring)

Bu xabar rulda boshqarish elektr kuchaytirgichi ishida buzilishlar paydo bo'lgan holatda aks ettiriladi. Dilerga yoki Chevrolet rasmiy servis markaziga murojaat qiling. Rulda boshqarish  8-6 ni ko'ring.

Shinalar holati haqida xabarlar

Service Tire Monitor System (shinalarda havo bosimini nazorati tizimiga texnik xizmat ko'rsatilishini bajaring)

Agar avtomobil shinalarda havo bosimini nazorati tizimi (TPMS) bilan jihozlangan bo'lsa, ushbu xabarning paydo bo'lishi tizimda buzilish sodir bo'lganligiga ko'rsatadi. Shinalardagi bosim signalizatori millitlaydi va o't oldirishning bir xil vaqtda yorishib turishni davom ettiradi. Shinalarda bosimni nazorati tizimi indikatorini ⇨ 4-15 ni ko'ring.

Ushbu xabarning paydo bo'lishini bir nechta sharoitlar chaqirishi mumkin: Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimining faoliyati ⇨ 9-32 ni ko'ring. Agar signalizator yoqilsa va yoritilishda davom etsa, ehtimol TPMS tizimida nosozliklar mavjud. O'z dileringizga murojaat qiling.

Tire Learning Active (shinalarda havo bosimini datchiklarini bog'lanishi bajarilmoqda)

Agar avtomobil shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) bilan jihozlangan bo'lsa, bu xabar shinalarda havo bosimi datchiklarini bog'lanishini bajarish vaqtida aks ettiriladi. Datchiklarning bog'lanishi g'ildiraklarni joyini almashtirish yoki datchiklarni almashtirishdan so'ng qaytadan bajarilishi kerak. Shinalarni joyini almashtirish ⇨ 9-35, Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi ⇨ 9-30 va Shinalarda havo bosimi ⇨ 9-29 ni ko'ring.

Tire Pressure Low Add Air To Tire (Shinalarda havoning past bosimi. Bosimni oshiring).

Agar avtomobil shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) bilan jihozlangan bo'lsa, ushbu xabarning paydo bo'lishi bir yoki bir nechta g'ildiraklarda bosimning tushib ketganligiga ko'rsatadi. Xabar bosim tushib ketishi qayd etilgan g'ildirakni ko'rsatish bilan avtomobil belgisi bilan kuzatib boriladi. Shu bilan birga shinalarda bosim pastligi signalizatori yorishadi. Qarang Shinalarda bosimni nazorat qilish tizimi indikatorini ⇨ 4-15. Shinalardagi bosim haqida bittadan ortiq xabarlarini bir vaqtda olish mumkin. Haydovchining axborot markazida shinalardagi bosim haqidagi xabarning paydo bo'lishida birinchi imkoniyat tug'ilishi bilan to'xtash zarur. Bosimni tekshiring va turli yuklamalarda shinalarda havo bosimi haqidagi ma'lumotli jadvalchada ko'rsatilgan tavsiya etilgan kattaliklarga keltiring. Shinalardagi havo bosimi ⇨ 9-29 va Avtomobil og'irligi ⇨ 11-6 ni ko'ring. Haydovchining axborot markazida shu bilan birga shinalardagi bosimning qiymatlarini ham aks ettiriladi. Haydovchining axborot markazi (DIC) ⇨ 4-17 ni ko'ring.

Yuritmalar qutisi xabarlari

Yuritmalar qutisiga servis xizmat ko'rsatilishini bajaring.

Bu xabar avtomatik yuritmalar qutisi ishida buzilishlar paydo bo'lish holatida aks ettiriladi. Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling.

O'zgartirishni rad etish

Avtomatik yuritma qutisi bo'lgan avtomobillarda bu xabar harakatning ushbu tartibida ruxsat etilmagan ancha yuqori yoki past yuritmani qo'lda yoqish urinishida paydo bo'ladi.

Transmissiyaning qizib ketishi: yuklamasiz yurish

Bu xabar yuritish qutisi nosozligini bartaraf etish uchun holatlar paydo bo'lganida haydovchi shoshilinch biron bir harakatlarni amalga oshirishi kerakligida paydo bo'ladi.

Servis: 4WD

Bu xabar to'liq yuritma tizimi ishida buzilish sodir bo'lgan holatda aks ettiriladi. O'z avtomobilingizni tarqatma qutisini, old ko'prigini va (yoki) antibloklash tormozlash tizimini tekshiring va texnik xizmat ko'rsatishni o'tkazish uchun Chevrolet dileriga murojaat qiling.

4WD Shift in Progress (To'liq yuritmani o'zgartirish olib borilmoqda)

Bu xabar to'liq yuritma tizimini o'zgartirilishi olib borilayotgan vaqtda aks ettiriladi.

Past yuritmalni 4WDga o'zgartirish - neytralga o'zgartirish

Agar past yuritmalni to'liq yuritma tartibida to'liq yuritma tizimiga o'zgartirish so'ralgan va avtomobil tezligi mos keladigan qiymatga ega bo'lsa, ammo YUO'Q N (neytral) holatda joylashgan bo'lsa, toki YUO'Q N holatiga joylatilmaganicha, bu xabar aks ettirib turiladi.

Past yuritmalni 4WD o'chirish - neytralga o'zgartirish

Agar past yuritmalni to'liq yuritma tartibida to'liq yuritma tizimiga o'zgartirish so'ralgan va avtomobil tezligi mos keladigan qiymatga ega bo'lsa, ammo YUO'Q N (neytral) holatda joylashgan bo'lsa, toki YUO'Q N holatiga o'rnatilmaganicha, bu xabar aks ettirib turiladi.

4WD eng past yuritma - XXX gacha sekinlashish

Agar past yuritmalni to'liq yuritma tartibida to'liq yuritma tizimiga o'zgartirish so'ralgan va avtomobil tezligi juda yuqori bo'lsa, toki avtomobilning tezligi mos keladigan qiymatgacha tushirilmaganicha, ushbu xabar aks ettirib turiladi.

Past yuritmalni 4WD o'chirish - XXXgacha sekinlashish

Agar past yuritmalni to'liq yuritma tartibidan to'liq yuritma tizimiga o'zgartirish so'ralgan va avtomobil tezligi juda yuqori bo'lsa, toki avtomobilning tezligi mos keladigan qiymatgacha tushirilmaganicha, ushbu xabar aks ettirib turiladi.

Past yuritmalni 4WDda bo'lgan avtomobil

Ushbu xabar, agar avtomobil taxminan 10 minut davomida past yuritma bilan to'liq yuritma tartibida 72 km/soatdan ortiq tezlik bilan harakatlanayotgan bo'lsa, paydo bo'ladi.

4WD O'chirilgan.

Bu xabar qizib ketish sababli to'liq yuritma tizimi o'chirilganda, to'liq yuritmada bo'lgan avtomobillarda aks ettiriladi. Bu xabar aks ettirilganda, avtomobil orqa yuritma tartibida harakalanadi. To'liq yuritma tizimi sovuganida, xabar g'oyib bo'ladi va to'liq yuritma qayta yoqiladi.

Eslatma-xabarlar

Ehtiyot bo'ling! Yaxvonlik ehtimoli bor Bu xabar muzning paydo bo'lish ehtimoli bo'lganida displayda paydo bo'ladi.

Parktronik o'chirilgan

Bu xabar to'xtab turishga joylashtirish tizimi o'chirilganda paydo bo'ladi. Qarang To'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi ↪ 8-28.

Servis: parktronik

Bu xabar to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi ishida buzilishlar vujudga kelgan holatda aks ettiriladi. Chevrolet servis-markaziga yordam uchun murojaat qiling.

Rain sense on (yomg'ir datchigi yoqilgan)

Bu xabar yomg'ir datchigi yoqilgan paytda uskunalar majmuasida aks ettiriladi.

Rain sense off (Yomg'ir datchigi o'chirilgan)

Bu xabar yomg'ir datchigi o'chirilgan paytda uskunalar majmuasida aks ettiriladi.

Avtomobil tezligi haqida xabarlar
Tezlikning tanlangan chegarasi oshirilgan
 Bu xabar sozlamalarda o'rnatilgan maksimal tezlikni oshirish holatida aks ettiriladi.

Tezlik cheklangan (...) km/soat
 Bu xabar avtomobil tomonidan tezlikning konstruktiv chegarasiga erishilgan vaqtda aks ettiriladi.

BORT KOMPYUTERI

Vehicle Overspeed (avtomobil harakatlanishining ruxsat etilgan tezligini oshirilishi)

120 km/soat (soatiga 75 mil) tezlikni oshirishda ogohlantiruvchi ovozi signal jaranglaydi. Shu bilan birga haydovchining axborot markazi displeyida ogohlantiruvchi xabar aks ettiriladi.

Bort kompyuterining ko'rsatkichlari displeyda haydovchining axborot markazi aks ettiriladi. Yo'nalish kompyuterining interfeysi uchta bo'limdan iborat:

- Joriy safar haqida ma'lumotlar
- Avtomobil haqidagi ma'lumotlar
- Yonilg'i tejamkorligi haqidagi ma'lumotlar (ECO)

Joriy safar haqidagi ma'lumotlar

Bort kompyuterini boshqarish uchun burilish ko'rsatkichining dastagida MENU (Menyu) tugmasini bosib.

Menyu elementlarini varroqlash uchun tutqich-sozlagichni aylantiring:

- Raqamli spidometr.
- Joriy masofani bosib o'tish hisoblagichi № 1 va joriy masofani bosib o'tish hisoblagichi № 2.
- Yonilg'i oraliqi.
- Yonilg'ini bir lahzada sarf qilinishi.
- Taymer.
- Havoning tashqi harorati

Ba'zi tartiblarda **SET/CLR** tugmasini bosib, ko'rsatkichlarni tashlab yuborish mumkin.

Raqamli spidometr

Ushbu tartibda avtomobil harakatining tezligi aks ettiriladi.

Joriy masofani bosib o'tish hisoblagichi № 1 va joriy masofani bosib o'tish hisoblagichi № 2

Bu parametr ushbu paytga bosib o'tilgan oxirgi tashlab yuborishdan so'ng avtomobil yonilg'isi va o'rtacha tezligi. Ko'rsatkichlarni tashlab yuborish uchun, **SET/CLR** tugmasini bosib va ushlab turing.masofani, o'rtacha yonilg'i harajatini aks ettiriladi.

Yonilg'i oraliqi

Ushbu menyu keyingi yonilg'i quyishgacha safarning taxminiy zaxirasini aks ettiradi.

Safarning qolgan zaxirasini baholash oxirgi o'rtacha sarflash haqidagi ma'lumotlar va bakdagi yonilg'ining miqdori haqidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Agar prognozlanuvchi safar zaxirasi kamida 64 km/soatni tashkil qilayotgan bo'lsa, haydovchining axborot markazi displeyida «Fuel Level Low» (yonilg'ining past sathi) xabari aks ettiriladi va yonilg'ining past sathi indikatorini millitlashni boshlaydi.

Yonilg'ini past sathi signalizatori 4-16 va Haydovchining axborot markazi (DIC) 4-17ni ko'ring.

Haqiqiy oraliq masofa haydashning stiliga bog'liq holda hisoblanadigandan farq qilishi mumkin.

Izoh

Bort kompyuteri yordamchi qurilma hisoblanadi, shuning uchun yonilg'i bo'yicha hisoblanadigan va haqiqiy safar zaxirasi vaziyatlarga bog'liq holda farq qilishi mumkin.

Yonilg'i bo'yicha safarning zaxirasi haydash alpozi, yo'l va harakatlanish tezligiga bog'liq o'zgaradi, chunki ushbu omillarga bog'liq bo'lgan yonilg'ini ishlatish samaradorligi bo'yicha hisoblanadi

Yonilg'ini bir lahzada sarf qilinishi

Ushbu tartibda yonilg'ining bir lahzada sarflanishi aks ettiriladi, u yonilg'i tejamkorligiga haydash alpozining ta'sirini aks ettiradi.

Taymer

Taymer uning ko'rsatkichlari oxirgi tashlab yuborilishi paytidan o'tgan vaqtni aks ettiradi. Yo'ldagi vaqtning ko'rsatkichlarini tashlab yuborish uchun **SET/CLR** tugmasini 1 soniyadan ortiq vaqtga ushlab turgan holda, ushbu tugmani bosning.

Havoning tashqi harorati

Bu parametr tashqi havoning haroratini Selsiy graduslarida (°C) aks ettiradi.

Avtomobil haqida ma'lumotlar

Avtomobil jamlanmasiga bog'liq holda ta'riflangan funksiyalarning ba'zilar mavjud bo'lmasligi mumkin. Toki displeyda «Vehicle Pages» (avtomobil haqida ma'lumotlar) menyusi aks ettirilguniga qadar, burilish ko'rsatkichining dastagida MENU (menyu) tugmasini bosning. Menyu elementlarini varroqlash uchun tutqichni aylantiring:

- Akkumulyator kuchlanishi.
 - Sovituvchi suyuqlikning harorati.
 - Motosoatlar hisoblagichi.
 - YUO'Qda moyning harorati.
 - Harakatning maksimal ruxsat etilgan tezligini oshirish haqida ogohlantirish.
 - Moy resurslari indikatorini (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa).
 - Shinalardagi bosim (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa).
- Bir menyudan boshqasiga o'tish uchun MENU tugmasini bosning.

Akkumulyator kuchlanishi

Ushbu displeyda akkumulyatorning joriy kuchlanishi aks ettiriladi.

Sovituvchi suyuqlikning harorati

Ushbu parametr joriy paytda sovituvchi suyuqlikning haroratini aks ettiradi.

Motosoatlar hisoblagichi

Motosoatlar hisoblagichi dvigatel tomonidan ishlatilgan vaqtni yozib boradi.

YUO'Q moyi harorati

Bu parametr joriy paytda AYUO'Q ishchi suyuqligining haroratini aks ettiradi.

Harakatning maksimal ruxsat etilgan tezligini oshirish haqida ogohlantirish

Bu tartib ma'lum tezlikka erishilganda ogohlantirishni uzatishni yoqishga imkoniyat tug'diradi.

Ruxsat etilgan tezlikni oshirilishi haqidagi ogohlantirishni faollashtirish uchun, **SET/CLR** tugmasini bosning va sozlash halqasi yordamida zarur bo'lgan tezlikni o'rnatning.

Moy resursi indikatorini (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)

Bu parametr moy resursini foizlarda aks ettiradi.

Shinalardagi bosim (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)

Bu parametr joriy paytda shinalardagi havo bosimini aks ettiradi.

Shinalarga yuklamalar (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)

Bu parametr joriy paytda shinalarga yuklamani aks ettiradi.

Siz yuklamalarning quyidagi variantlaridan birini tanlashingiz mumkin:

Past: Avtomobilning yuklanganligi yuqori emas.

ECO: Maksimal yonilg'i tejamkorligi.

Maksimal: Avtomobil yuklanganligi yuqori.

Yonilg'i tejamkorligi haqida ma'lumotlar (ECO)

Burilish ko'rsatkichlari tutqichida MENU (menyu) tugmasini, toki displeyda ECO menyusi paydo bo'lmaganicha bosing.

Menyu elementlarini varroqlash uchun tutqich-sozlagichni aylantiring:

- Yonilg'i tejamkorligi indeksi (ECO).
- Yonilg'ini tejash egri chizig'i.
- Yonilg'ini tejam tartibi.

Yonilg'i tejamkorligi indeksi (ECO)

Ushbu funksiya harakatning joriy tartibining yonilg'i samaradorligini nisbiy ko'rsatkichlari haqida haydovchini xabardor qiladi. Yonilg'ini joriy sarflanishi ko'rsatkichi kalibrovkalash sozlamalari bo'yicha hisoblanadiganlardan foizlarda hisoblanadi.

Agar haydash tartibi tejamkor bo'lsa, u holda ECO tartibi indeksi darchasida daraxt yaprog'i ko'rinishidagi belgi aks ettiriladi, bunda indikator ECO sohasida joylashgan bo'lishi kerak.

Yonilg'ini tejash egri chizig'i

Ushbu darchada oxirgi 50 km da yonilg'ining o'rtacha sarfi aks ettiriladi. Ustunlarning har birida oxirgi 5 km da yonilg'ining o'rtacha sarfi aks ettiriladi.

Yonilg'ini tejash tartibi

Joriy yonilg'ini bir lahzada sarflash, yonilg'ini o'rtacha va minimal sarflanishi ikki strelka orqali ko'rsatiladi. Indikator joriy yonilg'ini bir lahzada sarflashga bog'liq holda shkala bo'yicha chapga va o'nga siljiriladi. Oraliq 25, 100 va 500 km ni tanlash mumkin.

5


YORITISH

- TASHQI YORITISH 5-2
- SALONNI YORITISH 5-5
- YORITISH TIZIMINING XUSUSIYATLARI 5-7
- IZOHLAR 5-8

TASHQI YORITISH

Tashqi yoritish uskunalarini boshqarish organlari

Yoritishni avtomatik boshqarishli yoritish texnikasini boshqarish bloki (muvofig jamlanmada)



Yoritish o'zgartirgichini burang:

☀ : Agar avtomobil yoritishni avtomatik boshqarish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, tizimni yoqish yoki o'chirish uchun o'zgartirgich tutqichini burang (tutqich AUTO holatiga avtomatik qaytadi) AUTO: Tashqi yoritish uskunalarining yoqilishi va o'chirilishi tashqi yoritilganlikka bog'liq holda avtomatik tartibda amalga oshadi.


☀ : Gabarit chiroqlar, raqam belgisi yoritgichi va uskunalar paneli yoritgichi yoqiladi.

☀ : Chiroqlar

Yoritish uskunalarini yoqilgan mahal, ☀ indikator yoritishadi.

Qarang Yoqilgan yoritish uskunalarini haqida eslatma ⇨ 4-17.

Yoritish o'zgartirgichi



Yoritish o'zgartirgichini burang:


☀ : Yoritish o'chirilgan

☀ : Gabarit chiroqlar

☀ : Chiroqlar


Qarang Yoqilgan yoritish uskunalarini haqida eslatma ⇨ 4-17.

Yoritish uskunalarini avtomatik boshqarish



AUTO yoritishni avtomatik boshqarish tartibi yoqilgan paytda, blok-chiroqlar va orqa gabarit chiroqlarning yoqilishi tashqi yoritilganlikka bog'liq holda avtomatik amalga oshiriladi. Funksiya yoritilganlikning darajasiga bog'liq holda kichik tutilish bilan ishlaydi. Agar tashqari yetarlicha qorong'u bo'lsa, oyna tozalagichlarining cho'tkalari 8 ta siltashni amalga oshirgandan keyin, tashqi yoritish uskunalarini avtomatik yoqiladi.

Uzoq/yaqin chiroqlarni o'zgartirish



Yaqin chiroqdan uzoq chiroqqa o'zgartirish uchun dastakni o'zingizga qarshi siljiting. Yaqin chiroqni yoqish uchun, dastakni o'zingizga torting.


OGOHLANTIRISH!

Siz qarama-qarshi tomondan harakatlanib kelayotgan avtomobilga yaqinlashganingizda yoki boshqa avtomobilga etib olayotganingizda, har doim uzoq chiroqni yaqiniga o'zgartiring. Chiroqlarning uzoq chirog'i boshqa haydovchilarning vaqtinchalik ko'zini qamashtirishi mumkin, bu avariya olib kelishi mumkin.

Chiroqlarning uzoq chirog'i bilan qisqa muddatli signallarni berish

Chiroqlarning uzoq chirog'i bilan qisqa muddatli signallarni berilishini faollashtirish uchun dastakni torting.

Chiroqlarning qiyalik burchagini sozlash (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)



Boshqa transport vositalarining haydovchilarini ko'zlarini qamashtirishdan saqlanish maqsadida avtomobilning yuklanganligini inobatga olish bilan chiroqlarning qiyalik burchagini sozlash uchun, tutqichni zarur bo'lgan holatga aylantiring.

0 или 1: Faqat haydovchi.

0 или 1: Haydovchi va oldingi yo'lovchi (2 odam).

Agar marshrut bo'yicha yurish funksiyasi nafaol bo'lsa, xaritani aks ettirish tartibiga o'tish uchun NAVIGATSIYA ekran tugmasini bosing. Manzilgohni kiritish uchun xaritani aks ettirish tartibida "Manzilgoh" belgisini bosing. Manzil, Oxirgi manzilgohlar, Kontaktlar, Chorraha yoki OBYEKTLARni ko'rsatib, manzilgohni tanlash mumkin. Marshrutni rejalashtirishning bir nechta usullari mavjud. Agar manzilgoh avval kiritilmagan yoki saqlanmagan bo'lsa, ayrim

manzilgohlar kulrang bilan soyalangan bo'lishi mumkin.

Manzilgohni kiritish tartibiga o'tish chun MANZILGOH tugmasini bosib.

Izlash usullari

- Manzil
- Chorraha
- OBYEKTLAR
- Oxirgi manzilgohlar
- Kontaktlar

Navbatdagi burilish haqida ogohlantirish



Navigatsion tizim ogohlantirish funksiyasiga ega. Navigatsion tizimga haydovchi e'tiborini qaratish talab etilishi mumkin.

Agar navbatdagi manevrni sodir etish joyiga yaqinlashishi to'g'risidagi xabar kelib tushganda navigatsion ilova faol bo'lmasa, bunday xabar ogohlantirish sifatida aks

ettiriladi. Ogohlantirish burilish ko'rsatkichidan va navigatsiyaning asosiy tartibiga o'tish yoki ogohlantirishni o'chirish tugmasidan iborat. Ogohlantirishda shuningdek buriladigan ko'cha ko'rsatiladi va qaytarma hisob paneli mavjud.

Harf-raqamli klaviatura

Klaviatura tizimda keng qo'llaniladi va ko'pgina funksiyalarni boshqarish uchun xizmat qiladi. Navigatsion tizimda alfavit-raqamli ekran klaviaturasi qo'llaniladi.

Bundan tashqari, klaviaturani avtomobilning sozlamalarida berilgan, mintaqaga muvofiq bo'lgan belgilarni kiritishga sozlash mumkin.

✓ **Ishga tushirish:** Bu tugmani bosib manzilgoh haqida ma'lumotlarni qidiruvi bajariladi, ular sifatida matn maydonchasiga kiritilgan infratuzilmaning manzili yoki obyekti bo'lishi mumkin. Ekrandagi "Ishga tushirish" tugmasi bosilgandan keyin izlash natijalarining ro'yxatida faollik indikatorini aks ettiriladi.

▽ **(Strelkali tugma):** Bu tugma bosilganda natijalar ro'yxati ochiladi.

Bir nechta natijalar bo'lganida strelkali tugma avtoto'ldirish matnidan keyin aks ettiriladi. Bu ro'yxatda qidiruvning barcha natijalari mavjud. Matnini to'liq kiritmasdan kerakli natijani bosish mumkin.

✕ **(O'chirish):** Bu tugma bosilib oxirgi kiritilgan belgi o'chiriladi. Agar ekran tugmasini bosib u ushlab turilsa, butun matn maydonchasi tozalanadi. Butun matn maydonchasi tozalangan keyin bu ekran tugmasi Undo (bekor qilish) tugmasi bo'lib qoladi. Undo (Bekor qilish) bosish natijasida o'chirilgan matn tiklanadi.

Chiqish: Bu tugmani bosish natijasida avvalgi xaritani aks ettirish tartibiga qaytish sodir bo'ladi.

Sym (Belgilar): Bu tugma bosilib belgilarni kiritish uchun klaviatura chaqiriladi.

Oraliq: Harf yoki so'zlar orasiga oraliqni kiritish uchun bosib.

^ **(Strelka tepaga):** Bu tugma bosilib o'zaro ta'sir selektori chaqiriladi.

Maxsus belgilar

Klaviatura yordamida matn kiritilgan paytda bosilgan tugmaning tepasida unga tegishli oyna sizib chiqadi.

Agar tugma bosilgan holatda ushlab turilsa, joriy harfning yonida unga asoslangan maxsus qo'shimcha belgilar aks ettiriladi. Bunday maxsus belgilardan birini tanlash uchun kerakli belgini ajratib, barmog'ingizni uzmasdan chapga va o'nga siljiting.

Maxsus belgilarning ro'yxati

Maxsus belgilar quyidagi belgilarga asoslangan:

E - É Ê Ë Ì Í Î Ï	More Characters:
Y - Ÿ	Q - q
U - Û Ü Û Ü	! - ¡
I - Ī Ĭ Ĩ İ	\$ - ¥ € ¢
O - Ō Ŏ Œ Œ Ó Ô Õ Ö	& - &
A - Ā Ă Ą Ǽ Å Ä Å	" - «»
S - ß (for lowercase s) Š š	? - ¿
L - Ł	{ - {
Z - Ź Ź	} - }
C - Ć Ć Ć	.com - .net .org
N - Ń Ń	
- - -	

Saqlangan manzilgohlar

Saqlangan manzilgohni "Kontaktlar" yoki "Oxirgi manzilgohlar" menyusidan tanlash mumkin.

Kontaktlar

Avtomobil kontaktlari ro'yxatini yoki ulangan Bluetooth qurilmasini ko'rish "KONTAKTLAR" tugmasini bosib amalga oshiriladi. Faqat bitta bog'langan manzili bo'lgan kontaktlarni yonida "Tezkor marshrut" tugmasini aks ettiriladi. "Tezkor marshrut" tugmasining yo'qligi Kontaktlarda bir nechta manzillar borligini yoki birorta ham manzil yo'qligini bildiradi. "Tezkor marshrut" tugmasi bosilib Manzilgoh to'g'risida ma'lumotlarni aks ettirish tartibiga o'tish amalga oshiriladi.

Manzilni bosib - "Tezkor marshrut" funksiyasi yordamida

kontaktlar ro'yxatida yoki kontaktlar ro'yxatidagi bitta yoki bir nechta manzillarda- ushbu manzil xaritada ko'rsatilib manzilgohni aks ettirish tartibiga o'tish amalga oshiriladi.

Kontaktlar tartibida safarni saqlash va chaqirish mumkin. Tartibi safarning oxirgi foydalangan vaqtiga bog'liq. Dastlabki saqlashga safarlarga yakuniy manzilgohning nomi bo'yicha nomlar beriladi. Agar saqlangan safarlar bo'lmasa, ro'yxatning bu bandi yashiringan.

Tanlangan manzilgohlar

- Keyinchalik chaqirish uchun manzilgohlarni tanlanganlar sifatida saqlab qo'yish mumkin. Tanlangan manzil yoki obyekt chaqirilganda, tanlanganga qarab manzilgoh haqidagi ma'lumotlarni aks ettirish tartibi faollashadi.
- Tanlangan manzilga yurish bajarilganda, ushbu manzil faol sifatida aks ettiriladi. Yurishni to'xtatib turish faol tanlanganni bosib bajariladi.
- Tanlangan sifatida saqlangan joylashish joylarini keyinchalik manzilgoh haqidagi ma'lumotlar tartibida chaqirish mumkin.
- Tizim safarlar marshrutlarini bevosita manzillar kitobidan saqlash imkonini beradi.

Kontakt haqidagi ma'lumotlar ro'yxatidan tanlanganni saqlash

Kontaktning ismini, u haqidagi har qanday ma'lumotni (telefon raqami, elektron pochta ismi manzili, pochta manzili va h.k.) kabi tanlangan sifatida saqlash mumkin.

- Tanlanganning tugmasini ochish uchun o'zaro ta'sir selektorining tugmalar panelini bosib va uni yuqoriga chiqaring.
- Kontakt haqida ma'lumotlar ro'yxatida kontaktni ko'rib chiqishda tanlangan joylashish joyini bosib va ushlab turing. Kontaktning ismini va barcha kontakt ma'lumotlarini saqlash mumkin.
- Tanlangan sifatida saqlash uchun bosib. Tanlangan kontaktning ismi bo'yicha nomlanadi.
- Manzilgohni aks ettirish tartibini faollashtirish uchun tanlanganni bosib.

Xarita tartibida tanlanganni saqlash

Tanlangan joylashish joylarini xaritani aks ettirish tartibida saqlash mumkin.

Agar marshrut bo'yicha yurish bajarilmayotgan bo'lsa, tanlangan sifatida avtomobilning joriy holati saqlanadi. Agar marshrut bo'yicha yurish bajarilayotgan bo'lsa, yakuniy manzilgoh saqlanadi. Tanlanganning tugmalarini ochish uchun o'zaro ta'sir selektorining tugmalar panelini bosib va uni yuqoriga siljiting. Uni

tanlanganda saqlash uchun Xaritani aks ettirish tartibi tartibida joylashish joyini bosning va ushlab turing.

Marshrut bo'yicha yurish

- Navigatsiyaning asosiy tartibiga qaytish va marshrut bo'yicha yurishni ishga tushirish uchun Ishga tushirishni bosning.
- Agar shunda tizimda faol marshrut bo'lsa, Siz bu manzilgoh bilan nima qilmoqchi edingiz? degan xabar bilan sizib chiqadigan oyna ochiladi. Ehtimolli variantlar: Marshrut nuqtasi sifatida qo'shish, Yangi manzilgohni berish yoki Bekor qilish.
- Agar oraliq nuqta qo'shilsa, uning joylashish joyi marshrutning maksimal samaradorligini ta'minlash hisobidan tanlanadi.
- Qo'shiladigan oraliq nuqtalarga tizimda cheklovlar mavjud. Oraliq nuqtalarning soni maksimalga yetganida, yangilarini qo'shishdan oldin eski nuqtalarni o'chirish zarurligi to'g'risidagi xabar bilan sizib chiqadigan oyna ochiladi. Tizim ushbu oraliq nuqtasini "Kutayotgan marshrut nuqtalari" ro'yxatiga vaqtinchalik joylashtiradi va yoki nuqtaga kelishda, yoki eski nuqtalar o'chirilishi natijasida bo'sh joy paydo bo'lganida uni avtomatik tarzda marshrutga qo'shadi.
- Joylashish joyini saqlash uchun tanlangan tugmani chaqirish uchun ▲ belgini bosning.

Aks ettiriladigan joylashish joyini tanlangan sifatida saqlash uchun uni bosning va ushlab turing.

Kelish vaqtining hisobi (ETA) va masofa

- Marshrut bo'yicha yurish bajarilganda tizim ETAni aks ettiradi, yo'ldagi vaqt yoki masofa.
- Kelish vaqtining hisobi va safarning vaqti barcha mavjud yo'l axborotini hisobga olgan holda hisob-kitob qilinadi.
- Agar safar oraliq nuqtalari bilan amalga oshirilsa, ETA, yo'ldagi vaqt va masofa yakuniy manzilgohga nisbatan aks ettiriladi.
- Yakuniy ETA marshrut o'tadigan soat poyaslarining chegaralaridan kesib o'tishni hisobga olgan holda aks ettiriladi.
- Kelish vaqtining hisobi, yo'ldagi umumiy yakuniy vaqt va masofa o'rtasida almashish uchun kelish vaqtining hisobi to'g'risidagi axborot sohasida ekranni bosning.

Burilishlar ro'yxati

Xaritada keyingi burilish ko'rsatkichini aks ettirilishini yoqilishi natijasida burilishlar yoki oraliq nuqtalarning ro'yxati ochiladi. O'zaro ta'sir selektori avtomatik tarzda yopiladi. ▲ tugmani bosib, quyidagi funksiyalarga kirish mumkin.

Manzilgoh

"MANZILGOH" ekran tugmasini bosish burilishlar ro'yxatini ko'rib chiqishda oraliq nuqtani qo'shish yoki manzilgohni o'zgartirish imkonini beradi. "MANZILGOH" ekran tugmasini bosishda displeyda "Manzilgoh" punktlari to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Yurishni yakunlash

Ushbu "Tugatish/" ekran tugmasini bosilishi burilishlar ro'yxatida joriy marshrutni bekor qilish imkonini beradi. "Tugatish/" ekran tugmasi bosilganda burilishlar ro'yxatidan chiqish va xaritani aks ettirishning asosiy tartibiga qaytish bajariladi.

Tavsiya etilmaydigan sohalar

"Tavsiya etilmaydigan sohalar" ekran tugmasini bosilishi harakatlanishda chetlab o'tilishi kerak bo'lgan avtoyo'llar nomini tanlash imkonini beradi. Tizim ekranga yo'lning qancha milyasini chiqarib tashlash kerak, yoki yo'lni butunlay chiqarib tashlash kerakligi to'g'risidagi sizib chiquvchi xabarni chiqaradi.

Burilishlar ro'yxati

- Oraliq nuqtalar bilan safar sodir etilganida o'zaro ta'sir selektorining "BURILISHLAR" tugmasi bosilganda burilishlar ro'yxati ochiladi. Burilishlar ro'yxatiga kirishda navbatdagi manevrni sodir etish to'g'risidagi yo'riqnoma ovoza qilinadi.
- Burilishlar ro'yxatini nomi manzilgohning nomi yoki manzili hisoblanadi. Manzilgoh nomining to'g'risidagi axborot tugmasini bosib manzilgoh to'g'risidagi axborot chaqiriladi.
- Burilishlar ro'yxati shunday saralangan, ro'yxatning tepasida keyingi manevr aks etadi, uning tagida esa keyingi manevrlar sanab o'tilgan. Burilishlar ro'yxati tartibida qaysi manevr keyingi bo'lishini darhol ko'rish uchun har doim keyingi manevr ajratiladi.
- Har bir manevr to'g'risidagi ma'lumotda u va oldingi manevr o'rtasidagi masofa yoki avtomobilning joriy holati ko'rsatiladi. Ro'yxatning tepasida ko'rsatilgan keyingi manevrgacha, manevr bajarilmaguncha, teskari hisob yuritiladi, keyin navbatdagi keyingi manevrgacha teskari hisob boshlanadi.
- Har bir manevrni sodir etish joyiga kelishning hisoblangan vaqti ko'rsatiladi. Bu vaqt harakatning sharoitlariga bog'liq.

Saqlangan safarlar

Oraliq nuqtalar bilan safarlarni keyinchalik chaqirish uchun saqlab qo'yish mumkin. Avtomobil kontaktlarining ro'yxatida "Saqlangan safarlar" ro'yxatiga safarlarni saqlash oraliq nuqtalar ro'yxatida "+" (qo'shish) tugmasini bosib bajariladi. Dastlabki holat bo'yicha safarlarga yakuniy manzilgohning nomi bo'yicha nomlar beriladi. "Saqlangan safarlar" ro'yxatining tarkibini tahrirlash mumkin, buning uchun saqlangan yozuvning tahrirlash ekraniga o'tish uchun "Tahrirlash" tugmasini bosish kerak. Faqat nomining maydonini tahrirlash mumkin. Klaviaturani aks ettirish tartibiga o'tish uchun nomining maydonini bosib. Nomiga o'zgartirishlarni kiriting. Bu o'zgarishlar ularni klaviaturaga kiritilishi bilan avtomatik tarzda saqlanadi. Tahrirlash tartibida shuningdek saqlangan safarlarni ham o'chirish mumkin. O'chirish tugmasi bosilishi bilan ekranga o'chirishni tasdiqlovchi so'rov chiqariladi.

Yo'nalish nuqtalari

- Yo'nalish nuqtalari bilan safar chog'ida keyingi burilish ko'rsatkichiga bosilishida marshrut oraliq nuqtalarining ro'yxati ochiladi. Oraliq nuqtalarni aks ettirilishining oxirgi foydalanilgan tartibi faollashadi: "Yo'nalish nuqtalari", "Ro'yxat".

- Oraliq nuqtalarning ro'yxati shunday saralangan, ro'yxatning yuqorisida keyingi nuqta aks ettiriladi. Oraliq nuqtalar tegishli belgilar bilan raqamlangan. Raqamlash keyingi nuqtadan boshlanadi.
- Nuqtalar har xil ranglarga bo'yalgan, bu esa navbatdagi nuqtani u yoki bu marshrutga yoki marshrutning qolgan qismiga tegishligini yaqqol ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Marshrutni optimallashtirish

- Oraliq nuqtalari bo'lgan joriy safarni "OPTIM." ekran tugmasini bosib optimallashtirish mumkin.
- Optimallashtirish yangi marshrutlarning berilgan parametrlariga muvofiq bajariladi, masalan, yangi marshrut qanday bo'lishi kerakligiga qarab: eng tez, eng qisqa yoki ekologik.
- Tizim marshrutni optimallashtirguncha, oraliq nuqtalar bilan safar ekranining yuqori qismida faollik indikator aks ettiriladi. Agar kelish vaqti va oraliq nuqta uchun masofa, faollik indikator ro'yxatning boshida aks ettirilsa.
- Oraliq nuqtalar bilan safar yaratilganda, safarga keyinchalik nuqtalarni qo'shishdagi kabi, nuqtalarni joylashish joylari marshrut optimal bo'lishini hisobga olib tanlanadi.

- Agar oraliq nuqta manzilgoh rejalashtirib bo'lgandan keyin qo'shilsa, u, qay biri ko'proq marshrut optimallashtirishini ta'minlashiga qarab, yoki joriy manzilgohdan oldin, yoki undan keyin qo'shiladi.
- Agar qo'shimcha nuqtalar bilan safarda bir nechta manzilgohlar bo'lsa, qo'shimcha oraliq nuqtalari marshrut yanada optimal bo'lishi mumkin bo'lgan joylarga qo'shiladi.

Marshrutni tahrirlash

- Ekran tugmasini bosib oraliq nuqtalarning tartibini o'zgartirish yoki oraliq nuqtalarni "TUZATISH"ni bosib marshrutdan o'chirish mumkin. Oraliq nuqtalari marshrutdan "o'chirish" ekran tugmasini bosib o'chiriladi.
- Oraliq nuqtasini o'chirilishini tasdiqlash so'rovi bilan sizib chiqadigan oyna ochiladi.

Sozlamalar

Bosh sahifada "Sozlamalar" tugmasini bosib, "Vaqt va sana", "Til (Language)", "Xizmat ko'rsatish tartibi" va "Radio" kabi parametrlar va funksiyalarni sozlash mumkin. Sozlash tartibini Sozlamalar ⇨ 6-37 bo'limida ko'ring. Ayrim sozlamalar navigatsion tizim axborotni qanday aks ettirishiga va ishlash paytida

foydalanuvchilarning harakatlariga ta'sir ko'rsatadi.

1. Bosh sahifada "Sozlamalar" ekran tugmasini bosib.
2. Menyuning kerakli bandiga o'tish uchun aylantirish chizig'ini bosib. Siz o'zgartirishni istagan parametrlarni tanlang.

Ovozli kiritish

"Ovozli kiritish" funksiyasi qo'llar yordamisi navigatsion tizim, audiotizim va telefon ilovalaridan foydalanish imkonini beradi. Qarang Nutqli buyruqlarni aniqlash (Agar nazarda tutilgan bo'lsa) ⇨ 6-25 Displeyga Ovozli kiritish menyusini chiqarish uchun ovozli boshqarishning sensorli tugmasini bosib.

Nutqni aniqlashning sezgirligi: Ushbu bandni bosib, aniqlash sezgirligi tanlanadi: "Ko'proq tasdiqlash" yoki "Kamroq tasdiqlash". Yo'riqning uzunligi: Ushbu bandni bosib, yo'riqning uzunligi tanlanadi: "Qisqa" yoki "Uzun yo'riq".

Audioizohlarning tezligi: Ushbu bandni bosib, audioizohlarning tezligi tanlanadi: "Sekin", "O'rtacha" yoki "Tez".

Yo'riqlarni ko'rsatish. "Nima aytiladi?": Ushbu bandni bosib, yo'riqlarni aks ettirilishi tanlanadi: "YOQILGAN" yoki "O'CHIRILGAN".

Displey

Tartib: "Tartib" bandini bosib, ekranni fonli yoritish o'zgartiriladi. Bu sozlama xaritaning ranglarini boshqaradi.

- «Avtomatik» tartibida atrofdagi yoritilishiga qarab, fonli yoritishning yorqinligi avtomatik tarzda tartibga solinadi.
- "Kun" tartibini tanlab, xarita fonini yorug'ligini oshirish mumkin.
- "Tun" tartibini tanlab, xarita fonini yorug'ligini pasaytirish mumkin.

Sensorli displeyni kalibrlash: Ushbu band bosib, "Sensorli displeyni kalibrlash" ekraniga o'tiladi.


Displeyni yoqish: Ushbu bandga teginish bilan displey o'chadi.

Yoqilg'ining past darajasi to'g'risida ogohlantirish



Avtomobilida yoqilgi kam qolganida, tizim yoqilg'i zaxirasi darajasining pasayganligi

to'g'risida ogohlantirishni aks ettiradi. Agar zarur bo'lsa "BATAFSILROQ" ekran tugmasini bosib, yaqin atrofdagi avtoyoqilg'i quyish shaxobchalarini ko'rish va ularga marshrutni o'tkazish mumkin.



Agar tizim qolgan yoqilg'i etadigan masofani xabar qilishga qodir bo'lsa, bu ma'lumotlar ogohlantirishda beriladi.

Global pozitsiyalash tizimi (GPS)

Avtomobilning holati yo'ldoshlarning signallari, avtomobil turli tizimlarining signallari va kartografik ma'lumotlar bo'yicha aniqlanadi. Ayrim holatlarda turli to'siqlar, yo'ldosh signallarini qabul qilishni, yo'lning konfiguratsiyasini buzilishi, avtomobilning holati valyoki boshqa vaziyatlar tufayli-navigatsion tizimning avtomobil holatini aniq aniqlash qobiliyati buzilishi mumkin.

GPS tizimi avtomobilning joriy holatini GPS yo'ldoshlaridan keladigan signallar bo'yicha aniqlaydi. Avtomobil yo'ldoshlardan signallarni qabul qilmaganida, ekranda belgi paydo bo'ladi. Navigatsiya tizimining belgilari ⇨ 6-16ni ko'ring. Quyidagi holatlarda tizim ishlamasligi mumkin yoki qandaydir to'siqlar bo'lishi mumkin:

Signallarni qabul qilish baland binolar, katta yuk mashinalari yoki tunnelda turishi sababli qiyinlashgan.

Yo'ldoshlar ta'mir yoki yangilanish holatida.

GPS tizimini nosozligi holatida qo'shimcha ma'lumot olish uchun qarang. Marshrut ko'rsatilib muammolar ⇨ 6-24, Navigatsion tizimga xizmat ko'rsatish ⇨ 6-24.

Avtomobil joylashgan joyini aniqlash

Ayrim holatlarda quyidagi bitta yoki bir nechta sabablar tufayli avtomobilning xaritada joylashish joyi aniq ko'rsatilmagligi mumkin:

- Yo'l tarmog'ini o'zgarishi.
- Avtomobil sirpanchiq yuzada harakatlanmoqda, masalan qumda, shag'alda yoki qorda.
- Avtomobil burama yo'lda yoki yo'lning uzun to'g'ri uchastkasida harakatlanmoqda.
- Avtomobil baland binoga yoki yirik gabaritli transport vositasiga yaqinlashmoqda.
- Avtomagistralga parallel bo'lgan ko'chadan harakatlanmoqda.
- Avtomobilni avtovozda yoki paromda tashish.
- Avtomobilning joriy joylashish joyini aniq kalibrlamaslik.
- Avtomobil yuqori tezlikda harakatlanmoqda.
- Avtomobil harakati yo'nalishi ko'p o'zgartirilishi yoki avtomobilni to'xtab turishdagi karuselida aylanishi.
- Avtomobilni garajga yoki yopiq to'xtash joyiga kirishi yoki chiqishi.
- GPS signalini qabul qilish yo'qligi.
- Avtomobilning tomiga o'rnatilgan yuxkxona.
- G'ildiraklarga kiydirilgan sirpanishga qarshi zanjirlar.

- Almashtirilgan yoki yemirilgan shinalar.
- Shinalarni havoning noto'g'ri bosimi.
- Kartografik ma'lumotlar yangilangandan keyin navigatsiya tizimidan birinchi bor foydalanilmoqda.
- Kuchlanishi 12V bo'lgan akkumulyatorli batareyani quvvatlanishi bir necha kunga o'chirilgan.
- Zich transport oqimida kichik tezlikda yoki ko'p to'xtashlar bilan harakatlanish.

Marshrut ko'rsatilib muammolar

Marshrut bo'yicha kuzatish xatolari bir necha sabablarga ko'ra paydo bo'lishi mumkin:

- Ko'rsatilgan yo'lga burilish bo'lmagan.
- Keyingi o'ng yoki chap burilishga avtomatik qayt hisoblash paytida marshrut bo'yicha kuzatish erishimli bo'lmashligi mumkin.
- Marshrutni avtomatik qayta hisoblash jarayonida marshrutni o'zgartirib bo'lmaydi.
- Chorrahada burilishda marshrut bo'yicha kuzatish amal qilmaydi.
- Ayrim holatlarda punktlarning nomlari ko'plikda e'lon qilinishi mumkin.
- Yuqori tezlikda harakatlanishda marshrutni avtomatik qayta hisoblash ko'p vaqtni olishi mumkin.
- Agar oraliq nuqtaga kirasdan manzilgohga harakatlanish amalga oshirilsa, marshrutni

avtomatik qayta hisoblashda oraliq nuqtaga qaytaruvchi marshrut ko'rsatilishi mumkin.

- Vaqt, mavsum bo'yicha cheklovlar yoki boshqa asoslarga ko'ra avtomobil marshrut bo'yicha yura olmaydi.
- Tizim barcha marshrutlarni ham topa olmaydi.
- Yangi yoki yaqinda o'zgartirilgan yo'llar, kartografik bazada mavjud bo'lmagan yo'llar orqali o'tuvchi manzilgohlarga borish marshrutlari aks ettirilaolinmaydi. Xaritalar ↻ 6-16ni ko'ring.

Avtomobilni holatini xaritada yangidan aniqlash uchun dvigatelni o'chirmasdan avtomobilni ikki-besh daqiqaga to'xtatib turing va avtomobilning joylashish joy to'g'risidagi ma'lumotlar yangilanguncha kutib turing. Mashinani osmon ochiq bo'lgan, yirik to'siqlardan uzoq bo'lgan xavfsiz joyga to'xtating.

Navigatsion tizimga xizmat ko'rsatish

Agar navigatsion tizim xizmat ko'rsatilishini talab qilsa va quyida sanab o'tilgan harakatlar bajarilgan bo'lsa-yu, lekin muammolar bartaraf etilmagan bo'lsa, Marshrut ko'rsatilib muammolar ↻ 6-24ni ko'ring.

Kartografik ma'lumotlarning yangilanishi

Avtomobilning navigatsion tizimida avtomobilning chiqarilish vaqtiga dolzarb bo'lgan kartografik ma'lumot saqlanadi.

Ma'lumotlar bazasi tomonidan qoplanishiga tushuntirishlar (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)

Qoplash sohasi muayyan hudud uchun erishimli bo'lgan xaritalarning batafsillik darajasiga qarab o'zgarishi mumkin. Ayrim hududlar uchun boshqalarga qaraganda batafsilroq xaritalar mavjud. Bu tizimda muammo borligini bildirilmaydi.

NUTQ BUYRUQLARINI ANIQLASH

Nutq buyruqlarini aniqlash (Agar nazarda tutilgan bo'lsa)

Ovozli boshqarish funksiyasi qo'llar yordamisiz navigatsion tizimdan, audiotizimdan va telefon ilovalaridan foydalanish imkonini beradi. Ushbu funktsiyani shuningdek rul chamberagidagi « \times » tugmani bosib yoki sensorli ekrandagi « \times » belgini bosib chaqirish mumkin. Biroq, ushbu sohalaridagi barcha funktsiyalarni ham ovozli buyruqlar yordamida boshqarib bo'lmaydi. Odatda, ovozli buyruqlar bajarilishi bir qator qo'l harakatlarini talab qiluvchi murakkab vazifalarni bajarish uchun nazarda tutilgan.

Masalan, ovozli buyruqlar yordamida multimediyali qurilmadan eshittirilishida tugmalarni bir yoki ikki martadan ko'p bosilishini talab qiluvchi musiqa kompozitsiyasini yoki ijrochini tanlash kabi vazifalarni bajarish mumkin. Masalan, tovush balandligini sozlash yoki aylantirish yo'li orqali qidirish kabi audiotizimni boshqarishning boshqa vazifalari ovozli boshqaruvni nazarda tutmaydi, chunki ularni bajarish uchun bir yoki ikki marta bosishning o'zi yetarli. Ovozli boshqarishdan faqat yoqilgan o't oldirgichda foydalanish mumkin.

Nutqli buyruqlardan foydalanish

Ovozli buyruqlar yordamida boshqarish tizimning initsializatsiyasidan keyin darhol

erishimli bo'ladi. Initsializatsiya o't oldirgich yoqilganidan keyin boshlanadi.

1. Ovozli boshqarishni yoqish uchun rul chamberagidagi « \times » tugmani yoki markaziy konsoldagi axborot-ko'ngilochar tizimning sensorli ekrandagi « \times » belgini bosib.

2. Audiotizimning tovushi o'chiriladi; tizimning tovushli yo'rig'i, keyin esa tovushli signal yangraydi.

3. Tovushli signal o'chganda, ushbu bo'limda ko'rilgan ovozli buyruqlardan birini gapiring.

Ovozli boshqarish tizimi yo'rig'ini to'xtatish uchun « \times » bosib. Masalan, agar siz ovozli yo'riqni tugashini kutmasangiz, « \times » yana bir marta bosib. Shundan keyin darhol tovushli signal chiqadi.

Ovozli yo'riqlarning ikkita tartibi ishlaydi:

- Kengaytirilgan ovozli yo'riqlar: Yanada uzunroq yo'riqlar qo'llab turuvchi harakatlar to'g'risida ko'proq hajmdagi axborotga ega.
- Qisqa yo'riqlar: Qisqa ovozli yo'riqlarda siz berishingiz mumkin bo'lgan buyruqlarning oddiy yo'riqnomalari mavjud.


Agar siz buyruq bermasangiz, ovozli boshqarish tizimi ma'lumot tizimining yo'rig'ini beradi.

Yo'riq va ekranli interfeys

Ovozli boshqarish tizimi yoqilganda ekranda ushbu tizimga tegishli bo'lgan tugmalar aks ettiriladi. Ovozli boshqarish tizimi ekrandan qo'lda boshqarishga yo'l qo'yadi. Ovozli boshqarish tizimi bilan o'zaro aloqa ham to'liq ovozli buyruqlar yordamida, ham tizimni ishlashini tezlashtiruvchi ayrim harakatlardan foydalanib bajarilishi mumkin. Agar qandaydir harakat qo'lda boshqarish orqali bajarilsa, tizim bilan keyinchalik dialog harakatlar faqat ovozli buyruqlardan foydalanib bajarilganidek kabi sodir bo'ladi. Tizim vazifani to'liq bajarsa yoki ovozli boshqarish seansi yakunlansa, ovozli buyruqlar yordamidagi dialog to'xtatiladi. Kerakli bandga tegishli bo'lgan sonni ovoza qilishning o'rniga ekrandagi ro'yxatdan tegishli bandni tanlash qo'lda boshqarish misoli.

Nutq buyruqlarini aniqlashni bekor qilish

- Displayda Home (bosh ekran)tugmasini bosib. Ushbu tugma bosilganida avval audiotizimning sensorli displeyidagi tugma bilan yoqilgan ovozli boshqarish o'chadi.
- "Bekor qilish" yoki "Chiqish" tugmalarini bosib yoki tegishli buyruqlarni aytib. Ovozli boshqarish seansi yakunlanadi, ekranda esa ovozli boshqarish seansi boshlangan oyna paydo bo'ladi.

- Rul chamberagidagi  boshqarish panelida bosing. Ovozli boshqarish seansi yakunlanadi, ekranda esa ovozli boshqarish seansi boshlangan oyna paydo bo'ladi.

Buyruqlarni ovoza qilish bo'yicha foydali maslahatlar

Ovozli boshqarish tizimi ham tabiiy til iboralarida ifodalangan buyruqlarni, ham ilova va vazifani to'g'ridan-to'g'ri aytuvchi buyruqlarni tushinishi mumkin. Ko'pgina tillar uchun tabiiy til iboralari ko'rinishida ifodalangan buyruqlar ishlatilmaydi. Bu tillar uchun to'g'ridan-to'g'ri buyruqlarni ishlatning (ekranda keltirilgan misollarni ko'ring).

Eng yaxshi natijalarga erishish uchun:

- Buyruqni aytishdan yoki javob berishdan oldin ovozli buyruqni eshitning va tovushli signalni kuting.
- Buyruqlarning misollarini bilish uchun "Yordam"ni ayting yoki ekranga qarang.
- « ξ » ni bosib, tizimning ovozli yo'rig'ini to'xtatish mumkin. Shunday qilib, agar siz yo'riqni yakunlanishini kutmasangiz « ξ » ni yana bir marta bosing va kerakli buyruqni ayting.

- Buyruqni tabiiy ovozda ayting, juda tez ham emas, juda sekin ham emas. Ortiqcha so'zlersiz to'g'ridan-to'g'ri buyruqlardan foydalaning.
- Telefonni va tovushni ijro etishni boshqarish buyruqlarini bitta jumla bilan berish mumkin. Masalan, "Ivan Ivanovichni ishiga qo'ng'iroq qilish" deb ayting, « Play (ijro etish)» va keyin ijrochining ismi yoki kompozitsiyaning nomi, yoki "Sozlash" va keyin radiostansiyaning raqami.
- Bitta buyruq bilan eplash uchun navigatsion tizimga manzilgohlarni kiritish muolajasi o'ta murakkab. Avvalombor kerakli manzilgoh turini tushuntiruvchi buyruqni ayting, masalan "Manzilga marshrut tuzish", "chorrahaga" «Navigate (Navigatsiya)», "Maxsus maqsad yoki obyektini topish", "Kontaktga marshrut". Tizim yanada batafsilroq axborotni so'raydi. Maxsus Maqsad so'zlaridan keyin nomi bo'yicha faqat yirik tarmoqli brendlarni tanlash mumkin (tarmoqli brendlar- bu 20 dan ziyod manzillari bo'lgan kompaniyalar) Boshqa obyektlarni tanlash uchun toifalarini ayting, masalan, «Restaurants (Restoranlar)», "Savdo markazlari" yoki "Kasalxonalar". Buyruq so'zlarini aniq eslab qolish shart emas. To'g'ridan-to'g'ri buyruqlar tizim tomonidan yaxshiroq aniqlanishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri buyruqning misoli- "Chaqiruv 555-1212". Bunday to'g'ridan-to'g'ri buyruqlarning misollari ovozli boshqarish tizimi yoqilganida, ko'pgina

ekranlarda beriladi. Agar siz "Telefon" yoki "Telefon" desangiz tizim siz telefon orqali qo'ng'iroq qilmoqchi ekanligingizni tushunadi va yetarlicha ma'lumot olmaguncha aniqlovchi savollarni berishni boshlaydi. Agar telefon raqami ismi va joyi bilan saqlangan bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri buyruqda to'la ma'lumot ko'rsatilishi kerak, masalan, "Ivan Ivanovichni ishiga qo'ng'iroq qilish".

Ro'yxatdan bandni tanlashda ovozli boshqarishdan foydalanish

Agar ekranga ro'yxat chiqarilsa ovozli yo'riq orqali tizim ro'yxatdagi bandni tasdiqlashni yoki tanlashni taklif qiladi. Ekrandagi kerakli bandni qo'lda tanlash mumkin yoki tegishli band qatori raqamini aytish mumkin. Ekranda ro'yxat aks ettirilganida barcha erishimli bandlar ko'rinishi mumkin. Ovozli boshqarish ekranidagi funksiyalarning ro'yxati boshqa ekrandagi ro'yxatga o'xshash. Ekranda ko'rsatilmagan bandlarni chiqarish uchun aylantirish yoki qidiruv funksiyasidan foydalanish mumkin. Agar ovozli boshqarish seansi paytida ekrandagi ro'yxatni qo'lda aylantirilsa yoki varaqlansa, ovozli boshqarishning joriy seansi to'xtatib turiladi va yo'riq jaranglaydi: "Qo'lda boshqarish yordamida ro'yxatdagi bandni tanlang yoki urinishni takrorlash uchun "Ortga" tugmasini bosing".

Agar 15 soniya davomida qo'lda hech qaysi band tanlanmasa, ovozli boshqarish tizimi seansni yakunlaydi va tegishli xabarni beradi. Displayda yana ovozli boshqarish seansi ishga tushirilgan ekran ko'rsatiladi.

"Ortga" buyrug'i

Avvalgi ekranga qaytish uchun "Ortga" so'zini ayting yoki «BACK» tugmasini bosing. Agar ovozli boshqarish tartibi yoqilgan bo'lsa va siz boshlang'ich ekranga qaytguncha "Ortga" so'zini aytasangiz, unda yana bir marta "Ortga" so'zi aytilganda ovozli boshqarish seansi yakunlanadi.

Yordam

Agar siz ovozli boshqarish seansining har qanday ekranida "Yordam" so'zini aytasangiz, tizim joriy ekran uchun ma'lumot tizimining yo'rig'ini beradi. Shu bilan birga aytilgan yo'riqning matni bilan sizib chiquvchi xabar paydo bo'ladi. Ovozli boshqarish seansining faollashtirish usuliga qarab, Ma'lumot yo'rig'i bilan sizib chiquvchi oyna yoki asboblar panelida, yoki axborot-ko'ngilochar tizimning sensorli ekranida aks ettiriladi. Sizib chiquvchi oynani olib tashlash uchun Rad etish tugmasini bosing.

Tugma ⏮ bosilganda ma'lumot tizimini yo'rig'i paytida tizim uni to'xtatadi va tovushli signal beradi. Shu bilan birga tizim ma'lumot tartibidan chiqadi va siz ovozli buyruqni aytishingiz mumkin bo'ladi.

Radiopriyomnikni ovozli boshqarish

Audiotizimning ayrim ekranlarida ovozli boshqarish tugmasi mavjud (⏮), uning yordamida audiotizimni ovozli boshqarish tartibini yoqish mumkin. Radiopriyomnik ekranida ovozli boshqarish tugmasini bosib, siz ovozli buyruqlar yordamida radiodasturlarni va multimediyali funksiyalarni boshqarishingiz mumkin.

"AM diapazoniga o'tish": AM diapazoniga o'tish va oxirgi marta ishlatilgan AM-radiostansiyasiga sozlash.

"FM diapazoniga o'tish": FM diapazoniga o'tish va oxirgi marta ishlatilgan FM-radiostansiyasiga sozlash.

«Tune to (Sozlash) < AM diapazondagi chastota > A M »: Radiopriyomnikni ovozli buyruqda ko'rsatilgan chastotaga sozlash (masalan, "to'qson besh").

«Tune to (Sozlash) < FM- diapazondagi chastota > FM»: Radiopriyomnikni ovozli buyruqda ko'rsatilgan chastotaga sozlash (masalan, "bir yuzi bir").

Multimediyali audiokontentni ovozli boshqarish

Multimediyali kontentni ovozli boshqarish «Play Artist (Ijrochi bo'yicha ijro etish)»: Ijrochi ismini chiqarish uchun dialogni boshlash.

«Play Artist (Ijrochi bo'yicha ijro etish) <ijrochining ismi>»: Buyruqda ko'rsatilgan multimediyali faylni ijro etishni boshlash.

«Play Album (Albomni ijro etish)»: Albom nomini kiritish uchun dialogni boshlash.

«Play Album (Albomni ijro etish) <albomning nomi>»: Nomi buyruqda ko'rsatilgan albomni ijro etishni boshlash.

«Play Song (kompozitsiyani ijro etish)»: Kompozitsiya nomini kiritish uchun dialogni boshlash.

«Play Song (kompozitsiyani ijro etish) <kompozitsiyaning nomi>»: Nomi buyruqda ko'rsatilgan kompozitsiyani ijro etishni boshlash.

«Play Genre (Janr bo'yicha ijro etish)»: Janr nomini kiritish uchun dialogni boshlash.

«Play Genre (Janr bo'yicha ijro etish) <janrning nomi>»: Nomi buyruqda ko'rsatilgan multimedia-faylni ijro etishni boshlash.

«Play Playlist (Pleylistni ijro etish)»: Pleylist nomini kiritish uchun dialogni boshlash.

«Play Playlist (Pleylistni ijro etish) <playlistning nomi> »: Nomi buyruqda ko'rsatilgan pleylistni ijro etishni boshlash

«Play (ijro etish) <qurilmaning nomi>»: Ko'rsatilgan nomli musiqani qurilmadan ijro etish. Audio manbasi sifatida birinchi marta tanlanganda qurilmaning nomi ekranda aks ettiriladi.

«Play Chapter (Bobni ijro etish)»: Nomini kiritish uchun dialogni boshlash.

«Play Chapter (Bobni ijro etish) <bobning nomi> »: Nomi buyruqda ko'rsatilgan multimedia-faylni ijro etishni boshlash.

«Play Audiobook (Audiokitobni ijro etish)» : Nomini kiritish uchun dialogni boshlash.

«Play Audiobook (Audiokitobni ijro etish) <audiokitobning nomi> » : Buyruqda ko'rsatilgan multimediya faylni ijro etishni boshlash.

«Play Episode (Epizodni ijro etish)» : Nomini kiritish uchun dialogni boshlash.

«Play Episode (Epizodni ijro etish) <epizodning nomi>» :

Buyruqda ko'rsatilgan multimediya faylni ijro etishni boshlash.

«Play Podcast (Podkastni ijro etish)» : Nomini kiritish uchun dialogni boshlash.

«Play Podcast (Podkastni ijro etish) <podkast nomi > »: Nomi buyruqda ko'rsatilgan multimedia-faylni ijro etishni boshlash.

«My Media» : Kerakli multimedia kontentni ko'rsatish uchun dialogni boshlash.

Multimedia kontentning katta hajmlarini boshqarish.

Bizning taxminimizga ko'ra, avtomobilingizning axborot-ko'ngilochar tizimida multimedia kontentning katta hajmlari mavjud bo'ladi. Multimedia-kontentning katta hajmlarini boshqarish uchun sizga kontentning kichik hajmlarini boshqarishdagi vositalardan ko'ra boshqa vositalar kerak bo'lishi ehtimoldan holi emas. Agar kompozitsiyalarning soni berilgan maksimal qiymatdan ortiq bo'lsa, eng yuqori darajadan ovozli buyruqlar yordamida kompozitsiyalar nomini tanlashga imkon bermay, tizim ovozli boshqarish funksiyalarini cheklashi mumkin.

Erishimliligi multimedia-kontentlarning limitiga bog'liq bo'lgan ovozli boshqarish funksiyalari:

- Musiqiy fayllar va har qanday multimediya turlarining, masalan, audiokitoblarning bo'labi va podkastlarning epizodlari kabi alohida fayllari.
- Albom turidagi kataloglar, jumladan albomlar va audiokitoblar.

Agar musiqiy fayllar va albomlarning soni 4000tadan oshmasa, hech qanday cheklavlar kiritilmaydi. Agar musiqiy fayllarning soni 4000 dan 8000 diapazonida bo'lsa, « P l a y (Ijro

etish) <kompozitsiyaning nomi>» kabi buyruqdan foydalanib kontentga to'g'ridan-to'g'ri kirib bo'lmaydi. Cheklov shundan iboratki, birinchi «Play Song (Kompozitsiyani ijro etish)» buyrug'ini aytish kerak, shundan keyin tizim kompozitsiyani nomini aytishni so'raydi. Javoban siz eshitmoqchi bo'lgan kompozitsiyani aytish kerak. Shu kabi cheklavlar albomning tarkibidagilarga ham amal qiladi.

Agar albomlarning soni 4000 dan ortiq, lekin 8000 dan kam bo'lsa, bitta buyruq orqali tarkibga to'g'ridan-to'g'ri kirib bo'lmaydi (masalan « P l a y (Ijro etish)< albomning nomi>» deb bo'lmaydi). Avval siz "Play Album (Albomni ijro etish)"ni aytishingiz kerak, shundan keyin tizim albomning nomini aytishni so'raydi. Javoban siz eshitmoqchi bo'lgan albomning nomini aytish kerak.

Agar kompozitsiyalarning soni taxminan 8000dan ortiq bo'lsa, ovozli boshqarish yordamida bevosita kompozitsiyalarga kirish qo'llanilmaydi. Biroq bunda pleylistlar, ijrochilar va janrlar uchun buyruqlar yordamida multimediya-kontentga kirish imkoni saqlanib qoladi.

Tegishli turdagi meltimediya obyektlarining soni 4000 dan oshsa, pleylistlar, ijrochilar va

janrlarning buyruqlari erishimsiz bo'lib qoladi. Agar initsializatsiya jarayonida tizim yuqorida sanab o'tilgan limitlarning biri oshirilganligini aniqlasa, u ovozli boshqarish tizimi birinchi yoqilganida bu haqda xabar beradi.

Navigatsiya uchun ovozli boshqarish Izoh

Agar radiopriyomnik ingliz tiliga sozlangan bo'lsa, navigatsion tizimni ovozli boshqarish funksiyasi ishlamaydi.

«**Navigatsiya**»: Manzilgoh to'g'risida ma'lumotni kiritish uchun dialogni boshlash.

"**Navigatsiya Buyruqlari**": Manzilgoh to'g'risida ma'lumotni kiritish uchun dialogni boshlash.

"**Manzilni Belgilash**": O'z ichiga tarkibida uy raqami, ko'cha nomi, shahar va shtat nomi bo'lgan to'liq manzilni kirituvchi manzilgoh manzilini kiritish uchun dialogni boshlash.

"**Chorrahani Belgilash**": Muayyan chorrahani ko'rsatish uchun dialogni boshlash.

"**Manzilgoh Maxsus Maqsad**": Obyekt toifasini yoki yirik tarmoq nomini kiritish uchun dialogni boshlash (agar nazarda tutilgan bo'lsa).

Marka va kompaniyalarning barcha nomlari ham ovozli buyruqlar yordamida kiritishda erishimli emas. 20 dan ziyod manzillari bo'lgan ko'pgina yirik tarmoq markalarini ovozli boshqarish yordamida kiritish mumkin, lekin

ularning nomlarini juda sinchkovlik bilan aytish kerak. Ko'pgina hollarda kompaniyalarning oddiy va qisqartirilgan nomlanishlari bo'yicha qidiruvi imkonsiz. Uncha tanish bo'lmagan kompaniyalarni toifalar bo'yicha, masalan umumiy ovqatlanish muassasalari, otellar yoki banklar bo'yicha qidirish tavsiya etiladi.

"**Kontakt Maqsad kabi**": Manzilgoh uchun abonent ismini kiritish uchun dialogni boshlash.

"**Marshrutni bekor qilish**": Marshrut bo'yicha yurishni yakunlash.

Telefonni ovozli boshqarish

«**Qo'ng'.qil.. <abonentning ismi>**»: Telefon orqali ko'rsatilgan abonentga qo'ng'iroq qilish. Agar abonent uchun joylashish joylari ko'rsatilib raqamlar mavjud bo'lsa, buyruqda joylashish joyi ko'rsatilishi mumkin.

"**Qo'ng'.qil. <abonentning ismi> uy raqamiga**", "**ishchi raqamiga**", "**mobil raqamiga**" yoki "**Boshqa raqamiga**": Ko'rsatilgan joylashish joyiga qarab abonentga qo'ng'iroq qilish uyiga, ishiga, mobil qurilmasiga yoki boshqa telefon raqamiga.

"**Qo'ng'.qil. <telefon raqami>**": Yettita yoki 10 ta raqamdan iborat bo'lgan oddiy telefon raqamiga qo'ng'iroq qilish.

«**PairТелефон**» (**сопряжение**): Bluetooth interfeysi orqali birlashtirilgan jarayonini boshlash. Radiopriyomnik ekranidagi yo'riqnomaga rioya qiling.

«**Switch Phone (Telefonni o'chirib-yoqish)**»: Chiquvchi qo'ng'iroqlar uchun boshqa telefonni tanlash.

«**Voice Keypad**»: Telefonning maxsus raqamini, masalan, xalqaro raqamni kiritish uchun dialogni boshlaydi. Raqamlarni raqamlarning guruhi bo'yicha kiritish mumkin, shunda tizim kiritilayotgan raqamlarning har bir guruhini takrorlaydi. Agar raqamlar guruhi noto'g'ri kiritilgan bo'lsa, "O'chirish" buyrug'i yordamida oxirgi guruhni o'chirib, keyin yana bir marta kiritish mumkin. "Qo'ng'.qil." buyrug'i yordamida telefon raqamini kiritishni yakunlab, chiquvchi qo'ng'iroqni amalga oshirish mumkin.

"**Ovoz. Pcht**": Ovozli buyruqning raqami bo'yicha qo'ng'iroq qilish.

Voice Pass-Thru (buyruqlarni ovoz orqali berishning to'g'ri tartibi)

Buyruqlari ovoz orqali berishning to'g'ri tartibi mobil telefonida ovozli buyruqlarga kirish imkonini taqdim etadi (masalan, Siri yoki Voice Command funksiyalariga). Mobil telefonida mazkur funksiyadan foydalanish mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotni mobil telefonini ishlatish bo'yicha yo'riqnomadan ko'ring. Mobil telefonini ovozli boshqarilishini yoqish uchun rul chamberigidagi «**ⓧ**» tugmani bosib va uni bosilgan holatda bir necha soniyalar ushlab turing.

TELEFON

Bluetooth kanali (Obzor)

Bluetooth interfeysli tizimi quyidagilarga imkon berib, mobil telefonlarning ko'p sonlari bilan aloqa qilishi mumkin:

- Qo'llarning yordamisiz qo'ng'iroqlarni amalga oshirish va qabul qilish.
 - Avtomobilga manzillar kitobini yoki telefon kontaktlari ro'yxatini uzatish.
- Chalg'ituvchi omillarni kamaytirish uchun, haydashni boshlashdan oldin to'xtab turgan avtomobilda quyidagi harakatlarni bajaring:
- Mobil telefon funksiyalari bilan tanishib chiqing. Telefon kitobini va kontaktlar ro'yxatini tartibga keltiring, takrorlanadigan va kam ishlatiladigan yozuvlarni o'chiring. Agar imkoni bo'lsa, raqamlarni va boshqa qisqa buyruqlarni tez terishga dasturlang.
 - Boshqaruv organlari va axborot-ko'ngilochar tizimdan foydalanishni eslang.
 - Uyali telefonni avtomobil bilan birikishi. Uyali telefonlarning ayrim modellari bilan tizim ishlamasligi mumkin. Qarang "Birikish" shu bo'limga.

XAVFLI

Axborot-ko'ngilochar tizimning biron bir funksiyasiga yo'ldan ko'pga yoki juda tez-tez chalg'ish, avariyaning keltirib chiqarishi mumkin. Bu ham sizga, ham atrofdagilarga jarohat, hattoki o'lim holatini olib kelishi bilan havfli. Avtomobilni boshqarish vaqtida axborot-ko'ngilochar tizimga uzoq vaqt davomida chalg'imang. Displaylarning ekranlariga juda tez-tez chalg'imasdan, avtomobilni boshqarishga diqqatingizni jamlang. Imkon qadar ovozli buyruqlardan foydalaning.

XAVFLI

Harakat paytida qo'lga telefonni olish qonun tarafidan taqiqlangan. Harakatni boshlashdan oldin Bluetooth® o'chirilganligiga ishonch hosil qilish kerak. Aks holda, mobil telefondan foydalanish uchun xavfsiz joyda to'xtash kerak.


Bluetooth va baland ovozli aloqa profili qo'llaniladigan mobil telefoni bo'lganida Bluetooth ni qo'llovchi avtomobillar telefon qo'ng'iroqlarini baland ovozli aloqa rejimida amalga oshirishlari va qabul qilishlari mumkin. Tizimni boshqarish axborot-ko'ngilochar tizim va ovozli buyruqlar yordamida amalga


oshiriladi. O't oldirgich ON/RUN(YOQSH) yoki ACC/ACCESSORY (Qo'shimcha agregatlar) holatiga o'rnatilganda tizimdan foydalanish mumkin. Bluetooth ning ta'sir etish masofasi 9,1 m (30 fut)ni tashkil qiladi. Telefonlarning barcha modellari ham Bluetooth orqali ishlamasligi mumkin va barcha telefonlarda ham barcha funksiyalar qo'llanilmasligi mumkin.

Bluetoothni boshqarish

Bluetooth orqali ulanish bilan boshqarish axborot-ko'ngilochar tizimni boshqarish panelidagi tugmalar va rul chambaragidagi boshqaruv organlari yordamida amalga oshiriladi.

Rul chambaragi boshqaruv organlari

 **(Suhbat uchun boshlash)**: Kiruvchi qo'ng'iroqqa javob berish uchun bosib, tizim axborotini tasdiqlash yoki ovozli boshqarish seansini boshlash.

 **(Suhbatni yakunlash)**: Ulashni yakunlash, chaqiruvni rad etish yoki operatsiyani bekor qilish uchun bosib. Siz telefonda gaplashayotganingizda axborot-ko'ngilochar tizimning tovushini o'chirish uchun bosib.

Axborot-ko'ngilochar tizimni boshqarish organlari

Axborot-ko'ngilochar tizimidan foydalanib menyu bilan qanday ishlash borasidagi qo'shimcha axborotni Tizimdan foydalanish ↗ 6-5 bo'limida ko'ring.

Telefon: Telefonning asosiy menyusini chiqarish uchun bosh sahifada shu tugmani bosing.

Audiotizim

Bluetooth tizimi ishlatilganda tovush avtomobil audiotizimining old dinamiklaridan chiqadi, va audiotizimning ishi bostiriladi. Qo'ng'iroq paytida tovush balandligini tovush balandligining dastagi yordamida boshqarish mumkin. Shunda o'rnatilgan tovush balandligi keyingi suhbatlar uchun xotirada saqlab qo'yiladi.

Tizim ma'lum tovush darajasini qo'llaydi.

Bluetooth Kanali (Axborot-ko'ngilochar tizimini boshqarish organlari)

Axborot-ko'ngilochar tizimi organlaridan foydalanib menyu bilan qanday ishlash borasidagi qo'shimcha axborotni Tizimdan foydalanish ↗ 6-5 bo'limida ko'ring.

Ulash

Avval Bluetooth-ko'llovchi mobil telefonini Bluetooth interfeysi bilan birikishini bajarish kerak, keyin uni avtomobilga ulash kerak. Bluetooth funksiyalari haqidagi ma'lumotlarni mobil telefonini ishlab chiqaruvchisining qo'llanmasidan ko'ring (mobil telefonini ulashdan oldin).

Biriktirish haqida ma'lumot

- Musiqiy fayllarni qo'llab turuvchi Bluetooth li telefonni bir vaqtning o'zida avtomobil bilan ham telefon, ham musiqiy pleyer sifatida biriktirib bo'lmaydi.
- Tizim bilan 10 tagacha qurilma biriktirilishi mumkin.
- Biriktirish muolajasini faqat bir marta bajarish mumkin. Biriktirilgan qurilmadagi ma'lumot tizimning xotirasidan o'chirilgan holatda uni takroran bajarish talab etilishi mumkin.
- Avtomobil harakatlanishi paytida biriktirish tartibini yoqish imkoniyati bloklangan.
- Vaqtning har soniyasida axborot-ko'ngilochar tizimga Bluetooth orqali faqat bitta biriktirilgan Bluetooth-qurilmani ulash mumkin.
- Agar tizimning erishimli chegarasida bir nechta biriktirilgan mobil telefonlari mavjud bo'lsa, tizim erishimlilari bilan aloqa o'rnatishga urinadi.

Biriktirilgan telefonlar bilan ular oxirgi marta tizim tomonidan foydalanilgan tartibda. Boshqa biriktirilgan telefonlar bilan aloqani o'rnatish uchun "Boshqa telefon bilan ulanish"ni bosing, keyinchalik shu bo'limda ko'ring.

Telefonni ulash

1. Telefon sensorli tugmani bosing.
2. Telefon keyin Ulash qurilmani tanlang.
3. Ekranida to'rt sonli kod paydo bo'ladi. Bu kod 5-chi qadamga kerak bo'lishi mumkin.
4. Uyali telefonda biriktirishni o'rnatish muolajasini ishga tushiring. Muolaja haqidagi ma'lumotni mobil telefonidan foydalanish bo'yicha qo'llanmadan ko'ring.
5. Ekranida "Chevrolet MyLink"ni toping. Yuqoridagi 3 bandeda berilgan PIN-kodni kiritish uchun yoki ekranida ko'rsatilgan oltita sonli kodni tasdiqlash uchun telefondagi yo'riqlarga rioya qiling. Kod kiritilgandan keyin yoki ekrandagi kod tasdiqlangandan keyin va biriktirish yakunlangandan keyin tizim quyidagi xabarni beradi:
«<qurilmaning nomi> muvaffaqiyatli ulandi».
6. Agar Chevrolet MyLink bandi mavjud bo'lmasa, telefonni o'chiring yoki undan akkumulyatorni chiqaring, keyin (akkumulyatorni qo'ying) va urinishni takrorlang.
7. Agar telefonda ulanishni tasdiqlash yoki telefonning manzillar kitobini yuklanishiga ruxsat berish so'rovi berilsa, har doim "Tasdiqlash" va "Ruxsat berish" ni tanlang. Agar manzillar kitobini yuklanishiga ruxsat berilmasa, u erishimli bo'lmaydi.

8. Boshqa telefonlarni birlashtirilishini bajarish uchun 1-7 bandlarda ta'riflangan harakatlarni takrorlang.

Barcha birlashtirilgan va ulangan telefonlar ro'yxatini eshitisht.

1. Telefon sensorli tugmani bosib.
2. "Telefonlar"ni tanlang.

Ulangan telefonni o'chirish

1. Telefon sensorli tugmani bosib.
2. "Telefonlar"ni tanlang.
3. Telefonni uzish uchun telefon yonidagi belgini X bosib va ekrandagi yo'riqnomalarga rioya qiling.

Ulangan telefonni uzish

Faqat o'chirilgan telefonni uzish mumkin.

1. Telefon sensorli tugmani bosib.
2. "Telefonlar"ni tanlang.
3. Telefonni uzish uchun telefon yonida ☹ belgini bosib va va ekrandagi yo'riqnomalarga rioya qiling.

Boshqa telefon bilan bog'lanishi

Boshqa telefon bilan aloqani o'rnatish uchun bu telefon avtomobilda bo'lishi va Bluetooth interfeysi orqali tizim bilan birlashtirilgan bo'lishi kerak.

1. Telefon sensorli tugmani bosib.
2. "Telefonlar"ni tanlang.
3. Ulanmagan qurilmalar ro'yxatidan ulash uchun yangi telefonni tanlang.

"Telef.trubka" yoki "Tel.garnitura" tartibiga o'tish

"Telef.trubka" va "tel.garnitura" tartiblarini almashtirish uchun bosh sahifada Telefon piktogrammasini bosib. Ulanishlar menyusida paydo bo'ladi.

- Agar telefon «telef.trubka» tartibida turgan bo'lsa, trubka tartibiga o'tish uchun ekrandagi Telef. trubka tugmasini bosib. Bluetooth-qurilma "telef.trubka" tartibiga o'tishni tasdiqlashi bilan, ekrandagi tugma Tel.garnituraga almashadi.
- Agar telefon «telef. trubka» tartibida turgan bo'lsa, garnitura tartibiga o'tish uchun ekrandagi Tel. garnitura tugmasini bosib. Bluetooth-qurilma "telef.trubka" tartibiga o'tishni tasdiqlashi bilan, ekrandagi tugma Tel.trubkaga almashadi.

Kontaktlar va Keyingi chaqiruvlar yordamida qo'ng'iroq

Bluetooth tizimi telefon kitob funksiyasini qo'llab turuvchi telefonda saqlanadigan shaxsiy kontakt ma'lumotlaridan foydalanib telefon chaqiruvlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Telefon sozlamalari va uning ishi bilan tanishib chiqing. Sizing mobil telefoningiz ushbu funksiyani qo'llashini tekshirib ko'ring. Agar qo'llasa, unda avtomatik tarzda Kontaktlar va Keyingi chaqiruvlar Erishimli bo'ladi.

Kontaktlar menyusida mobil telefonning telefon kitobiga kirish mumkin.

Keyingi qo'ng'iroqlar menyusida mazkur mobil telefoni uchun yaqin oradagi chaqiruvlarning ro'yxatini/ro'yxatlarini topish mumkin.

Kontaktlar menyusida orqali telefon qo'ng'irog'ini amalga oshirish uchun:

1. Telefon sensorli tugmani bosib.
 2. "Kontaktlar"ni tanlang.
 3. Ulanish kerak bo'lgan abonentning ismini tanlang.
 4. Kerakli raqamni tanlang.
- Chaqiruvlarni eshitisht orqali telefon qo'ng'irog'ini amalga oshirish uchun:
1. Telefon sensorli tugmani bosib.
 2. "Oxirigilar"ni tanlang
 3. Terish lozim bo'lgan kontakt ismini yoki raqamini tanlang.

Klaviaturada raqam terilib qo'ng'iroq qilish

Klaviaturada raqam terilib qo'ng'iroq qilish uchun:

1. Telefon sensorli tugmani bosib.
2. Klaviaturani tanlang va telefon raqamini kiriting.
3. Raqamni terishni boshlash uchun "Qo'ng'iroq qilish"ni tanlang.

Chaqiruvni qabul qilish va rad etish

Agar tushgan chaqiruv qabul qilinsa, axborot-ko'ngilochar tizimi avtomobilda jaranglayotgan ringtonni pasaytiradi.

Chaqiruvni qabul qilish

Chaqiruvni qabul qilishning bir nechta usullari mavjud:

- Rul chambaragidagi «☞» tugmani bosing.
- Markaziy konsol displeyidagi Javob berishni bosing.

Chaqiruvni rad etish

Chaqiruvni rad etishning bir nechta usullari:

- Rul chambaragidagi «☞» tugmani bosing.
- Markaziy konsol displeyidagi Rad etishni bosing.

Chaqiruvni kutish

Chaqiruvni ushlab turish funksiyasi Bluetooth moduli bilan jihozlangan telefon va uyali aloqa operatori tomonidan qo'llanib turishi kerak.

Chaqiruvni qabul qilish

Kutish tartibiga o'tkazilgan chaqiruvni qabul qilishni bir nechta usullari mavjud:

- Rul chambaragidagi «☞» tugmani bosing.
- Markaziy konsol displeyidagi Almashtirishni bosing.

Chaqiruvni rad etish

Kutish tartibiga o'tkazilgan chaqiruvni rad etishning bir nechta usullari mavjud:

- Rul chambaragidagi «☞» tugmani bosing.
- Markaziy konsol displeyidagi Rad etishni bosing.

Abonentlar o'rtasida almashish (faqat ushlab turiladigan chaqiruvlar uchun)

Chaqiruvlar o'rtasida almashtirish uchun ulanishlar menyusiga o'tish uchun bosh sahifadagi telefon pigtogrammasini bosing. Unga ulanish uchun ulanishlar menyusida ushlab turish tartibida turgan ulanishni bosing.

Uch tomonlama aloqa

Uch tomonlama aloqa funksiyasi Bluetooth moduli bilan jihozlangan telefon va uyali aloqa operatori tomonidan qo'llanib turishi kerak. Chaqiruv paytida uch tomonlama aloqa tartibiga o'tish uchun:

1. Yana bitta ulanishni qo'shish uchun ulanishlar menyusida Qo'shishni tanlang.
2. OXIRGILAR, KONTAKTLAR yoki KLAVIATURANI tanlab, ikkinchi ulanishni o'rnatish.
2. Ikkinchi ulanish faol bo'lganida uch tomonlama konferens-aloqani o'rnatish uchun Merge (Birlashtirishni)ni bosing.
4. Barcha ulanishlar birlashtirilganda, Birlashtirish tugmasi yozuvini Unmerge (Ayririsha)ga o'zgartiradi. Ulanishlarni ayirish uchun uni bosing. Mobil aloqasining ayrim

tarmoqlari birlashtirilgan ulanishlarni ayirishga yo'l qo'ymaydi.

Chaqiruvni yakunlash

- Rul chambaragidagi tugmani bosing.
 - Barcha o'rnatilgan ulanishlarni yakunlash uchun markaziy konsolning displeyida Yakunlashni bosing, yoki faqat bitta ulanishni yakunlash uchun uning yonidagina Yakunlashni «☞» bosing.
- Некоторые сети мобильной связи не позволяют разделять объединенные соединения.

DTMF Tonal signallar

Chaqiruv paytida avtomobilning audiotizimiga qurilgan Bluetooth moduli raqamlarni uzatishi mumkin. Bu menyu yordamida boshqariladigan telefon tizimlari bilan ishlashda zarur.

1. Telefon sensorli tugmani bosing.
2. O'zaro ta'sir selektorini chaqirish uchun ulanishlar ekranida «^» bosing.
3. Klaviaturani tanlang va raqamni kiriting.

Ovoz. Pochta

Dastlabki holat bo'yicha ovozi pochta uchun hozirgi paytda tizimga ulangan telefon raqami ishlatiladi. Ovozi pochta raqamini Bluetooth sozlamalarida o'zgartirish mumkin.

Ovozli pochta raqamini terish uchun:

1. Telefon sensorli tugmani bosib.
Tanlangan funksiyalar ular yoqiladigan tugmalarni yorishtirish orqali belgilanadi.

Iqlim-nazoratining elektron tizimi

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Konditsioner yoki isitish tizimi ishlayotganda avtomobilda uxlash lozim bo'lmaydi. Kislorod etishmovchiligi va/yoki tana haroratining pasayishi sababli jiddiy ziyon yetkazilishi yoki o'limning sodir bo'lish ehtimoli bor.



Boshqarish vositalari:

- Ventilyatorning aylanish tezligi (A).
- Havo konditsioneri (B).
- Havoni taqsimlanishi (C).
- Oynalardan namlikni va qirovni olib tashlash (D).
- Harorat (E).
- Orqa oynani isitilishi (G).
- Havoning qayta aylanishi (H).

AUTO: Avtomatik tartib. Barcha sozlamalar, haroratdan tashqari, tizim tomonidan avtomatik tanlanadi (F).

 /  : Tizimni yoqish/o'chirish (I).

Harorat

Haroratni sozlash uchun tutqich (E) aylantiring.

Moviy: Sovuqroq.

Qizil: Iliqroq.

Agar minimal harorat o'rnatilgan bo'lsa, iqlim-nazorat tizimi maksimal sovutishda ishlaydi.

Isitish

- Haroratni sozlash tutqichini (E) qizil zonaga o'tkazing.
- Havo taqsimlagichining tutqichini (C) kerakli holatga o'rnatib.
- Ventilyatorni boshqarish tutqichini (A) talab etilayotgan tezlikgacha aylantiring.


Maksimal isitish tartibi


Maksimal isitish tartibi avtomobilni tez isitish uchun mo'ljallangan.


- Haroratni sozlash tutqichini (E) qizil zonaga oxirigacha o'tkazing.
- Ventilyatorni boshqarish tutqichini (A) maksimal tezlikgacha aylantiring.


Havoning taqsimlanishi

Talab etilayotgan sozlamani sozlash uchun muvofiq tugmani bosing; havoni taqsimlash sozlamasi axborot displeyida aks ettiriladi.

 : Old oynaga va oyoqlar uchun chuqurlikka.

 : Oyoqlar uchun chuqurlikka.




 : Bosh sohasiga sozlanuvchi ventilyatsion tirqishlar orqali.

 : Bosh sohasiga sozlanuvchi ventilyatsion tirqishlar va oyoqlar uchun chuqurlik orqali.


Ventilyator aylanishining tezligi

Ventilyator aylanishlarini tutqichini (A) aylantirish orqali havoning uzatilishini jadalligini sozlang.

Oynalardan namlikni va qirovni olib tashlash

-  (D) tugmani bosing.
 - Havoni qayta aylantirish tartibi o'chadi va toza havoni yig'ish tartibi yoqiladi.
 - Havoni taqsimlash va ventilyator ishining tezligi avtomatik sozlanadi.
- Konditsioner avtomatik yoqiladi. Orqa oyna istilishini  (G) yoqing. Orqa oynani isitilishi  1-15ni ko'ring.

Havoning qayta aylanish tizimi

Havoning qayta aylanish tartibi  (H) tugmasi bilan yoqiladi va o'chiriladi. Agar ushbu tartib tanlangan bo'lsa, tashqi havoning yig'ilishi to'siladi va salon ichida havoning qayta aylanishi sodir bo'ladi.

Agar **AUTO** tartibi yoqilmagan bo'lsa, havoni ancha tez sovutish va kerakli havoga chiqish uchun havoning qayta aylanish tartibini qo'llash tavsiya etiladi.

OGOHLANTIRISH!

Qayta aylanish tartibida ko'chadan salonga kirib keladigan havoning hajmi pasayadi. Agar qayta aylanish sovutishsiz yoqilgan bo'lsa, havoning namligi oshadi, va oynalarning telchilab qolish ehtimoli bor. Salonda havoning sifati vaqt o'tishi bilan yomonlashadi, bu yo'lovchilarda uyquchanlik hissini chaqirishi mumkin.

Konditsioner

A/C (B) tugmalar yordamida yoqiladi va o'chiriladi. Havoning konditsionerlanishi faqat o't oldirilgan dvigatelda va iqlim-nazorati tizimi ishlayotganda amalga oshiriladi. Konditsioner havoni salqinlatadi va tashqi harorat o'rnatilgan darajadan yuqori bo'lganida havodan namlikni olib tashlaydi (quritadi). Hosil bo'lgan kondensat avtomobil ostidan tomib turishi mumkin.

Agar harorat tutqichi qizil zonaga o'rnatilganida, hattoki yoqilgan konditsionerda havo iliq bo'ladi. Agar sovutish yoki quritish talab etilmasa, yoqilg'ini tejjash uchun tizimni o'chirib qo'yish tavsiya etiladi.

AUTO avtomatik tartib

Maksimal qulaylikni ta'minlaydigan asosiy qurilma:

- AUTO tugmasini bosib va konditsionerlash tizimi avtomatik tartibda yoqiladi.
- Barcha ventilyatsion tirqishlarni ochib qo'ying.
- Tutqichni (E) aylantirish bilan zarur bo'lgan haroratni o'rnatib.

Avtomobil salonidagi havo haroratini 22°C oraliqda samarali sozlash mumkin. Salondagi harorat barqarorlashishni boshlashini kuting. Bundan so'ng haroratni qulay darajagacha sozlang. Agar salonda issiq yoki ventilyatsiyaning sopolidan iliq havo taralib turgan bo'lsa, sozlagich yordamida ancha past haroratni o'rnatib.

Avtomatik tartibda barcha ventilyatsion tirqishlar bilan boshqarish avtomatik amalga oshiriladi. Shuning uchun ventilyatsion tirqishlar doimo ochiq bo'lishi kerak.

Quyida sanab o'tilgan funktsiyalarni qo'lda sozlash mumkin, biroq bunda avtomatik tartib o'chadi.

- Ventilyatorning aylanish tezligi(A).
- Havo konditsioneri(B).
- Havoni taqsimlanishi (C).
- Oynalardan namlikni va qirovni olib tashlash (D).
- Havoning qayta aylanishi(H).
- Oziqlanish (I).

Oldindan o'rnatilgan harorat avtomatik qo'llab turiladi. Avtomatik tartibda havoning uzatilishi ventilyator aylanishining tezligini o'zgartirish va soplalar orasida havoning taqsimlanishi bilan sozlanadi.

Tizim havoni taqsimlash va ventilyator tezligini sozlagichi yordamida qo'lda sozlanishi mumkin. Parametrlarning har bir o'zgarishi axborot displeyida aks ettiriladi. U yoki bu funktsiyaning yoqilishi ba'zi holatlarda xuddi shunday muvofiq tugmani nurdodli yoritilishi bilan ko'rsatiladi. Iqlim-nazoratning elektron tizimi butkul faqat ishlayotgan dvigatelda ishlaydi.

Tizimning ish samaradorligini saqlab qolish uchun asbob-uskunalar panelidagi datchikni yopmang.

Qo'l sozlamalari

Iqlim-nazorat tizimining ishlash parametrlarini tugmalar va sozlagichlarning tutqichlari yordamida o'zgartirish mumkin. Biron bir parametрни qo'lda o'zgartirganda avtomatik tartib o'chishi mumkin. Avtomatik tartibni qayta yoqish uchun **AUTO (F)** tugmasini bosib.

Salonning orqa qismida havo konditsionerlanish tizimi

Avtomobilning orqa qismida havoni konditsionerlash tizimi avtomobilning salonini old qismidagi havoni konditsionerlash tizimi bilan birgalikda yoqiladi.




Salonning orqa qismidagi havoni konditsionerlash tizimi **REAR A/C** tugmasi bilan yoqiladi va o'chiriladi.

Agar tizim yoqilgan bo'lsa, sovuq havo qopqoqning qoplamasida joylashtirilgan soplalarga qaratib yo'naltiriladi, bunda salonning old qismidagi havoni konditsionerlash tizimi qo'l tartibiga o'zgaradi.

VENTILYATSION PANJARALAR

Avtomobilning orqa qismini konditsionerlash tizimini havoni keltirilishini o'chirish



Avtomobil salonining orqa qismini konditsionerlash tizimi ventilyatori havoni keltirishning orqa soplalari orqali avtomobil salonining orqa qismiga havoni oqimini yo'naltiradi.

Orqa o'rindiqlardagi havoni konditsionerlash tizimini yoqish tugmasini **REAR A/C** bosib va orqaga sovutilgan va quritilgan havoni uzatilishini yoqish uchun orqadagi konditsionerning ventilyatorini tutqichini aylantiring.

Tutqichni aylantirish orqali havoni uzatilish jadalligini sozlang.


Soat strelkasiga qarshi aylantirish:

Havoni uzatilishini pasaytirish.


Soat strelkasi bo'yicha aylantirish: Havoni uzatilishini oshirish.

Ventilyatsion tirqishlarining sozlanuvchi panjaralari


Parlantirgich havoni etarli bo'lmagan oqimi sababli muzlab qolmasligi uchun, yoqilgan sovutishda hech bo'lmaganda ventilyatsion tirqishlardan biri ochiq holatda bo'lishi kerak.



Soplonni ochish uchun yuritgichni tepaga, yoki uni to'sish uchun pastga siljiting, shu bilan salonga havoni kelishining jadalligi sozlanadi.




Havoni oqimini yo'nalishini o'zgartirish uchun ventilyatsionning soplalarini to'siqchalarini holatini sozlang.



⚠ OGOHLANTIRISH!

Havo keltirish deflektorlarining pardachasiga begona buyumlarni joylamang. Avariya holatida shikastlanish va jarohatlanish xavfi.

**Salonning orqa qismida ventilyatsiya
soplalari**



Konditsionerlashning qo'shimcha tizimi tomonidan sovitiluvchi havo avtomobilning tom qoplanishida joylashgan sopla orqali salonning orqa tomoniga uzatiladi.

Soplani ochish uchun yuritgichni tepaga , yoki uni to'sish uchun pastga siljiting, shu bilan havo kelishining jadalligi sozlanadi.


Havo oqimini yo'nalishini o'zgartirish uchun ventilyatsiyaning soplalarini to'siqchlarini holatini sozlang.

Siljtilmaydigan ventilyatsion tirqishlar

Qo'shimcha ventilyatsion tirqishlar old oyna, eshik oynalari ostida, hamda oyoqlar uchun chuqurlikda o'rnatilgan.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Havo to'plagich



Motor bo'linmasida old oynasining oldidagi havo to'plagichi havoni to'sqinliksiz so'rib olinishi uchun toza holatda saqlanishi kerak. Undan barglarni, kirlarni va qorni olib tashlang.

Konditsionerning me'yordagi ishi

Konditsionerlash tizimi ish qobiliyatida har doim qolishi uchun, uni ob-havoga va yil mavsumiga bog'liq bo'lmagan holda, oyda bir marta bir necha minutga yoqish zarur.



OGOHLANTIRISH!

Iqlim-nazorat tizimiga faqat malakali xodimlar tomonidan xizmat ko'rsatilishi kerak. Xizmat ko'rsatishning noto'g'ri usullarida jarohat yetkazilish ehtimoli bor.

8

AVTOMOBILNI HAYDASH VA BOSHQARISH

- HAYDOVCHIGA MASLAHATLAR 8-2
- ISHGA TUSHIRISH VA ISHLATISH 8-11
- ISHLAGAN GAZLAR 8-14
- AVTOMATIK YURITMALAR QUTISI 8-14
- AVTOMOBILNI BOSHQARISH TIZIMI 8-17
- TORMOZ TIZIMI 8-20
- OSMA QATTIQLIGINI SOZLASH TIZIMI 8-22
- KRUIZ-NAZORAT 8-24
- OBYEKTЛАRNI ANIQLASH TIZIMI 8-25
- YONILG'I 8-35
- TIRKAMANI SHATAKLASH 8-38
- IZOHLAR 8-44

HAYDOVCHIGA MASLAHATLAR

Haydash uchun sharoitlar



General Motors kompaniyasi atrof-muhitni muhofaza qilishning choralarni takomillashtirish ustida doimo ishlab keladi va o'z mashinalarini konstruktirlash va yig'ishda ekologik zararsiz va ikkilamchi materiallarni maksimal keng qo'llaydi. Ishlab chiqarish texnologiyalari ham tabiatni muhofaza qilish qonunchiligining barcha talablariga javob beradi. Ishlab chiqarishda asbest kabi zararli moddalardan foydalanilmaydi. Konditsionerlash tizimidagi xlorftoruglerodlarni saqlamaydi. Ishlagan gazlarda zararli moddalarning saqlanishi pasaytirilgan.

Atrof-muhit muhofazasiga nisbatan General Motors siyosati

"General Motors kompaniyasi o'z oldiga ishlab chiqarishni ekologik xavfsizligini oshirish, ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish, qonunchilik va me'yoriy talablarga muvofiqlik, zararli moddalarning tashqariga chiqarilishi va jamoatchilik bilan aloqalarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga imkon beruvchi maqsad va vazifalarni qo'yib, atrof-muhit muhofazasi va tabiat resurslarini tejash haqida qayg'uradi".

Izoh

- Moylash moyining ishlatilishi bo'yicha uning xususiyatlari asta-sekin yomonlashadi, bu, odatda, kanserogen xususiyatlarga ega bo'lgan qatronlarning hosil bo'lishida aks etadi.
- Ishlagan moylash moyining tuproqqa yoki suv havzalariga to'kilishi qonun bilan taqiqlangan va atrof-muhit uchun ahamiyatli zararni olib keladi.
- Moylash moyining nazoratsiz sarflanishi atrof-muhitga zararli gazlarning chiqarilishiga olib keladi;
- Bunday chiqindilar ixtisoslashtirilgan korxonalarda ikkilamchi qayta ishlashga topshirilishi kerak.

Ikkilamchi qayta ishlashga talablar

Moylash materiallarini almashtirish zaruratida Chevrolet servis-markaziga murojaat qilishni tavsiya qilamiz.

Yonilg'ini sarflanishini pasaytirish bo'yicha tavsiyalar

Yonilg'i harajati haqida muhim ma'lumot

- Dvigatelni o'chiring, agar bunga holat imkon berayotgan bo'lsa. Dvigatelni hattoki qisqa vaqtga o'chirilishi yonilg'ining sarfini pasaytirishga imkon beradi.
- Juda tez tezlashishlardan saqlaning. Tezlikning keskin o'zgarishlari yonilg'ining harajatini oshiradi.
- Shinalardagi havoning past bosimi avtomobilning tortish-tezlik xarakteristikalarini pasaytiradi, yonilg'i sarfini oshiradi va protektorning erta yemirilishiga olib keladi.
- Past sifatli yonilg'ini qo'llanilishi dvigatelni shikastlanishiga olib keladi va yonilg'ining sarfini oshiradi.

Avtomobilni xavfsiz ishlatish asoslari

Eng yaxshi tavsiya - kontravariyaviy haydashni qo'llash.

Boshlanishiga xavfsizlik kamarini taqib oling. Haydashning kontavariyaviy uslubi har qanday kutilmagan holatlarga tayyor turishlikni anglatadi. Barcha qolgan haydovchilar va piyoda yo'lovchilar diqqatli emas va har qanday paytda xatolikka yo'l qo'yishlari mumkin deb hisoblang. Boshqa haydovchilarni xulqini


oldindan ko'ra bilishga va har qanday ehtimoli xatoliklarni hisoblashga urinib ko'ring. Ancha o'xshash avariya avtomobilning orqa qismiga zarbalar bilan bog'liq. Xavfsiz oraliq masofaga rioya etish - bu to'qnashuvni oldini olishga imkon beruvchi yana bir chora. Shaharda ham, qishloq hududida ham eng yaxshi yondashuv - bu kontravariyaviy haydash. Avtomobil oldida ketayotgan haydovchining kutilmagan harakati keskin burilishga yoki to'xtab qolishga olib kelishi mumkin.

Avtomobilni boshqarish

Avtomobil harakatlanishida hech qachon dvigatelni o'chirmang


Ko'pgina tizimlar bu holatda ishlamaydi (masalan, tormozlar kuchaytirgichi, rul boshqaruvi kuchaytirgichi). Haydashning bunday stili siz va atrofdagilar uchun xavfli bo'ladi.

Tepkilar



Tepkilar yurishiga hech narsa xalaqit bermasligi uchun, gilamchani to'g'ri o'rnatilishini tekshiring. Tormoz va akselerator tepkilari oyoqning bir tepkidan ikkinchisiga o'tish va teskari harakat qilish qulayligi uchun ular har xil balandlikka ega.

Akselerator tepkisi




Keskin tezlashish yonilg'i harajatini oshishiga olib keladi. Dvigatelning aylanishlari oshishni boshlagan har vaqt, keyingi yuritimga o'tishga harakat qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Agar pol gilamchasi noto'g'ri joylashtirilgan yoki noto'g'ri o'lchamga ega bo'lsa, u gaz va/yoki tormoz tepkilarida o'tishga xalaqit berishi mumkin. Tepkilarning harakatiga to'sqinliklar ko'zda tutilmagan tezlashishga va/yoki tormoz yo'lining oshishiga olib kelishi mumkin, bu o'z navbatida avariya va odamlarning jarohatlanishini olib kelishi mumkin. Pol gilamchasi gaz va tormoz tepkilariga xalaqit bermasligini kuzatib boring.

Tormoz tepkisi



Tormoz tepkisini bosish vaqtida orqa chiroqlardagi stop-signal va tepa stop-signal yoqiladi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Tormoz tepkisiga yumshoq va jadal bosing. Tormozga keskin bosishdan saqlaning - bu xavfli surilib ketishga, hamda shinalarning yemirilishiga olib kelishi mumkin. Qarang Tormozlarning antibloklovchi tizimi signalizatori (ABS) ⇨ 4-13ni ko'ring.
- Tormoz tizimining nosozliklar indikatorlarini diqqat bilan kuzating.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- O'chirilgan dvigatel bilan harakatlanmang - bunda tormoz tizimining servokuchaytirgichi ishlamaydi, shuning uchun tormozlanish uchun ko'proq kuch talab etiladi.
- Agar dvigatel avtomobil harakatlanishi vaqtida o'chib qolgan bo'lsa, tormoz tepkisiga bosib va ushlab turish bilan odatiy tarzda tormozlanishni bajaring. Tormoz tepkisiga ko'p marta bosmang, chunki bu tormozlar kuchaytirgichi tizimida vakuumning tugab qolishiga va tormoz kuchining kuchayishi yo'qolishiga olib keladi. Oqibatda tormoz tepkisiga to'liq bosish uchun ancha ahamiyatli kuch talab etiladi, tormozlanish yo'li esa ortadi.
- Agar tormoz tepkisi dastlabki balandlikka qaytmasa yoki tepkining yurishi oshmasa, bu tormoz tizimining nosozligi haqida dalolat beradi. Darhol Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.
- Bachokda tormoz suyuqligini sathini muntazam tekshirib turish zarur.
- Stop-signalini muntazam tekshiring.
- Pol gilamchasi tepkilarning harakatiga xalaqit bermasligi uchun kuzating.
- Agar pol gilamchasi noto'g'ri joylashtirilgan yoki noto'g'ri o'lchamga ega bo'lsa,

⚠ OGOHLANTIRISH!

- akselerator va/yoki tormoz tepkisini harakatlanishiga xalaqit berishi mumkin. Tepkilarning harakatlanishiga to'siqlar avtomobilning bexosdan tezlashishi, tormoz yo'lining oshishi yoki yuritmalarni o'zgartirishda qiyinchiliklarga va, oqibatda, avariya va odamlarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.
- Avtomobil jamlanmasidan pol gilamchalari maxsus uning uchun ishlab chiqilgan. Ularni almashtirish zarurati paydo bo'lganida, Chevrolet asl gilamchalaridan foydalaning. Sizning avtomobilingizga mo'ljallanmagan pol gilamchalari shakli bo'yicha yomon to'g'ri kelishi va tepkilarning ishiga xalaqit berishi mumkin.

Pol gilamchalarini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga rioya qiling.

- Pol gilamchalari tepkilarning harakatiga halaqit bermasligi uchun albatta kuzating.
- Pol gilamchalarini old yuzani tepaga qaratib soling. Ularni teskarisiga tepaga qaratib qo'ymang.
- Haydovchi tomonidagi pol gilamchasiga hech narsani qo'ymang.
- Haydovchi tomonida faqat bitta pol gilamchasi bo'lishi kerak. Hech qachon bir pol gilamchasini ustiga ikkinchisini qo'ymang.

Tormozlanish

Tormozlarni qo'llash Tormozlanish jarayoni qaror qabul qilish vaqtini va reaksiya vaqtini o'z ichiga oladi. Avval siz tormoz tepkisiga bosish haqidagi qarorni qabul qilishingiz kerak. Bu - qaror qabul qilish vaqti. So'ngra siz oyog'ingiz bilan tepkini bosishingiz zarur. Bu - reaksiya vaqti. Reaksiya vaqti o'rtacha taxminan 3/4 soniyani tashkil qiladi, ammo bu faqat o'rtacha qiymat. Ba'zi haydovchilarda u kamroq, boshqalarida ikki soniyagacha borishi mumkin. Haydovchining reaksiya vaqtiga yosh, jismoniy tayyorgarlik, diqqat-e'tibor, koordinatsiya va ko'z ilg'ashi kabi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Alkogol va giyohvand moddalar ham xuddi shunday ta'sir ko'rsatadi. Ammo hattoki 100 km/soat tezlik bilan harakatlanayotgan avtomobil 3/4 soniya ichida 20 mni bosib o'tadi. Shoshilinch holatda bu juda ko'p bo'lishi mumkin, shuning uchun o'zingizni va qo'shni avtomobillar orasidagi yetarlicha masofani saqlab turish muhimdir. Bundan tashqari, tormoz yo'lining o'zini uzunligi ham yo'l qoplamasining xususiyatiga (asfalt yoki tuproq), uning holatiga (quruq, nam), shinalarning yedirilish darajasi, tormoz mexanizmlarining holatiga bog'liq holda ahamiyatli farq qilishi mumkin. Shu vaqtning o'zida ko'pchilik haydovchilar tormoz tizimini ortiqcha yuklamaga duchor qilib, tormozni noto'g'ri qo'llaydilar.

Quyidagi qoidalarga rioya qiling

- Tormoz pedalining siljishiga to'sqinlik qilmang.
- Kerak bo'lmagan kuchli tormozlanishdan saqlaning. Ba'zi haydovchilar transport oqimining tezligi bilan harakatlanishni o'rniga, siltanib harakatlanishga, keskin tezlik olib va keskin tormozlanib harakatlanishga moyil bo'ladi. Bu xato. Tez-tez kuchli tormozlanish tormoz tizimining tez eskirishiga olib keladi. Bunda shu bilan birga xavfli surilib ketishlarning xavfi ortadi.
- Tormozlarning xizmat muddatini uzaytirish uchun oqim bilan birga harakatlanishga urining, kerak bo'lmagan tormozlanishdan saqlaning va xavfsiz masofani ushlab turing. Agar sizga harakatlanishni sekinlashtirish uchun tormozni qo'llash to'g'ri kelayotgan bo'lsa, yumshoq va uzluksiz tormozlaning.
- O'chirilgan dvigatel bilan harakatlaning. Bunday tartibda tormozlarning gidrokuchaytirgichi amal qilmaydi, va natijada tormozlanish uchun ko'proq kuch talab etiladi.
- Agar dvigatel harakatlanish vaqtida o'chib qolgan bo'lsa, odatiy tarzda tormozlaning, ammo tormoz tepkisiga bir necha marta ketma-ket bosmang, chunki bu tormoz tizimi kuchaytirgichida vakuumning sarf qilinishiga olib keladi, va tormozlanish uchun tepkiga bosishga ko'proq kuch va ko'proq tormozlanish yo'li talab etiladi.

Tormoz tepkisining yurishi

Agar siz tormoz tepkisini dastlabki holatga qaytishdan to'xtaganini yoki uning yurishi oshganini sezib qolgan bo'lsangiz, darhol Chevrolet dileriga murojaat qiling. Bu tormoz tizimining nosozligi haqida dalolat berishi mumkin.

Avaryaviy tormozlanish

Har bir haydovchi shoshilinch tormozlanish talab etilgan holatlar bilan duch kelishiga majbur. Agar avtomobil bloklovchi tormoz tizimi bilan jihozlanmagan bo'lsa, haydovchining birinchi reaksiyasi - tormoz tepkisini bosish va ushlab turish. Bu noto'g'ri, chunki bu g'ildiraklarning bloklanishiga olib kelishi mumkin. Agar avtomobil g'ildiraklari bloklanib qolgan bo'lsa, uning harakatlanish traektoriyasini rulni burish bilan o'zgartirish imkonsiz bo'ladi va u bloklanish paytigacha harakatlanib kelayotgan yo'nalish bo'yicha harakatni davom ettiradi, buning oqibatida avtomobil yo'ldan chiqib ketishi mumkin. Ravon tormozlaning. Bu tormozlanishning maksimal samaradorligini va rul boshqaruvining samaradorligini ta'minlaydi. Tormoz tepkisiga asta-sekin, kuchni orttirib borib bosing. Shoshilinch holatda tormozga g'ildiraklarni bloklab qo'ymasdan kuch bilan bosish zarur. Agar siz g'ildiraklar sirpanib aylanayotganini his qilsangiz yoki eshitsangiz tormoz tepkisini qo'yib yuboring. Bu rul bilan boshqaruvni saqlab qolishga yordam beradi.

Agar sizning avtomobilingiz antibloklash tormoz tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, Antibloklash tormoz tizimi (ABS) ⇨ 8-20 ni ko'ring.

Rul boshqaruvi

Rul boshqaruvining elektr kuchaytirgichi (muvofig jamlanmada) Rul boshqaruvining elektr kuchaytirgichi bo'lgan avtomobillar uchun. U rulni kuchaytirish uchun suyuqlikka ega emas. Muntazam xizmat ko'rsatish talab etilmaydi.

Agar rul boshqaruvi kuchaytirgichi tizimning nosozligi oqibatida ishlamay qolsa, u holda avtomobil boshqaruvi saqlanib qoladi, ammo ko'proq kuch talab etiladi.

Nosozlik vujudga kelganida dilerga murojaat qiling.

Agar rul chambaragini tiralguncha aylantirilsa va ushbu holatda uzoq vaqt ushlab turilsa, kuchaytirish samarasi pasayishi mumkin. Agar rul boshqaruvi kuchaytirgichi uzoq vaqt davomida qo'llanilib kelinayotgan bo'lsa, kuchaytirish darajasining pasayish ehtimoli bor. Kuchaytirgichning me'yordagi ishi u sovuganidan so'ng tiklanadi. Aniq avtomobillar uchun rul boshqaruvi haqida xabar - Rulda boshqarish tizimi xabarlarini (agar ko'zda tutilgan bo'lsa) ⇨ 4-21ni ko'ring. Nosozlik vujudga kelganida dilerga murojaat qiling.

Shoshilinch holatda rul boshqaruvi

Ba'zi holatlarda rul boshqaruvi tormozlanishga qaraganda samaraliroq bo'lishi mumkin.

Masalan, agar siz tepalik orqali harakatlanayotgan bo'lsangiz va sizning chizig'ingizda to'xtab turishga o'rnatilgan yuk mashinasini aniqlaganingizda yoki agar yo'lda to'satdan avtomobil paydo bo'lganida yoki agar sizning to'g'ringizda yo'l yuziga to'xtab turishga joylashtirilgan mashinalar ortidan bola yugurib chiqqanda.

Bu holatda tormozga bosishga urinib ko'rish mumkin - agar siz o'z vaqtida to'xtashga ulgursangiz. Biroq ba'zida buning uchun joy kamlik qiladi. Bunda qat'iy harakat qilish va to'sqinlikni aylanib o'tish zarur bo'ladi.

Avval tormozlaning - ammo oldingi g'ildiraklar bloklanib qolmasligi uchun juda kuchli emas. To'qnashuv xavfi paydo bo'lganida har doim avval tezlikni pasaytirish tavsiya etiladi. So'ngra rul boshqaruvi yordamida to'sqinlikni aylanib o'tishga mashinani yo'naltiriladi - chapdan yoki o'ngdan, joyning mavjudligiga bog'liq holda. Yuqorida ta'riflangan o'xshash shoshilinch holatda, haydovchidan maksimal diqqat va tez qaror qabul qilish talab etiladi. Agar siz "soat to'qqiz" va "soat uch" nuqtalarida tavsiya qilinganidek rul chambaragini ushlab turgan bo'lsangiz, siz rul chambaragini ushlab qolmasdan 180°ga tez burilishni bajarishingiz mumkin. Ammo buning uchun zudlik bilan harakat qilish, tez rulni boshqarish va

to'sqinlikni aylanib o'tilgandan so'ng darhol dastlabki holatga qaytish kerak. Shoshilinch holatlar har vaqt uchrashi mumkin, shuning uchun kontravariyaviy haydash va xavfsizlik kamarlaridan to'g'ri foydalanishda mashq qilib ko'rish tavsiya etiladi.

Yo'lsizlik bo'ylab safar

Yo'lsizlik bo'ylab safar qilishdan avval

Yo'lsizlikdan safar qilishdan avval, bir qator choralarni ko'rish zarur. Binobarin:

- Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha ishlar bajarilganiga ishonch hosil qiling.
- Yonilg'i sathini tekshiring.
- Ehtiyot g'ildiragida havo bosimini tekshiring, "Texnik ma'lumotlar" bo'limini ko'ring.
- Avtomobilni parvarishlash haqidagi bobda ko'rsatilgan suyuqlik sathlarini tekshiring.

Yo'lsizlik bo'ylab safar qilgandan so'ng

Avtomobil ostini, yurish qismini va kapotosti fazoni ifloslardan tozalang. Begona materiallar alanganishi mumkin. Loydan yoki qumdan harakatlangandan so'ng tormoz nakladkalarini tozalang va tekshiring. Loy va qumning mavjudligi tormozlanishni buzishi va tormoz nakladkalarining sayqallanishini chaqirishi mumkin. Kuzovni, ramani, rul mexanizmini, osmani, g'ildiraklarni, shinalarni, chiqarish tizimini, yonilg'i quvurlarini va sovutish tizimini tekshiring.

Agar avtomobil yo'lsizlikda ishlatilayotgan bo'lsa, servis orasidagi yo'l bosishni qisqartirish talab etiladi.

Yo'lsizlik bo'ylab safar qilish tartiblarini o'rganib chiqing

Safarga jo'nab ketishdan avval, xavfsiz joyda mashq qilib ko'rish tavsiya etiladi. Yo'lsizlikda avtomobilni boshqarish maxsus ko'nikmalarni va diqqatni talab qiladi. Masalan, sizga kutilmagan to'sqinliklar predmetiga yuzani muntazam nazorat qilish zarur bo'ladi. Shinalar yoki dvigatel tomonidan taralayotgan notanish ovozlarga quloq soling.

Yo'lsizlik bo'ylab harakatlanishda asosiysi - haydovchining avtomobilni nazorat qilish mahorati. Avtomobil boshqaruvini qo'llab turishning eng yaxshi usuli - tezlikni cheklash. Bir qator xususiyatlarni inobatga olish zarur. Yuqori tezlikda:

- Siz to'siqlarga tez yaqinlashib kelmoqdasiz va yo'l holatini nazorat qilish uchun kam vaqtga egasiz.
- Sizda harakat qilishga kam vaqt qolmoqda.
- To'siqlardan harakatlanayotganda avtomobil kuchli silkinmoqda.
- Siz ko'proq tormozlanish yo'li talab etiladi, ayniqsa tuproq yo'l bo'ylab harakatlanayotganda.

⚠️ DIQQAT!

Yo'lsizlik bo'ylab harakatlanish vaqtida siz keskin siltash yoki manevr natijasida rul boshqaruvi ustidan nazoratni yo'qotishingiz mumkin. Bu to'qnashuvga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yo'l bo'ylab qanday bo'lsa, yo'lsizlik bo'ylab ham xuddi shunday harakatlanishda siz ham, sizning yo'lovchilaringiz ham xavfsizlik kamarlari bilan tang'ib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Tumanda harakatlanish



Yuqori namlikda yoki kuchli ayozda ko'rish qobiliyatini keskin yomonlashtiradigan tumanning hosil bo'lish ehtimoli ortadi. Tumanda harakatlanishda tezlikni pasaytirish va oldinda ketayotgan avtomobilgacha xavfsiz

masofani qo'llab turish zarur. Avariyalardan saqlanish maqsadida tuman zichligining o'zgarish ehtimollarini bepisand qoldirmaslik kerak. Tuman zichligini sizning oldingizda harakatlanayotgan transport vositalarining chiroqlarini yorqinligi bo'yicha baholash hammasidan afzali.

Tumanda harakatlanish bo'yicha tavsiyalar

- Hattoki agar harakatlanish kunduzi amalga oshirilayotgan bo'lsa ham oldingi tumanga qarshi chiroqlarni yoki yaqin chiroqni yoqing.
- Uzoqni yoritishni yoqmag.
- Orqa oyna isitgichini yoqing. Vaqti-vaqti bilan old oynaning oyna tozalagichlarini va yuvgichlarini bir necha soniyaga yoqing. Oynalarning tashqi yuzasidagi namlik tuman sifatida ko'rinishi mumkin.
- Agar ko'rish imkoniyati juda past bo'lsa va to'xtash talab etiladi, ammo siz yo'lda ekanligingizga ishonchga ega emassiz, chiroqlar yorug'ligini, avariya signalizatsiyasini yoqing va vaqti-vaqti bilan, hamda yaqinlashib kelayotgan transport vositasini sezganda, ovoqli qurilma bilan signallar bering.
- Tumanda harakatlanishda agar oldinda nima bo'layotganini va manevrning xavfsizligiga ishonchga ega bo'lmaganingizda, boshqa avtomobillarni quvib o'tmang. Quvib o'tish urinishida qarama-qarshi harakatlanib kelayotgan avtomobil paydo bo'lishi holatida o'z yo'lingizga qaytishga tayyor bo'ling.

Loy va qumdan harakatlanish



Loy va qumdan harakatlanishda pastki yuritmalardan foydalaning.

Rul boshqarilishi ulanishini yo'qolishi holatida, tezlashish va tormozlanish qiyinlashtirilgan bo'ladi. Juda g'ovak qum bo'ylab harakatlanish vaqtida ulanishni yaxshilash uchun shinalardagi bosimni ozgina pasaytirish mumkin.

Izoh

Loydan yoki qumdan harakatlangandan so'ng tormoz nakladkalarini tozalang va ko'zdan kechiring. Agar buni qilinmasa, tormozlanishning buzilishi yoki tormoz nakladkalarining jilolanishi ehtimoli bor. Kuzovni, rul boshqaruvini, osmani, g'ildiraklarni, shinalarni va tutun chiqarish tizimni tekshiring.

Nam yo'ldan harakatlanish

Suv bosgan maydonlar orqali harakatlanish

Suv bosgan joylardan harakatlanishdan har qanday usullar bilan saqlanish kerak. Yo'ldagi suv qatlami uning holatini to'g'ri baholash imkonini bermaydi.



Suv to'siqlarini suv sathi g'ildiraklarning gupchaklaridan yuqoriga ko'tarilmasligi uchun diqqat bilan kuzatib, past tezlikda bosib o'tish zarur.



Ulkan transport vositalari bilan yonma-yon harakatlanmaslikka urining. Ular sizning avtomobilingizni dvigatelini suv bilan bostirishga qodir bo'lgan to'liqinni hosil qilishi mumkin.

 **DIQQAT!**

Havoto'plash tizimi orqali dvigatelga suv tushib qolishi mumkin. Agar bunday hol sodir bo'lgan va dvigatel o'chib qolgan bo'lsa, dvigatelni takroran ishga tushirishga urinmang, chunki bu dvigatelning shikastlanishini yomonlashtiradi.

⚠️ DIQQAT!

Tinch suv sathi g'ildiraklardan yuqoriga etgan vaqtda Chuqur ko'lmaklar bo'ylab harakatlanishda suv g'ildiraklarning uzatmalari valiga kirib borishi mumkin. Uzatma vallarining holatini tekshirish uchun servis markaziga murojaat qiling. Uzatma vallarining moyini tekshiring va almashtiring.

Yomg'irda safar qilish

Yomg'irda va nam yo'l bo'ylab harakatlanish qo'shimcha xavflar bilan bog'liq. Nam yo'l da tezlikni olish, tormozlanish va manevrni amalga oshirish shinalarning yo'l bilan past ulanishi qiyinlashgan. Agar protektor kuchli yedirilgan bo'lsa, yo'l bilan ulanish yanada kam bo'ladi. Agar yomg'ir safar vaqtida boshlangan bo'lsa, tezlikni sekinlating va ehtiyot bo'ling.



Yo'l sizning reaksiyalariniz quruq yo'l tartibida qolgan vaqtda u nam bo'lib qolishi mumkin. Yomg'ir qanchalik kuchli bo'lsa, ko'rish imkoniyati ham shunchalik yomon bo'ladi. Hattoki agar oyna tozalagichlar yaxshi holatda bo'lganida ham kuchli yomg'irda yo'l belgilarini va svetoformi, yo'l chiziqlarini, yo'l chetini va hattoki piyodalarni ko'rish murakkabroq bo'lib qolishi mumkin. Avtomobillarning g'ildiraklari ostidan qatralar yomg'irning o'ziga qaraganda, yanada kuchliroq ko'rish imkoniyatini yomonlashtiradi, ayniqsa iflos yo'l da.

Oyna tozalagichlarini holatini kuzatib boring va yuvgichning bachogini o'z vaqtda to'ldiring. Oyna tozalagichlarning cho'tkalarini agar ular eskirgan bo'lsa, ularni yangisiga almashtirish lozim, ulardan rezina qatlamlab ko'chishi boshlanadi yoki ular oynaning alohida qismlarini tozalanmagan holatda qoldiradi.

Suv tormozlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Suv bosgan maydonlardan saqlanishga harakat qiling, ammo agar buning imkoni bo'lmasa, ularga chiqishdan avval tormozlaning. Nam tormozlar avariya ga olib kelishi mumkin. Ular keskin to'xtashda yomonroq ishlaydi va avtomobilning chetga chiqarib yuborilishini chaqirishi mumkin. Oqibatda avtomobilni boshqaruvi yo'qotilish ehtimoli bor.

Katta ko'lmak bo'ylab haydab o'tish yoki avtoyuvishdan chiqishdan keyin disklarni quritish va tormoz mexanizmlarining me'yordagi ishini tiklash uchun tormoz tepkisini bir necha marta astagina bosish zarur. Yomg'irli ob-havoda haydash bo'yicha bir nechta tavsiyalar:

- Yaqin yoritishni yoqing, hattoki harakatlanish kunduzi amalga oshirilayotgan bo'lsa ham.
- Oyna tozalagichlarini yoqing.
- Tezlikni pasaytiring va ehtiyot bo'ling.
- Oldinda ketayotgan avtomobilgacha oraliq masofani oshiring.
- Agar zarur bo'lsa, orqa oynani isitgichini yoqing.

Izoh

Yomg'irli ob-havoda shinalarga va oyna tozalagichlarga yuklama oshadi. Shuning uchun shinalar va oyna tozalagichlarning yaxshi holatda ekanligini har doim kuzatib boring.

Akvaharakatlanish



Juda nam yo'lda akvaharakatlanish samarasi kuzatilishi mumkin. Shinalar yo'l bilan aloqani yo'qotadi va haydovchi avtomobilni boshqaruvini yo'qotadi.

Izoh

Haydovchi avtomobilning akvaharakatlanishga tushib qolganligini anglay olmasligi, va hattoki g'ildiraklar yo'l bilan aloqani to'liq yo'qotganida ham harakatlanishni davom ettirishi mumkin. Akvaharakatlanishdan saqlanish uchun, ko'lmakka yaqinlashayotganda yoki nam yo'lga chiqib qolganda, harakatlanishni sekinlashtirish zarur.

 **DIQQAT!**

Kuchli eskirgan protektorlarda akvaharakatlanish osonroq yuzaga keladi.

Tundagi haydash



Tundagi haydashda haydovchi:

- Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofani oshirishi. Qorong'ulik reaksiyani sekinlashtiradi.
- Tezlik pasaytirishi va diqqatni jamlashi.
- Qarshi chiziqdan transport vositasining unga qarab harakatlanishi sezganda uzoqni yoritish chiroqlarini yaqinga o'zgartirishi kerak.

Tog' yo'llaridan harakatlanish

Agar avtomobil tog' yoki tepalik joylarda tez-tez ishlatilayotgan bo'lsa, uning sozligi ustidan ayniqsa sinchkov kuzatib borish lozim. Ishlatish suyuqliklarining sathini, shinalar protektorlarining holatini va tormoz kolodkalarini edirilishini muntazam tekshirish zarur, Rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish ⇨ 10-3ni ko'ring.

Nishablik ostiga harakatlanish

Nishablik bo'ylab tushayotganda, zaruratsiz tormozlash tizimini qo'llamang. Avtomobil harakatlanish tezligini sekinlashtirish uchun, ancha past yuritmaga o'tish mumkin. Nishablik ostiga harakatlanishda tormozlash tizimini qo'llanilishini qisqartirish uchun, agar avtomobil pastga tushishda harakatlanish nazorati tizimi (HDC) bilan jamlangan bo'lsa, uni yoqish mumkin.

Izoh

Nishablik bo'ylab pastga ishlayotgan dvigatel bilan va yoqilgan yuritmada harakatlanish tavsiya etiladi. O'chirilgan dvigatel bilan yoki neytral yuritmada harakatlanmang.

Agar avtomobil tiqilib qolsa

Avtomobilni tebratish tiqilib qolgan avtomobilni bo'shatishning usullaridan Biri - "tebratish". Haydovchining harakatlari tartibi:

1. Rul chambaragini o'nga va chapga aylantiring.
2. Birinchi, ikkinchi yuritmalar va orqaga yurish yuritmalari orasida o'ting, o'tish paytida akselerator tepkisini qo'yib yuboring.
3. O'tishdan so'ng akseleratorga ozgina bosong.
4. Agar avtomobilni chiqarib olishning bir necha urinishlaridan so'ng buning imkoni bo'lmagan bo'lsa, shataklashga murojaat qilish zarur.

 **DIQQAT!**

Tiqilib qolgan avtomobilning g'ildiraklarini aylanishi shinalarning yirtilishiga va YUO'Qning qizib ketishiga olib kelishi mumkin.


ISHGA TUSHIRISH VA ISHLATISH

Yangi avtomobilni chiniqtirish

Avtomobilning bosib o'tgan masofasi bir necha kilometr dan oshmagan vaqtda, uni ishlatishning boshlang'ich davrida, uning tortish-tezlik xususiyatlarini yaxshilash va yonilg'i harajatini pasaytirish uchun quyidagi qoidalarga rioya qiling:

- Joydan qo'zg'alayotganda, akselerator tepkisini oxirigacha bosmang.
- Haddan ziyod yuqori aylanishlarda dvigatelning ishlashiga yo'l qo'ymang.
- Keskin tormozlanishlardan saqlaning, shoshilinch holatlardan tashqari. Bu tormoz tizimining detallarini me'yorda ishlanishini ta'minlashga imkon beradi.
- Dvigatelning shikastlanishidan saqlanish va yonilg'ini tejash uchun keskin startlarga, tezlanishlarga va yuqori tezlikda uzoq muddatli harakatlanishga yo'l qo'ymang.
- Past yuritmada drossel to'sqichi to'liq ochilgan vaqtda tezlashishdan saqlaning.
- Boshqa avtomobillarning shataklanishiga yo'l qo'yilmaydi.

O't oldirish qulfida kalitning holati




0. Dvigatelni o'chirish/BLOKLASH/O'CHIRILGAN

1. YORDAMCHIASBOB-USKUNALAR
2. YOQILGAN
3. START

O't oldirish kaliti to'rtta holatga ega. Selektor dastagini "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatdan chiqarish uchun, o't oldirish kaliti "O'CHIRILGAN" holatga o'rnatilgan bo'lishi kerak, tormoz pedali bosilgan bo'lishi kerak.

0 (Dvigatelni o'chirish / BLOKLASH / O'CHIRILGAN): Bu holatda o't oldirish qulfi, yuritma qutisi va rul chamberagining vali (agar avtomobil rul vali qulfi bilan jamlangan bo'lsa) bloklanadi.



Dvigatelni o'chirish uchun:

1. Avtomobilning to'liq to'xtashini kuting.
2. Selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing.
3. Tormoz tepkisini bosilgan holatda ushlab turib, to'xtab turish tormozini yoqing. Qarang To'xtab turish tormozi ⇨ 8-21ni ko'ring.
4. Qulfga kalitni tiralguncha kiriting va uni o'chirilgan o't oldirish holatiga o'tkazing.
5. Kalitni chiqarib oling.
6. Tormoz tepkisini qo'yib yuboring.

Agar kalit har qanday boshqa holatda chiqarib olinsa, dilerga murojaat qiling.

Agar kalit o't oldirish qulfiga bo'lgan vaqt haydovchining eshigi ochilsa, ogohlantiruvchi ovoqli signal jaranglaydi.

Rul vali qulfi bilan jihozlangan avtomobillarda agar oldingi g'ildiraklar markaz bo'ylab o'rnatilmagan bo'lsa, rul chamabaragi bloklanishi mumkin, buning oqibatida o't oldirish kalitini o'chirish holatidan chiqarib olish imkonsiz bo'ladi. Bunday holatda, rul chambaragini o'ngga va chapga tebratib, o't oldirish kalitini "YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR" holatiga o'tkazilsin. Agar bu yordam bermayotgan bo'lsa, TXKSHga murojaat qiling.

OGOHLANTIRISH!

Avtomobil harakatlanishi vaqtida dvigatelnig o'chirilishi, tormoz kuchaytirgichi va rul boshqaruvi, hamda ishiriluvchi xavfsizlik yostiqdari tizimi ishlashdan to'xtaydi. Yurib ketishda dvigatelni o'chirish faqat qat'iy zarurat bo'lgan holatda qilish kerak.

Agar shtatdan tashqari holatda yurib ketishda yo'l chetiga haydash imkonsiz bo'lgan vaqtda dvigatelni o'chirish zarur bo'lsa:

1. Qulfga kalitni tiralguncha kiriting va uni "YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR" holatiga o'tkazing.

2. Ko'p bo'lmagan va doimiy kuch berib, tormoz tepkisini bosing. Tormoz tepkisini bir necha marta ketma-ket bosmang va qo'yib yubormang. Bu vakuum kuchaytirgich kamerasida quvvatning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin, buning natijasida tormoz tepkisini bosish uchun ko'proq kuch berish talab etiladi.

3. N (Neytral) yuritmaga o'ting. Buni bevosita harakatlanish vaqtida qilish mumkin. Tormoz tepkisini qo'yib yubormasdan, avtomobilni xavfsiz joyga yo'naltiring.

4. To'liq to'xtashni kuting.

5. Selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing.

6. Tormoz tepkisini bosilgan holatda ushlab turib, to'xtab turish tormozini yoqing. Qarang To'xtab turish tormozi ⇨ 8-21ni ko'ring.

7. Qulfga kalitni tiralguncha kiriting va uni o'chirilgan o't oldirish holatiga o'tkazing.

8. Kalitni chiqarib oling.

9. Tormoz tepkisini qo'yib yuboring.

DIQQAT!

O'z kalitingizni qo'llang, u qulfga to'liq kiritilganligiga ishonch hosil qiling, o't oldirishni yoqishda kalitni qo'shimcha cho'ktirish zarur. Kalitni faqat qo'l kuchi bilan aylantirish kerak.

1 (YORDAMCHI ASBOB-USKUNA): Kalit ushbu holatda bo'lgan vaqtda, dvigatelni ishga tushirmasdan, axborot-ko'ngilochar tizimni yoqish mumkin. Bunda shu bilan birga rul chambaragining vali blokdan chiqariladi (agar avtomobil rul vali qulfi bilan jamlangan bo'lsa). Agar avtomobilni joyidan siljitish yoki uni shataklash zarur bo'lganida, kalitning ushbu holatini qo'llang.

Kalitni qulfga tiralguncha kiriting va uni yoqilgan holatdan "YORDAMI ASBOB-USKUNA" holatiga o'tkazing.

Agar o't oldirish kalitini ishlamayotgan dvigatel bilan "YORDAMI ASBOB-USKUNA" holatida qoldirilsa, bu akkumulyator batareyasining quvvatsizlanishiga va dvigatelni ishga tushirish imkoniyatsizligiga olib kelishi mumkin.

Agar kalit o't oldirish qulfiga bo'lgan vaqt haydovchining eshigi ochilsa, ogohlantiruvchi ovoqli signal jaranglaydi.


2 (YOQILGAN): Kalitning bu holatini qo'shimcha elektr asbob-uskunalarini ishini ta'minlash va uskunalar majmuasida ba'zi ogohlantirishlarni va indikatorlarning aks ettirilishi uchun qo'llanilishi mumkin. Bu holatni shu bilan birga xizmat ko'rsatish va tekshirish uchun va nosoz indikator lampasining to'g'ri ishlashini tekshirish uchun qo'llash mumkin, bu chiqarish darajasini tekshirish uchun talab etilishi mumkin. Dvigatel ishlayotgan vaqtda kalit ushbu holatda qoladi. Ushbu holatda shu bilan birga yuritmalar qutisi blokdan chiqariladi.

Agar o't oldirish kalitini ishlamayotgan dvigatel bilan yoqilgan holatda qoldirilsa, bu akkumulyator batareyasining quvvatsizlanishiga va dvigatelni ishga tushirish imkoniyatsizligiga olib kelishi mumkin.

3 (START): Bu holat dvigatelni ishga tushirish uchun qo'llaniladi. Dvigatel ishga tushishidan so'ng, kalitni qo'yib yuboring. O't oldirish kaliti "YOQILGAN" holatga avtomatik qaytadi, va siz harakatlanishni boshlashingiz mumkin bo'ladi.

Dvigatelni ishga tushirish

O't oldirish kaliti bilan dvigatelni ishga tushirish



- Kalitni ACC holatga aylantiring (1).
- Rul chamberagini blokdan bo'shatish uchun, rul chamberagini asta-sekin burilsin.

- Mexanik yuritmalar qutisi: ssepleniya tepkisini bosing.
- Avtomatik yuritmalar qutisi: selektor dastagini P holatdan chiqarish uchun tormoz tepkisini bosing. Agar selektor dastagi P yoki N holatda, o't oldirish kaliti esa ON holatda bo'lsa, dvigatelni ishga tushirish mumkin (2).
- Akselerator tepkisiga bosmang.
- Kalitni START holatga aylantiring (3). Dvigatelni takroran ishga tushirish uchun kalitni LOCK qayta aylantirish zarurati yo'q (0). Kalitni ACC holatga aylantirib, dvigatelni o'chirish mumkin.

Zaxira oziqlanish moduli

Dvigatelni o'chirgandan so'ng yana 10 minut ichida quyidagi tizimlarni qo'llash mumkin:

- Ulagich
 - Elektr oyna ko'targichlari
- Agar o't oldirish kaliti "YOQILGAN" yoki "YORDAMCHI ASBOB-USKUNA" holatida bo'lsa, ushbu qurilmalarga oziqlanish uzatiladi. Kalit "YOQILGAN" yoki "BLOKLASH/O'CHIRILGAN" holatdan chiqarilishi bilanoq, ularga oziqlanish yana 10 minut davomida yoki toki eshik ochilgunga qadar uzatib turiladi.

Aylanishlarning keskin oshishini oldini olish

Dvigatel bilan tormozlanish vaqtda, ya'ni, yuritma yoqilganida, akselerator tepkisi esa qo'yib yuborilganida, yonilg'i uzatilishi avtomatik to'xtatiladi.

To'xtab turishga joylashtirish

- Avtomobilni engil alanganishga qodir bo'lgan yuzada qoldirmang. Bu holatda avtomobilning ishlangan gazlarni chiqarib yuborish tizimining yuqori harorati yong'inning sababchisi bo'lib qolishi mumkin.
 - To'xtab turish tormozini tortishda, uni blokdan chiqarish tugmasini bosmang. Qiyaliklarda yoki ko'tarilishlarda qo'l tormozini iloji boricha kuchliroq torting. To'xtab turish tormoziga kuchni pasaytirish uchun, bir vaqtda tormoz tepkisini bosish kerak.
 - Dvigatelni va o't oldirishni o'chirish. Bloklash ishlaguniga qadar rul chamberagini aylantiring.
 - Agar avtomobil tekis yuzada yoki qiyalikda turgan bo'lsa, o't oldirishni o'chirishdan avval, birinchi yuritmani yoqing yoki selektor dastagini P holatga o'tkazing. Nishablikda to'xtab, bordyur toshdan teskari tomonga oldingi g'ildiraklarni burang.
- Qiyalikda to'xtab, o't oldirishni o'chirishdan avval orqa yuritmani yoqing yoki selektor dastagini

P holatga o'tkazing. Oldingi g'ildiraklarni bordyur toshi tomonga buring.

- Avtomobilni qullang va olib qochishga qarshi tizimni yoqing.

Alangalanuvchi yuzada to'xtab turishga joylashtirish



Avtomobilni to'xtab turishga joylashtirishdan avval, alangalanuvchi materiallar - o'tlar, butoqlar, to'kilgan yonilg'i va hokazolar yo'qligiga ishonch hosil qiling. Dvigatelning chiqarish tizimi detallari yuqori haroratgacha qiziydi va alangalanishni chaqirishi mumkin.

ISHLANGAN GAZLAR



Dvigatelning ishlangan gazlari rangga va hidga ega bo'lmagan zaharli is gaziga ega va agar u bilan nafas olinsa, o'lim oqibatiga olib kelishga qodir. Avtomobilning salonida ishlangan gazlarning kirishida oynalarni oching. Nosozliklar sababini Chevrolet servis-markazida bartaraf qiling. Ochiq yukxona bo'linmasi bilan harakatlanish tavsiya etilmaydi, chunki bunda avtomobil saloniga ishlangan gazlar kirishi mumkin.

Katalitik neytrallashtirgich

Katalitik neytrallashtirgich chiqariluvchi gazlarda zararli moddalarning miqdorini pasaytiradi.




Yonmagan yonilg'i katalitik neytrallashtirgichni ortiqcha qizdirib yuborishi va shikastlashi mumkin. Shuning uchun dvigatelning haddan ziyod uzoq muddatli ishga tushirishlaridan saqlanang, yonilg'i bakiga namlikni tushib qolishiga yo'l qo'ymang va dvigatelni itarishdan yoki shataklashdan ishga tushirmang.

O't oldirishni o'tkazib yuborishlari, dvigatelning nobarqaror ishlashi, dvigatel quvvatining pasayishi yoki boshqa muammolarni aniqlashtirish holatida, iloji boricha tezroq nosozlikni bartaraf qilish uchun Chevrolet dileriga murojaat qiling. Yuqori zarurat tug'ilganida qisqa vaqt oralig'i davomida past tezlikda va dvigatelning past aylanishlarida safar qilishga ruxsat beriladi.


AVTOMATIK YURITMALAR QUTISI

Avtomatik yuritmalar qutisi qo'l tartibida qanday ishlasa, yuritmalarni avtomatik o'zgartirish tartibida ham xuddi shunday ishlashi mumkin.

Yuritmalar indikatsiyasi



Ish tartibi va tanlangan O'YUQ yuritmasi haqidagi ma'lumotlar asbob-uskunalar panelida markaziy displeyda aks ettiriladi.

Selektor dastagi

P: To'xtab turishga joylashtirish uchun holat, g'ildiraklar bloklangan, faqat yoqilgan to'xtab turish tormozi bo'lgan turgan avtomobillarda o'rnatishga ruxsat beriladi

R: Orqaga yurish yuritmasi; bu yuritmani faqat agar avtomobil harakatsiz bo'lgandagina yoqish mumkin.

N: Neytral holat

D: Avtomatik tartib

Selektor dastagi P holatda bloklanadi. Dastakni siljitish uchun, o't oldirishni yoqing, tormoz tepkisiga bosing va fiksatsiyani bo'shatish tugmasiga bosing. P dan R ga o'tish uchun, tormoz tepkisini bosing va fiksatsiyani bo'shatish tugmasiga bosing.

Dvigatelni ishga tushirish uchun, selektorning P yoki N holatda bo'lganida tormoz tepkisini bosing.

Siz tomondan yuritmalar selektorini o'zgartirish paytida akselerator tepkisini bosmang. Hech qachon akselerator va tormoz tepkisini bir vaqtda bosmang.

Tormoz tepkisini qo'yib yuborgandan so'ng yoqilgan yuritmada avtomobil asta-sekin harakatlanishni boshlaydi.

Dvigatel bilan tormozlanish

Nishablik ostida harakatlanishda dvigatel bilan tormozlanish samarasidan foydalanish uchun pasaytirilgan yuritmani tanlash kerak.


Avtomobilni tebratish

Avtomobilni tebratish faqat qumda, loyda yoki qorda shataklashda ruxsat etiladi. Yuritmalarni o'zgartirish dastagini navbatma-navbat D va R holatga o'tkazing. Haddan ziyod yuqori aylanishlarda dvigatelning ishlashiga yo'l qo'ymang.

To'xtab turish

To'xtab turish tormozini yoqing, selektorni P holatga o'tkazing va o't oldirish kalitini chiqarib oling.

O't oldirish kalitini, faqat agar yuritmalar selektori P holatda bo'lgandagina chiqarib olish mumkin.

Qo'l tartibi

Yuritmalar selektorini D holatidan chapga, so'ngra esa oldinga yoki orqaga siljiting.

+ : Yuqori yuritmaga o'tkazish

- : Ancha past yuritmaga o'tish

Avtomobilning ancha past tezligida ancha yuqori yuritmani tanlashda yoki harakatlanishning ancha yuqori tezligida juda past yuritmani tanlashda o'tish amalga oshmaydi.

Dvigatelning juda past aylanishlarida yuritmalar qutisi avtomatik ancha past yuritmaga o'tadi. Dvigatel valining aylanishini yuqori chastotasida ancha yuqori yuritmaga avtomatik o'zgarish bajarilmaydi.

Yuritmalarni keskin o'zgartirishda yuritmalarni o'zgartirish sxemasini yuritmalarni qutisini boshqarish moduli (TCM) tomonidan eslab qolishini initsiatsiya qilish uchun yuqori/past yuritmaga bir necha marta o'tish va yuritmalarni ohista o'zgarishini ta'minlash zarur.


Haydashning elektron dasturlari

Sovuq ishga tushirishdan so'ng dvigatelni boshqarish bloki katalitik neytrallashtirgichni ishchi haroratgacha tez isitish uchun dvigatel aylanishlarini oshiradi.

"Kick Down"

Agar o'zgarishlarni avtomatik boshqarish tartibida akselerator tepkisi to'liq bosilsa, dvigatelning aylanishlariga bog'liq holda qutida ancha past yuritma yoqilishi mumkin.

Nosozlik

Buzilish holatida  nosozlik indikatori yorishadi. Yuritmalar qutisi ma'lum yuritmada bloklandi va avtomatik tartibda ham, qo'l tartibida ham o'zgar olmaydi. Nosozliklarning sabablarini Chevrolet servis-markazida bartaraf qiling.


Elektr oziqlanishning uzilishi

Elektr quvvatini uzatilishining vaqtinchalik uzilishi holatida yuritmalarni o'zgartirish dastagini P holatdan chiqarish imkoni yo'q. O't oldirish kalitini qulfdan chiqarib olish imkoni yo'q. Agar akkumulyator batareya quvvatsizlangan bo'lsa, dvigatelni "chektirib olish" bilan ishga tushiring, Qo'shimcha AKB dan ishga tushirish \rightarrow 9-42ni ko'ring.


Agar nosozlik sababi akkumulyator batareyasi bo'lmasa, yuritmalarni o'zgartirish dastagini bo'shatish va kalitni o't oldirish qulfidan chiqarib olish kerak.

Yuritmalarni o'zgartirish dastagini blokdan chiqarish

1. To'xtab turish tormozini yoqing.



2. Selektor dastagining o'ng tomonidagi yopqichni oching.



3. Dastak blokdan chiqarilishi uchun tirqishga buragichni o'rnatib, selektor dastagini P holatdan chiqarib va uni N holatga o'zgartiring.
4. Qopqoqni yoping.

AVTOMOBILNI BOSHQARISH TIZIMLARI

To'liq uzatma

Agar avtomobil to'liq uzatma tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, yaxshiroq tortishni ta'minlash uchun oldingi ko'priknı ulash mumkin.

To'liq uzatmaning barcha imkoniyatlaridan maqbul foydalanish uchun, siz uning qanday ishlashini tushunishingiz kerak. Ko'pchilik holatlarda orqa uzatma va tarqatma qutining eng yuqori yuritmasini qo'llash kerak.

Izoh

To'liq uzatma tartibida toza quruq yo'l bo'ylab davomli harakatlanish avtomobilning kuchaytirgich qurilmasini muddatidan oldin yemirilishini chaqirishi mumkin.

Izoh

Agar avtomobil to'liq uzatmaga ega va nostandart o'lchamdagi ehtiyot g'ildirak o'rnatilgan bo'lsa, toki siz g'ildirakni ta'mirlanganini yoki shtat o'lchamidagisini o'rnatmaguningizcha to'liq uzatmani yoqmag. Aks holda avtomobil kafolat bilan qoplanmaydigan shikastlanishni olishi mumkin. Avtomobilga boshqa o'lchamdagi ehtiyot g'ildiragi o'rnatilgan vaqtda to'liq uzatmani qo'llash taqiqlanadi.

Izoh

To'liq uzatmani noto'g'ri qo'llanilishi tizimni shikastlashi mumkin. To'liq uzatmani yuqori tortish kuchi talab etiladigan faqat past ulanishli qoplamalarda, tuproq yo'llarda, o'tda, maysazorda, loyda, qumda va boshqa holatlarda qo'llanilsin.

Tarqatma qutining boshqaruvini o'zgartirgichi oldingi o'rindiqlar orasida to'xtab turish tormozi dastagi bilan yonma-yon konsolda joylashgan.



Ushbu o'zgartirgichni aylantirib, to'liq uzatmani yoqish yoki o'chirish mumkin. O'zgartirgich quyidagi holatlardan biriga o'rnatilgan bo'lishi mumkin:

2 ↑ (orqa uzatma, yuqori yuritma):

Bu tartib ko'pchilik holatlarda shahar yo'llarida yoki tezligi yuqori shossalarda qo'llaniladi. Ushbu tartibda aylantiruvchi payt oldingi g'ildiraklarga tushmaydi.

N (neytral yuritma): Tarqatma qutining neytral yuritmasini (N) avtomobilni faqat shataklashda yoqish kerak.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Agar tarqatma quti N (neytral)ga o'tkazilgan bo'lsa, avtomobil, hatto ki agar YUO'Q o'zgartirgichi P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'rnatilgan bo'lsa ham, avtomobil harakatlanishni boshlashi mumkin. Siz yoki atrofdagilar jiddiy jarohatlar olishlari mumkin. Tarqatma qutini N (neytral)ga o'rnatishdan avval, to'xtab turish tormozini tortib qo'ying. To'xtab turishga joylashtirish ⇨ 8-13 bo'limlarini ko'ring.

4 ↑ (to'liq uzatma, yuqori yuritma): Bu tartibda oldingi g'ildiraklarga aylanish paytining uzatilishi yoqiladi. Avtomobilning qoplama bilan yaxni ulanishini ta'minlash zarur bo'lganida, masalan, qor bilan qoplangan yoki muzlagan yo'llarda, hamda yo'lsizlikdagi ko'pchilik holatlarda, to'liq uzatmani tarqatma qutining yuqori yuritmasi bilan birgalikda qo'llang.

4↓ (to'liq uzatma, past yuritma): Ushbu tartibda oldingi g'ildiraklarga aylanish paytining uzatilishi yoqiladi. Maksimal payt barcha to'rtta g'ildirakka uzatiladi.

Tarqatma qutining past yuritmasi bilan to'liq uzatmani og'ir yo'lsizlikda: qumda, loyda, chuqur qorda, hamda keskin nishablik va qiyalikda harakatlanishda qo'llash zarur. To'liq uzatmani va past yuritmani yoqish vaqtida tortish kuchi nazorati tizimi va dinamik stabilashtirish tizimi avtomatik o'chadi. Tortish kuchi nazorat tizimi (TCS) ⇨ 8-22.

O'zgartirgichning tutqichidagi yoritgich hozirgi payt qaysi tartib tanlanganligiga ko'rsatadi. O't oldirish yoqilganida tutqichning barcha holatlari yoritgichlari qisqa vaqtga yoqiladi, bunda avval tanlangan tartib yoqilgan holatda qoladi. Agar indikatorlar yoritgichlari qilmasa, servis markazga murojaat qilish lozim. O'zgartirish jarayonida indikator miltillashi kerak. O'zgartirish yakunlangandan so'ng u doimo yorishib turadi. Agar tarqatma qutida yuritmalarni o'zgartirish imkoniyati bo'lmasa, oxirgi tanlangan tartib yoqiladi. Agar o't oldirish kaliti 2 holatga o'rnatilgan bo'lsa, tarqatma qutining boshqaruv bloki o'zgarishni qaysi payti o'zgartirishni amalga oshirish zarurligini aniqlashtirish uchun to'liq uzatmani boshqarish tutqichi holatini kuzatib boradi.

Tarqatma qutining boshqaruv tutqichini aylantirish vaqtida boshqaruv bloki o'zgarishga

so'rov olganini bildirib, tutqichning yangi holatining indikator yoritgichi miltillashni boshlaydi. Indikator toki o'zgartirish va yangi tartib uchun barcha sharoitlar bajarilmagunicha yoki yuritma to'liq yoqilgan bo'lmagunicha miltillashda davom etadi. Tanlangan tartib yoqilganidan so'ng, uning indikator doimo yonib turadi.

Izoh

Yuqori ulanish sharoitida (quruq zichlangan tuproq, qattiq qoplamali yo'l) 4↑ yoki 4↓ tartibda uzluksiz, ayniqsa burilishlar va keskin manevrlar bilan harakatlanish tavsiya etilmaydi, chunki kuchli qurilmaning komponentlarining muddatidan oldin yedirilishiga va yonilg'i sarfining oshishiga olib kelishi mumkin.

4↑ yoki 4↓ tartibda zarurat bo'lmagan paytda ularni o'chirib qo'yish qat'iy tavsiya etiladi.

Yuqori yuritmal orqa uzatma tartibidan yuqori yuritmal to'liq uzatmaga o'tish (2↑ dan 4↑ ga)

O'zgartirgich tutqichini 2↑ (orqa uzatma, yuqori yuritma) holatidan 4↑ (to'liq uzatma, yuqori yuritma) holatiga burang. 120 km/soatdan ko'p bo'lmagan tezlikda o'zgartirish mumkin.

Yuqori yuritmal to'liq uzatma tartibidan yuqori yuritma orqa uzatma tartibiga o'tish (4↑ dan 2↑ ga)

O'zgartirgich tutqichini 2↑ (orqa uzatma, yuqori yuritma) holatiga burang. Istalgan tezlikda o'zgartirish mumkin. Tarqatma qutida yuqori yuritma va to'liq uzatmani (4↑) o'chirilishi ba'zi shovqin va titrashlar bilan kuzatib borilishi mumkin.

Yuqori yuritmal orqa uzatma tartibidan yoki yuqori yuritma to'liq uzatma tartibidan past yuritmal to'liq uzatma tartibiga o'tish (2↑ dan yoki 4↑ dan 4↓ ga)

Orqa uzatma va yuqori yuritma tartibi 2↑ dan yoki to'liq uzatma va yuqori yuritma tartibi 4↑, dan to'liq uzatma va past yuritma tartibi 4↓ ga o'tish uchun avtomobilni to'xtatish yoki tezlikni 5 km/soatga pasaytirish va YUO'Qni N (neytral) holatga o'tkazish zarur. Past yuritmal to'liq

uzatma tartibiga (4 ↓) o'tish uchun avtomobil harakatlanishining maqbul tezligi 1,6 - 3,2 km/soatni tashkil qiladi. O'zgartirgich tutqichini 4 ↓ (to'liq uzatma, past yuritma) holatga burang. Yuritmalar qutisida uzatmani yoqishdan yoki ssepleniya tepkisini qo'yib yuborishdan avval, toki past yuritmal to'liq uzatma indikatorini 4 ↓, miltillashdan to'xtashini va doimo yorishib turishigacha kuting. Agar yuritma yoqiligidagi yoki 5 km/soatdan yuqori bo'lmagan tezlikda harakatlanish vaqtida past yuritmal to'liq uzatma tartibi tanlansa, past yuritmal to'liq uzatma tartibi miltillashni boshlaydi, biroq ushbu tartibda o'zgartirish bajarilmaydi va 30 soniya o'tib avval tanlangan tartib indikatorini qayta yorishadi.

Past yuritmal to'liq uzatma tartibidan yuqori yuritmal orqa uzatma tartibiga yoki yuqori yuritmal to'liq uzatma tartibiga o'tish (4 ↓ dan 2 ↑ ga yoki 4 ↑ ga)

To'liq uzatma va past yuritma 4 ↓ tartibidan orqa uzatma va yuqori yuritma 2 ↑ tartibiga yoki to'liq uzatma va yuqori yuritma 4 ↑ tartibiga o'tish uchun, avtomobilni to'xtatish yoki tezlikni 5 km/soatdan pastga tushirish va O'YUQni N (neytral) holatga o'tkazish zarur. Past yuritmal to'liq uzatma tartibidan (4 ↓) o'tish uchun

avtomobil harakatlanishining maqbul tezligi 1,6 - 3,2 km/soatni tashkil qiladi. O'zgartirgich tutqichini 2 ↑ (orqa uzatma, yuqori yuritma) holatiga yoki 4 ↑ (to'liq uzatma, yuqori yuritma) holatiga burang. Yuritmalar qutisida uzatmani yoqishdan yoki ssepleniya tepkisini qo'yib yuborishdan avval, toki yuqori yuritmal orqa uzatma indikatorini yoki yuqori yuritmal to'liq uzatma indikatorini miltillashdan to'xtashini va doimo yorishib turishigacha kuting. Agar yuritma yoqiligidagi yoki 5 km/soatdan yuqori tezlikda harakatlanish vaqtida yuqori yuritmal orqa uzatma tartibi yoki yuqori yuritmal to'liq uzatma tanlansa, yuqori yuritmal orqa uzatma tartibi yoki yuqori yuritmal to'liq uzatma indikatorini miltillashni boshlaydi, biroq ushbu tartibning o'zgartirilishi bajarilmaydi va 30 soniya davomida avval tanlangan tartibning indikatorini qayta yorishadi.

Tarqatma qutining neytral yuritmasini yoqish (2 ↑, 4 ↑ yoki 4 ↓ dan "N" ga) Avtomobilni shataklash uchun o'zgartirgichni "N" (neytral yuritma) holatga o'rnatish.

Shataklash bo'yicha ko'rsatmalarni Avtomobilni shataklash ⇨ 9-43 da ko'ring. Avtomobil bunda joyida turishi kerak. Tarqatma qutining neytral yuritmasini (N) yoqish uchun, o't oldirish kalitini

ON holatga aylantiring va quyidagi harakatlarni bajaring:

1. To'xtab turish tormozini yoqing.
2. Ishchi tormozning tepkisiga bosing va O'YUQni N (neytral holat) ga o'tkazing.
3. O'zgartirgich tutqichini 2 ↑ (orqa uzatma, yuqori yuritma) holatiga burang.
4. O'zgartirgich tutqichini 4 ↓ (to'liq uzatma, past yuritma) holatidan "N" (neytral yuritma) holatiga burang. O'zgartirgichni "N" (neytral yuritma) holatida 20 soniyadan kam bo'lmagan vaqt yoki toki neytral yuritmaning qizil indikatorini miltillashdan to'xtashi va doimiy yorishib turgunicha ushlab turing. Tarqatma qutining neytral yuritmasi qizil indikatorini neytral yuritmaga o'zgartirish yakunlanganidan so'ng doimo yurishib turishni boshlaydi.

Izoh

Yuritmalar o'zgartirgichi neytral holatdan (N) qo'yib yuborilgandan so'ng o'zgartirgich mustaqil tarzda to'liq uzatma, past yuritma holatiga (4 ↓) buriladi. Tarqatma quti neytral holatda qoladi; neytral (N) indikatorini toki yangi holat tanlanmagunicha qizil chiroq bilan yurishib turadi.

5. Ishchi tormoz tizimi tepkisini bosib va ushlab turing va selektor dastagini 1 soniyaga R (orqaga yurish) holatiga, so'ngra tarqatma qutida neytral yuritma yoqilgan bo'lishi uchun 1 soniyaga D (oldinga yurish yuritmasi) holatiga o'tkazing. Agar tarqatma quti neytral yuritmaga o'zgarmasa, 3-banddan boshlab ta'riflangan harakatlarni takrorlang.

6. O'YUQ yuritmalarni o'zgartirish dastagini P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing.

7. O't oldirish kalitini LOCK/OFF («BLOKLASH /O'CHIRISH») holatiga o'tkazing.

Agar tarqatma qutining neytral yuritmasi (N) yoqilgan bo'lsa, oldingi va orqa ko'priklarning uzatma vallari to'liq uzatma, yuqori yuritma holatidagi kabi, uziladi. O'chirilgan oldingi ko'priklarni aylanish payti unga uzatilmaydi va avtomobilning old o'qini osib yoki osmasdan, bunda transmissiyani yuklamasdan, shataklash mumkin.

Tarqatma qutining neytral yuritmasini o'chirish

Avtomobilning shataklanishini yakunlab, harakatlanishni davom ettirish uchun tarqatma qutidagi neytral yuritmani o'chirib qo'yish zarur bo'ladi. Neytral yuritmani o'chirish uchun quyidagi harakatlarni bajaring:

1. To'xtab turish tormozini yoqing va ishchi tormoz tepkisini bosib.

2. Tarqatmalar qutisida neytral yuritmani yoqing.

3. Dvigatelni ishga tushiring yoki uni o'chiq holatda qoldiring va o't oldirish kalitini ACC/ACCESSORY ("YORDAMCHI ASBOB-USKUNA") holatiga burang.

4. Tarqatma qutining o'zgartirgich tutqichini 4↓ (to'liq uzatma, past yuritma) holatidan sizga zarur bo'lgan holatga burang.

5. To'xtab turish tormozini o'chiring.

TORMOZLASH TIZIMI

Tormozlash tizimi o'z ichiga ikki mustaqil konturni oladi.

Agar tormoz tizimining konturi ishdan chiqsa, avtomobilni boshqa konturdan foydalanib avvalgidek to'xtatish mumkin. Biroq samarali tormozlanishni ta'minlash uchun, bunday holatda tormoz tepkisini kuchliroq bosishga to'g'ri keladi. Bu sizdan katta kuch talab etilishini anglatadi. Tormoz yo'li ortadi. Safarni davom ettirishdan avval, zudlik bilan Chevrolet servis-markaziga yordam uchun murojaat qiling.

Agar dvigatel ishlamayotgan bo'lsa, tormoz tepkisiga bir yoki ikki bosishdan so'ng vakuum kuchaytirgich ishlashdan to'xtaydi. Tormozlanish samaradorligi pasaymaydi, ammo tormozlanish uchun ancha katta kuch kerak bo'ladi. Ayniqsa buni shataklash vaqtida e'tiborda tutish muhim. Qarang Tormoz tizimi va ssepleniya signalizatori ⇨ 4-12 ni ko'ring.

Antibloklash tormozlash tizimi (ABS)

Antibloklash tormozlash tizimi

(ABS) g'ildiraklarning bloklanishini oldini oladi. ABS g'ildirak bloklashga moyillikni namoyish qilishni boshlashi bilan o'q tormozlash mexanizmlarini boshqarishni boshlaydi.

Avtomobil hatto juda keskin tormozlanishda ham boshqariluvchan bo'lib qolishni davom ettiradi.

ABS tizimining boshqaruvga aralashuvi tormoz pedalida seziluvchan impuls bo'yicha va sozlash jarayonida chiqariluvchi o'ziga xos tovush bilan seziladi. Tormozlanishning maqbul samaradorligi uchun tormoz tepkisi, hattoki uning pulsatsiyasiga ham qaramasdan, to'liq bosilgan bo'lishi kerak. Tepkiga bosimni susaytirmang.

Yoqilgandan so'ng tizim oz shovqin bilan kuzatib boriluvchi o'z-o'zini tekshirishni o'tkazadi. Qarang Tormozlarning antibloklash tizimi (ABS) signalizatori ⇨ 4-13 ni ko'ring.

Nosozlik

OGOHLANTIRISH!

ABS nosozligida g'ildiraklar odatdagiga qaraganda keskinroq tormozlanishda bloklanib qolishi mumkin. ABS ustunliklari bunda erishimli bo'lmay qoladi. Keskin tormozlanishda avtomobil boshqaruvni yo'qotishi va chetga burilib ketishi mumkin.

Nosozliklarning sabablarini Chevrolet servis-markazida bartaraf qiling.

To'xtab turish tormozi

To'xtab turish tormozini fiksatorning tugmasini bosmay, kuch bilan tortish kerak. Nishablikdan tushishda yoki qiyalikdan ko'tarilishda to'xtab turish tormozini maksimal kuch bilan tortish kerak.

To'xtab turish tormozini o'chirib qo'yish uchun, dastakni ozgina ko'taring, fiksator tugmasiga bosing va dastakni to'liq tushiring.

To'xtab turish tormozini yoqish uchun zarur bo'lgan kuchni kamaytirish uchun, uni tortish bilan bir vaqtda tormoz tepkisiga bosing. Qarang Tormoz tizimi va ssepleniya signalizatori ⇨ 4-12ni ko'ring.

Shoshilinch tormozlanishni yengillashtirish tizimi

Shoshilinch tormozlanish kuchaytirgichi avariya holatda haydovchi tormoz tepkisini juda keskin bosayotganligini aniqlashga qodir. Bunday holatda u agar haydovchi tomonidan berilgan kuch yetarli bo'lmasa, ABS tizimining ishlashi uchun tormoz mexanizmlarining uzatmasi konturida qo'shimcha kuch hosil qiladi. Bunda ozgina shovqin, tormoz tepkisining pulsatsiyasi va (yoki) uning o'z-o'zidan harakati vujudga kelishi mumkin. Yo'l holati qanday talab etayotgan bo'lsa, tormoz tepkisiga bosishni davom ettiring. Shoshilinch tormozlanish kuchaytirgichi tormoz tepkisi qo'yib yuborilganida o'chadi.

Ko'tarilishda harakatni boshlashni yengillashtirish tizimi (HSA)

Elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC) bilan jihozlangan avtomobillarda ko'tarilishda

harakatni boshlashni yengillashtirish tizimi (HSA) funksiyasi mavjud, u, agar avtomobil nishablikda to'xtab qolgan bo'lsa, foydali bo'lishi mumkin. Bu tizim avtomobil joyidan siljishida oldinga qanday bo'lsa, orqaga ham xuddi shunday yurib ketishni oldini olish uchun mo'ljallangan. HSA tizimi nishablikda to'xtab turishda avtomobilning to'liq to'xtashidan so'ng avtomatik harakatga keltiriladi. Haydovchi tormoz tepkisini qo'yib yuborgan va tezlanish bilan nishablik bo'ylab harakatlanishni boshlash vaqtidagi payt orasidagi o'tish davri davomida HSA tizimi avtomobilning sirpanib ketishidan saqlanish uchun 2 (ikki) soniyadan ko'p bo'lmagan vaqtga tormozlardagi bosimni qo'llab turadi. Tormozlar 2 (ikki) soniya davomiylikdagi vaqt oralig'i davomida akselerator tepkisini bosishdan so'ng avtomatik qo'yib yuboriladi. Agar oldinga yurish yuritmasi yoqilgan bo'lsa, avtomobil esa nishablik bo'yicha pastga yo'naltirilgan, yoki u nishablik bo'ylab tepaga yo'naltirilgan bo'lsa va bunda orqaga yurish yuritmasi yoqilgan bo'lsa, HSA tizimi yoqilmaydi. Yuklangan avtomobilning yoki tirkamali yuk mashinasining HSA tizimi nishabli qiyalikda (5%dan kam qiyalik bilan) yoqilmaydi. Agar HSA tizimi ish holatiga keltirilganda tormoz tepkisi qo'yib yuborilib, keyin esa bosilsa, bu tepki, odatda, tarangroq bosiladi, uning yurishi esa odatdagidan kamroq bo'ladi.

OSMALAR QATTIQLIGINI SOZLASH TIZIMI

Tortish kuchini nazorat qilish tizimi (TCS)

Tortish kuchini nazorat qilish tizimi (TCS) zarurat bo'lganida yo'l qoplamasi yo'l turi bilan shinalarning ulanishiga bog'liq bo'lmagan holda, yetakchi g'ildiraklarning shataksirashini oldini olib, avtomobilning kurs turg'unligini oshiradi.

Tizim shataksirashni qayd qilishi bilanoq, dvigatel quvvati pasayadi va boshqalarga qaraganda kuchliroq shatasirayotgan g'ildiraklar yakka tartibda qo'shimcha tormozlanadi.

Bu sirpanchiq yo'l qoplamalarida avtomobilning turg'unligini ahamiyatli oshiradi.

Yoqilgan TCS tizimida sariq indikator miltillaydi.

OGOHLANTIRISH!


Bu faol xavfsizlik tizimi haydovchiga xavfli haydash stiliga huquq bermaydi. Harakatlanish tezligi yo'l sharoitlariga muvofiq bo'lishi kerak.


Qarang Indikatorlar ⇨ 4-10ni ko'ring.

O'chirish



Agar shataksirashni qo'llash zarur bo'lsa, tortish kuchini nazorat qilish tizimini o'chirib qo'yish mumkin.


Haydovchining axborot markazi displeyida  xabarning paydo bo'lishini kutish uchun, taxminan 2 soniya davomida tugmani bosib va ushlab turing.


Tortish kuchini nazorat qilish tizimini qayta yoqish uchun,  tugmani yana bir marta bosib. Bundan tashqari, tortish kuchini nazorat qilish tizimi keyingi o't oldirishni yoqishda yoqiladi.

Elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC)

Elektron dinamik stabilashtirish tizimi (ESC) yo'l qoplamasining turi yoki shinalarning tishlanishiga bog'liq bo'lmagan avtomobilning kurs turg'unligini yaxshilaydi. Bundan tashqari, u yetakchi g'ildiraklarning shataksirashini oldini oladi.

Avtomobil likillashni boshlashi bilanoq (rulning yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha buriluvchanligi) dvigatelning samarali quvvati pasayadi va g'ildiraklar alohida tormozlanishni boshlaydi. Bu sirpanchiq yo'l qoplamalarida avtomobilning turg'unligini ahamiyatli oshiradi.

Indikator  o'chgan vaqtda, dinamik stabilashtirish tizimi yoqiladi.


Toki ESC faol ekan, indikator  miltillaydi.


OGOHLANTIRISH!


Bu faol xavfsizlik tizimi haydovchiga xavfli haydash stiliga huquq bermaydi. Harakatlanish tezligi yo'l sharoitlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Qarang Indikatorlar ⇨ 4-10 ni ko'ring.

O'chirish

Sport stilida dinamik safar uchun dinamik stabilashtirish tizimini o'chirib qo'yish mumkin. Haydovchining axborot markazi displeyida xabarning  paydo bo'lishini kutish uchun, taxminan 7 soniya davomida tugmani bosib va ushlab turing.

Indikator  yorishib turadi.

ESC  tugma bilan qayta yoqiladi. Agar ESC tizim bunda o'chirilgan bo'lsa, u holda ushbu tugmani bosishda TS va ESC ikkala tizim faollashadi.

ESC tizimi o't oldirishni navbatdagi yoqilishidan so'ng ham yoqiladi.

Agar siz elektron dinamik stabilashtirish tizimi aralashuvini sezib qolgan bo'lsangiz, tezlikni pasaytirish va yo'l qoplamasining holatini diqqat

bilan kuzatish kerak. ESC tizimi avtomobilning yordamchi tizimi hisoblanadi xolos. Avtomobil jismoniy cheklavlari doirasidan tashqari qo'llanilishni boshlanganida, u boshqarilmaydigan bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun ushbu tizimga ortiqcha ishonish lozim bo'lmaydi. Xavfsiz haydash qoidalariga rioya qiling.




Nishablik ostiga harakatlanish tizimi (HDC)

Nishablik ostiga harakatlanish tizimi (HDC) tormoz tepkisidan foydalanmasdan, past tezlikda keskin nishablik bo'ylab pastga harakatlanishga imkon beradi. Agar avtomobil HDC tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, u holda undan nishablik ostiga harakatlanishda foydalanish mumkin. Tizim juda keskin nishablik bo'yicha oldinga yoki orqaga yurish bilan avtomobilning harakat tezligini beradi va qo'llab turadi. Yoqilgan tizimda tormoz mexanizmlarining ishi ozgina shovqin yoki titrash bilan kuzatib borilishi mumkin.

DIQQAT!

Bu tartibni faqat yo'lsizlik sharoitlarida keskin nishabliklardan tushishda qo'llash kerak. Undan oddiy yo'l qoplamalarida foydalanmang. HDC mo'ljallangan funksiyalarni haddan ziyod qo'llanilishi, masalan, oddiy yo'llardan harakatlanishda, tormoz tizimi va ESC tizimini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Yoqish

Avtomobilning harakatlanish tezligi 30 km/soatdan kam bo'lganida  tugmani bosib. Uskunalar majmuasida yashil indikator yorishadi. Tizim ishlashi paytida uskunalar majmuasidagi  indikator miltillaydi. 30 km/soatdan yuqori tezlikda tizim hattoki tugmani  bosishda ham yoqilmaydi va nishablikdan tushish tezligini nazorat qilolmaydi.

Nishablik ostiga harakatlanish tizimi (HDC) avtomobilning harakatlanishining doimiy tezligini taxminan 7 dan 30 km/soatgacha (mexanik yuritmalar qutisi bo'lgan avtomobillarda) yoki 4 dan 30 km/soatgacha (avtomatik yuritmalar qutisi bo'lgan avtomobillarda) oraliqda nishablik bo'ylab harakatlanishda qo'llab turilishi mumkin tikkalik

5% dan. HDC tizimining miltillovchi indikator avtomobil tezligini qo'llab turish uchun faol tormozlash jalb qilinganligiga ko'rsatadi. Dastlabki tezlik HDC tizimining parametrlarini sozlashda o'rnatiladi. Bu tezlikni akselerator yoki tormoz tepkisi bilan oshirish yoki pasaytirish mumkin. Shunday tarzda sozlangan tezlik yangi o'rnatilgan tezlik bo'lib qoladi. Yoqilgan HDC tizimi bilan avtomobilning 30 km/soatdan tezroq, ammo 50 km/soatdan sekinroq, harakatlanishida, DIC displeyi ekranida "Reduce Speed for Hill Descent Control" (Nishablik ostiga harakatlanish tezligini pasaytirish) komandasi chiqariladi. Agar nishablik ostiga harakatlanishni nazorat qilish tizimi yoqilgan avtomobilning harakatlanish tezligi 30 km/soatdan yuqori bo'lsa, yashil indikator o'chadi, tizim esa uyqu tartibiga o'tadi. Tezlik 30 km/soatgacha pasayishidan keyin, yashil indikator, tizim qayta yoqilganligiga ko'rsatib, takroran yorishadi. Agar nishablik ostiga harakatlanishni nazorat qilish tizimi uyqu tartibida bo'lgan vaqtda avtomobilning harakatlanish tezligi 50 km/soatdan oshib ketsa, tizim o'chadi. Bundan so'ng avtomobilning harakatlanish tezligi 30 km/soatdan pastga tushirilishi bilan oq, o'chirgich yordamida tizimni takroran yoqish zarur bo'ladi.

O'chirish

Avtomobilning tezligi 30 km/soatdan yuqori bo'lmaganida, ishlayotgan nishablik ostiga harakatlanishni nazorat qilish tizimini o'chirish uchun, 5 tugmasini bosing. Tizim o'chirilganiga ko'rsatib, yashil indikator o'chadi. Avtomobil tezligi 50 km/soatdan oshib ketganida, tizim avtomatik o'chadi.

Tizimni himoyasi

Doimiy uzoq muddatli tormozlanish tormoz tizimining qizib ketishiga olib kelishi mumkin. Bu holatda nishablik ostiga harakatlanishni nazorat qilish tizimi avtomatik o'chadi. Bunda tormoz tizimining qolgan funksiyalari saqlanib qoladi. G'ildiraklar asta tormozdan chiqariladi, yashil indikator esa o'chadi. Tizim me'yordagi ishchi haroratgacha sovuganidan keyin, uni, agar avtomobil tezligi 30 km/soatgacha oshmasa, o'chirgich yordamida takroran o'chirish mumkin. Nishablik ostiga harakatlanishni nazorat qilish indikatorini 4-13ni bo'limlarini ko'ring.

KRUIZ-NAZORAT

Kruiz-nazorati (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)


Kruiz-nazorat taxminan 40 dan 180 km/soatgacha tezlikni eslab qolish va qo'llab turishga imkon beradi. Nishablik bo'yicha tepaga va pastga harakatlanish o'rnatilganidan farqlanishi mumkin.

Xavfsizlik nuqtai nazaridan kruiz-nazorat, toki tormoz tepkisini hech bo'lmaganda biri bosilmagunicha yoqilmaydi.




Agar doimiy tezlikni qo'llab turish tavsiya etilmasa, kruiz-nazoratni qo'llamang. Avtomatik O'YUQ bo'lgan avtomobillarda kruiz-nazoratni faqat avtomatik tartibda yoqing. Qarang Kruiz-nazorat signalizatori 4-17ni ko'ring.

Yoqish

ON OFF (YOQISH/O'CHIRISH) mahkamlovchi tugmani bosib,  oq indikator yorishadi.

Yoqish

Tezlikni istalgan qiymatgacha keltiring va dastakni SET/- (O'rnatish) holatiga tushiring. Joriy tezlik saqlab qo'yiladi va qo'llab turiladi. Indikator  rangini oqdan yashilga o'zgartiradi, kruiz-nazorat faol ekanligini ko'rsatadi. Akselerator tepkisini qo'yib yuborish mumkin. Avtomobil tezligini akselerator tepkisiga bosib, oshirish mumkin. Gaz tepkisini qo'yib yuborishda avtomobil avvalgi tezlikka qaytadi.

Tezlikni oshirish


Faol kruiz-nazoratda dastakni RES/+gacha tepaga ko'tarilgan holatda ushlab turing yoki RES/+gacha ko'p marta qisqa muddatda ko'taring; Tezlik ozgina oshirish bilan asta-sekin oshadi.

Shu bilan birga istalgan tezlikgacha tezlashish va uni SET/- holatga aylantirish bilan saqlab qo'yish mumkin.

Tezlikni pasaytirish


Faol kruiz-nazoratda dastakni SET/-gacha tepaga ko'tarilgan holatda ushlab turing yoki SET/-gacha ko'p marta qisqa muddatli ko'taring; Tezlik asta-sekin kichik qadamlar bilan kamayadi.

O'chirish


CANCEL (Bekor qilish) tugmasiga bosib, oq  indikator yorishadi. Kruiz-nazorat faolsizlantiriladi. Saqlangan tezlik xotiraga yozib qo'yiladi. Avtomatik o'chirish:

- Avtomobil tezligi taxminan 40 km/soatdan pastga pasayadi.
- Tormoz tepkisiga bosish amalga oshiriladi.
- Selektor dastagini N holatga o'tkazishda.
- Tortish kuchi nazorati tizimi yoki elektron dinamik stabilishtirish tizimida ishlayotganida.

Saqlangan tezlikni tiklash

Dastakni 40 km/soatdan ortiq tezlikda RES/+gacha o'tkazing. Saqlangan tezlik o'rnatiladi. Indikator  rangini oqdan yashilga o'zgartiradi, kruiz-nazorat faol ekanligini ko'rsatadi. Agar joriy tezlik va saqlangan tezlik orasidagi farq 40 km/soatdan ortig'ini tashkil qilsa, saqlangan tezlikning tiklanishi amalga oshirilmaydi.

O'chirish

ON OFF (YOQISH/O'CHIRISH) mahkamlovchi tugmani bosib, Indikator  o'chiriladi. Saqlangan tezlik xotiradan o'chirib yuboriladi. O't oldirish o'chirilishida tezlikning saqlangan qiymati o'chirib yuboriladi.

OBJEKT LARNI ANIQLASH TIZIMI**Frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA)**

Muvofiq jamlanmada FCA tizimi (ehtimol to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi) frontal to'qnashuvlar natijasida shikastlanishlarni oldini olishi yoki kamaytirishi mumkin. Agar siz oldinda ketayotgan avtomobilga juda tez yaqinlashib kelayotgan bo'lsangiz, FCA tizimi qizil rangdagi miltillovchi ogohlantiruvchi signalni chiqaradi va tez-tez tovushli signallarni berishni boshlaydi. FCA shu bilan birga agar siz boshqa avtomobil ortidan juda yaqin masofada harakatlanayotganingizda sariq rangdagi ogohlantiruvchi signal yoqiladi. FCA taxminan 60 m masofadagi avtomobillarni aniqlaydi va 40 km/soatdan yuqori tezlikda faoliyat ko'rsatadi.

 OGOHLANTIRISH!

FCA tizimi ogohlantiruvchi hisoblanadi va tormozlashni yoqmaydi. Sekin harakatlanayotgan yoki oldinda turgan avtomobilga juda tez yaqinlashib kelishda yoki avtomobil ortida juda yaqin masofada harakatlanishda FCA tizim avariyaning oldini olish uchun ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirishni juda kech chiqarishi mumkin. U shu bilan birga ogohlantirishni umuman chiqarmasligi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

FCA tizimi piyodalar, hayvonlar, yo'l belgilari, himoya to'siqlari, ko'priklar, qurilish quvurlari va boshqa obyektlarni mavjudligi haqida ogohlantirmaydi. Harakat qilishga va tormoz tepkisiga bosishga tayyor bo'ling. Qarang Avtomobilni xavfsiz ishlatish asoslari ↗ 8-2 ni ko'ring.

FCA tizimini rul chambaragidagi FCA boshqaruv tugmasi yordamida o'chirish mumkin.

Oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlash

FCA tizimi faqat oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlash holatida ogohlantirish beradi. Avtomobil aniqlanganida oldinda ketayotgan avtomobil indikator yashil rangda yorishadi. Tizim burilishlarda, avtomagistrallardan tushishda, tepaliklarda, cheklangan ko'rish sharoitlarida, hamda agar avtomobil oldi qisman piyodalar yoki boshqa obyektlar bilan yuklangan bo'lsa, avtomobillarni aniqlolmaydi.

FCA tizimi oldinda ketayotgan avtomobilni, toki avtomobil butunlay sizning chizig'ingizda bo'lib qolmagunicha, aniqlolmaydi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

FCA tizimi faqat avtomobilni aniqlash holatida avariyaning oldini olishni yordam beruvchi ogohlantirishni beradi. FCA tizimi, agar FCA datchigi loy, qor yoki muz bilan bloklangan yoki agar old oyna shikastlangan bo'lsa, oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlashi mumkin emas. U shu bilan birga ilon izi yoki tepalik yo'llarda, yoki tuman, yomg'ir, qor kabi ko'rishni cheklovchi sharoitlarda, yoki chiroqlar va oldingi oyna kirlangan yoki o'rnatilmagan holatga ega bo'lmaganida avtomobilni aniqlashi mumkin emas. Old oynani, chiroqlarni va FCA datchiklarini tozalikda va soz holatda saqlang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Yomon yoritilganlikda oldindagi avtomobillarni kamera orqali identifikatsiyasi qiyinlashtirilgan bo'lishi mumkin. Yetarlicha yoritilmaganlikda kamera mototsiklchilarni aniqlamasligi mumkin.

Ehtimoli to'qnashuv haqida ogohlantirish


Uskunalar majmuasidagi ogohlantirish



Aks etgan nurdiodli xavf signalizatori



Oldinda harakatlanayotgan transport vositalariga juda tez yaqinlashishda frontal to'qnashuv xavfi qizil signalizatori miltillashni boshlaydi va oldingi dinamiklar orqali bir nechta yuqori chastotali tovushli signallar beriladi. To'qnashuv ehtimoli haqida ushbu ogohlantirishni paydo bo'lishidan so'ng tormoz tizimi haydovchi tormoz tepkisini keskin bosishi mumkinligiga tayyorgarlik ko'radi va shuning uchun qisqa muddatli o'rtacha tormozlanishni boshlaydi. Talab etilgandek tormoz tepkisiga bosishni davom ettiring. Ehtimoli to'qnashuv haqida ogohlantirishning paydo bo'lishida kruiz-nazorat o'chirilishi mumkin.

Rul chamberadagi  tugmani bosish bilan ogohlantirish berilishi kerak bo'lgan masofani o'rnatish. Har bir bosishda oraliq masofani sozlamasi qadamli o'zgaradi (hammasi bo'lib uchta daraja ko'zda tutilgan): katta, o'rta va qisqa oraliq masofa yoki ogohlantirish o'chirilgan.

Tugmani bosishdan keyin uskunalar majmuasiga qisqa vaqtga oraliq masofaning joriy sozlamasi qiymati chiqariladi. Ogohlantirishlar oraliq masofasi sozlamasi u o'zgartirilguniga qadar saqlanib qoladi.

Izoh


Ogohlantirishni berish oraliq masofani tanlashda yo'l va ob-havo sharoitlarini hisobga oling. Ogohlantirishni berish oraliq masofaning oraliq variantlari, ehtimol, hamma haydovchilar va harakatlanish sharoitlariga mos kelmaydi.

Xavfli kichik oraliq masofa haqida ogohlantirish



To'qnashuv xavfning sariq signalizatori oldinda harakatlanayotgan transport vositasi bilan xavfli yaqinlashish holatida doimo yorishib turadi.

Ogohlantirishni berish vaqtini tanlash



Ehtimolli to'qnashuv haqidagi ogohlantirishni berish sozlagichi rul chamberadagi joylashgan. Frontal to'qnashuv xavfi haqida ogohlantirishlarning katta, o'rta va qisqa masofalarini o'rnatish uchun "TO'QNASHUV XAVFI HAQIDA OGOHLANTIRISH"ga bosib, yoki ularni to'liq o'chiring. Haydovchining axborot markazida tugmani birinchi bor bosilishida sozlamaning joriy qiymati chiqarib beriladi. Keyingi bosishlarda sozlash qiymati o'zgarib boradi. Tanlangan sozlama haydovchi tomonidan unga o'zgartirish kiritilgunga qadar amal qiladi va ehtimolli to'qnashuv haqida

ogohlantirishni va xavfli kichik oraliq masofa haqidagi ogohlantirishni chiqarish oldini olishni aniqlashni boshlaydi. Ushbu ogohlantirishlarni berish vaqti avtomobilning tezligiga bog'liq bo'ladi. Avtomobilning tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, ogohlantirish shunchalik erta beriladi. Ogohlantirishni berish vaqtini tanlashda yo'l va ob-havo sharoitlarini hisobga oling. Ogohlantirishni berish vaqtining oraliq variantlari, ehtimol, barcha haydovchilarga va harakatlanish sharoitlariga mos kelmasa kerak.


Ahamiyatsiz ogohlantirishlar

FCA tizimi burilishni bajarayotgan, harakatning boshqa chizig'ida ketayotgan avtomobil, avtomobil hisoblanmaydigan obyektlar yoki soyalar bilan chaqirilgan xato ogohlantirishlarni chiqarishi mumkin. Bu ogohlantirishlar tizimning me'yordagi ishi haqida dalolat beradi, avtomobilga xizmat ko'rsatish talab etilmaydi.

Tizimni tozalash

Agar FCA tizimi o'rnatilgan tartibla ishlamayotgan bo'lsa, orqani ko'rish toshoynasi oldida old oynaning tashqarisini tozalang, bu muammoni bartaraf qilishi mumkin.


To'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi




OGOHLANTIRISH!

To'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi avtomobil va to'siqlar orasidagi masofani o'lchab va tovushli signallarni berib, avtomobilni to'xtab turishga joylashtirishni yengillashiradi. Biroq bu to'xtab turishga joylashtirishda manevr uchun haydovchining javobgarligini hech qanday vaziyatda istisno qilmaydi.

Orqaga (RPA) va oldinga (FPA) yurish bilan to'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi mavjudligida, qachonki tezlik 11 km/soatdan kam (7 mil/soat) bo'lganida, bampertardagi datchiklar avtomobil orqasida 2,3 mgacha masofada va erdan 25 smgacha (10 dyuym) balandlikda va bamperdan past darajada avtomobil oldida 1,0 mda obyektlarni aniqlashi mumkin. Issiq va nam ob-havoda to'siqlarni aniqlash uzoqligi qisqarishi mumkin. Bloklangan datchiklar to'siqlarni aniqlolmaydi, ammo soxta aniqlashlarni chaqirishi mumkin. Datchiklarni erdan, loydan, qordan, muzdan va moylardan tozalang; shu bilan birga minus haroratlarda mashinani yuvishdan keyin datchiklarni tozalang. Orqaga yurish bilan to'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi signallari, orqaga yurish bilan to'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi signallariga qaraganda ancha yuqori chastotalarga ega bo'ladi.



Uskunalar majmuasi diagrammalar bilan to'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi displeyi bilan jihozlangan bo'lishi mumkin, ular "to'siqgacha masofani" va uning joylashishi haqida ma'lumotlarni ko'rsatadi. To'siqqa yaqinlashish chorasi bo'yicha indikatorning ko'proq bo'limlari yonishni boshlaydi.

Orqani ko'rish kameralari bilan jihozlangan avtomobillarda, axborot displeyida  belgi aks ettiriladi. To'siqqa yaqinlashib kelish chorasi bo'yicha belgi kattalashadi va rangini sariqdan qizilga o'zgartiradi.

Tizim orqa bamperta to'rtta ultratovushli datchiklardan va oldingi bamperta to'rtta ultratovushli datchiklardan tashkil topgan (muvofiq jamlanmalarda).

 **XAVFLI**

To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi bolalarni, katta yoshdagi piyodalarni, velosipedchilarni, hayvonlarni va bamber darajasidan pastda, hamda avtomobilga juda yaqin yoki juda uzoq joylashgan boshqa obyektlarni aniqlashga qodir emas. U 11 km/soat (7 mil/soat)dan yuqori tezlikda ishlamaydi. Odamlarning jarohatlanishi yoki o'limidan yoki avtomobilning shikastlanishidan saqlanish uchun, oldinga yoki orqaga yurish bilan harakatlanishni boshlashdan avval avtomobil atrofidagi hududni albatta tekshirish va orqani ko'rish toshoynalariga qarash kerak, hattoki agar avtomobil to'xtab turishga joylashtirish tizimi bilan jamlangan bo'lsa ham.

Izoh

Tizimning ish qobiliyati begona detallarning ishchi sohaga o'rnatishda buzilishi mumkin.

Yoqish

Orqa yuritma yoqilishida tizim avtomatik yoqiladi.


Tizim to'siqlar mavjudligi haqida tovushli signallar bilan xabardor qiladi. Ogohlantiruvchi signallar orasidagi vaqt oraligi avtomobilning to'siqqa yaqinlashish chorasi bo'yicha qisqaradi. Oraliq masofa 30 smdan kam bo'lib qolganida, tovushli signal uzluksiz bo'lib qoladi.


Izoh

Tovushli ogohlantiruvchi signallar, agar avtomobil 3 soniyaga yoki undan ortiq vaqtga to'xtaganida jaranglashdan to'xtaydi (uzluksiz tovushli signaldan tashqari)

O'chirish

Tizim quyidagi holatlarda avtomatik faolsizlanadi:

- Avtomobilning harakatlanish tezligi 11 km/soatdan oshiq - oldinga va orqaga yurish bilan to'xtab turishga joylashtirish tizimi o'chadi.
- Orqaga yurish yuritmasi o'chadi - orqaga yurish bilan to'xtab turishga joylashtirish tizimi o'chadi.
- Tizimda nosozlik hosil bo'ladi. Yoqilgan tizimni asbob-uskunalar panelida  tugmani qo'lda bosish orqali o'chirish mumkin.

Agar to'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi o'chiqligida  tugma bosilsa, ushbu uchun barcha zarur bo'lgan sharoitlarga rioya etilgan bo'lsa, tizim yoqiladi.

Nosozlik

Nosozliklar mavjudligiga tizimni tekshirish uchun:

1. Avtomobilni maydonchada shunday tarzda to'xtab turishga joylashtiringki, bunda orqa bamberdan 2 metr masofada hech qanday to'siqlar bo'lmasin.

2. To'xtab turish tormozini yoqing.

3. O't oldirish kalitini ON (YOQILGAN) holatga o'rmatng.

4. Orqaga yurish yuritmasini yoqing.

5. Orqaga yurish yuritmasini yoqishda:

- Agar tizim tovushli signalni bermayotgan bo'lsa: Tizimni boshqarish blokiga oziqlanishni uzatishini tekshiring. Agar orqaga yurish chiroqlari yoqilsa, oziqlanish uzatilayotgan bo'ladi.
- Agar zummerning faqat bir qisqa signali jaranglayotgan bo'lsa va deyarli darhol ushbu signaldan keyin uzluksiz bo'lib qolsa, bu nosozlik mavjudligiga ko'rsatadi. Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling.
- Agar zummerning birinchi signali ortidan alohida signallar seriyasi to'siqqa yaqinlashishdagidek berilayotgan bo'lsa: Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling.
- Agar ikkita tovushli signal jaranglayotgan bo'lsa:

Chevrolet servis-markaziga yordam uchun murojaat qiling.

Orqa bilan harakatlanishda o'lik zonalarni nazorat qilish tizimi (RCTA)

RCTA tizimli avtomobillarning orqani ko'rish kamerasi signallarini uzatuvchi displeyida chapdan yoki o'ngdan yaqinlashib kelayotgan transport vositalari mavjudligi haqida ogohlantiruvchi, chapga yoki o'nga yo'naltirilgan strekalki qizil uchburchak

ko'rinishidagi piktogramma paydo bo'lishi mumkin. Tizim avtomobilning chap yoki o'ng tomonida 20 smgacha oraliq masofada obyektlarni aniqlaydi. Chapda yoki o'ngda to'siqlarni aniqlashtirish vaqtida muvofiq tomondan dinamiklarda uch karrali ogohlantiruvchi signal jaranglaydi.

Orqaga yurish yuritmasi yoqilgida tizim ishlaydi.

Tizimning ta'sir zonasi to'xtab turishga joylashtirish uchun erishimli fazoga bog'liq bo'ladi va, masalan, 45° C ni tashkil qilishi mumkin. Tirkamaning mavjudligi datchiklar tomonidan aniqlash zonasini hech qanday oshirmasligini anglash kerak. U avvalgidek qoladi. Shuning uchun tirkama bilan orqaga yurish bilan harakatlanishni boshlashda alohida ehtiyotkorlikka rioya qilish kerak.

Orqa yurish bilan harakatlanishda o'lik zonalarni nazorat qilish tizimi (RCTA) agar datchiklar joylashgan orqa bamporning chap yoki o'ng burchaklari loy, qor yoki qirov bilan chaplangan bo'lsa, hamda kuchli yomg'ir vaqtida ishlamaydi.

⚠ XAVFLI

Orqa yurish bilan harakatlanishda o'lik zonalarni nazorat qilish tizimi (RCTA) to'qnashuvdan saqlanish uchun juda kech bo'lgan ogohlantirishni berishi mumkin. U shu bilan birga ogohlantirishni umuman chiqarmasligi mumkin.

Funksiyalarni yoqish yoki o'chirish



Oldinga va orqaga yurish bilan to'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimini yoqish yoki o'chirish **P** va **▲** asbob-uskunalar panelidagi tugma yordamida amalga oshiriladi. Tugma bilan yonma-yon joylashgan nurdiodli indikator funksiyalar yoqilganda yorishadi va funksiyalar o'chirilgan vaqtda yorishishdan to'xtaydi.

Tirkamani shataklashda to'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimini o'chirib qo'yning.

To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimini ishi haqida muhim ma'lumotlar

⚠ OGOHLANTIRISH!

Ma'lum sharoitlarda to'siqlarni aniqlanishiga tovushni turli aks ettirishli buyumlarining yoki kiyimning yuzalari, hamda shovqinning tashqi manbalari xalaqit berishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Datchikning sezuvchanligi datchikning yuziga tashqi ta'sir bilan pasaytirilishi mumkin, masalan, muz, qor, loy, chang, turli xil polirollar/bo'yoqlar va boshqalar.

Akustik signallarning begona manbalari tomonidan chaqirilishi mumkin bo'lgan datchiklarning soxta ishlash ehtimoli bor (aks ettiriluvchi signal to'siqlari), masalan, boshqa avtomobilning to'xtab turishga joylashtirish datchiklari, hamda avtoyuvishning mexanik tovushlari, yomg'ir, kuchli shamol, do'l va boshqalar. To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimining ishlash samaradorligi tashqi omillarning ta'siri ostida datchiklarning holatini o'zgartirish natijasida pasayishi mumkin, masalan, harorat o'zgarishlari oqibatida amortizatorlarning ustunlarini asta-sekin cho'kishi, shinalarni almashtirish, avtomobilni yuklash, texnik

⚠️ DIQQAT!

tyuning vaqtida yo'l oralig'ining qasddan o'zgartirish.
Ayniqsa bu baland avtomobillarga taalluqli (masalan, vnedorojniklar, minifurgonlar va transporterlar). Bunda avtomobilning tepa qismida to'siqlarning aniqlanishi kafolatlanmaydi.

Yon tomon o'lik zonalarda to'siqlar haqida ogohlantirish tizimi (SBZA) (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)

Avtomobil jamlanishi mumkin bo'lgan SBZA tizimi haydovchiga boshqa qatorga o'tish jarayonida ko'rish manzarasidan tashqari joylashgan boshqa avtomobillar bilan to'qnashuvdan saqlanishda yordam beradi. To'siq aniqlanganida muvofiq orqani ko'rish toshoynasining SBZA tizimi signalizatori yorishadi. Agar bunda muvofiq tomondan burilish ko'rsatkichi yoqilgan bo'lsa, signalizator millitlashni boshlaydi.


⚠️ OGOHLANTIRISH!

SBZA tizimi haydovchini datchiklar tomonidan nazorat qilinuvchi chegaradan tashqarida bo'lgan tez yaqinlashib kelayotgan avtomobillar haqida, hamda piyodalar, velosipedchilar yoki hayvonlar haqida ogohlantirishga qodir emas. Holatlar

⚠️ OGOHLANTIRISH!

mavjudki, ularni tizim boshqa qatorga o'tishdagi to'siqlar haqida haydovchini ogohlantirish imkoniga ega bo'lmaydi. Boshqa qatorga o'tishda diqqatsizlik odamlarning jarohatlanishi yoki o'limi, hamda avtomobilning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin. Boshqa qatorga o'tishdan avval barcha toshoyalarga qarang, orqaga nazar soling va burilish ko'rsatkichini yoqing.

SBZA tizimi tomonidan nazorat qilinuvchi zonalar




SBZA tizimi datchiklari taxminan bir chiziq kengligidagi, yoki avtomobilning ikki tomoni bo'ylab taxminan 3,5 m zonalarini nazorat qiladi.

Datchiklar erdan 0,5 m dan 2 mgacha balandlikda obyektlarni aniqlaydi. Aniqlash zonasi taxminan avtomobil kuzovining markaziy ustunidan va orqaga 5 m ga cho'zilishni boshlaydi.

Tizimning ishlash tartibi

Qo'shni qatorda harakatlanayotgan transport vositalarini aniqlashda orqani ko'rishning yon tomon toshoynasida SBZA indikatori yorishadi. U boshqa qatorga o'tishni bajarish xavfli bo'lishi mumkinligiga ko'rsatadi. Boshqa qatorga o'tishni boshlashdan avval SBZA indikatori yonayotganligini tekshiring, barcha toshoyalarga qarang, orqaga nazar soling va burilish ko'rsatkichini yoqing.



Indikator orqani ko'rish chap toshoynasida

Indikator orqani ko'rish o'ng toshoynasida

Dvigatelni ishga tushirishda orqani ko'rishning ikkala toshoynalaridagi indikatorlar tizimning sozligini ko'rsatib, qisqa vaqtga yorishadi. Agar oldinga harakatlanish vaqtida sizning avtomobilingizdan chapda yoki o'ngdagi o'lik zonada boshqa transport vositasi aniqlansa,

nomdosh tomondan toshoykada indikator yorishadi. Boshqa transport vositasi aniqlangan xuddi o'sha tomondan burilish ko'rsatkichi yoqilish holatida, indikator boshqa chiziqqa o'tish xavfi haqida ogohlantirib millitlashni boshlaydi.

SBZA tizimini avtomobil sozlamalarini saqlash menyusida o'chirish mumkin. Qarang "To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi"ni axborot-ko'ngilochar tizimning "Avtomobil" bo'limida ko'ring. Agar SBZA tizimi o'chirilsa, uning indikatorlari orqani ko'rish toshoykalarida yorishmay qoladi.

Agar tizim o'rnatilgan tartibda ishlamayotgan bo'lsa

Yuqori tezlikda boshqa transport vositasini quvib o'tishda, to'xtab turgan transport vositasi yonida o'tishda va tirkamani shatakash vaqtida SBZA tizimining indikatorlari yopishmasligi mumkin. Tirkamaning mavjudligi datchiklar tomonidan aniqlash zonasini hech qanday oshirmasligini anglash kerak. U avvalgidek qoladi. Tirkamani shatakashda, boshqa qatorga o'tish vaqtida ehtiyotkorlikni namoyish qilish kerak bo'ladi. SBZA tizimi avtomobilga mahkamlangan obyektlarga, masalan, tirkamaga yoki velosipedga, hamda avtomobilning me'yordagi yon tomon o'lchamlaridan bo'rtib turgan buyumlarga ta'sir qilib ishlashi mumkin. Tizimning bunday harakati me'yoriy hisoblanadi va avtomobilga xizmat ko'rsatilishi o'tkazilishini talab qilmaydi.

SBZA tizimi ba'zi holatlarda, ayniqsa yomg'irli ob-havoda o'lik zonalardagi boshqa transport vositalarini mavjudligini aniqlay olmasligi mumkin. Bu uni ta'mirlash zarurati haqida dalolat bermaydi. Tizim yo'l panjaralariga, belgilariga, daraxtlarga, boshqa ekinlarga va harakatsiz obyektlarga ta'sir qilishi mumkin. Tizimning bunday harakati me'yoriy hisoblanadi va avtomobilga xizmat ko'rsatilishi o'tkazilishini talab qilmaydi. Yon tomon o'lik zonalarda to'siqlar haqida ogohlantirish tizimi, agar datchiklar joylashtirilgan orqa bamporning chap yoki o'ng burchaklari loy, qor yoki qirov bilan chaplangan bo'lsa, hamda kuchli yomg'ir vaqtida ishlamaydi.

Agar SBZA tizimi indikatorlari o'lik zonada boshqa avtomobillarning mavjudligida yorishmasa, ehtimol, tizim nosoz va ta'mirlashni talab qiladi. Texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasiga murojaat qiling.

Agar yon tomon o'lik zonalarda to'siqlar haqida ogohlantirish tizimi o'chirilgan bo'lsa (ularni haydovchining o'zi o'chirib qo'ygan holatlardan tashqari), shaxsiy sozlamalarni saqlash menyusida uning sozlamalari menyusti erishimli bo'lmaydi.

Yon tomon o'lik zonalarda to'siqlar haqida ogohlantirish tizimi (SBZA)

Jordan

Type Approval No: TRC/LPD/2009/111
Equipment Type: Low Power Device (LPD)

United Arab Emirates

TRA
Registered No: ER44460/16
Dealer No: 0020858/10

Orqani ko'rish kamerasi (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)

Sizning avtomobilingiz orqani ko'rish kamerasi bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.



Orqaga yurish bilan manevrni amalga oshirishda, faqat kamera tomondan uzatilayotgan tasvirga ishonib qolish lozim bo'lmaydi.

Kameraning ko'rish manzarasi cheklangan. Orqani ko'rish kamerasi holatni mustaqil baholash va orqaga yurish vaqtida avtomobilning orqasidagi vaziyatni kuzatish zaruriyatidan haydovchini ozod qilmaydi.

 **XAVFLI**

Avtomobilga o'tirishdan avval uning yonida hech qanday to'siqlar va odamlar yo'qligiga ishonch hosil qilish kerak.


Orqaga yurish bilan harakatlanish vaqtida vaziyatni kuzatish uchun vaqti-vaqti bilan orqaga o'girilish va toshoynalarga qarashni unutmang.

Kamera o'rnatilishi joyi bilan yonma-yon avtomobil bilan shikastlanishni olish holatida, kamera joyidan siljib ketishi mumkin.

Chevrolet dileriga murojaat qiling.

Kamera obyektivi toza bo'lib qolishi, unda qor va muzlar bo'lmasligi ustidan kuzatib boring. Obyektivni tozalash uchun faqat yumshoq matoni va kuchsiz sovun eritmasini qo'llang.

Kamera



Kamera yukxona bo'linmasining orqa eshigida joylashtirilgan.

Orqani ko'rish kamera quyidagi oraliqda joylashgan buyumlarni aks ettirishga qodir emas:

- Bamber chetlariga yaqin
- Kamera oldida
- Kameradan baland

Orqani ko'rish kamerasidan tasvir

Orqani ko'rish kamerasidan tasvir orqaga yurish yuritmasi yoqilishida axborot-ko'ngilochar tizim displeyida chiqariladi.

Haqiqiy vaqt tartibida displeyda avtomobil ortidagi oraliq masofa aks ettiriladi.

Izoh

- Displeydagi tasvir to'siqgacha haqiqiy oraliq masofa haqidagi tushunchalarni olishga imkon bermaydi.
- Ko'zdan kechiriluvchi maydonning o'lchami avtomobil va yo'l sharoitlarini holatiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin.
- Turli balandlikdagi obyektlar avtomobildan turli uzoqlikda bo'lib qolishi mumkin.
- Displey yoritilganligining yorqinligi tashqi yoritilganlik sharoitlariga muvofiq avtomatik sozlanadi.
- Displeyda orqaga yurish bilan harakatlanishda avtomobilning boshqaruvini yengillashtiruvchi belgilash chiziqlarining yo'naltirgichlari aks ettirilishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumotni "Axborot-ko'ngilochar tizim" bo'limida ko'ring.

Orqani ko'rish kamerasini boshqarish

Yoqilish quyidagi tarzda bajariladi:

1. O't oldirish kalitini ON (YOQILGAN) holatga o'rnatib.
 2. Orqaga yurish yuritmasini yoqing.
- Kamera avtomatik yoqiladi, displeyda esa u tomondan uzatilayotgan tasvir chiqariladi.

Izoh

Selektor dastagini har qanday boshqa holatga o'tkazishda orqani ko'rish kamerasi o'chadi.

Tozalash

Kamerani me'yorda ishlashi uchun uning obyektivini muntazam tozalab turish lozim. Buning uchun faqat yumshoq mato, sovun va suvni qo'llang.

 XAVFLI

<p>Abraziv tozalash moddalari va materiallarni qo'llash taqiqlanadi, chunki ular kamera obyektivini tirnashi va tizimning ishlash samaradorligini pasaytirishi mumkin.</p>
--

Harakatlanish chizig'idan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi (LDW)



Muvofiq jamlanmada harakatlanish chizig'idan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi (LDW) egallab turilgan chiziqdan qasddan bo'lmagan

chiqib ketish bilan bog'liq bo'lgan avariyaning oldini olishga yordam berishi mumkin. Agar avtomobil nomdosh' yo'nalishda o'chirilgan burilish ko'rsatkichi bilan belgi chiziqni kesib o'tayotgan bo'lsa, tizim ogohlantiruvchi signalni berishi mumkin.

Egallab turilgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi 60 km/soat va yuqori tezlikda kamera yordamida yo'l chizig'ini aniqlaydi.

 XAVFLI


<p>Egallab turilgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi avtomobilning o'z chizig'iga qaytishni ta'minlamaydi. Egallab turilgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi:</p>


- To'qnashuvni oldini olish uchun yetarli bo'lgan vaqtni haydovchiga ta'minlamasligi.
- Yomon ob-havo yoki yetarli bo'lmagan ko'rish sharoitlarida bo'lish chiziqlarini aniqlamasligi. Bu old oyna yoki chiroqlar loy, qor yoki muz bilan bloklangan vaqtda, o'rnatilmagan tarzdagi holatga ega bo'lganida, hamda quyosh nurlari to'g'ri kameraga tushib turganidagi holatlarda amalga oshishi mumkin.
- Yo'l chetlarini aniqlanishi.
- Ilon izi va tepalik yo'llarida chiziqni aniqlashi mumkin.



 XAVFLI

<p>Agar egallab turilgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi faqat yo'lning bir tomonidagi belgi chiziqni aniqlayotgan bo'lsa, u faqat mazkur tomonda harakat chizig'idan chiqib ketishni nazorat qiladi. Har doim diqqat bilan yo'lni kuzating va avtomobilni harakatlanish chizig'ida o'rnatilgan holatda tutib turing. Ushbu qoidaga rioya etmaslik avtomobilning shikastlanishiga, jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin. Old oynani, chiroqlarni va videokamerani datchiklarni tozalik va soz holatda saqlang. Egallab turilgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimini yomon ob-havo sharoitlarida qo'llamang.</p>
--

Tizimning ishlash tartibi

Egallab turilgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi kamerasi orqali ko'rish toshoynasi oldida old oynaga o'rnatilgan. Egallab turilgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimini yoqish yoki o'chirish uchun asbob-uskunalar panelida  tugmani bosing. Tizim yoqilgan paytda, tugmadagi indikator yorishib turadi.



Egallab turilgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi yoqilgan paytda, agar tizim ishga tayyor bo'lsa, indikator  yashil rang bilan yorishib turadi. Agar avtomobil ushbu yo'nalishda burilish ko'rsatkichini yoqmasdan bo'lish belgi chizig'ini kesib o'tayotgan bo'lsa, indikator  sariq rang bilan miltillashni boshlaydi. Bundan tashqari, harakatlanish chizig'idan chiqib ketish yo'nalishiga bog'liq holda, avtomobilning chap yoki o'ng tomonidan, uchta tovushli signal jaranglaydi.

Orqa shaxsiy yoritish plafoni (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)	10
Byuumlari bo'lmachasining osmasi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)	Nurdiodli
Yukxona bo'linmasi	5
Quyoshdan himoyalash	2,1 (x2)
Uzoqni yoritish	55
Yaqinni yoritish	55


Kattalik	Quvvati (Vt)
Tumanga qarshi chiroq (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)	55
Stop-signal (orqa) - tormoz	Nurdiodli va (yoki) 21
Stop-signal (orqa) - to'xtab turish	Nurdiodli va (yoki) 5
Stop-signal	Nurdiodli
Chiroq	Nurdiodli va (yoki) 5
Kundizgi yurish chiroqlari (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)	Nurdiodli
Orqa tumanga qarshi chiroq (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan)	21
Raqam belgisi	5
Orqaga yurish chirog'i	21
Burilish ko'rsatkichi	21
Orqani ko'rish toshoyinasida burilish ko'rsatkichi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)	Nurdiodli

Izoh

Kuchli yomg'ir yoki mashinani yuvishdan so'ng chiroqlarning va orqa chiroqlarning oynalari tumanlashib qolishi mumkin.

Yoritish uskunasi ichkarisidagi va tashqarisidagi harorat farqi sabab hisoblanadi. Bu holat yomg'ir vaqtida avtomobilning oynalarining ichki tomondan namgarchilik kondensatsiyaga o'xshash va sizning avtomobilingizning biron bir nosozligi haqida dalolat bermaydi.

Agar suv lampaning elektron sanjiriga tushib qolgan bo'lsa, Chevrolet servis-markaziga tekshirish uchun murojaat qiling.


Chiroqlar Gabarit chirog'i

1. Himoya qopqog'ini yechib oling.



2. Patronni torting va uni uzing.
3. Lampani patrondan chiqarib oling.
4. Yangi lampani o'rnatib.
5. Aks ettirgichga patronni o'rnatib.
6. Patronni o'rnatib va uni mahkamlang.
7. Himoya qopqog'ini o'rniga o'rnatib va uni mahkamlab qo'ying.

Uzoqni yoritish




1. Himoya qopqog'ini yechib oling.




2. Lampadan bovliq ulagichini uzib oling.
3. Prujinali surilmanni yon tomonga bosib suring va uzing.
4. Aks ettirgich korpusidan lampani chiqarib oling.
5. Yangi lampani o'rnatishda uning yaproqchalarini aks ettirgichning o'ymalariga o'rnatib.
6. Lampani prujinali qistirgich bilan mahkamlang.
7. Ulagichni lampaga ulang.
8. Himoya qopqog'ini o'rniga o'rnatib va uni mahkamlab qo'ying.

Yaqinni yoritish



1. Himoya qopqog'ini yechib oling.



2. Lampadan bovliq ulagichini uzib oling.
3. Prujinali qistirgichga bosong va lampani uzib oling.
4. Aks ettirgich korpusidan lampani chiqarib oling.
5. Yangi lampani o'rnatish uchun, aks ettirgichdagi cho'nqirchalarga bo'rtiqlarni kiriting va lampaga bosong.
6. Ulagichni lampaga ulang.
7. Himoya qopqog'ini o'rniga o'rnatang va uni mahkamlab qo'ying.

Chiroqlarning yoritishini sozlash

 **DIQQAT!**

Oldingi chiroqlarni sozlash zarurati bo'lganda vakolatlangan Chevrolet servis-markaziga murojaat qilish tavsiya qilinadi, chunki bu muolaja xavfsizlik bilan bog'liq.


Kunduzgi yoritish chiroqlari lampalari (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)

Nurdiodlarini ishdan chiqish holatida Chevrolet dileriga yoki rasmiy servis markaziga kunduzgi yurish chiroqlarini almashtirish uchun murojaat qilish zarur.


Tumanga qarshi chiroqlar (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)

Lampalarni almashtirish uchun Chevrolet dileriga yoki rasmiy servis markaziga murojaat qilish lozim.

Burilishning oldingi ko'rsatkichlari



1. Lampaning patronini soat strelkasiga qarshi burang va uni bo'shatib oling.




2. Sekingina lampaga bosong, uni soat strelkasiga qarshi buring va uni patronidan chiqarib oling.
3. Yangi patronni aks ettirgichga o'rnatang va uni mahkamlash uchun soat strelkasi bo'ylab aylantiring.


O'rqani ko'rishning tashqi toshoynalarida burilish ko'rsatkichlari

Burilish ko'rsatkichlarining lampalarni almashtirish uchun, Chevrolet dileriga murojaat qiling.


Orqa chiroqlar



1. Tiqin qopqoqni oching va ikki vintni burab bo'shating.




2. Orqa chiroqni o'zingiz tomonga tortib kuzovdan yechib oling. Elektr ulagichni uzing.




3. Burilish ko'rsatkichi (1) Orqa gabarit chiroq / stop-signal (2)

Agar chiroqda nurdiodli elementlar qo'llanilayotgan bo'lsa, (1) chiroqni almashtirish lozim. Orqa chiroqni/ stop-signalni almashtirilishini Chevrolet servis markazida o'tkazish lozim.



4. Almashtirilishi kerak bo'lgan lampaning patronini soat strelkasiga qarshi burang.




5. Lampa patronini chiqarib oling. Sekingina lampaga bosing, uni soat strelkasiga qarshi burang va uni patronidan chiqarib oling.

6. Lampani patronga o'rnating. Lampali patronni orqa chiroqqa o'rnating, ulagichni ulang va patronni mahkamlang. Orqa chiroqni kuzovga o'rnating va mahkamlash vintlarini tortib mahkamlang. Vintlarning tiqin qopqoqlarini yoping.

7. O't oldirish yoqilsin, yoritish yoqilsin va barcha lampalar tekshirilsin.

Yukxona bo'linmasi eshigidagi orqa chiroqlar

1. Yukxona bo'linmasining orqa eshigini oching.



2. Qoplamani yechib oling.
Orqa chiroq/stop-signal

Orqa chiroq/stop-signalning chirog'ini almashtirishini Chevrolet servis markazida o'tkazish lozim.



3. Almashtirilishi kerak bo'lgan lampa patronini soat strelkasiga qarshi burang va uni chiroqdan chiqarib oling.




4. Lampani patronidan chiqarib oling. Lampani patronga o'rnatish uchun unga astagina bosing.


5. Lampali patronni orqa chiroqqa o'rnating va ulagichni ulang. Qopqoqni yoying va uni mahkamlab qo'ying.

6. O't oldirish yoqilsin, yoritish yoqilsin va barcha lampalar tekshirilsin.


Bamperdagi chiroqlar



1. Bamperning orqa tomonida joylashgan chiroqni mahkamlash vintini burab bo'shatib va elektr ulagichni uzib.



2. Lampa ushlagichini yechib olish uchun ikkala vintni bo'shatib oling.



3. Orqa tumanga qarshi chiroqlar (1) - agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa Orqaga yorish chirog'i (2)

4. Lampani ushlagichga o'rnatib va uni burang. Ushlagichni joyiga qotiring. Orqa chiroqni bamperga o'rnatib va mahkamlash vintini tortib mahkamlang. Elektr ulagichni ulang.

5. O'tildirish yoqilsin, yoritish yoqilsin va barcha lampalar tekshirilsin.

Markaziy tepa stop-signal



Lampalarni almashtirish uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Raqam belgisini yoritish

1. Chiroqdan chapda korpusda o'yiqa buragichni o'rnatib va prujinani siqish uchun yon tomonga bosib.
2. Lampa korpusini pastga yechib oling; bunda uni kabelidan tortmang.
3. Simlar tutamini uzing va lampa patronini chiqarib olish uchun uni soat strelkasiga qarshi burang.
4. Cho'g'lanma lampani patronidan chiqarib oling va lampani almashtiring.
5. Elektr ulagichni ulang, patronni chiroq korpusiga o'rnatib va soat strelkasi bo'ylab burang.
6. Lampa korpusini o'rnatib va uni buragich bilan burab qotiring.

Salon yoritgichi**O'qish uchun lampaning ichki yoritish plafoni**

Lampalarni almashtirish uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Asbob-uskunalar panelining yoritgichi

Nurdiodli elementlarni almashtirilishini Chevrolet dilerining texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasida bajarish lozim.

ELEKTR TIZIMI**Saqlagichlar**


Kuyib qolgan saqlagichni xuddi shunday nominal parametrlari o'xshash o'lchamdagi yangi saqlagichga almashtiring.

- Avtomobilida saqlagichlarning ikki bloki mavjud:
- Motor bo'linmasining chap tomonida oldinda, salonda buyumlar bo'linmasining orqasida.
- Saqlagichlarning asosiy bogli motor bo'linmasida joylashgan va akkumulyator batareyasining musbat qutbli uchiga ulangan. Ularni almashtirish zarurati bo'lganda Chevrolet dilerining texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasiga murojaat qiling. Saqlagichni almashtirishdan avval u tomondan himoyalovchi zanjir o'chirgichini va o't oldirishni o'chiring.
- Nuqsonli saqlagichni kuygan eruvchan tola bo'yicha aniqlash mumkin. Saqlagich kuygan sabab bartaraf etilmagunicha, saqlagichning almashtirilishini amalga oshirmang.
- Ba'zi funksiyalarning himoyasi bir necha saqlagichlar tomonidan ta'minlanadi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

<p>Asl GM saqlagichlarining texnik xususiyatlariga mos kelmaydigan saqlagichlarni o'rnatish yoki ishlatish xavflidir. Saqlagichlar ishlamay qolishi va yong'inga olib kelishi mumkin. Bu odamlarning jarohatlanishiga yoki o'limiga olib kelishi mumkin, shuningdek, avtomobilga shikast yetishi mumkin.</p>
--

Minisaqlagichlar





Jcase saqlagichlari




Saqlagichlar uchun yechgich

Saqlagichlarni yechib olish qurilma motor bo'linmasining saqlagichlar blokida joylashgan.




Yechgichni turiga bog'liq holda saqlagich tepasiga yoki tomoniga o'rnatiladi va saqlagich chiqarib olinadi.

Motor bo'linmasidagi saqlagichlar bloki



Saqlagichlar bloki motor bo'linmasining chap oldingi qismida joylashtirilgan. Qopqoqning qisqichini bo'shating, qopqoqni tepaga ko'taring va uni yechib oling. Eruvchan saqlagichlarning qutisiga taalluqli bo'lgan ba'zi ko'rsatkichlar sizning avtomobilingizga taalluqli bo'lmasligi mumkin. Ma'lumotlar hujjatni nashr etish paytiga aniq deb tan olingan. Saqlagichlar qutisini ko'zdan kechirishda markirlash jadvalchasiga e'tiboringizni qarating.



Mini-saqlagichlar	Mo'ljallanganligi
1	10A - Konditsioner kompressori muftasi
2	—
3	15A — rul boshqaruvchi elektr kuchaytirgichi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
4	—
5	15A – ovozli signal
6	15A — oldingi tumanga qarshi chiroq (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
7	10A - Uzoqni yoritish, chap
8	10A - Uzoqni yoritish, o'ng
9	15A — oldingi tumanga qarshi chiroq (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
10	20A — transmissiya relesi (3) — (benzinli dvigatel)
11	25A — dvigatelni boshqarish bloki (1) (benzinli dvigatel)
12	10A – kuchli agregat relesi (1)
13	10A – kuchli agregat relesi (2)

Mini-saqlagichlar	Mo'ljallanganligi
14	15A – kuchli agregat releasi (4)
15	15A — "YURISH/ISHGA TUSHURISH" rele signali
16	15A — avtomatik yuritmalar qutisini boshqaruv bloki (jamlanmaga muvofiq)
17	10A — tarqatma quti va chiroqlar yorug'ligini tuzatuvchisini boshqaruv bloki (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
18	10A – elektr oziqlanish klasteri - konditsioner - xavfsizlik yostig'i moduli
19	20A — yonilg'i nasosi (dizel dvigateli)
20	Qo'llanilmaydi
21	30A - orqa oyna isitgichi
22	15A — orqani ko'rish tashqi toshoynalarning isitgichi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan)
23	15A — salonnii isitish (dizel dvigateli)
24	20A - orqa oyna tozalagichi

Mini-saqlagichlar	Mo'ljallanganligi
25	10A – oldingi yuvgich nasosi
26	10A — orqaga yurish bilan to'ab turishga joylashtirishda yordam tizimi yoki oldinga va orqa yurish bilan to'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
27	5A - Kuzov asbob-uskunalarini boshqarish moduli
28	Qo'llanilmaydi
29	30A — ABS yoki ESC boshqaruv bloki nasosi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan)
30	10A – ovozi signal
31	15A - Kuzov asbob-uskunalarini boshqarish moduli
32	10A — dvigatelni boshqaruv bloki (akkumulyator batareyasi) (benzinli dvigatel)
33	10A – modullar orasidagi kommunikatsion kabel

Jcase saqlagichlari	Mo'ljallanganligi
SV01	50A — ABS yoki ESC boshqaruv bloki nasosi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan)
SV02	30A - Tarqatish qutisining boshqaruv bloki (4x4)
SV03	20A — yonilg'i nasosi boshqaruv bloki (benzinli dvigatel)
SV04	20A — orqa ulagich (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
SV05	30A - Starterning elektr magnit klapani
SV06	30A – oldingi oyna tozalagich
SV07	40A — № 1 radiator ventilyatori (benzinli dvigatel)
SV08	50A — № 2 radiator ventilyatori (benzinli dvigatel)
SV09	30A — vakuumli nasos (benzinli dvigatel)

Rele	Mo'ljallanganligi
RLY01	Starter
RLY03	Uzoqni yoritish
RLY05	Qo'shimcha isitgich (dizel dvigateli)
RLY8	Oldingi oyna tozalagichni boshqaruvi
RLY9	Old oyna tozalagichi tezligi
RLY10	Orqa oynani va orqani ko'rish tashqi toshoynalarning isitgichi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
RLY11	Kuchli transmissiya
RLY12	Konditsioner muftasi
RLY13	№ 1 radiator ventilyatori (benzinli dvigatel)
RLY14	№ 2 radiator ventilyatori (benzinli dvigatel)
RLY15	Qo'llanilmaydi
RLY18	O't oldirish yoqilgan, ishga tushirish
RLY19	Yonilg'i nasosi (dizel dvigateli)


Asbob-uskunalar panelidagi saqlagichlar bloki

Saqlagichlar bloki asbob-uskunalar panelining qoplamasi ortida joylashgan.



Strelka bilan ko'rsatilgan tomonga qoplamanı tortib, uni asbob-uskunalar panelidan yechib oling.

Qoplamanı teskari tartibda o'rning.



Mini-saqlagichlar	Mo'ljallanganligi
1	20A - kuzov asbob-uskunalarini boshqarish moduli (6)
3	20A — chektiribolgich (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
6	20A — oldingi va orqa ulagichlar (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
7	30A - Kuzov asbob-uskunalarini boshqarish moduli (8)
10	20A – radiopriemnik
11	2A – o't oldirish qulfi
12	15A — yon tomon o'lik zonalarda to'siqlar haqida ogohlantirish tizimi (barcha jamlanmalarda ham emas)

Mini-saqlagichlar	Mo'ljallanganligi
13	15A - Kuzov asbob-uskunalarini boshqarish moduli (3)
14	10A — isitish, ventilyatsiya va konditsionerlash tizimini boshqaruvi oldingi bloki
16	15A - Kuzov asbob-uskunalarini boshqarish moduli (1)
15	15A — o'rindiqli isitish (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
17	30A — oldingi eshik elektr oyna ko'targichi o'chirgichi
18	10A — isitish, ventilyatsiya va konditsionerlash orqa tizimi

Mini-saqlagichlar	Mo'ljallanganligi
19	30A — orqa eshik elektr oyna ko'targichi o'chirgichi
20	15A - Kuzov asbob-uskunalarini boshqarish moduli
21	10A – zaxira
22	30 A — o'rindiqli sozlash elektr uzatmasi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
25	10A - Xavfsizlik yostiqlarini boshqaruvi bloki (SDM)
26	15A - Kuzov asbob-uskunalarini boshqarish moduli (5)
27	2A – soat prujinasi
28	7,5A - Tekshirish ulagichi (DLC)

Mini-saqlagichlar	Mo'ljallanganligi
30	10A — yukxona bo'linmasining orqa eshigining qulfi
31	10A — asbob-uskunalar majmuasi, displeylar - radio (markaziy konsol), USB
33	10A — markaziy shlyuz (CGM) — kiberxavfsizlik
34	30A — isitish, ventilyatsiya va konditsionerlash tizimining oldingi ventilyatori
35	30A — isitish, ventilyatsiya va konditsionerlash tizimining orqa ventilyatori
37	10A — frontal to'qnashuv xavfi haqida ogohlantirish tizimi (FCA)/ yomg'ir datchigi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
39	10A — orqani ko'rish toshoyalari


Jcase saqlagichlari	Mo'ljallanganligi
35	40A — BUS-C (saqlagichlar: F12, F30, F33, F37, F39, F40)
33	40A - qo'shimcha asbob-uskunalar (12 V)

Rele	Mo'ljallanganligi
RLY43	Isitish, ventilyatsiya va konditsionerlash tizimining orqa ventilyatori
RLY45	C — yoqish
RLY46	RAP va aksessuarlar oziqlanishi (12V)
RLY47	RAP va aksessuarlar oziqlanishi (12V)
RLY48	Ishga tushirish relei


AVTOMOBIL INSTRUMENTLARI

Instrument

Ehtiyot g'ildirakli avtomobillar



Instrumentni chiqarib olish uchun, kamari yechish va domkratni chiqarib olish zarur.



To'plamga quyidagi instrumentlar kiradi:

- Domkrat tutqichi uchun to'rtta kengaytma
 - Domkrat
 - G'ildirakli gayka kaliti
 - Buragich (buragich sterjenini chiqarib olish va aylantirish mumkin: u bir tomonidan yassi, ikkinchi tomondan - xochsimon)
 - 1 Gayka kaliti
1. Yukxona bo'linmasining orqa eshigini oching.
 2. Yechiluvchan yukxona bo'linmasining qopqog'ini oching.



3. Ehtiyot g'ildirakni ko'targichi qopqog'ini yechish uchun uni soat strelkasiga qarshi burang. Ko'tarish mexanizmining uyasini ochish uchun gilamcha klapanini ko'taring.
4. G'ildirak kalitini, domkrat tutqichi uzaytirgichi va domkrat tutqichini buragich yordamida ulang.
5. Domkrat tutqichining fason uchini tirqish orqali o'tkazing va uni uyaga o'rnatang.



6. G'ildirak kalitini soat strelkasiga qarshi burab, ehtiyot g'ildiragini erga tushiring.
7. Avtomobil ostidan g'ildirakni chiqarib olish mumkin bo'lganga qadar kalitni aylantirishni davom ettiring.

G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR

Shinalar holati, disklar holati

O'tkir qirralarni kesib o'tayotganda shinani va diskni shikastlash mumkin. To'xtab turishga joylashtirishda bordyurga shinalar bilan ishqalanmang.

G'ildiraklarni shikastlar predmetiga muntazam ko'zdan kechiring. Shikastlanish yoki noodatiy emirilish holatida Chevrolet servis-markaziga yordamga murojaat qiling.

Shinalarning markirlanishi

Masalan, **245/70 R16 111 S**

245 : Shina kengligi, mm

70 : Ko'ndalang kesim nisbati (shinaning balandligi uning kengligiga), %larda

R : Shina konstruksiyasi: radial

RF : Turi: RunFlat

16 : G'ildirak diametri, dyuymlar

111 : Yuk ko'taraolishligi

S : Tezlikning kodli harfi

Tezlikning kodli harfi:

Q : 160 km/soatgacha

S : 180 km/soatgacha

T : 190 km/soatgacha



H : 210 km/soatgacha

V : 240 km/soatgacha

W : 270 km/soatgacha

Shinalardagi havo bosimi

Sovuq shinalardagi bosimni har 14 kunda va har bir uzoq masofaga safar qilishdan avval tekshiring. Havo bosimini shu bilan birga ehtiyot g'ildirakda ham tekshirish lozim.



8. G'ildirakni ozgina tushirib, birinchi trosni diskdagi tirqish orqali yig'ishtirib olish mumkin bo'lishi uchun, u bo'ylab mahkamlagichni taxlang.




9. Ikkinchi trosni uzish uchun, g'ildirak kaliti yordamida diskda gaykani bo'shating. Xavfsizlik trosini yechib oling.

10. Almashtirilgan g'ildirakni va instrumentlarni chetga ehtiyotlab olib qo'ying.

Shinalar va g'ildiraklarning turlari. ↪ 9-36 da "Ehtiyot g'ildiragi"ni ko'ring.



Shinalarda havo bosimi ⇨ 11-10 va o'ng oldingi eshikning ramasida joylashtirilgan jadvalchani ko'ring.



- A. Shinalarning texnik xarakteristikalari
- B. Shinalarni o'rnatish joyi
- C. Odatiy yuklamada (3 ta odamgacha)
- D. Yuk bilan to'liq yuklanishda
- E. Ehtiyot g'ildiragi shinasi haqida ma'lumotlar Bosim sovuq shinalar uchun ko'rsatilgan. Ehtiyot shinani to'liq yuklanish uchun ko'rsatilgan bosimgacha ishiring. Shinalarda noto'g'ri bosimda xavfsizlik pasayadi, avtomobil boshqaruvchi va yurish mayinligi yomonlashadi, yonilg'i harajati va shinalarning emirilishi ortadi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Haddan ziyod past bosim shinalarning kuchli qizishiga va protektorning qavatlashishini chaqirish qobiliyatiga ega bo'lgan ularning ichki shikastlanishiga, hamda yuqori tezlikda shinalarning hattoki yirtilib ketishiga ham olib kelishi mumkin.

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi

Ushbu avtomobilda shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) o'rnatilgan bo'lishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimiga (TPMS) biron begona shaxs tomonidan, vakolatlangan servis tashkiloti xodimlaridan tashqari, kiritilgan o'zgartirishlar tizimning ishlatilishiga ruxsatning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

Shinalarda havo bosimini ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilganini qo'llab turilishi, boshqa choralar qatorida, yonilg'ini sarfini kamaytirishga imkon beradi.

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) shinalarda havo bosimini darajasini tekshirish uchun radiotexnologiya va datchiklarni qo'llaydi. TPMS datchiklari avtomobilning shinalaridagi bosimni nazorat qiladi va avtomobilning ichida joylashtirilgan qabul qilgichga bosim ko'rsatkichlarini uzatadi.

Tezlikning ma'lum chegarasidan yuqori avtomobilning harakatlanish tezligida shinalarda bosimni nazorat qilish tizimi har minutda barcha to'rtta shinalardagi bosimni tekshirib turadi.

 **DIQQAT!**

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) shinalarning o'rnatilgan tarzda texnik xizmat ko'rsatilishini almashtirmaydi. Shinalarda o'rnatilgan tarzda havo bosimini, hattoki agar havo bosimi TPMS tizimidan shinalarda havo bosimining pasayganligi nazorat lampasi yonishi uchun yetarlicha bo'lmagan pasayishini qo'llab turish mas'uliyati haydovchi zimmasiga yuklatiladi.

Barcha g'ildiraklar bosim datchiklari bilan jihozlangan bo'lishi, shinalardagi bosim pasport qiymatlariga javob berishi kerak. Shinalardagi, jumladan ehtiyot g'ildiragida ham (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa), havo bosimini har oy tekshirish zarur. Tekshirishni sovuq shinalarni o'tkazish lozim. Zarurat bo'lganida tavsiya bosim bilan jadvalchada ko'rsatilgan qiymatgacha shinalardagi havo bosimini keltirish lozim. (Agar sizning avtomobilingizga o'rnatilgan g'ildiraklarning o'lchamligi ko'rsatilgan jadvalchadan farq qilsa, sizning g'ildiraklaringiz uchun to'g'ri qiymatni o'rnatish lozim bo'ladi).

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi xavfsizlikni oshirishning qo'shimcha vosita hisoblanadi. U o'z tarkibiga past bosim signalizatorini kiritadi, qachonki g'ildiraklardan birida bosim ruxsat etilgan qiymatdan tushib ketganida.

Binobarin, shinalarda havo bosimining pasayishi nazorat lampasi yorishganida avtomobilda harakatlanishni bekor qilish, to'xtash va darhol shinalarni tekshirish va ularni havoning ma'lum bosimigacha ishirish lozim. Juda past havo bosimiga ega bo'lgan shinalar bilan avtomobilda harakatlanish shinalarning ortiqcha qizishiga olib keladi, buning oqibatida shinalarning shikastlanish ehtimoli bor.

Shinada havo bosimining pastligi shu bilan birga yonilg'i sarfini oshiradi, shinalarning protektorini xizmat muddatini qisqartiradi va avtomobilning boshqaruviga va tormozlanish samaradorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

 **DIQQAT!**

Shinalar uchun germetik TPMS tizimi datchigini ishdan chiqarishi mumkin. Shinalar uchun germetikning qo'llanilishi bilan chaqirilgan TPMS datchigining shikastlanishiga kafolat shartlari tarqalmaydi.

Sizning avtomobilingiz shu bilan birga TPMS tizimi nosozligi indikatorini bilan jihozlangan, u ushbu tizimning noto'g'ri ishlashiga ko'rsatadi. TPMS tizimi nosozligi indikatorini shinalarda havo bosimining pasayishinazorat lampasi bilan birlashtirilgan. Agar tizim nosozlikni aniqlasa, bu nazorat lampasi taxminan bir minut davomida miltillab turadi, so'ngra esa doimo yonib turishni davom ettiradi. Signallarning bunday ketma-ketligi avtomobil dvigatelinu ishga tushirishning keyingi tsikllarida ham - toki nosozlik bartaraf etilmagunicha takrorlanib turadi.

Agar nosozlik indikatorini yorishsa, tizim shinalardagi past bosimni aniqlay olmaydi yoki muvofiq signal qanday berilishi kerak bo'lsa, shunday berilmaydi. TPMS tizimidagi nosozliklar har xil sabablar bo'yicha, jumladan TPMS tizimini to'g'ri faoliyat yuritishiga yo'l qo'ymaydigan almashtiriluvchi yoki o'rindosh shinalar yoki g'ildiraklarning avtomobilga o'rnatilishi oqibatida vujudga kelishi mumkin. Avtomobilda bir yoki bir nechta shinalarni yoki g'ildiraklarni almashtirishdan so'ng, almashtiriluvchi yoki o'rindosh shinalar yoki g'ildiraklar TPMS tizimiga to'g'ri faoliyat yuritishiga imkon berayotganligiga ishonch hosil qilib, har doim TPMS tizimining nosozliklari nazorat lampasini tekshirib turing. Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimining faoliyati ⇨ 9-32ni ko'ring.

Shinalarda havo bosimini datchiklarini bog'lash

(agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan o'lsa)

Datchiklar g'ildiraklarga TPMS tizimini dasturlash uchun maxsus instrument yordamida bog'lanadi. Texnik xizmat ko'rsatishni bajarish uchun dilerga murojaat qiling.

Avtomobilning yuklanganligi

Quyidagi bir variantni o'rnatish uchun "SET/CLR"ni tanlang.

Pastki: 3ta odamgacha yuklanganlikda qulay safar qilish uchun

ECO: 3 ta odamgacha yuklanganlikda ECO tartibida safar qilish uchun

Maksimal: to'liq yuklanganlik uchun.

ECO tartibida shinalardagi bosim yonilg'ini sarflanishini maksimal pasaytirishga imkon beradi.

Shinalarda noto'g'ri bosimda xavfsizlik pasayadi, avtomobil boshqaruvchi va yurish mayinligi yomonlashadi, yonilg'i harajati va shinalarning emirilishi ortadi.

Jadvallarda barcha ehtimolli shinalar majmulari uchun shinalardagi havo bosimi ko'rsatilgan. Shinalardagi havo bosimi ↻ 11-10ni ko'ring. Agar shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi bilan jihozlangan avtomobilda shinalardagi bosimni oshirish yoki pasaytirish zarurati bo'lganida, o't oldirishni oldindan o'chir qo'yish lozim. Shinalardagi bosimni zarur bo'lgan darajagacha keltirib, o't oldirishni

yoqing va yuqorida ta'riflangani kabi avtomobil yuklanganligining variantlaridan birini tanlang. Shinalardagi havo bosimi zaruriyigacha tiklangandan so'ng, haydovchining ma'lumot markazi displeyida tiklanguniga qadar biron bir masofani haydab o'tilishi talab etilishi mumkin. Ushbu vaqtda (⚠) signalizatori yonib turishi mumkin.

 **DIQQAT!**

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) shinalarning o'rnatilgan tarzdgagi texnik xizmat ko'rsatilishini almashtirmaydi. Shinalarda o'rnatilgan tarzda havo bosimini, hattoki agar havo bosimi TPMS tizimidan shinalarda havo bosimining pasayganligi nazorat lampasi yonishi uchun yetarlicha bo'lmagan pasayishini qo'llab turish mas'uliyati haydovchi zimmasiga yuklatiladi.

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimining faoliyati

Ushbu avtomobilda shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) o'rnatilgan bo'lishi mumkin. TPMS tizimi shinalarda havo bosimini pasayishi haqida haydovchini ogohlantirish uchun mo'ljallangan.

TPMS datchiklari shina bilan yig'mada har bir g'ildirakda, shina bilan yig'mada ehtiyot g'ildirakdan tashqari, o'rnatilgan. TPMS tizimi datchiklari shinalardagi havo bosimini nazorat qiladi va shinalardagi havo bosimining qiymatlarini avtomobilda joylashtirilgan qabul qilgichga uzatadi.



Shinalarda havo bosimini pasayishi aniqlanishida TPMS tizimi shinalarda havo bosimini pasayishi signal lampasini yoqadi, u asbob-uskunalar majmuasida joylashtirilgan. Agar nazorat lampasi yorishsa, darhol to'xtash va shinalarning turlari va o'lchamlarida va ruxsat etilgan yuklamalar haqidagi ma'lumotli jadvalchada ko'rsatilgan, shinalarda havo bosimining tavsifiya etilgan darajasigacha oshirish zarur. G'ildiraklar va shinalar. ↻ 9-29ni ko'ring.

Haydovchining axborot markazi displeyida aniq shinani tekshirish ko'rsatmasi bilan xabar paydo bo'ladi. Shinalarda havo bosimining pasayishi signal lampasining yorishishi va DIC ogohlantiruvchi xabarining aks ettirilishi o't oldirishning har bir tsiklida, toki shinalardagi havo bosimi talab etilgan darajagacha erishilmaguncha, aks ettirib turiladi. DIC axborot markazi displeyida shinalardagi havo bosimi darajasini ko'rish mumkin. DIC axborot markazi va displeylarning ishi haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni Haydovchining axborot markazi (DIC) ⇨ 4-17da ko'ring.

Shinalarda havo bosimining pasayishi signal lampasi avtomobil dvigatelini birinchi dastlabki ishma tushirilishida sovuq ob-havoda yorishishi mumkin, ammo so'ngra u avtomobil harakatlanishni boshlashi bilan o'chadi. Bu shinalardagi havo bosimi pastkiga yaqinligi haqida dalolat beradi va uni me'yordagi darajagacha albatta keltirish lozim.

Shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotli jadvalchada birinchi dastlabki o'rnatilgan shinalar o'lchami va sovuq shinalarda talab etiluvchi havo bosimi ko'rsatilgan. Shinalarda havo bosimi ⇨ 11-10 bo'limida shinalar, yuklamalar va yuklarning joylashuvi haqidagi ma'lumotli jadvalcha misoli keltirilgan. Shu bilan birga G'ildiraklar va shinalar ⇨ 9-29 bo'limni ko'ring.

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) shinalarda havo bosimini pasayganligi haqida haydovchini ogohlantirishi mumkin, ammo u shinalarga odatiy texnik xizmat ko'rsatishni almashtirmaydi. G'ildiraklar va shinalar ⇨ 9-29 va Shinalarning joyini almashtirish ⇨ 9-35 bo'limlarni ko'ring.

⚠️ **DIQQAT!**

Shinalar uchun germetiklarning materiallari bir xil emas. Qo'llash uchun ruxsat etilmagan shinalar uchun germetik TPMS tizimi datchiklarini ishdan chiqarishi mumkin. Mos kelmaydigan shinalar uchun germetikning qo'llanilishi bilan chaqirilgan TPMS datchigining shikastlanishiga kafolat shartlari tarqalmaydi. Faqat GM kompaniyasi tomonidan qo'llash uchun ruxsat etilgan shinalar uchun germetikni har doim qo'llang, u dilerlar mavjud yoki avtomobil jamlanmasiga kiradi.

Signal lampasi va TPMS tizimi nosozligi haqida xabar

Agar bir yoki bir nechta TPMS datchiklari mavjud bo'lmasa yoki ish qobiliyatiga ega bo'lmasa, TPMS tizimi to'g'ri ishlamaydi. Agar tizim nosozlikni aniqlasa, shinalarda havo bosimining pasayganligi signal lampasi taxminan bir minut davomida mitillashni boshlaydi, so'ngra esa o't oldirish tsiklining qolgan qismi davomida doimo yorishib turishni davom ettiradi. Bundan tashqari, haydovchining axborot markaziga (DIC) ogohlantiruvchi xabar chiqariladi. Nosozlik signal lampasining yorishishi va DICning ogohlantiruvchi xabarining aks ettirilishi nosozlik bartaraf etilgunga qadar o't oldirishning har bir tsiklida amalga oshadi. Nosozlik lampasining yorishishiga va ogohlantiruvchi signalning paydo bo'lishiga olib keluvchi sharoitlarning bir nechtasini sanab o'tamiz:

- Avtomobilning shtat g'ildiraklaridan biri ehtiyot g'ildiragiga almashtirilgan. Ehtiyot g'ildiragi TPMS datchigi bilan jihatlanmagan. Shtat g'ildiragi o'z joyiga o'rnatilishi bilanoq, nosozlik signalizatori o'chishi, haydovchining axborot markazi displeyida esa xabar g'oyib bo'lishi kerak. "Shinalarda havo bosimining datchiklarini bog'lash tartibini" ushbu bo'limning davomida ko'ring.
- G'ildiraklarning joyini almashtirishdan so'ng shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi datchiklarining bog'lanish muolajasi bajarilmagan yoki to'g'ri yakunlanmagan.

Tizim datchiklarini bog'lash muolajasi to'g'ri bajarilishi bilanoq, nosozlik indikatorini o'chishi, haydovchining axborot markazi displeyida esa xabar g'oyib bo'lishi kerak. "Shinalarda havo bosimining datchiklarini bog'lash tartibini" ushbu bo'limning davomida ko'ring.

- TPMS datchiklaridan biri yoki bir nechta mavjud emas yoki shikastlangan. Datchiklar o'rnatilishi va tizimning datchiklarini bog'lash muolajasi to'g'ri bajarilishi bilanoq, haydovchining axborot markazi displeyida xabar yo'qolishi, nosozlik signalizatori esa o'chishi kerak. Texnik xizmat ko'rsatishni bajarish uchun dilerga murojaat qiling.
- Almashtiriluvchi shinalar yoki g'ildiraklar birinchi dastlabki o'rnatilgan shinalarga yoki g'ildiraklarga muvofiq emas. Tavsiya etilganlardan farqlanuvchi shinalar va g'ildiraklar TPMS tizimining to'g'ri ishiga xalaqit berishi mumkin. Eski shinalarni yangisiga qachon almashtirish kerak ↻ 9-36ni ko'ring.
- Elektron qurilmalarning ishi yoki TPMS tizimi tomonidan nurlantiruvchi o'xshash nurlanishdagi radiochastotalar nurlantiruvchi asbob-uskunalarining yaqinida mavjudligi, TPMS datchigining ishida buzilishga olib kelishi mumkin.

Agar TPMS tizimi noto'g'ri ishlayotgan bo'lsa, shinada havo bosimining pasayishi holatini aniqlamaydi va/yoki u haqida signallashtirmaydi. Agar TPMS tizimining nosozligi signal lampasi doimo yorishib turgan bo'lsa va DIC displeyida ogohlantiruvchi xabar g'oyib bo'lmaganida, u holda avtomobilning texnik xizmat ko'rsatilishi uchun dilerga murojaat qiling.

Shinalarda havo bosimini datchiklarini bog'lash tartibi

TPMSning har bir datchigi noyob identifikatsion kodga ega. G'ildiraklarni joyini o'zgartirish yoki bir yoki bir nechta datchiklarni almashtirishdan so'ng muvofiq g'ildirakka identifikatsion kodni yozib qo'yish muolajasini bajarish zarur. Bosim datchiklarini bog'lash muolajasini shu bilan birga ehtiyot g'ildiragini bosim datchigi bilan jamlangan oddiy g'ildirakka almashtirishdan so'ng bajarish kerak. O't oldirishning keyingi tsiklida TPMS tizimining nosozlik signal lampasi o'chishi va DIC displeyida ogohlantirish xabari g'oyib bo'lishi kerak.

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimini dasturlash uchun maxsus instrument yordamida g'ildiraklarga datchiklarni bog'lanishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: haydovchi tomonida oldingi g'ildirak, yo'lovchi tomonida oldingi g'ildirak, yo'lovchi tomonidan orqa g'ildirak, haydovchi tomonidan orqa g'ildirak.

Texnik xizmat ko'rsatishni bajarish uchun dilerga murojaat qiling.

Protektor chuqurligi

Protektor tasvirining chuqurligini muntazam tekshirib turing.


Protektor balandligi 1,6 mm balandlikkacha yemirilishida shinani yangisiga almashtirish zarur.



Protektor tasvirining qoidalari bilan o'rnatilgan minimal chuqurlik (1,6 mm) emirilish indikatorining (TWI) paydo bo'lishiga muvofiq bo'ladi. Indikatorlarning joylari pokrishkaning yon tomonida belgilangan.

Shinalarning eskirishi hattoki, agar ular qo'llanilmayotgan holatda ham amalga oshadi. Shinalarni har 6 yilda almashtirish tavsiya etiladi.

Shinalarning joyini o'zgartirish



Oldingi va orqa shinalarga ta'sir qiluvchi kuchlarning farqi sababli, ular turlicha yediriladi. Yedirilish xarakteri bir nechta omillarga, jumladan yo'l qoplamasiga, haydash yo'sini, g'ildiraklarning sxoljdeniyasi/razvalini sozlash, g'ildiraklarni balansirovkasi, shinalardagi bosim va hokazolarga bog'liq.

Avtomobil egasi avtomobil eskirishini kuzatib borishi, jumladan kamida 10 000 km yo'l bosib o'tilgandan keyin g'ildiraklarni muntazam o'rni almashtirib turishi kerak. G'ildiraklarning joyini almashtirish protektorlarining bir tekis emirilishi va shinalarning uzoq muddat xizmat qilishini ta'minlash uchun juda muhim.

G'ildiraklarning joyini almashtirish sxemasi tasvirda ko'rsatilgan.

Shinalarning holati - bu Chevrolet servis-markaziga tashrif buyurishda tekshiriladigan tomonlardan biri. Bunda servis-markazining mutaxassislari sizning avtomobilingizni xavfsizligiga xavf solishi va uning ishlatish xarakteristikalarini yomonlashtirishi mumkin bo'lgan notekis yemirilishning alomatlarini tekshirishlari mumkin.

G'ildiraklarni joyini almashtirishda hech qanday holatda vaqtinchalik ehtiyot g'ildiragini qo'llamang, chunki u boshqa o'lchamga ega.

⚠ **DIQQAT!**

- Shinalarning rezinasi vaqt o'tishi bilan eskiradi va o'zining ishlatish xarakteristikalarini yo'qotadi. Bu shu bilan birga ehtiyot g'ildiragining shinasiga ham, hattoki agar u ishlatilmayotgan bo'lsa ham taalluqli bo'ladi.
- Shinalarning eskirishi ishlatishning turli omillariga, jumladan harorat, yuklama va havo to'lidirish bosimiga bog'liq bo'ladi.
- Yemirilishni baholash uchun, shinalarni ishlab chiqaruvchining servisida muntazam ko'rikdan o'tkazish zarur bo'ladi.
- 6 yil davomida ishlatilmagan ehtiyot g'ildiragini, faqat shoshilinch vaziyatlarda qo'llash mumkin. Agar sizga bunday g'ildirakni qo'llash zarur bo'lsa, past tezlikda harakatlating.

Eski shinalarni yangisiga qachon almashtirish kerak

Kesilishlar, yon tomonlarda g'urralar yoki boshqa nuqsonlar aniqlanganda shinani yangisiga almashtirish zarur.



Shinalar shu bilan birga 3 mm balandlikda protektorlarning yemirilishida majburiy almashtirilishi lozim. Tasvirda protektorning balandligini qanday o'lchash mumkinligi ko'rsatilgan.

⚠ **DIQQAT!**

- Protektor chuqurligi 1,6 mmdan katta bo'lishi kerak. Bu ma'lumot TWI (Tread Wear Indicators) qisqartmadan so'ng shinning yon biqinida ko'rsatilgan.
- Yemirilgan shinalarda akvaharakatlanish va chetga olib chiqish xavfi oshadi.

Izoh

Almashtirishda xuddi o'sha markadagi va xuddi o'sha o'lchamdagi shinani qo'llang. Bir ko'prikda barcha shinalarni bir vaqtda almashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shinalar va g'ildiraklarning turlari

Zavodda o'rnatilgandan o'lcham bo'yicha farq qiluvchi shinalarni qo'llashda, spidometrni qayta dasturlash, shinalarda havo bosimining nominal qiymatini o'zgartirish va boshqa o'zgaritirishlarni kiritish talab etilishi mumkin.

Boshqa o'lchamdagi shinalarni o'rnatgandan so'ng, shinalarda havo bosimi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan jadvalchani yangisiga almashtiring.

 OGOHLANTIRISH!

Mos kelmaydigan shinalarni yoki g'ildiraklarni qo'llanilishi avariya sababchisi bo'lib qolishi mumkin; bunda vujudga kelgan zarar avtomobilning kafolati bilan qoplanmaydi.

 OGOHLANTIRISH!

Avtomobilga birinchi dastlabki paytda o'rnatilgan o'lchami va turi bo'yicha farqlanuvchi shinalarni va g'ildirak diskklarini qo'llamang. Bu avtomobilning xavfsizligiga va ishlatish xarakteristikalariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bu shu bilan birga boshqaruvning yo'qotilishiga yoki jiddiy jarohatlar etkazish bilan ag'darib ketishga olib kelishi mumkin. Shinalarni almashtirishda barcha to'rtta o'rnatiluvchi shinalar va g'ildiraklar bir xil o'lchamga, turga, protektor tasvirining chuqurligiga, ishlab chiqaruvchiga va ruxsat etilgan yuklamaga ega bo'lishini kuzating. Har qanday boshqa o'lchamda va turda shinalarning qo'llanilishi yurish sifatini, boshqaruvni, yo'l tirqishini, kuzov va g'ildirak orasidagi oraliq masofani, tormozlanish yo'li va spidometr ko'rsatmalarining aniqligini jiddiy yomonlashtirishi mumkin.

G'ildiraklarning qalpoqlari

Muvofiq avtomobil uchun va g'ildirak diskklarining va shinalarning ushbu birikmasining barcha talablarini qoniqtiruvchi ishlab chiqaruvchi tomonidan tayinlangan g'ildirak qalpoqlarini va shinalarini qo'llash zarur.

Agar g'ildiraklarning qalpog'i va qo'llaniluvchi shinalar ishlab chiqaruvchi-zavod tomonidan maqullanmagan bo'lsa, u holda shinalar gardishining himoya qovurg'asiga ega bo'lmasligi kerak.

G'ildirak qalpoqlari tormozning sovutilishiga xalaqit bermasligi kerak.

 OGOHLANTIRISH!

Mos kelmaydigan g'ildirak qalpoqlarining va shinalarning qo'llanilishi bosimning to'satdan yo'qotilishi va bu bilan bog'liq avariya sababchisi bo'lib qolishi mumkin.


G'ildirak disklarini almashtirish


Izoh

Agar avtomobil shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, g'ildirakni almashtirishdan so'ng, toki g'ildirak ta'mirlanmagunicha yoki havo bosimi datchigi boshqa g'ildirakka o'tkazilmagunicha va datchiklarning qayta dasturlanish muolajasi bajarilmagunicha, tizim to'g'ri ishlamaydi. Datchiklarni qayta dasturlanishini bajarish uchun dilerga murojaat qiling. Quyidagi tayyorgarlik ishlarini bajaring va quyidagi ko'rsatmalarga rioya qiling:

OGOHLANTIRISH!

Avtomobilni domkrat bilan ko'tarishda barcha yo'lovchilar uni tark etishlari kerak. Avtomobilni domkrat bilan faqat qattiq gorizontaal yuzada ko'taring.

- Avtomobilni tekis, mustahkam va sirpanchiq bo'lmagan yuzaga xavfsiz joyga joylashtiring.
-  tugmani bosing



Ponaning joylashishi

Tushiril-gan	Holati	Avtomobilning joylashgan joyi
Oldingi	Chap tomon	O'ng orqa g'ildirak ortida
	O'ng tomon	Chap orqa g'ildirak ortida


Ponaning joylashishi (davomi)

Tushiril-gan	Holati	Avtomobilning joylashgan joyi
Orqada	Chap tomon	Oldingi o'ng g'ildirak oldida
	O'ng tomon	Oldingi chap g'ildirak oldida

- To'xtab turish tormozini yoqing, birinchi yuritmani, orqaga yurish yuritmasini tanlang yoki selektorni **P** holat yuritmasiga o'rnatib.
- Ehtiyot g'ildirakni yechib oling, ushbu bo'limdagi "Ehtiyot g'ildirak"ni ko'ring.
- Bir vaqtning o'zida bittadan ko'p g'ildirakni almashtirish lozim bo'lmaydi.
- Domkratni yozgi shinalarni qishkiga almashtirish, yoki teskarisi uchun emas, balki faqat teshilish holatida g'ildirakni almashtirish uchun qo'llang.
- Ko'tarilgan avtomobilda odamlar yoki hayvonlar bo'lmasligi kerak.
- Domkrat bilan ko'tarilgan avtomobil ostiga kirmang.
- Ko'tarilgan avtomobilda dvigatelni ishg'a tushirmang.
- G'ildirakni o'rnatishdan avval, g'ildirakni mahkamlash gaykalarini va rezbani tozalang.



1. G'ildirak kalitini soat strelkasiga qarshi aylantirib, g'ildirakning barcha qotirish gaykalarini bo'shating. Gaykalarni to'liq burab qotirmang.



Agar domkrat oldingi g'ildirak ostiga o'rnatilayotgan bo'lsa, uning panjasini maydon 1 ostiga keltiring.

Agar domkrat orqa g'ildirak ostiga o'rnatilayotgan bo'lsa, uning panjasini orqa ko'priq ostiga keltiring 2.


⚠ XAVFLI

Domkrat bilan ko'tarilgan avtomobil ostiga kirish xavfli. Agar avtomobil domkratdan sirpanib ketsa, siz jiddiy jarohat olishingiz yoki hattoki o'lim topishingiz mumkin. Domkrat bilan ko'tarilgan va faqat domkratga tiralayotgan avtomobil ostiga kirish taqiqlanadi.

2. Domkrat ishlab chiqaruvchi tomonidan ko'zda tutilgan joylarda qat'iy o'rnatilishi kerak.



⚠ OGOHLANTIRISH!

Noto'g'ri o'rnatilgan domkrat bilan avtomobilni ko'tarish avtomobilni shikastlashi va hattoki uning ag'darilib ketishiga olib kelishi mumkin. Jarohat olishdan va avtomobilga ziyon yetkazilishidan saqlanish uchun, avtomobilni ko'tarishdan avval domkratning ko'tarish boshchasini kuzovdagi o'rnatilgan joyga o'rnatish kerak.

Oldingi g'ildirakni osish

Agar oldingi g'ildirakning shinasi teshilgan bo'lsa, domkratni ramada ushbu maydon uchun

maxsus mo'ljallangan g'ildirak arka ortiga o'rnatish lozim.


Orqa g'ildirakni osish

Agar orqa g'ildirakning shinasi teshilgan bo'lsa, domkratni amortizator ustunchasiga iloji boricha yaqinroq orqa ko'prikkaga o'rnatish lozim.
 3. Orqa ko'prik ostiga domkratni o'rnatayotganda, domkrat panjasidagi kesik ko'prikkaga aniq tushishi uchun kuzatib boring. Domkrat tutqichini o'rnatib va, domkratning holatini kuzatib, uni, toki g'ildirak erdan uzilgunga qadar aylantiring.
 4. G'ildirak mahkamlanishining gaykalarini bo'shatib oling.
 5. Shinasi teshilgan g'ildirakni yechib oling.
 6. G'ildirak boltlaridan, montaj yuzalardan va ehtiyot g'ildiragidan har qanday zangni yoki ifloslarni olib tashlang.
 7. Ehtiyot g'ildiragini o'rnatib.

 XAVFLI

<p>Boltlarni yoki gaykalarni moy bilan moylash taqiqlanadi, chunki gaykalar bo'shab qolishi mumkin. Avtomobil g'ildiragi tushib ketishi mumkin, bu o'lim oqibatli avariya olib kelishi mumkin.</p>
--

8. Gaykalarni burang va g'ildirak diskining tayanch yuzasi gupchakiga yopishib turishi uchun ularni qo'lida qotiring.
 9. Kalitni soat strelkasiga qarshi aylantirib, avtomobilni erga tushiring.



10. G'ildirak gaykalarini bir-birlariga kesishtirib burab qotiring (1, 2, 3, 4, 5, 6).

Tortib qotirish maqomini "Yonilg'i quyish idishlari" ⇨ 11-8" bo'limida ko'ring.

11. Almashtirilgan g'ildirakni va avtomobil instrumentlarini olib qo'ying, Instrument ⇨ 9-27ni ko'ring.

12. Iloji boricha tezroq o'rnatilgan shinadagi bosimni va g'ildirak gaykalarining tortib qotirish maqomini tekshiring.

Nosoz shinani almashtiring yoki ta'mirlang.

Ehtiyot g'ildiragi

Avtomobil kichraytirilgan o'lchamdagi ehtiyot g'ildiragi bilan jamlangan. Uning o'lchamlari, tavsiya etilgan havo bosimi va xizmat muddati qolgan g'ildiraklardagi shundaylardan farq qilishi mumkin.

Shuning uchun undan faqat shoshilinch holatlarda qo'llash va oddiysiga shikastlanganni ta'mirlash yoki yangi g'ildirakni sotib olishdan so'ng darhol almashtirish lozim. Kichraytirilgan o'lchamdagi ehtiyot g'ildiragini 100 km dan ortiq uzoqlikdagi safarlar uchun qo'llash lozim bo'lmaydi.

Kichraytirilgan o'lchamdagi ehtiyot g'ildiragini o'rnatilishi avtomobilning o'zini tutishiga, ayniqsa burilishlarda va tormozlanishda, ta'sir qilishi mumkin. Bunda sizning avtomobilingizning xavfsizligi, agar tezlikni 80 km/soatdan oshirilmasa, a'ziyat chekmaydi. Kichraytirilgan o'lchamdagi ehtiyot g'ildiragi qo'llangan diskga ega.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Kichraytirilgan o'lchamdagi ehtiyot g'ildiragida 80 km/soat tezlikda va 100 km dan uzoq bo'lmagan masofa harakatlanish mumkin.

1. Domkrat tutqichining yassi uchini burchak ostida yukxona bo'linmasining poli qoplamasi markaziga va so'ngra yo'naltiruvchi ariqchaga o'rnatish.

2. Ehtiyot g'ildirakni erga tushirish uchun, g'ildirak kalitini soat strelkasiga qarshi aylantiring. Kalitni toki g'ildirakni avtomobil ostidan chiqarib olish uchun uni iloji paydo bo'lgunga qadar aylantirishda davom eting.

3. G'ildirak pastga tushgan vaqtda, trosni diskdagi tirqish orqali yig'ishtirib olish mumkin bo'lishi uchun, tros bo'ylab mahkamlagichni taxlang.

4. Xavfsizlik trosining gaykasini soat strelkasiga qarshi aylantirib, uni yechib oling. Xavfsizlik trosini yechib oling.

Bo'shshagan yoki ehtiyot g'ildiragini va instrumentlarni saqlash

⚠ OGOHLANTIRISH!

Domkrat, g'ildirak va boshqa asbob-uskunalarni avtomobil salonida saqlanishi odamlarning jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning keskin to'xtashida yoki avariyasida mahkamlanmagan asbob-uskunalar biron bir odamga zarba keltirishi mumkin. Barcha ushbu asbob-uskunalarni o'rnatilgan joyda saqlang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

G'ildiraklarni saqlash qoidalariga rioya etmaslik tros uzilishi yoki g'ildirak mahkamlanishining bo'shab ketishi oqibatida jarohat olishga yoki mulkka ziyon yetkazishga olib kelishi mumkin. Harakatlanishni boshlashdan avval g'ildirak ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.

⚠️ DIQQAT!

Agar ehtiyot g'ildiragi alyumin diskli va shinasining havosi chiqarib yuborilgan yoki nippeli tepaga yo'naltirib uzoq vaqt avtomobil tubida saqlanayotgan bo'lsa, bu g'ildirakning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Diskni nippelni pastga qaratib mahkamlang va iloji boricha tezroq shikastlangan diskni/teshilgan shinani ta'mirlating.

⚠️ DIQQAT!

Agar chig'irni qo'llashda trosni tortilmasa, uni shikastlash mumkin. Kerakli taranglikni ta'minlash uchun, chig'irni faqat unga ehtiyot g'ildiragi yoki asosiy g'ildirak osilgandagina qo'llash lozim bo'ladi.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Yomon mahkamlangan ehtiyot g'ildiragi bo'shab ketishi va YTH sababchisi bo'lib qolishi mumkin. Jarohatlanish yoki mulkning shikastlanishi ehtimolini istisno qilish uchun, ehtiyot g'ildiragini faqat avtomobil tekis yuzada turgan vaqtdagina mahkamlash zarur.

Ehtiyot g'ildirakni maxsus mahkamlagichda avtomobilning orqa qismida tubida saqlash lozim.


1. G'ildirakning yukxona bo'linmasi ostidagi ergajoylang.
2. Prujinali trosni (yoki zanjirni) diskning markazidagi tirqish orqali kiriting. Mahkamlash plastinasini engashtiring va disk markazidagi tirqish orqali kiriting. Mahkamlash plastinasi diskga ishonchli pastdan tiralib turganligiga ishonch hosil qiling.
3. Buragich yordamida g'ildirak kalitini, domkrat uchun qo'shimchalarni va tutqichni yig'ing.

⚠️ DIQQAT!

Chig'ir bilan pnevmatik gaykaburagichlarni yoki boshqa o'xshash instrumentlarni qo'llash tavsiya etilmaydi, chunki bu tizimni shikastlashi mumkin. Faqat chig'ir bilan jamlanmada keladigan instrumentlardan foydalaning.

4. Agar sizda pikap bo'lsa, qopqoqni yeching va orqa bamporning markazidagi tirqishga burchak ostida domkrat tutqichining yassi uchini va so'ngra yo'naltiruvchi ariqchaga o'rnatning. Agar sizda krossover bo'lsa, domkrating tutqichini fason uchini tirqish orqali o'tkazing va uni uyachaga o'rnatning. Instrument 9-27ni ko'ring.
5. G'ildirakni ko'taring. Mahkamlovchi plastina diskdagi tirqishda ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.
6. G'ildirakni ko'taring va g'ildirak kalitini soat strelkasi bo'yicha aylantirib, toki ikki chertkini eshitmaguncha yoki g'ildirak boshqa

yurmayotganligini his qilmagunizcha, uni avtomobilning tubiga torting. Trosni yoki zanjirni tortish mumkin emas.



7. G'ildirak ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. G'ildirakni torting, uni tebrating va aylantirishga urinib ko'ring. Agar g'ildirak aylanayotgan bo'lsa, trosni yoki zanjirni kalit bilan torting. Shinalardagi havo bosimini ko'zda tutilgan reglamentga binoan keyingi safar tekshirayotganingizda yoki xizmat ko'rsatish vaqtida boshqa komponentlarga kirish imkonini olish uchun ehtiyot g'ildirakni yechib olish talab etilganida, g'ildirakning mahkamlanishining ishonchligini tekshiring.
8. Ehtiyot g'ildirakning qulfini o'z joyiga o'rnatning, agar u jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa.

QO'SHIMCHA AKBDAN ISHGA TUSHIRISH

Domkratni va haydovchining instrumentlarini teskari tartibda o'z joyiga joylang.

Quvvatsizlangan akkumulyator batareyadan avtomobilni ishga tushirish uchun, simlar orqali boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasiga ulaning. Buni quyida keltirilgan ko'rsatmalarga rioya qilgan holda maksimal ehtiyotkorlik bilan qilish zarur.



OGOHLANTIRISH!

Tashqi manbadan ishga tushirishda qat'iy diqqatli bo'ling. Quyida keltirilgan tavsiyalardan har qanday chetlashish akkumulyator batareyasining portlashi natijasida jarohatga yoki shikastlanishlarga va ikkala avtomobillarning elektr asbob-uskunalarining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.




OGOHLANTIRISH!

